

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASINI O'RGANISH**

M.Rustamboyev, D.Ahmedov,
S.Xidirov, I.Bekov



Mirzayusuf Rustamboyev, Davron Ahmedov,
Sadriddin Xidirov, Ixtiyor Bekov

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASINI
O'RGANISH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

730
342 (075)
932

**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASINI
O'RGANISH**

*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan bakalavriatning
barcha yo'nalishlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*



**Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2005**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan ma'qullangan**

Darslik O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va u asosida qabul qilingan qonunlarga tayangan holda yozilgan bo'lib, unda Konstitutsiyaviy institutlar va normalarning ahamiyati, inson huquq va erkinliklari, burchlari va kafolatlari haqida, shuningdek, 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijalariga ko'ra hamda uning asosida qabul qilingan 2003-yil 24-apreldagi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq Konstitutsiyamizning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan normalar mohiyati, davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar o'z ifodasini topgan.

Darslik barcha oliy o'quv yurtlarining bakalavr yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Ozod Husanov, yuridik fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Abdujabbor To'laganov, yuridik fanlari doktori, professor

Aziz Cho'liyev, yuridik fanlari nomzodi

ISBN 5-633-01818-4

© Mirzayusuf Rustamboyev, Davron Ahmedov, Sadriddin Xidirov, Ixtiyor Bekov. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». «Yangi asr avlodi», 2005-yil

SO'Z BOSHI

O'zbek milliy davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayangan holda milliy davlatchiligimizning Konstitutsiyaviy huquqiy jihatlarini takomillashtirib borayotganligimizdan faxrlansak arziydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish — butun O'zbekiston xalqining muqaddas burchidir. Bizga tarixdan ma'lumki, qadim zamonlardan beri insoniyat adolat va huquqiy kafolat uchun kurashib kelgan. Hozirgi davrimizda ham bu muammoni hal etish yo'llarini belgilash va hayotga tatbiq etish dolzarbligicha qolmoqda. Mamlakatimizning asosiy Qonuni bo'lmish O'zbekiston Konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no-mazmuni va mohiyatini o'rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalash hamda yuksaltirish, shuningdek, Konstitutsiyani bilish, uning mazmunini targ'ib va tashviq qilish, jamiyatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish dolzarb voqelikdir.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatni qurish ko'p jihatdan huquqiy ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishga bog'liqdir. Huquqiy bilimlarni keng targ'ib qilish va siyosiy-huquqiy madaniyatni uyg'unlashtirish, inson huquqlari ustuvor bo'lgan jamiyatni barpo etishda hamda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlatimizning asosiy Qonunida Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining deyarli barcha prinsipial qoidalari o'z aksini topgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlanganidek, yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizimning yetukligining ifodasidir.

Ushbu kitob asosida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar zahirida oliy o'quv yurtlari

talabalarining Konstitutsiyani o'rganishi — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvardagi farmoyishi ijrosini ta'minlashning amaliy ifodasi hisoblanadi. Farmoyish asosida 2001-yil 1-sentabrdan boshlab mamlakatimizda uzluksiz huquqiy ta'limni bog'chadan to oliy o'quv yurtlarining eng yuqori ta'lim bosqichi- magistraturagacha Konstitutsiyani o'rganish tashkil etildi. 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijalariga ko'ra davlat hokimiyati tizimi isloh qilindi. 2003-yil 24-apreldagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tegishli tartibda tuzatish va qo'shimchalar kiritildi.

Ijro hokimiyatining funksional vazifalari belgilandi. Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi me'yoriy larida ko'rsatib o'tilgan tartiblar asosida tashkil qilindi.

Mamlakatimiz hayotida inson huquq va erkinliklari kafolati sifatida sud-huquq islohotlari amalga oshirilmoqda. Sud tizimi ixtisoslashuvi amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi.

Mazkur kitob talabalarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini o'rgatishga hamda yosh avlodning qonunlarga hurmat bilan qarashiga xizmat qiladi.

BIRINCHI BO'LIM

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI — DAVLATNING ASOSIY QONUNI

I BOB

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI O'RGANISH KURSINING MAQSADI VA VAZIFALARI

1-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursining tushunchasi va predmeti

Dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir shaxs, hech bir fuqaro o'z ijtimoiy-shaxsiy hayotini, o'zining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur qila olmaydi. Chunki har bir shaxs kundalik hayotida Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklariga bevosita murojaat qiladi hamda ushbu Asosiy qonunga o'zining huquq va erkinliklarini kafolatlab beruvchi oliy yuridik hujjat sifatida qaraydi. Shuning uchun ham demokratik jamiyatda yashayotgan har bir shaxs Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishi hamda shaxsiy hayotida uchrab turadigan muammolarning yechimini aynan Konstitutsiyadan topa bilishi zarur.

Ma'lumki, demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidagi eng dastlabki va eng muhim qadam Konstitutsiyani o'rganish hamda uni hayotga tatbiq etishdan boshlanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvarda e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi farmoyishi ham demokratiya yo'lida ulkan bir qadam qo'yish uchun katta

turtki bo'ldi. Darhaqiqat, ko'p narsa mamlakatda Konstitutsiyani ommaviy ravishda o'rganish hamda uni hayotga tatbiq etishga bog'liq. Mana shu maqsadda davlatimiz rahbari I. Karimov O'zbekiston Konstitutsiyasini bolalar bog'chasidan boshlab o'rgatish, maktablarda darslik tariqasida o'qitish hamda oliy o'quv yurtlarida esa maxsus dars sifatida o'rganishni vazifa qilib qo'ydi.

Shundan kelib chiqib, farmoyish asosida 2001-yil 1-sentabrdan mamlakatimizda uzluksiz huquqiy ta'limning asosi hisoblanmish Konstitutsiyani o'rganish bog'chadan boshlab to oliy ta'limning yuqori bosqichi hisoblanadigan magistraturagacha tashkil etildi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish butun O'zbekiston xalqining yuksak va mas'uliyatli burchidir.

Konstitutsiya — Asosiy qonun sifatida barcha qonunchilik sohalarining bosh manbai hisoblanadi, chunki Konstitutsiyada xalqning oliy irodasi o'zining qonuniy ifodasi hamda muxtasar bayonini topadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hokimiyat bilan shaxsning o'zaro munosabatlarini, davlat idoralari tizimining faoliyat yuritishini tartibga soluvchi, fuqarolarning huquqiy maqomini, shuningdek, jamiyatning boshqa ijtimoiy tuzilmalari holatini belgilovchi huquqiy normalar yig'indisi o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursining predmeti — bu Konstitutsiyaviy institutlar haqida tasavvurlar va bilimlar, Konstitutsiyaviy normalar va ular orqali tartibga solinadigan munosabatlar tizimidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursi o'ziga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzum asoslari, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, ularning kafolatlari va burchlari, ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi, saylov tizimi, hokimiyat va davlat organlari tizimini tashkil etish hamda faoliyatining asosiy prinsiplarini, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish asoslarini mustahkamlaydi.

Demak, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursi o'ziga xos predmetga ega.

Uning predmetini asosan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursi — shaxs, jamiyat va davlat o'rtasida vujudga keladigan va davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida paydo

bo'ladigan, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi (yig'indisi)dir.

2-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursining metodologik asoslari

Ushbu kursni o'rganishda bilish nazariyasining quyidagi uslub (metod)lar keng qo'llaniladi:

1. Tarixiy uslub — Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning nima uchun va qanday vujudga kelganligi, rivojlanganligini tahlil qilib, ularning mohiyati va vazifalarini ochib beradi;

2. Qiyosiy uslub — boshqa huquqiy tizimlarni huquqiy tartibga solish mexanizmini o'rganib, huquqiy normalarining samarali modelini yaratishga imkon beradi;

3. Tizimli uslub — huquqni yagona tizim sifatida uning normalari, institutlari va boshqa huquqiy hodisalar o'rtasidagi aloqalarini o'rganish orqali huquq sohasini takomillashtiradi;

4. Sotsiologik uslub — huquqiy normalarni ijtimoiy munosabatlarga nisbatan jamoat munosabatini o'rganish orqali huquqiy normalarni takomillashtirishga imkon yaratadi;

5. Statistik uslub — normalarni amalga oshirish natijalari va ko'rsatkichlarini yig'ish va ularni tahlil qilish orqali huquqiy normalar samaradorligini kuzatishga, o'rganishga imkon yaratadi;

6. Shakliy yuridik usul — soha, institutlar va normalar ichki tuzilishi, normaning shakliy aniqligini, ularni tizimlashtirishni tahlil qiladi.

3-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursining manbalari

Davlat hokimiyati jamiyat ehtiyojlaridan va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish yo'nalishlaridan kelib chiqib huquqiy normalarni qabul qildi. Har qanday Konstitutsiyaviy normada davlat hokimiyatining muayyan irodasi o'z ifodasini topadi.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursi manbalaridan biri bu — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat va jamiyat tuzilishi, davlat siyosatining yo'nalishlari, inson va fuqarolarning huquqiy holati, milliy davlat ma'muriy-hududiy tuzilishi, davlat organlarining tashkil topishi va

faoliyatining asosiy prinsiplari, yuridik asoslar mustahkamlangan. Konstitutsiya yuridik kuchi bo'yicha davlatning hamma huquqiy normalaridan yuqori turadi va o'zining ba'zi normalari bilan huquqning boshqa tarmoqlari uchun manba vazifasini bajaradi.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi ham manba hisoblanadi.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan Konstitutsiyaviy va joriy qonunlar ham manba bo'ladi. Konstitutsiyaviy qonunlarda Konstitutsiyaviy normalarga aniqlik kiritish ularni mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilish tartibi joriy qonunlarni qabul qilishdan farq qiladi. Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 2/3 qismi ovoz berishi talab etiladi, joriy qonunlarni qabul qilishda esa deputatlarning ovoz berishi yetarli bo'ladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va farmoyishlari ham manbalar sirasiga kiradi. Farmon faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq va ularning ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilinadi. Davlat qurilishi va jamiyat hayotini isloh qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan muhim farmon, qaror va farmoyishlar qabul qilinmoqda.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar ham manba hisoblanadi. Bunday qarorlarda Respublika Prezidenti tomonidan belgilangan vazifalar huquqiy asosda batafsil yoritilib beriladi va aniq chora-tadbirlar bilan mustahkamlanadi.

6. Mahalliy hokimiyatning ba'zi bir qarorlari ham manba bo'lishi mumkin. Bunday qarorlarga xalq deputatlarining Kengashlari tomonidan tasdiqlangan, Kengashlarning qo'mita va komissiyalari, deputatlar guruhlari to'g'risidagi nizomlar, ularning ish tartiblarini tasdiqlovchi qarorlar misol bo'ladi. Mahalliy vakillik va ijroiya organlarining hujjatlari Konstitutsiya, qonun, farmon, hukumat qarorlari, markaziy davlat boshqaruv organlari hujjatlariga muvofiq va ularning ijrosini ta'minlash uchun chiqariladi. Ular o'z hududi doirasida Konstitutsiyaviy huquq predmetiga kiruvchi masalalarni tartibga soladi.

Ushbu kursning manbalari Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan.

4-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursining vazifasi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursini o'qitishdan maqsad talabalarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Asosiy Qonun sifatida jamiyat va davlat hayotida tutgan o'rnini, fuqarolarning huquq va erkinliklari, burchlarini, Konstitutsiyaviy qonunlar va huquq manbalarining xususiyati to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursining vazifalari: talabalarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati, fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish, davlat mustaqilligining huquqiy asoslari, fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari, davlat hokimiyati tashkil etish tamoyillari, oliy va mahalliy davlat organlari faoliyati va ularning tizimi, demokratik institutlardan biri hisoblangan saylov tizimi va uning mazmuni, davlat hokimiyati va sud-huquq tizimidagi o'zgarishlarni yaqindan tanishtirishdan iborat.

Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida, xususan, 2002-2005-yillar orasida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishi sohasida juda ko'p islohotlar amalga oshirildi hamda bir qancha yangi qonunlar qabul qilindi. Shundan kelib chiqqan holda aytish lozimki, ushbu qo'llanmada quyidagi yangi huquqiy islohotlar, o'zgarishlar o'z aksini topdi:

— O'zbekiston tarixida birinchi marta davlat hokimiyati tizimida ikki palatali parlament tizimi qaror topdi hamda Prezidentning ayrim vakolatlari parlamentga o'tdi;

— Prezidentning vakolat muddati uzaytirildi;

— Ijro hokimiyati tarkibi yangidan tashkil etilib, uning vazifalari aniq yo'naltirildi;

— Davlat hokimiyatining shakllanishida muhim institut hisoblangan saylov tizimida ayrim o'zgarishlar ro'y berdi;

— Sud-huquq tizimi tubdan liberallashtirildi.

Ushbu qo'llanma talabalarining Konstitutsiyaviy-huquqiy ongi yuksalishi hamda huquqiy madaniyatining shakllanishida baholi qudrat xizmat qiladi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, **Konstitutsiyaning asosiy mohiyati shundaki, u jamiyat va uning a'zolari oldiga maqsad qo'yadi. Ana shu ezgu maqsadga erishishning yo'llarini o'zida mujassam etadi. Shu o'rinda davlat, oila va jamiyat manfaatlari, soddaroq qilib aytsak, davlat va inson manfaatlari uyg'unlashib ketmas ekan, rivojlanish sari olg'a siljish bo'lmaydi**¹.

¹ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. — T.: «O'zbekiston», 1997, 258-bet

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursining predmeti nimani o'rgatadi?
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursining manbalari haqida nimalarni bilasiz?
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursining uslublarini sanab bering.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursining vazifasi nimalardan iborat?

II BOB

KONSTITUTSIYA TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

1-§. Konstitutsiya tushunchasi, mohiyati va belgilari

Konstitutsiya lotincha «constitution» so'zidan olingan bo'lib, «o'rnataman» degan ma'noni anglatadi. Bu atamaning lotinchadan olinganining sababi qadimgi Rim imperiyasi davrida davlat boshlig'i – imperatorlar tomonidan xuddi shu nom bilan ataladigan va qonunga teng bo'lgan normativ hujjatlar qabul qilingan. Hozirgi «Konstitutsiya» tushunchasi XVIII asr oxirida paydo bo'lgan va dunyoda birinchi Konstitutsiya sifatida 1787-yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasi bilan bog'liq. Konstitutsiyaga hozirga qadar juda ko'plab nazariyotchilar tomonidan ta'rif berilgan.

Konstitutsiya – bu prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy normalarni o'zida mujassam etgan va davlat hokimiyatini amalga oshirish me'yorini belgilovchi davlatning asosiy qonuni bo'lib, unda davlatning qurilishi, huquqiy tizimi hamda eng asosiysi, davlat bilan aholi o'rtasidagi munosabatlar aks etgan yuridik hujjatdir.

Konstitutsiyaga ta'rif berishda ko'pchilik konstitutsionalistlar uning mohiyatidan kelib chiqadi. Konstitutsiya mohiyatiga turlicha yondashuvlar mavjud.

Birinchidan, Konstitutsiyalar shunday jamiyatda qabul qilinadiki, bu jamiyatlar ijtimoiy tuzumida inqilobiy o'zgarish-

lar ro'y berib, davlat hokimiyatiga egalik qiladigan bir ijtimoiy guruh vakillari o'rnini boshqa ijtimoiy guruh egallab olganda Konstitutsiya siyosiy muvozanatni, kuchlar nisbatini saqlab turadi (masalan, qirol hokimiyati cheklanib, parlamentning mavqei oshganda).

Ikkinchidan, ko'pincha Konstitutsiyalarda, ular qabul qilingan paytdagi davlat hokimiyatiga ta'siri katta bo'lgan siyosiy kuchlarning manfaatlari ko'proq aks etgan bo'ladi (masalan, Fransiyaning 1946-yilgi Konstitutsiyasida fashizm ustidan qozonilgan g'alaba, siyosiy maydonda millatchilik kayfiyatiga qarshi kuchlar, harakatlarning ta'siri oshgani o'z ifodasini topgan).

Uchinchidan, Konstitutsiyalar real hayotda davlat hokimiyatiga xalq egalik qiladigan jamiyatlardagina qabul qilinadi. Bunday jamiyatlar ko'pincha demokratik jamiyat sifatida e'tirof etiladi.

To'rtinchidan, Konstitutsiya davlatning o'z hokimiyatini amalga oshirishda ma'lum bir chegarani belgilaydigan, davlat va uning fuqarolari o'rtasidagi munosabatdan kelib chiqadigan shartlashilgan hujjatdir. Davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishning kafili bo'lsa, o'z navbatida fuqarolar davlat oldidagi burchlarini bajarishlari shart.

Zamonaviy Konstitutsiyalarning mohiyati umuminsoniy, huquqiy qadriyatlarni va umumdemokratik asoslarni mustahkamlashda ifodalanadi. Ular har bir inson teng huquqli fuqaro bo'lib faoliyat yurita oladigan davlatda yashashini targ'ib qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan Konstitutsiya o'z mohiyatiga ko'ra, demokratik huquqiy davlat qurish Konstitutsiyasi sifatida O'zbekiston xalqi irodasining ifodasidir va bu iroda umumdemokratik prinsiplarni o'zida mujassam etuvchi, insonni, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb e'tirof etuvchi davlat va jamiyat hayoti asoslarini mustahkamlashga yo'naltirilgandir².

Dunyo konstitutsionalizmi o'zining rivojlanishi mobaynida tarixdagi ko'plab ijtimoiy-siyosiy voqeliklar ta'siri ostida bo'lib keldi. Shuning uchun turli davrlarda ko'plab mamlakatlar tomonidan qabul qilingan Konstitutsiyalar, ularda mustahkamlangan normalar va tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar

² Tadjixanov U., Odilqoriyev H., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. — T.: «Sharq», 2001, IIV Akademiyasi, 85-86-betlar

Aksariyat xorijiy mamlakatlarda ushbu bosh mabba «Konstitutsiya» deb atalsa, ayrim davlatlarda Konstitutsiyalar o'ziga xos nomlarga ega. Masalan, Germaniyada «Asosiy qonun», Kolumbiyada «Siyosiy Konstitutsiya», Monakoda «Konstitutsion ordanans» deb nomlanadi.

ko'lamiga qarab, shuningdek, Konstitutsiyalar qabul qilingan davr talablaridan kelib chiqib, ularni mazmunan har xil rivojlanish bosqichlariga bo'lish mumkin. Albatta, bunda Konstitutsiyalar yillar sayin mazmunan boyib, mukammallashib borgan. Hozirda aksariyat adabiyotlarda Konstitutsiyalarning rivojlanish bosqichlari to'rtga bo'lib o'rganiladi.

Birinci bosqich XVIII asr oxiridan XX asr boshlarigacha davom etib, bu Konstitutsiyalarga AQSH Konstitutsiyasidan tashqari, Polsha va Fransiyaning 1791-yilda, Norvegiyaning 1814-yilda, Belgiyaning 1831-yilda, Lyuksemburgning 1868-yilda, Shveysariyaning 1974-yilda qabul qilingan Konstitutsiyalari misol bo'ladi. Bu bosqichda qabul qilingan Konstitutsiyalar faqat davlat hokimiyatini amalga oshirish, davlat organlari faoliyatini va o'zaro munosabatlarini tartibga solish bilan cheklanib qoldi. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga kam e'tibor berilib, faqat ayrim tabiiy huquqlari e'tirof etildi. Bu, albatta, bir tomondan o'sha davr uchun katta yutuq ham edi.

Ikkinchi bosqich Konstitutsiyalariga ikkita jahon urushi oralig'ida qabul qilingan sobiq Ittifoq Konstitutsiyalari, sharq mamlakatlaridan Turkiya, Eron, Misr kabi davlatlarda an'anviy musulmon huquqiga asoslangan Konstitutsiyalarni kiritish mumkin. Bu davrga kelib fuqarolarning sotsial huquq va erkinliklari Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Shuningdek, Konstitutsiyalarda bu davrga kelib ancha murakkablashgan davlat boshqaruvi, ijro hokimiyatining kuchayib ketishi kabi unsurlar ham o'z aksini topdi.

Uchinchi bosqich ikkinchi jahon urushidan o'tgan asrning 80-yillariga qadar davom etib, bu davr chinakam konstitutsionalizm davri bo'ldi. Chunki aynan shu yillarda dunyo xaritasida juda ko'plab davlatlar paydo bo'lib, bir necha o'nlab Konstitutsiyalarning qabul qilinishiga olib keldi. Shuningdek, jahon taraqqiyoti yangi bosqichga qadam qo'yganligi bois ayrim davlatlarda Konstitutsiyalar qayta qabul qilindi (masalan, Germaniya, Yaponiya, Italiya va Fransiya). Bu bosqich Konstitutsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari: ilk bora siyosiy partiyalar faoliyati Konstitutsiyalarda keng qamrovli tarzda mustahkamlandi, iqtisodiyotning Konstitutsiyaviy asos-

lari va boshqa ko'plab yangi-yangi huquqiy institutlar vujudga keldi. Inson huquqlari birinchi o'ringa ko'tarildi.

To'rtinchi bosqich hozirgi zamon Konsitutsiyalari bo'lib, unda asosan barcha narsa inson uchun degan g'oyaga tayaniladi hamda inson omili hamma narsadan ustunligi e'tirof etiladi. Shuningdek, globallashib borayotgan ekologik muammolar ham Konstitutsiyaviy darajada o'z yechimini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham aynan shu davr Konstitutsiyalari turkumiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi ham o'zining Konstitutsiyaviy rivojlanish tarixiga ega va bu davrlarni shartli ravishda uchga bo'lib o'rganishimiz mumkin.

1. O'zbekiston tarixida ilk Konstitutsiya 1918-yilda qabul qilingan Turkiston ASSRning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Ushbu Konstitutsiya birinchi davr Konstitutsiyalariga misol bo'lib, ular qatoriga BXS^R (Buxoro Xalq Sovet Respublikasi) hamda XXS^R (Xorazm Xalq Sovet Respublikasi)ning Konstitutsiyalari ham kiradi.

Bilasizmi, Fransiya tarixida hozirga qadar 17 marotaba Konstitutsiya qabul qilingan bo'lib, oxirgisi esa 1958-yilgi Konstitutsiya hisoblanadi.

2. 1924-yilda o'tkazilgan milliy chegaralanishdan so'ng vujudga kelgan O'zbekiston SSR Konstitutsiyalari (1927, 1937, 1978).

3. Bosh qomusimiz bo'lmish mustaqil O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda gi Konstitutsiyasi.

Konstitutsiya eng muhim hujjat sifatida quyidagi yuridik belgilarga ega:

— Konstitutsiya — davlatning asosiy qonunidir. Har bir demokratik davlatda Konstitutsiya muqaddas sanalib, unga so'zsiz amal qilish lozim. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, Konstitutsiyaning asosiy qonun sifatida mavqeini saqlab qolish bilan barobar.

— Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega. Har qanday davlatni olib qaramaylik, u o'zining milliy qonunchilik tizimiga ega bo'ladi. Qonunchilik tizimi esa biror-bir huquqiy asosga tayanishi muqarrar va bu asos rolini Konstitutsiya bajaradi. Har bir qonun va qonun osti normativ hujjatlar, albatta, Konstitutsiyaga asoslanishi shart.

Konstitutsiya tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning muhimligi va tartibga solib turuvchi normalarini birlamchi ravishda tan olinishi boshqa normativ hujjat-

larning Konstitutsiyalarga mosligini tekshirish uchun alohida huquqiy himoya mexanizmini ham talab qiladi.

— Konstitutsiya o'zining alohida obyektiga ega bo'ladi. Jamiyatda shunday munosabatlar mavjudki, ularni faqat Konstitutsiya darajasida tartibga solish kerak. Masalan, davlat hokimiyatini amalga oshirish prinsiplari, davlatning boshqaruv va tuzilish shaklini belgilash, oliy davlat organlarining maqomini mustahkamlash kabi masalalar.

— Konstitutsiya alohida tartibda qabul qilinadi va o'zgartiriladi. Konstitutsiyalarni qabul qilish va unga o'zgartirishlar kiritish oddiy qonunlarni qabul qilish va o'zgartirishdan farq qilib, parlament tomonidan malakali ko'pchilik ovoz asosida yoki referendum orqali hal qilinadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun yoki O'zbekiston Respublikasining referendumini bilan kiritiladi.

— Konstitutsiya — muhim siyosiy hujjatdir. Chunki, davlat siyosiy tizimining asosini tashkil etadi. Ushbu tizim mamlakatning olib borayotgan siyosiy maydondagi faoliyati orqali jamiyatda inson huquqlari va erkinliklarining buzilishidan himoya qilish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, unda boshqa siyosiy yo'nalishlar ham aks etishi mumkin.

— Konstitutsiya barcha huquq tarmoqlarining asosini tashkil etadi. Konstitutsiya milliy qonunchilikda mavjud barcha huquq tarmoqlari uchun fundamental ahamiyat kasb etadi.

2-§. Konstitutsiya — davlatning asosiy qonuni sifatida

O'zbekiston Respublikasining demokratik va huquqiy davlat qurishdan maqsadi mamlakatda yashovchi har bir kishining huquq va erkinliklarini to'la kafolatlashdir. Buning uchun, avvalo, O'zbekistonda huquqiy asos yaratildi, ya'ni Respublika Konstitutsiyasi va qabul qilgan qonunlarda umume'tirof qilingan xalqaro hujjatlar qoidalariga mos keluvchi inson huquq va erkinliklari, ularning kafolatlari belgilab qo'yildi.

(Davlatimizning asosiy Qonuni — Konstitutsiyamiz vaqt sinovidan muvaffaqiyatli o'tdi va kundalik hayotimizning rivojlanishi, uning istiqbolini belgilashda xizmat qilmoqda. O'tgan davr mobaynida Konstitutsiya mamlakatimiz buyuk kelajagining asosiy huquqiy

kafolati ekanligini to'la isbotladi. Konstitutsiya jamiyatning rivojlanishida va davlat qurilishida yangi bosqichga o'tishga dalolat beruvchi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga asos soldi. Konstitutsiya qabul qilingandan buyon o'tgan davr ichida mamlakatimizda, xalqimiz hayotida asrlar mobaynida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarga erishildi. Yurtimiz sho'rolar davridan meros bo'lib qolgan chuqur iqtisodiy tanazzuldan qutuldi, o'tkazilayotgan keng ko'lamli siyosiy, iqtisodiy islohotlar tufayli bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot qaror topdi, demokratiya tamoyillariga asoslangan milliy davlatchiligimiz va huquq tizimimiz shakllandi, ijtimoiy-madaniy soha barqaror rivojlanib bormoqda, kishilarimizning ma'naviy qiyofasi yangilanmoqda, ularning ongiga istiqlol g'oyasi tobora chuqurroq singib bormoqda, mustaqil yosh davlatimiz xalqaro jamiyatda o'z o'rnini topdi. Uning xalqaro miqyosda nufuzi oshib bormoqda, jahon siyosatini belgilashda roli kuchaymoqda³.

3-§. Konstitutsiyalarning funksiyalari

Butun dunyo miqyosida olsak, har qanday Konstitutsiya ijtimoiy hayotning barcha sohalariga bevosita ta'sir ko'rsatib, asosan uchta funktsiyani amalga oshiradi.

1. Yuridik funktsiyasi – Konstitutsiya o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra yuridik hujjat sanalib, huquqning asosiy manbaidir. Konstitutsiyalarning yuridik funktsiyasi quyidagilarda ko'rinadi:

— Mamlakat huquq tizimining qanday ko'rinishga ega ekanligini o'zida ifodalaydi;

— Konstitutsiyaviy normalar ijtimoiy hayotning (iqtisodiy, siyosiy va sotsial) eng muhim tomonlarinigina huquqiy jihatdan tartibga soladi;

— Davlatda qabul qilinadigan barcha normativ huquqiy hujjatlar uchun bosh manba bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun birorta normativ huquqiy hujjat yuridik kuchiga ko'ra Konstitutsiyadan ustun bo'lolmaydi;

— Konstitutsiyalar o'zining alohida muhofaza choralariga ega bo'lgani uchun unga zid bo'lgan har qanday hujjat tegishli tartibda o'z kuchini yuqotishi shart.

2. Siyosiy funktsiyasi – Konstitutsiya ayni vaqtda o'ta muhim siyosiy hujjat sifatida:

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11 yilligiga bag'ishlangan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni shakllantirishning asosi» mavzusidagi ilmiy anjuman materiallari, TDYUI. — T.: 2003, 7-bet

— Davlat hokimiyati tashkil etilishining asoslarini o'rnatadi;
— Davlat tomonidan olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatning yo'nalishlarini belgilab beradi;

— Konstitutsiyada davlatning siyosiy maqsadlari va funksiyalari o'z ifodasini topadi.

3. Mafkuraviy funksiyasi – Konstitutsiyalar jamiyatning eng asosiy ma'naviy g'oyaviy qadriyatlarini o'zida mustahkamlab, aholini bir yoqadan bosh chiqarishga undaydi. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qayerdagi mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin. Buning isboti uchun xoh tarixdan, xoh zamonamizdan ko'plab misollar keltirish qiyin emas⁴. Konstitutsiyalarda mafkuraviy g'oyalarni aks etishi jamiyat taraqqiyotining maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi. Har qanday Konstitutsiya u yoki bu ko'rinishda biror-bir mafkuraga tayanadi. Bu narsa Konstitutsiyalar qabul qilingan paytdagi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy holatiga ham bog'liq. Masalan, biror-bir davlat mustamlakachilikdan mustaqil davlat sifatida tashkil topgan bo'lsa, uning Konstitutsiyasida, albatta, milliylik, istiqlol g'oyalari aks etadi.

4-§. Konstitutsiya shakllari

Konstitutsiya shakli deganda, Konstitutsiyaning mohiyatini shakllantirish, ifodalash hamda namoyon etish vositasi tushuniladi. Bu ta'rif, bir tomondan, Konstitutsiyaning ichki shaklini, ya'ni mazmunining ichki tashkiliy tuzilishi (strukturasi)ni aks ettiradi, ikkinchi tomondan, Konstitutsiyaning tashqi ifodalanishini anglatadi⁵.

Konstitutsiyalarning ichki tuzilishi (strukturasi) xususida so'z yuritilarkan, albatta, kodifikatsiyalangan, oliy yuridik kuchga ega bo'lgan barcha normalarni qamrab olgan yaxlit va yagona yozilgan Konstitutsiya nazarda tutiladi. Uning ichki tuzilishi asosan avval muqaddima, asosiy qism va xulosadan iborat bo'ladi. Muqaddimada odatda Konstitutsiya maqsadlari bayon qilinadi, uning yuzaga kelishining tarixiy shart-sharoitlari tavsiflab beriladi.

⁴ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7.— T.: «O'zbekiston, 1999, 84-b.

⁵ Tadjixanov U. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. — T.: «Sharq», 2001, 105-bet

Konstitutsiyaning ushbu qismi siyosiy va g'oyaviy nuqtayi nazardan juda muhimdir. Muqaddimadagi qoidalar huquqiy normalar hisoblanmasa-da, boshqa qoidalarni sharhlash va qo'llashda normativ ahamiyatga egadir, ya'ni muqaddima Konstitutsiya normalarining sharhlanishi lozim bo'lgan yo'nalishlarni ko'rsatib beradi.

Konstitutsiyaning asosiy qismida fuqarolar huquq va erkinliklari, ijtimoiy tuzum asoslari, davlat organlarining tizimi va statusi (darajasi) davlat timsollari, Konstitutsiyaga o'zgarishlar kiritish tartibi to'g'risidagi normalar beriladi.

Davlat organlari statusi to'g'risidagi normalar odatda hokimiyatning taqsimlanishi prinsipiga mos ravishda beriladi; ko'pincha avval parlament to'g'risidagi, undan keyin sud hokimiyati to'g'risidagi va nihoyat mahalliy hokimiyatning tashkil etilishi to'g'risidagi normalar beriladi. Ba'zan esa butunlay boshqacha tartib ham ko'zga tashlanadi. Masalan, Ispaniya Konstitutsiyasida avval boshida davlat boshlig'i to'g'risidagi, so'ngra esa Konstitutsiyaviy adliya organlari to'g'risidagi normalar berilgan. Ba'zan normalarning berilish tartibi davlatdagi ba'zi organlarning boshqalariga nisbatan ustuvorroq nufuzga ega ekanligini ham ko'rsatadi. Masalan, Fransiya Konstitutsiyasining asosiy qismida avvalo Respublika Prezidenti to'g'risidagi, ikkinchi o'rinda hukumat to'g'risidagi normalar berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Mahalliy davlat hokimiyati, Sud hokimiyati to'g'risida normalar berib o'tilgan.

Xulosada turli normalar bo'lishi mumkin. Odatda xulosada Konstitutsiyaning kuchga kirish tartibi, organik va boshqa qonunlarning chiqarilish muddatlari ko'rsatiladi.

Vaqtinchalik qoidalarda birdaniga amalga kiritish imkoni bo'lmagan Konstitutsiyaviy normalarning amalga kiritilishi muddatlari, eski Konstitutsiyaviy normalarning yangilari bilan almashtirish tartiblari va muddatlari ko'rsatiladi.

Konstitutsiyaning qo'shimcha qoidalari asosiy qismga qaraganda boshqacharoq beriladi va ular ko'pincha sharhlash xarakterida bo'ladi. Ba'zi bir istisnolar ham odatda qo'shimcha qoidalar qismidan joy oladi.

Konstitutsiyaning ichki shakli quyidagi elementlarning majmuidan iborat:

1) Konstitutsiyani ishlab chiqish tartibi;

- 2) Konstitutsiyani rasmiylashtirish, qabul qilish tartibi;
- 3) Konstitutsiyani tasdiqlash tartibi;
- 4) Konstitutsiyaning ichki tuzilishi.

Konstitutsiyaning hayotga tatbiq etilishi, uning harakatlaniishi, amalga oshishi uchun yuqoridagilar hali yetarli emas. Buning uchun Konstitutsiyaning tashqi jihatini tashkil etuvchi elementlar ham bo'lishi lozim. Tashqi shakl Konstitutsiyaning amalga oshirilish shaklini ham nazarda tutadi.

Konstitutsiyaning tashqi shakli quyidagi elementlar (qismlar)dan tarkib topadi:

- 1) Konstitutsiyaning nomlanishi;
- 2) Konstitutsiyani kuchga kiritish tartibi (shakli);
- 3) Konstitutsiyani amalga oshirish tartibi;
- 4) Konstitutsiyani o'zgartirish (qayta ko'rib chiqish) tartibi;
- 5) Konstitutsiyani muhofaza etish tartibi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi tuzilishi uning mazmuniga to'la muvofiq bo'lib, shaxs, jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarni samarali hal etishga ko'mak beradi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat.

Muqaddima qisqa bo'lib, ko'tarinki ruhda yozilgan. Unda Konstitutsiyani xalq, ya'ni davlat hokimiyatining haqiqiy sohibi qabul qiladi va unda o'z irodasini ifoda etadi. Agar birinchi bo'lim Konstitutsiyaviy tuzumning asosiy prinsiplari yig'indisidan iborat bo'lsa, ikkinchi bo'limda inson huquqlari to'g'risidagi normalar mavjud.

Respublika Konstitutsiyasining inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari to'g'risidagi bo'limi keng berilishi Konstitutsiyaning mohiyatidan kelib chiqadi. «Shaxs-jamiyat-davlat» munosabatlarining tartibga solinishi Konstitutsiyaning tub mohiyatini tashkil etadi. Bunda shaxs omili birinchi o'rinda qo'yilgan.

Uchinchi bo'limda esa jamiyat va shaxs munosabatlari tartibga solinib, fuqarolik jamiyatining an'analarini tiklash, ijtimoiy uyushmalar va munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solib, ularning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan normalar mavjud.

To'rtinchi bo'lim ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishiga bag'ishlangan. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi haqida alohida bob bor.

Beshinchi bo'lim davlat hokimiyatining tashkil etilishi deb nomlanib, unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi,

Prezidentning huquqiy maqomi, ijro hokimiyati, mahalliy davlat organlari, sud hokimiyatining huquqiy maqomlari ko'rsatib o'tilgan. Oltinchi bo'lim Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibini o'z ichiga oladi.

5-§. Konstitutsiyani qabul qilishning asosiy xususiyatlari

Konstitutsiyani qabul qilishning quyidagi usullarini ko'rsatish mumkin:

1. Ta'sis (Konstitutsiyaviy) majlis tomonidan. Braziliya (1988), Portugaliya (1976), Bolgariya (1991), Ruminiya (1991) Konstitutsiyalari shu usul bilan qabul qilingan.

2. Amaldagi parlament tomonidan. O'zbekiston (1992), Xitoy (1992), Tanzaniya (1977) Konstitutsiyalari misolida.

3. Referendum yo'li bilan. Rossiya (1993), Fransiya (1958), Qozog'iston (1995), Kuba (1976), Chili (1980) kabi davlat Konstitutsiyalari referendum yo'li bilan qabul qilingan.

Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda Konstitutsiyalar hadya etish yo'li bilan ham qabul qilinadi. Hadya etishning 3 yo'li mavjud:

1. Mutlaq monarxiya sharoitida Konstitutsiyani o'z xalqiga podsho, qirol, sulton, monarx hadya qiladi. Buni Nepal (1962), Saudiya Arabistoni (1992) Konstitutsiyalari misolida ko'rishimiz mumkin.

2. Mitropoliya mustamlakachi davlat o'z mustamlakasiga Konstitutsiya hadya qiladi va uning mustaqil davlatligini tan oladi. Buyuk Britaniya 1979-yil Zimbabvega Konstitutsiya hadya qilgan.

3. Harbiy yoki revolyutsion Kengash Konstitutsiyani hadya qiladi. Masalan, Misr, Suriya, Iroq, Afg'oniston Konstitutsiyalari shu tarzda qabul qilingan.

Konstitutsiyani qabul qilish tartibi oddiy, joriy qonunlarni qabul qilishdan farq qiladi. Yangi Konstitutsiyalar odatda yangi davlat vujudga kelganda, mamlakat siyosiy tuzumi o'zgarganda, davlatchilik rivojida jiddiy tub o'zgarishlar ro'y berganda qabul qilinadi. Konstitutsiyani tuzish va qabul qilishning bir qancha usullari bor. Albatta, Konstitutsiya loyihasini tayyorlashdan to qabul qilishgacha bo'lgan barcha ishlarni parlament majlislarida uzluksiz amalga oshirish mushkul. Shu sababli Konstitutsiya loyihasini tayyorlash uchun maxsus Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etiladi. 1990-yil 20-iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi yangi Konstitutsiya loyihasini

tayyorlash uchun Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etgan edi.

Umuman olganda, Konstitutsiyani tayyorlash, uni qabul qilish boshqa oddiy qonunlarni qabul qilishdan farq qiladi. Chunki Konstitutsiya — bu davlatning Asosiy qonuni, huquq tarmoqlarining manbai hisoblanadi, shuning uchun u boshqa qonun va normativ huquqiy hujjatlardan o'zining yuridik kuchi bo'yicha ustun turadi.

Konstitutsiyani qabul qilish jarayoni oddiy qonunlarni qabul qilish tartibidan quyidagilar bilan farq qiladi:

1. Oddiy qonunlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qonuniylik va sud-huquq masalalari qo'mitasida va boshqa qo'mitalarida ishlab chiqiladi va muhokama qilinib, navbatdagi yalpi majlisda qabul qilinadi. Konstitutsiya loyihasi esa Oliy Majlis palatalari tomonidan maxsus tarzda tuzilgan muvaqqat Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan ishlab chiqiladi.

2. Konstitutsiya loyihasini tayyorlash uchun tajribali siyosiy arboblardan, jamiyat turmushining turli jabhalarida tanilgan mutaxassislar va huquqshunos olimlar jalb etiladi. Mazkur shaxslar oliy vakillik organi deputati bo'lmasalar ham, Konstitutsiyaviy komissiyaga jalb qilinadilar.

3. Konstitutsiya loyihasini tayyorlash jarayoni oddiy qonunlar loyihasini tayyorlashga nisbatan ancha davomli bo'lib, mukammal ishlashni talab etadi.

4. Konstitutsiya loyihasi matbuotda e'lon qilinib, albatta, umumxalq muhokamasiga qo'yiladi.

Qabul qilingan Konstitutsiyani tasdiqlash marosimi ham turli davlatlarda har xil. Bunday tartib, asosan, federativ shaklda tashkil qilingan davlatlarda amal qiladi. Qabul qilingan Konstitutsiya barcha federatsiya subyektlari tomonidan tasdiqlanishi, ya'ni ularning parlamentlari tomonidan ratifikatsiya qilinishi shart bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan Konstitutsiyani ratifikatsiya qilish shart emas.

Qabul qilingan Konstitutsiyani kuchga kiritish tartibi ham turli mamlakatlarda har xil belgilanadi. Ko'pchilik mamlakatlarda Konstitutsiyani kuchga kiritish alohida hal qilinadi. Ba'zi davlatlarda bu uni matbuotda e'lon qilish bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi u qabul qilingan kuni, ya'ni 1992-yilning 8-dekabrida alohida qonun bilan kuchga kiritildi.

Konstitutsiyaning alohida xususiyatlaridan biri uning ta'sis etuvchilik, ya'ni yangi organlar tuzish, yangi qonunlar ijod qilish xususiyatidir. Konstitutsiya qabul qilinganidan keyin, davlatning butun yangi organlari tizimi hamda Konstitutsiyada ko'rsatilgan qonunlar vujudga keladi.

6-§. Konstitutsiya turlari

So'nggi ikki yuz yildan ortiq Konstitutsiyaviy taraqqiyot mobaynida turli mamlakatlarda nihoyatda ko'p Konstitutsiyalar qabul qilindi. Ularning ichki tuzilishi, tartibga soladigan masalalari, tashqi belgilarida o'xshashliklar mavjud bo'lsada, barcha Konstitutsiyalarni mazmuni, mohiyati, ijtimoiy vazifalariga ko'ra tasniflash, ma'lum turlarga ajratish mumkin.

Konstitutsiyalarni ularning umumiy xususiyatlari asosida tasniflash, turli toifalarga ajratish ko'p sonli Konstitutsiyalar ichida mo'ljall olishni osonlashtiradi, ular orasidagi qonuniy aloqalarni aniqlashga, huquqiy tizimdagi ahamiyati va o'rnini belgilashga imkon beradi. Eng muhimi, dunyodagi Konstitutsiyalarning ijtimoiy yo'nalishi, mazmuni va mohiyatini anglashga ko'maklashadi.

Tasniflash Konstitutsiyaviy qonunchilikning umumiy manzarasini ko'z oldimizga keltirish imkonini yaratadi. To'g'ri, tasniflashning ahamiyatiga ortiqcha baho berib yubormaslik lozim. Konstitutsiyalarni tasniflash aslida shartli bo'lib, u har bir Konstitutsiyaning qabul qilinish shart-sharoitini, unda ifodalanadigan siyosiy kuchlar nisbatini, mamlakatning tarixiy va milliy an'analarini to'la-to'kis qamrab ololmaydi.

Biroq tasniflash yordamida Konstitutsiyalarning umumiy, mohiyatiga oid belgi va xususiyatlarini, tabiatini anglash mumkin. Keng ma'noda olganda, tasniflash bizning Konstitutsiyalar haqidagi bilimlarimizni aniqroq shakllantiradi va tizimlashtiradi.

Turli mamlakatlardagi Konstitutsiyalarni turli mezonlar (kriteriyalar)ga asoslanib, har xil guruhlar (turlar)ga bo'lish mumkin.

Birinchidan, Konstitutsiyalarni ularning mohiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- Yuridik Konstitutsiya (formal) — davlatning Asosiy Qonuni.
- Ijtimoiy (sotsial) Konstitutsiya (amaliy) — amaldagi real ijtimoiy munosabatlar.

- Tirik Konstitutsiya — AQSH Oliy Sudi, bu Konstitutsiyani o'zgarayotgan ijtimoiy mezonlarga moslab kelmoqda.
- Fiktiv (soxta) Konstitutsiya — SSSRning 1936-yil Konstitutsiyasi.
- Moddiy Konstitutsiya — Konstitutsiyaviy tuzum va inson huquqlarini tartibga soluvchi qonundir.
- *Formal Konstitutsiya* — Asosiy Qonun bo'lib, alohida tartibda qabul qilinadi va oliy yuridik kuchga ega.

Ikkinchidan, Konstitutsiyalarni shakliga ko'ra quyidagi turarga bo'lish mumkin:

- Yozma Konstitutsiyalar.
- Og'zaki (yozilmagan) Konstitutsiyalar — Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Butan kabi davlatlar Konstitutsiyalari.
- Yaxlit Konstitutsiyalar — Konstitutsiya matni yaxlit bo'lib, bir vaqtda qabul qilinadi. Masalan, O'zbekiston, Rossiya, Braziliya Konstitutsiyalari yaxlit Konstitutsiyalarga misol bo'la oladi.
- Yaxlit bo'lmagan (noyaxlit) Konstitutsiyalar — bunday Konstitutsiyalar turli vaqtda qabul qilingan qonunlardan iborat bo'ladi. Masalan, Shvetsiya, Finlandiya, Isroil Konstitutsiyalari.
- Yumshoq Konstitutsiyalar — bunday Konstitutsiyalar oddiy qonunlar kabi o'zgartiriladi. Masalan, Buyuk Britaniya Konstitutsiyasiga 350ga yaqin qonunlar kiradi va oddiy tartibda o'zgartiriladi.
- Qattiq Konstitutsiyalar — alohida murakkab tartibda o'zgartiriladi. Masalan, AQSH, Rossiya, O'zbekiston Konstitutsiyalari.
- Doimiy Konstitutsiyalar. Aksariyat Konstitutsiyalar doimiydir.
- Vaqtinchalik (muvaqqat) Konstitutsiyalar — Iroqda 1970-yil, Birlashgan Arab Amirligida 1971-yildan beri harakatda bo'lgan Konstitutsiyalar.

Uchinchidan, Konstitutsiyalarni ijtimoiy mazmuniga qarab ham bir necha turga bo'lish mumkin. Hozirgi kunda dunyoda 100 dan ortiq Konstitutsiya bor (federativ davlatlar subyektlarining Konstitutsiyalari bilan birga). Bu Konstitutsiyalar turli tarixiy lavrda qabul qilingan bo'lib, har xil ijtimoiy mazmunga ega.

1. G'arb mamlakatlari Konstitutsiyalari.
2. Rivojlanayotgan mamlakatlar Konstitutsiyalari.

3. O'tish davri mamlakatlari Konstitutsiyalari.

4. Teokratik davlatlar Konstitutsiyalari.

Konstitutsiyalarni quyidagi turlarga ham bo'lish mumkin:

1. Demokratik Konstitutsiyalar.

2. Avtoritar Konstitutsiyalar.

3. Totalitar Konstitutsiyalar.

Adabiyotlarda yozma va yozilmagan Konstitutsiyalar farqlanadi. Aksariyat ko'pchilik mamlakatlarda belgilangan tartibda qabul qilinadigan yozma Konstitutsiyalar amal qiladi. Hozirgi davrda Konstitutsiyalarning yozma shaklda qabul qilinishi o'rinli degan fikr qaror topdi. Shu bilan birga, yozma Konstitutsiyaga ega bo'lmagan mamlakatlar bor (jumladan, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya). Ba'zi mamlakatlarda Konstitutsiya deganda bir necha huquqiy hujjatlar, hatto odatlar (Konstitutsiyaviy bitimlar) tushuniladi.

Konstitutsiyalar qabul qilinish tartibiga ko'ra, turli ko'rinishlarga ega bo'ladi. Xususan, yuqoridan taqdim etilgan, ya'ni podsho (monarx) tomonidan xalqqa in'om etilgan Konstitutsiyalarga Lixtenshteyn, Nepal, Iordaniya davlatlarining Konstitutsiyalari kiradi. O'z vaqtida Buyuk Britaniya Afrikadagi o'z koloniyalariga shunday Konstitutsiyalar in'om etgan.

Amal qilish vaqtiga ko'ra, muddati cheklangan va cheklanmagan, ya'ni muvaqqat va doimiy amal qiluvchi Konstitutsiyalar bo'ladi. Muvaqqat Konstitutsiyalar ma'lum muddatga yoki muayyan vaziyat vujudga kelgunga qadar qabul qilinadi. Masalan, Tailandning 1959-yildagi Konstitutsiyasi to Ta'sis majlis doimiy Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqqunga qadar amalda bo'ldi. Ko'pchilik Konstitutsiyalar doimiy amal qiluvchi qonunlar hisoblanadi. Biroq bu hol ularning abadiyligini kafolatlamaydi. Mamlakatda siyosiy vaziyatning o'zgarishi aksariyat hollarda yangi Konstitutsiya qabul qilinishiga olib keladi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida harbiy to'ntarishlar oqibatida Konstitutsiyalar juda tez-tez o'zgarib turadi. Masalan, 60-yillarning o'rtalarigacha Boliviya 20 ta, Kolumbiya 11 ta, Dominikan Respublikasida 15 ta, Gaitida 23 ta, Venesuelada 22 ta Konstitutsiya qabul qilindi.

Bir qator Konstitutsiyalar matnida ularning abadiyligi, o'zgarmasligi haqidagi qoida mustahkamlab qo'yilganini uchratish mumkin. Masalan, Meksikaning 1917-yilgi Konstitutsiyasida «o'zgarmas» (136-modda) deb yozilgan. Gretsiyaning 1975-yildagi Konstitutsiyasida unga rioya etish greklarning

vatanparvarligi bilan ta'minlanishi belgilangan. Ular Konstitutsiyaning bekor qilinishiga barcha vositalar bilan qarshilik

ko'rsatishga haqli ekanliklari yozilgan (120-modda. 4-qism).

Konstitutsiyalarni mazmuni va tabiatiga ko'ra ham tasniflash mumkin. Siyosiy rejimni rasmiylashtirishga qarab Konstitutsiyalar demokratik va avtoritar bo'lishi mumkin. Avtoritar Konstitutsiyalar ichida yana totalitar Konstitutsiyalar bo'lishi e'tirof etiladi.

Demokratik Konstitutsiyalar fuqarolarning muayyan huquq va erkinliklarini kafolatlaydi, siyosiy partiyalarning erkin shakllanishi va faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'yadi, hokimiyat idoralari ta'sis etilishining saylov tartibini o'rnatadi va hokazo.

Avtoritar Konstitutsiyalar siyosiy partiyalar faoliyatini cheklaydi yoki taqiqlaydi, ba'zan yakka partiyaning hukmronligini o'rnatadi. Nomiga e'lon qilingan Konstitutsiyalar fuqarolar huquq va erkinliklarini jiddiy cheklash yo'lini tutadi. Avtoritar (totalitar) Konstitutsiyalar haddan ziyod mafkuralashganligi bilan ajralib turadi.

Boshqaruv shaklini mustahkamlash hamda davlat boshlig'i lavozimini egallash tartibiga ko'ra, monarxiya va Respublika Konstitutsiyalari bo'lishi mumkin; siyosiy hududiy tuzilishni belgilashiga qarab — federativ va unitar Konstitutsiyalar farqlanadi. Federativ davlatlarda federal Konstitutsiya va federatsiya subyektlarining Konstitutsiyasi mavjud bo'ladi.

O'zgartirish tartibi (usuli)ga ko'ra, «yumshoq» va «qattiq» Konstitutsiyalar bo'ladi.

«Yumshoq» Konstitutsiyalar oddiy qonunlar uchun belgilangan tartib asosida o'zgartiriladi yoki to'ldiriladi. «Qattiq» Konstitutsiyalar alohida o'rnatilgan tartibga muvofiq (qo'shimchalar taqdim etilgandan so'ng ma'lum vaqt o'tgach yoki malakali ovoz berish — deputatlarning 2/3 qismi ovozi bilan, federatsiya subyektlarining hammasi ratifikatsiya qilgan taqdirda va hokazo) o'zgarishi mumkin. Masalan, AQSH Konstitutsiyasiga ikki yuz yildan ortiq amal qilinishi mobaynida atigi 27 ta tuzatish kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ham «qattiq» Konstitutsiyalar qatoriga kiritish lozim.

7-§. Konstitutsiyani o'zgartirish tartibi

Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritishning oddiyligi yoki murakkabligiga qarab, barqaror va o'zgaruvchan Konstitutsiya-

larga bo'linadi. Agarda Konstitutsiyani o'zgartish osonroq bo'lsa, u o'zgaruvchan Konstitutsiya deb yuritiladi. Agarda, aksincha, Konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish tartibi murakkab bo'lsa, u barqaror Konstitutsiya deb yuritiladi. Lekin shuni esda tutish kerakki, eng o'zgaruvchan Konstitutsiya ham boshqa qonunlarga nisbatan qattiq, ixcham va barqaror bo'lishi shart.

Konstitutsiyaning tuzilishini, butun matnini o'zgartirishga olib keladigan obyektiv sabablardan biri mamlakatda yuz beradigan jiddiy islohotlar va davlat rivojlanishiga doir dasturining o'zgarishidir. Jahonning ilg'or mamlakatlarida doimo Konstitutsiyaning ixcham va barqaror bo'lishiga katta e'tibor berib kelingan. Xususan, 1787-yilda qabul qilingan va jahondagi birinchi Konstitutsiya hisoblangan AQSH Konstitutsiyasi, mana 200 yildan ko'p vaqt o'tibdiki, hamon barqaror tarzda amal qilib kelmoqda. Unga shu vaqt ichida 27 ta o'zgartirish va qo'shimcha kiritilgan, xolos.

Umuman, Konstitutsiyani o'zgartirish, yangilash oddiy qonunlarni o'zgartirish yoki yangilashdan farq qiladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga tuzatish va yangilik kiritiladigan bo'lsa, bu haqdagi taklif faqat Prezident, Federatsiya Kengashi, Davlat Dumasi, hukumat, Rossiya Federatsiyasi subyektlarining qonun chiqaruvchi (vakolatli) organlari va Federatsiya Kengashi yoki Davlat Dumasi deputatlaridan kamida beshdan bir qismi tomonidan kiritilishi mumkin. Ispaniya Konstitutsiyasi bo'yicha Bosh Kortessning ikkala palatasida ham deputatlarning beshdan uch qismidan ko'prog'i ovoz bersa, Konstitutsiyaga o'zgartishlar kiritish mumkin.

O'zbekiston Konstitutsiyasining barqarorligini ta'minlab beruvchi prinsiplar uning bevosita o'zida mustahkamlab qo'yilgan. Lekin hayot sharoiti, mamlakatning rivojlanishi Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritishni taqozo etishi mumkin.

Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritishning alohida murakkab tartibi uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir. Shu bilan birga Konstitutsiyaning ayrim qismlari umuman o'zgartirilishi mumkin emas. Masalan, Fransiyada Respublika boshqaruv shakli, Germaniyada davlatning federativ tuzilishi, Braziliyada hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipi o'zgartirilishi mumkin emas.

Ayrim davlatlarda Konstitutsiyaning ayrim boblari o'zgartirilishi mumkin emas. Masalan, Rossiya Konstitutsiyasining 1, 2 va 9- boblari o'zgartirilishi mumkin emas.

Ko'pchilik davlatlarda Konstitutsiya moddalarini o'zgartirish uchun mutlaq ko'p ovoz olish kerak (odatda 2/3). Federativ davlatlarda federatsiya subyektlarining ko'pchiligi (Rossiyada 2/3 qismi, AQSHda 3/4 qismi) roziligini (ratifikatsiya qilishi) talab etiladi. Hindiston, Kanada, Pokistonda esa federatsiya subyektlarining roziligi talab qilinmaydi.

Ayrim hollarda (Skandinaviya mamlakatlarida) Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish uchun, albatta, referendum chaqirilishi kerak. Ba'zi davlatlar (Italiya)da o'zgartirishlar kiritish uchun parlament 2 palatasining mutlaq ko'p ovozini olish kerak.

Unchalik muhim bo'lmagan o'zgartirishlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan kiritilishi mumkin (Hindiston). Vengriyada Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi referendum yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin emas.

Ba'zi hollarda esa Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritishni qonun tashabbusiga ega bo'lgan barcha subyektlarning o'zlarigina taklif eta olmaydilar. Masalan, Gretsiyada Prezident va parlamentning 150 deputati roziligi bilan, Avstriyada boshqa subyektlar bilan birga xalq tashabbusi, ya'ni 100 ming imzo bilan, Italiyada 50 ming imzo bilan o'zgartirishlar taklif qilinishi mumkin.

Odatda Konstitutsiyani urush yoki favqulodda holat davrida qayta ko'rish mumkin emas. Meksikada Konstitutsiya umuman o'zgartirilmaydigan hujjat sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 127, 128-moddalarida unga o'zgartirishlar kiritish tartibi mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun yoki O'zbekiston Respublikasining referendumini bilan kiritiladi.

Konstitutsiyani bekor qilish va uning yangi matn bilan o'zgartirilishi juda kam uchraydigan hollardan hisoblanadi. Masalan, Shri-Lanka, Janubiy Afrika Respublikasi, Rossiyada Konstitutsiyani qayta ko'rish uchun Konstitutsiyaviy majlis zarur.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy mobaynida Konstitutsiyaga o'zgartirishlar hamda tuzatishlar kiritish to'g'risida keng va har taraflama muhokamani hisobga olgan holda qonun qabul

qilishi mumkin. Agar Oliy Majlis Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o'tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. «Konstitutsiya» so'zining lug'aviy ma'nosi nima?
2. Konstitutsiyaning yuridik belgilarini sanab bering.
3. Konstitutsiyaning shakli deganda nimani tushunasiz?
4. Konstitutsiya ijtimoiy mazmuniga ko'ra necha turga bo'linadi?
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishini ayting.
6. Konstitutsiya qanday usullarda qabul qilinadi?
7. Konstitutsiyaning bevosita amal qilinishining necha xil ko'rinishlari mavjud?
8. Konstitutsiyaning ichki shakli elementlarini sanab bering.
9. Konstitutsiyani qabul qilish jarayoni oddiy qonunlardan nimasi bilan farqlanadi?
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'zgartirish tartibi qanday belgilangan?

III BOB

MUSTAQIL O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINI ISHLAB CHIQISH VA QABUL QILISHGA TA'SIR ETGAN OMILLAR

1-§. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasini qabul qilishning tarixiy zarurati

O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasini yaratish haqidagi ilk g'oya Respublikamizning 1990-yil mart oyida bo'lib o'tgan o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning birinchi sessiyasidayoq aytilgan edi. O'zbekiston Oliy Kengashining 1990-yil 20- iyunda e'lon qilingan «Mustaqillik deklaratsiyasi» mamlakatimiz yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqishga asos bo'ldi. O'sha kuniyoq Oliy Kengash O'zbekis-

ton Prezidenti boshchiligidagi 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Komissiya tarkibiga deputatlar, davlat hamda jamoat tashkilotlari, korxonalar xo'jaliklarining rahbarlari, taniqli huquqshunoslar, olimlar va mutaxassislar kirdi.

Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan Konstitutsiyaning konsepsiyasi ustida ish boshlab yuborildi. Natijada uchta muqobil konsepsiya yaratildi: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Falsafa va huquq institutining konsepsiyasi, Siyosatshunoslik va boshqaruv institutining konsepsiyasi va Prezident devoni yuridik bo'limi tayyorlagan konsepsiya. Ishchi guruh majlisida uchinchi konsepsiya asos sifatida qabul qilindi.

Konstitutsiya loyihasining dastlabki nusxasi 1991-yil 3-choragida tayyorlab bo'lingi. U muqaddima, olti bo'lim, 158 moddadan iborat bo'ldi. Bu orada 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishdi. Buning asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining «Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Qonunda xalq hokimiyatchiligi, inson huquqlari muqaddasligi, qonun ustuvorligi, hokimiyat bo'linishi, mamlakatning hududiy yaxlitligi kabi prinsiplar mustahkamlandi. Ushbu demokratik prinsiplar Konstitutsiya mazmunidan joy oldi. Shu kuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida «Davlat Mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti» ham e'lon qilindi.

Shunga qaramasdan dastlabki loyiha hali mukammallik darajasidan ancha yiroq edi.

1992-yil bahorda Konstitutsiya loyihasining 149 moddadan iborat ikkinchi nusxasi ishlab chiqildi. Mamlakat Prezidenti ishtirokida Konstitutsiyaviy komissiyaning navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda Konstitutsiya loyihasi ustida olib borilgan ishlar to'g'risida axborot tinglandi. Shu tariqa ishchi guruh tomonidan Konstitutsiya loyihasining uchinchi nusxasi tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi puxta ishlovlardan so'ng Konstitutsiyaviy komissiya qarori bilan 1992-yil 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi qariyb uch oy davom etdi. Unda mamlakatda yashovchi turli millat vakillari ishtirok etdi. Matbuotda, radio va televideniye orqali, korxona, muassasa hamda tashkilotlardagi yig'ilishlarda, auditoriyalarda qizg'in muhokamalar bo'lib o'tdi. Konstitutsiyaviy komissiya dastlab belgilagan ikki yarim oylik muddat

mobaynida muhokama qilingan loyiha fuqarolar taklif va mulohazalari asosida qayta tuzilib, 1992-yil 21- noyabrda muhokamani davom ettirish uchun ikkinchi marotaba matbuotda e'lon qilindi.

Ayni vaqtda umumxalq muhokamasi davomida loyihani yaxshilashga doir ko'plab taklif va mulohazalar bildirildi. Konstitutsiya komissiyasining o'zigagina 6 mingdan ortiq taklif va mulohaza tushdi. Tushgan taklif va mulohazalarning hammasi atroflicha puxta o'rganildi hamda loyiha ustidagi ishlarni davom ettirish chog'ida ulardan foydalanildi. Konstitutsiyaviy komissiyaga fikr-mulohazalar bildirilgan 600 taga yaqin xat kelib tushdi. Respublika matbuotining o'zida Konstitutsiya loyihasiga bag'ishlangan yuzdan ortiq materiallar e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida muhokama qilish uchun kiritilgan Konstitutsiya loyihasiga 80 ga yaqin o'zgartishlar, qo'shimchalar taklif etildi va aniqliklar kiritildi. Ularning ayrimlari muhim ahamiyatga ega edi. Parlament sessiyasining ishi davomida deputatlar ham unga qator o'zgartishlar kiritdilar.

«O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi dunyoga kelishiga asosan ikkita omil sabab bo'ldi. Shulardan biri jamiyatning bozor munosabatlari tomon tutgan yo'li, yangi taraqqiyotdagi umumiy qonuniyatlar va yo'nalishlarga muvofiq ravishda O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi bo'ldi. O'zbekistonning davlat mustaqilligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilinishini taqozo etgan ikkinchi omil bo'ldi»⁶.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilishning tarixiy zaruratiga quyidagilar kiradi:

— Sobiq Ittifoqda paydo bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tanglik;

— O'zbekiston Respublikasining o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi hamda dunyo xaritasida yangi suveren O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi;

— «Mustaqillik deklaratsiyasi»ni va «Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi Konstitutsiyani qabul qilishga huquqiy asos bo'ldi;

— O'zbekiston xalqi o'z oldiga huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurishni maqsad qilib qo'ydi.

⁶ O'razayev Sh.Z. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi. — T.: «Adolat», 1994, 7-bet

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi Asosiy Qonun sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo'lishi muqarrar⁷.

2-§. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining asosiy g'oyalari va uning demokratik xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi nafaqat milliy qonunchilik asosi, balki o'zbek xalqining ham boshqa rivojlangan mamlakatlar xalqlari kabi inson aql-zakovati, sha'niga mutanosib huquqiy davlat, fuqaroviy demokratik jamiyat qurilishining Konstitutsiyaviy-huquqiy garovidir.

Bu Konstitutsiyaviy-huquqiy asos mustaqilligimizning birinchi o'n yilligi boshidayoq, davlat suverenitetini saqlab qolish, mustahkamlash, takomillashtirishga imkon beribgina qolmay, balki barqaror taraqqiyotimiz uchun poydevor bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasida huquqiy davlat, fuqaroviy demokratik jamiyat qurish quyidagicha belgilangan: «O'zbekiston xalqi inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib;

- Hozir va kelajak oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda;
 - O'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib;
 - Demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib;
 - Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalarining ustunligini tan olgan holda;
 - Respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib;
 - Insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab;
 - Fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlashi maqsadida;
 - O'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiya-sini qabul qiladi».
- Yuqorida sanab o'tilgan, ta'kidlangan ustuvor me'yorlar O'zbekistonda huquqiy davlat, erkin fuqaroviy demokratik jamiyat qurish, o'zbek xalqining eng ulug'vor, ezgu maqsadi ekanligini ko'rsatib turibdi.

⁷ Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. –T.: «O'zbekiston». 1992, 44-bet

Shuning uchun ham O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov 1995-yildayoq, «Biz fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlanib borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini-o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir»⁸ degan edilar.

O'zbekiston Konstitutsiyasi o'tish davrida ham, bugun ham xalqimiz, millatimizning, milliy davlatchiligimizning an'analarga tayangan holda rivojlantirish, davlatchiligimizning Konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yaratish va takomillash-tirishga bo'lgan katta ishonchi, mustaqilligimizni zavol topmasligiga bo'lgan cheksiz ishonchi-e'tiqodi ifodasidir. Bu bilan biz nafaqat faxrlanamiz, mamnun bo'lamiz, balki uch ming yillik o'zbek milliy davlatchiligi, o'zbek xalqi o'z ozodligi, erkinligi va mustaqilligini saqlab qolish, muhofaza qilish yo'lida hamon sobit qadam tashlayotganligiga, davlatchiligimizning kelajagi bundan-da buyukroq bo'lishiga ishonamiz.

O'zbekiston Konstitutsiyasining muqaddasligi shundaki, u mustabid tuzum, uning mafkuraviy aqidalaridan millatimizni xalos qilish, zamonaviy hayot kechirish, yashash, fikrlashga o'tish, O'zbekistonda, mintaqamizda, balki butun dunyoda tinchlikni saqlab qolish, barqaror taraqqiyotimizni davom ettirish, hududiy, etnik, madaniy yaxlitligimiz, bir butunligimiz va daxlsizligimizni ta'minlash, o'zimiz tanlagan yo'l – taraqqiyotning «O'zbek modeli» yo'lidan izchil, og'ishmay va sobit qadamlik bilan rivojlanishni ko'rsatib berdi. Konstitutsiya barqaror taraqqiyotimiz uchun buyuk Konstitutsiyaviy-huquqiy asos, tayanch va pirovard maqsad, nishon bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining har bir moddasining bandi ijtimoiy adolatning qaror topishiga yo'naltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ijtimoiy adolatni qaror toptirish uchun esa qonun ustuvorligi qoidasi O'zbekiston Respublikasining zamonaviy, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyat qurishga o'tish yo'lining besh tamoyilidan biri sifatida e'tirof etildi. Bu esa Konstitutsiya, qonunlarga yuksak itoat, rioya, unga bo'ysunish va ularni bajarish taraqqiyotimizning asosiy o'ziga xosligidir.

Konstitutsiyamizning yana bir ijobiy jihati — jamiyat hayotining barcha jabhalarini erkinlashtirish, insonning munosib yashashi uchun shart-sharoit yaratib berishga qaratilgan. Bunda,

⁸ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbol-larining asosiy tamoyillari. — T.: «O'zbekiston», 1995, 14-bet

ayniqsa, sodir etilgan jinoyatlarga belgilanadigan jazoni yumshatish, yengillashtirish (ya'ni liberallashtirish), jazoning iqtisodiy zararning qoplanishiga qarab yumshatilishi, jinoyat oqibatida jabrlanuvchi bilan jinoyatchi o'rtasida katta miqdorda zarar yoki davlat, jamiyat asoslariga qarshi bormaganda tomonlarning milliy an'analarimiz ruhida yarashish instituti qayta tiklanishi, mulkni zo'rlik yo'li bilan musodara etish, oila, bola-chaqa, qarindosh-urug'larni ham qo'shib jazolash usulidan voz kechish, shuningdek, jinoyat uchun muqobil jazo tayinlash kabi muhim yengilliklar Konstitutsiyamizning to'g'ri rivojlanish yo'lida ekanligini ko'rsatadi.

Jamiyat siyosiy va huquqiy tizimini tubdan o'zgartirish muhim sababchisi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega.

1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik hujjatdir. Uning mazmun va mohiyatida avvalo inson omili yotadi. Konstitutsiya normalarida dastlab fuqarolarning huquq va erkinliklari mustahkamlangan bo'lib, davlat organlari faoliyatini tartibga soluvchi normalar keyingi ketma-ketlikda berilgan. Shuningdek, Konstitutsiyamiz eng rivojlangan mamlakatlar Konstitutsiyaviy tajribasi asosida ishlab chiqilgan.

Ko'ppartiyaviylik
ega bo'lgan davl
misol qilib Fransiy
maniya, Italiya maml
larini keltirish mumk
Hindistonda esa 300 ga ya
qin atrofida siyosiy partiy
alar mavjud ekan.

2) Konstitutsiyamizning o'ziga xos xususiyatlaridan biri mamlakatimizda ko'ppartiyaviylik tizimining joriy etilganligini o'zida aks ettirganidir. Haqiqiy demokratik rejimdagi davlatlarning asosiy belgisi jamiyatda ko'ppartiyaviylik tizimining mavjudligidadir. Bu esa shaxslarning huquqlari ta'minlanishiga; ozchilikni tashkil etuvchi guruh manfaatlarini ham ro'yobga chiqarishga; davlat hokimiyatini amalga oshirishda turli xil g'oyalar va qarashlardan eng maqbulining belgilanishiga hamda amalga oshirilishiga; jamiyatda siyosiy barqarorlikni ta'minlashga zamin yaratadi.

3) Yangi jamiyatning iqtisodiy asoslarini bozor munosabatlari sari yo'naltirilgan turli mulkchilik shakllari va ularning huquqiy tengligi haqidagi Konstitutsiyaviy qoida o'rnatildi va ilk bora xususiy mulk e'tirof etildi. Chunki, xususiy mulk — ushbu mulk egasi bo'lgan fuqaroning iqtisodiy faoliyat yuritish erkinligini, raqobat kurashida faol va samarali ishtirok etishini

ta'minlaydigan, oxir-oqibat fuqarolarning farovon hayot kechirishlariga sabab bo'ladigan ijtimoiy- iqtisodiy moddiy asosdir.

4) O'zbekiston davlat qurilishi tizimidagi talaygina o'zgarishlar Konstitutsiyada ham o'z aksini topdi. Jumladan, Prezidentlik lavozimi, Ministrlar Soveti o'rniga Vazirlar Mahkamasi birinchi bo'lib O'zbekistonda ta'sis etilib, ijro etuvchi hokimiyatning tizimi bevosita Respublika Prezidentiga bo'ysundirildi. Yangi strukturaga asoslangan Parlament — Oliy Majlis tashkil topdi. Parlament islohotlaridan so'ng ikki palatali tizimga o'tildi.

5) O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligi Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

6) Yagona hukmron mafkura (marksizm-leninizm)dan va faqat sinfiylikka asoslanishdan voz kechilib, umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi bo'lmasligi mustahkamlandi.

7) Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati bo'linish tamoyiliga asoslanishi mustahkamlandi. Davlat hokimiyatining asosiy yo'nalishlar bo'yicha izchil taqsimlanishi, bo'linishi, ularning bir-biridan mustaqil, qaram bo'lmagan hokimiyat shakllari sifatida a'hal qilish talabidir. Ya'ni, qonun chiqaruvchi hokimiyat qonunlarni chiqarishga mas'uldir. Ijroiya hokimiyati esa mazkur qonunlarning muqarrar bajarilishi uchun mas'uldir. Odil sudlov esa jamiyatda odil sudlov, ijtimoiy adolatning muqarrar g'alaba qilishi uchun mas'uldir. Hokimiyatlar o'z vakolatlari doirasida tamomila mustaqil bo'lishlari, shuningdek, ularning Konstitutsiya va qonun ustuvorligi asosida bir-birlarini o'zaro nazorat qilish bilan davlat hokimiyatining asosiy yo'nalishlari o'rtasida qudratli kuchlar muvozanati (balansi) vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

8) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yana bir o'ziga xos xususiyati barcha fuqarolarga vijdon erkinligi, ya'ni har bir fuqaro xohlagan diniga e'tiqod qilishi yoki hech bir dinga e'tiqod qilmasligi mustahkamlandi. Din davlat siyosatidan ajratildi.

9) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi mavjudligini va uning Konstitutsiyaviy huquqiy maqomini mustahkamladi.

10) Eng ustuvor yo'nalishlardan biri — so'z va matbuot erkinligi, deb belgilandi.

3-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. Konstitutsiyaning mazmuni quyidagi izchillikda rivojlantirilgan: **shaxs — jamiyat — davlat.**

Birinchi bo'limda mustaqil O'zbekiston davlatining asosiy Konstitutsiyaviy prinsiplari ko'rsatilgan. Bunday prinsiplar qatoriga davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi hamda tashqi siyosatimiz tamoyillari kiradi.

Ikkinchi bo'limda O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklari tizimi mustahkamlangan.

Uchinchi bo'lim fuqarolik jamiyatining an'alarini tiklashga qaratilgan ijtimoiy uyushmalar va munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solib, ularning rivojlanishini ta'minlaydi.

To'rtinchi bo'lim ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishiga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekiston viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalardan hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Beshinchi bo'lim davlat hokimiyati organlarini tashkil etish, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari Konstitutsiyaviy maqomi muayyan tartibda mustahkamlangan. Davlatimizning markaziy organlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy Sudi, Oliy hamda Xo'jalik Sudlari, Prokuratura, mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyat tartibi belgilab berilgan. Saylov tizimining prinsiplari, moliya va kredit, xavfsizlik va mudofaa masalalari ham ushbu bo'limda tartibga solingan.

Oltinchi bo'lim Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga bag'ishlangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi VI bo'lim, 127-128-moddalarida mustahkamlab qo'yilgan Oliy Majlis tomonidan Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish instituti bilan bir qatorda umumxalq ovozi — referendum o'tkazish protsedurasiga ham murojaat qilindi va bu juda katta Konstitutsiyaviy-huquqiy o'zgarishlarga olib kelibgina qolmay, xalqimizning fuqaroviy jamiyat, huquqiy davlat qurishga qaratilgan islohotlarga bo'lgan umid, ishonchini mustahkamladi.

4-§. Islom Karimov — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratuvchisi va tashabbuskori

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, yangi suveren davlat maqomini Konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlab qo'yish muammosi yuzaga keldi. O'zbekiston Prezidenti mamlakatni o'zining rivojlanish yo'lini Konstitutsiyaviy asosda belgilab olishi zarurligini bir necha bor ta'kidlagandi. «Davlatimizning kelajagi, xalqimizning taqdiri ko'p jihatdan Konstitutsiyamiz qanday bo'lishiga bog'liq»⁹, – degan edi yurtboshimiz.

Sovetlar hokimiyatini o'rnatgan bolsheviklar (masalan: Turkiston ASSRning 1918-yilgi Konstitutsiyasi, O'zbekiston SSRning 1927; 1937; 1978-yilgi Konstitutsiyalari) mustamlakachilik siyosatini yangi-yangi hujjatlar qabul qilish usullari bilan amalga oshira boshlaganlar. Shuningdek, kommunistik partiya olib borgan siyosat tufayli millionlab begunoh kishilarning qatag'on qilinishiga, qonunsiz, sudsiz yo'q qilib yuborilishiga shart-sharoitlar yaratilgan. Shunga qaramasdan, O'zbekiston xalqining mustaqillik uchun olib borgan sa'y-harakatini 1989-yildan boshlab I.A.Karimov O'zbekiston xalqining asriy istiqlool orzularini ro'yobga chiqardi.

Konstitutsiyamizning yaratilishida, muhokama qilinishida va qabul qilinishida Konstitutsiyaviy komissiyaning Raisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning rolini alohida ta'kidlash lozim. U kishi nafaqat Konstitutsiya ishlab chiqish tashabbuskori, nafaqat loyiha tayyorlash ishlariga rahbar, balki Asosiy Qomusning tub mohiyati, falsafasi, asosiy g'oyalarining muallifidir. I.A.Karimov Konstitutsiyaning har bir moddasini aqli va yuragi bilan his etdi, uni pishitdi va takomillashtirdi¹⁰.

Undagi qoidalar Islom Karimov ifodalab bergan g'oya va prinsiplarni mustahkamladi. Konstitutsiya loyihasi o'zining tuzilishi bilan O'zbekiston Prezidentining ulkan yaratuvchilik va islohotchilik faoliyati natijasi ekanligini ko'rsatib turardi. Shuningdek, uning zimmasiga jamiyatni yangilash, o'tish davrining murakkab sharoitida davlatimizni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, davlat-huquqiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirishning pishib yetilgan muammo-

⁹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: «O'zbekiston», 1996, 124-bet

¹⁰ O'razayev Sh. Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi qanday yaratildi //Inson va demokratiya, 1993, 2-son, 8-bet.

larini hal qilish kabi tarixiy vazifani yukladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Prezidentimiz buyuk davlat va jamoat arbobi, iste'dodli siyosiy yetakchi sifatida namoyon bo'ldi.

Konstitutsiya loyihasini tayyorlash borasidagi barcha ishlar I.A. Karimovning bevosita rahbarligida amalga oshirildi.

Prezident Konstitutsiyaviy komissiya ish boshlashi bilan Respublikamizning o'ziga xos jihatlarini va xususiyatini munosib ravishda aks ettiradigan, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan, jahon tajribasini, demokratik va eng

Ayrim mamlakatlarda Konstitutsiyalar davlat boshlig'i tomonidan hadya etilgan. Masalan, Iordaniyada bu holat kuzatilgan.

rivojlangan mamlakatlar Konstitutsiyaviy qonunchiligi erishgan yutuqlarni inobatga oladigan Asosiy Qonun loyihasini tayyorlashni ta'minlashga harakat qildi. Loyihani tayyorlash chog'ida Yevropa, Osiyo, Amerika mamlakatlarining Konstitutsiyalari o'rganib chiqildi. U inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlariga oid boshqa xalqaro hujjatlarni inobatga olgan holda tayyorlandi¹¹.

O'zbekistonning yetakchi huquqshunos olimlaridan biri, o'sha paytda Konstitutsiyaviy komissiyaning a'zosi bo'lgan akademik Sh.Z. O'razayev shunday xotirlaydi: «Prezidentimiz shunda ham juda taqchil vaqtidan fursat ajratib, Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha tuzilgan ishchi guruhning a'zolarini qabul qilar, loyihani qayta-qayta o'qib chiqar, uning matnini chuqur mushohada qilar va unga tuzatishlar kiritardi. Bu kishining g'oyat ajoyib tahlil qobiliyati, kelajakni oldindan ko'ra olishi, nozik his etish iste'dodi bizni nihoyatda hayratga solardi. U mehnatga doimo tayyor, hamisha izlanishda, ishning mohiyatini tushunishga va u bo'yicha eng maqbul qaror chiqarishga intilardi. Konstitutsiyaviy komissiyaning raisi loyihaning har bir tafsilotiga e'tibor berar, unga o'z qo'li bilan tuzatishlar va aniqliklar kiritardi, ishga astoydil yondashish, ishbilarmonlik va bilimdonlik namunasini ko'rsatar edi. Prezident – o'ziga nisbatan juda talabchan shaxs. Ko'pincha, nazarimizda, uning bu talabchanligi o'ziga nisbatan shafqatsizlikka yaqinlashib ketardi. U yarim tungacha ishlar va ishning juda katta qismini o'z zimmasiga olardi. Kunlar ketidan kunlar, shanba va yakshanba — dam olish kunlari ham shu tariqa o'tardi»¹².

¹¹ Qarang: Saidov A. X. Jahon Konstitutsiyaviy amaliyoti va O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni. – T.: «Bilim», 1992.

¹² Qarang: Уразаев Ш.З. Как готовился проект Конституции Республики Узбекистан // Народное слово. 1992. 26-декабря.

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi xalqchil qomusdir. Sababi—uning loyihasi ustida, I.A.Karimov ta'kidlaganidek, taxminan ikki yil davomida ishladi. U ikki yarim oy mobaynida umumxalq muhokamasidan o'tdi, xalqning fikr xazinasini durdonalari bilan boyitildi, sayqal topdi¹³. Asosiy Qomusimizda fuqarolarning ahilligi, xalqimizga xos odamiylik, umuminsoniy qadriyatlarga ixlos kabi yaxshi sifatlar o'z aksini topgan. Yurtimizga xos qardoshlik va do'stlik an'analari, o'zining boy va teran tarixiga ega bo'lishi, xalqlarning o'zaro totuvligi va qo'shnichiligi prinsiplari ham Konstitutsiyamizda muhim o'rin tutadi¹⁴.

Islom Karimov Konstitutsiya loyihasini ayollar va erkaklarning teng huquqliligi, davlatning madaniy yodgorliklar, onalik va bolalikni muhofaza qilish haqidagi moddalar bilan to'ldirishni taklif qildi, asosiy e'tiborni Konstitutsiyaning inson va fuqarolar erkinliklari va burchlarini qonuniy mustahkamlovchi moddalariga qaratdi. Prezident Konstitutsiya loyihasini birinchi marta e'lon qilguncha to'rt marta, keyingi e'lon qilingunicha esa yana ikki marta tahrir qildi. Fuqarolarning aniq takliflari va mulohazalarini o'rganib chiqib, Oliy Kengash sessiyasidan avval loyihani qo'lida qalam bilan yana bir bor ko'rib chiqdi¹⁵.

Islom Karimovning Konstitutsiyada o'z aksini topgan g'oyalari uning 1992-yil yozida chop etilgan «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida ifodalab berildi. U shunday deb yozgan edi: «Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi yangi jamiyatning ishonchli huquqiy kafolatlarini shakllantiradi va mustahkamlaydi. Bu Asosiy Qonun har tomonlama va chuqur o'ylangan umumxalq muhokamasidan keyin demokratik yo'l bilan qabul qilinadi. Umumiy g'oyasiz bizning ko'p millatli mamlakatimizda mustahkam ma'naviy makonni yaratish mumkin emas. Konstitutsiya bizga inson huquqlari, ozodlik, barqarorlik va taraqqiyot majmuini ifodalaydigan demokratik, huquqiy va adolatli davlatni qanday qilib qurish yo'llarini ochib beradi»¹⁶.

¹³ Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: «O'zbekiston», 1992, 36-37-betlar

¹⁴ Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: «O'zbekiston», 1992, 36-37-betlar

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. TDYUI. — T.: «Moliya», 2002, 73-bet

¹⁶ Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: «O'zbekiston», 1996, 85-bet

«Darhaqiqat, – deb yozadi O‘rta Osiyo bo‘yicha taniqli mutaxassis professor L. Levitin, – O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasida hozirgi zamon jamiyatlariga ularning siyosiy-huquqiy tashkil etilishi nuqtayi nazaridan zarur bo‘lgan deyarli barcha narsa mavjud. Shaxsning mustaqilligi, hokimiyatlarning taqsimlanishi, mulkdorlik shakllarining xilma-xilligi, maskuraviy rang-baranglik, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy plyuralizm, boshqariladiganlarning roziligiga asoslangan hukumat singari va ko‘plab boshqa demokratik qadriyatlar Konstitutsiyaviy tuzumning prinsiplari sifatida tasdiqlanadi. Uzoq yillar davomida totalitar-mustabid tartibotning xomxayol-demokratik niqobi bo‘lib kelgan turli ko‘rinishdagi «sho‘rochiliklar» barham toptirilgan»¹⁷.

Prezident Konstitutsiyaning kafili sifatida unga rioya qilinishining etaloni hisoblanadi va shu nuqtayi nazardan o‘zi rahbarlik qilayotgan organlar va mansabdor shaxslarning faoliyatiga baho beradi. U Konstitutsiyaning kafili sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini, uning mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, davlat organlarining o‘z vazifalarini bajarishlarini va muvofiqlashgan hamkorligini ta‘minlash, Konstitutsiyaviy tuzumni mustahkamlash bo‘yicha barcha sharoitlarni yaratish uchun zarur chora-tadbirlarni ko‘radi¹⁸.

Konstitutsiyadan kelib chiqqan holda, I.A.Karimov o‘zining fundamental asarlarida O‘zbekiston taraqqiyotining strategik yo‘nalishlarini belgilab berdi. Konstitutsiyani kafolatlar ekan, davlat rahbari bevosita hamda davlat organlari orqali harakat qiladi. Konstitutsiyaning kafili sifatida Prezident umuman Konstitutsiyani himoya qilish mexanizmi ta‘sirining samaradorligi uchun shaxsan javobgarlik namunalari ko‘rsatmoqda. U davlatning milliy manfaatlarini himoya qilish, butun mamlakat hududida tinchlik, barqarorlik va qat‘iy Konstitutsiyaviy tartibni kafolatlash bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarar ekan, xalq ishonchini munosib oqlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvarda e‘lon qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida»gi farmoni Konstitutsiyani

¹⁷ Qarang: Islom Karimov – yangi O‘zbekiston Prezidenti. – T.: «O‘zbekiston», 1996, 89-90-betlar

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. TDYUI. — T.: «Moliya», 2002, 78-bet

kafolatlash va bu maqsad uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan¹⁹.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Hozirgi zamon Konstitutsiyaviy taraqqiyotining asosiy qonuniyatlari nimalardan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov asarlarida O'zbekiston Konstitutsiyasi haqida qanday fikrlar bildirilgan?
5. O'zbekistonning Konstitutsiyaviy-tarixiy bosqichlarida necha marotaba Konstitutsiyalar qabul qilingan?
6. O'zbekiston tarixida ilk marotaba qaysi hujjat asosida uning mustaqillik uchun qo'ygan birinchi qadami o'z ifodasini topgan?
7. O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyaviy qonuni qachon qabul qilingan va unda nimalar mustahkamlab qo'yilgan?
8. Akademik Sh. Z. O'razayev ta'biri bilan aytganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining dunyoga kelishiga qanday omillar sabab bo'lgan?
9. Konstitutsiyaviy Komissiya raisi kim edi va u nechta a'zodan iborat tarkibda tashkil topdi?
10. O'zbekistonning yangi Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasi uchun birinchi marta qachon matbuotda e'lon qilindi va u nechta moddadan iborat edi?
11. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi loyihasiga tushgan taklif va mulohazalar inobatga olingan holda qayta ishlanib, qachon muhokamani davom ettirish uchun matbuotda e'lon qilindi?
12. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi boshqa davlatlar Konstitutsiyalaridagidan nimasi bilan farq qiladi?
13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'ziga xos xususiyatlari va jihatlari qay tartibda o'rganiladi?
14. O'zbekiston Konstitutsiyasining yuridik xususiyatlari va yuridik belgilari nimalardan iborat?
15. O'zbekistonning davlat ramzlari qachon qabul qilingan va uning mazmun-mohiyatiga qanday ta'rif berilgan?
16. O'zbekistonda siyosiy va mafkuraviy xilma-xillik qanday rivoj topmoqda?
17. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishini belgilang.

¹⁹ «Xalq so'zi» gazetasi. 2001, 6-yanvar

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYAVIY TUZUMINING ASOSIY
TAMOYILLARI**

IV BOB

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASINING ASOSIY
TAMOYILLARI**

1-§. Suverenitet tushunchasi va uning turlari

✕ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi «O'zbekiston — suveren demokratik Respublika» ekanligini e'lon qiluvchi va qonuniy mustahkamlovchi muhim qoidadan boshlanadi. Xususan, uning 1-moddasida «O'zbekiston – suveren demokratik Respublika. Davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi», deb belgilangan.

Davlat xalqning rasmiy vakili sifatida o'z fuqarolarining irodasini ifoda etadi. Faqat suveren davlatgina fuqarolarning huquq va manfaatlarini to'la va har tomonlama ta'minlashi mumkin.

✓ **Davlat suvereniteti** deganda, davlat hokimiyatining ustuvorligi, uning mamlakat ichkarisida ham, xalqaro maydonda boshqa davlatlarga nisbatan ham to'la mustaqilligi tushuniladi. ✓ Suverenitet davlat hokimiyatining alohida xususiyati bo'lish bilan bir paytda davlatning muhim belgisi ham hisoblanadi. O'zbekistonda davlat hokimiyatini tashkil etishning eng muhim Konstitutsiyaviy tamoyillaridan biri davlat suvereniteti prinsipi hisoblanadi. ✕ «Davlat suvereniteti» iborasi fransuzcha «yuqori hokimiyat», «oliy hokimiyat» degan ma'noni anglatadi. Suveren davlat ichki va tashqi siyosiy faoliyatida o'zining mustaqil va oliy davlat hokimiyatiga, ya'ni qonun chiqaruvchi

hokimiyatiga ega bo'ladi. «Suverenitet» degan ibora huquqiy ma'noda birinchi marta XVI asrda fransuz olimi J. Bodin tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, suverenitet «Davlatning doimiy va mutlaq hokimiyatidir».

Xalq suvereniteti haqidagi ilmiy ta'limot dastlab feodalizmga qarshi kurash yo'lida ishlab chiqilgan edi.

«Xalq suvereniteti» nazariyasi fransuz olimi Jan Jak Russo tufayli burjua inqilobi arafasida o'zining haqiqiy qiyofasini topdi. Uning fikricha, «umumiy iroda» tomonidan boshqariladigan hokimiyat — suverenitet deb ataladi²⁰.

O'zbekiston xalqining suvereniteti mamlakatimizda hokimiyatning to'laligicha xalqqa tegishlilikini bildiradi. Xalq — hokimiyatning yagona manbai va subyekti, unga hech kim o'z irodasini o'tkaza olmaydi. Xalq suverenitetining mazmuni shundan iboratki, uning hokimiyati boshqa subyektga berilmaydi va bo'linmaydi. O'zbekistonda davlat hokimiyati xalqniki, faqat unga xizmat qiladi. Xalq suvereniteti davlat va milliy suverenitetlarida namoyon bo'ladi. O'zbekistonda suverenitetning manbai va yagona egasi bo'lgan xalq uni, eng avvalo, davlat hokimiyati orqali davlat suvereniteti sifatida amalga oshiradi.

Millat suvereniteti — millatning siyosiy va huquqiy holatidir. Har bir millat o'zining suveren siyosiy va huquqiy holatiga ko'ra, o'z siyosiy holatini o'z irodasi bilan, boshqa xalqlarning aralashuviz mustaqil tarzda belgilaydi, iqtisodiy, madaniy rivojlanish yo'lini tanlaydi va o'z milliy davlatini tuzadi.

Millat suvereniteti millatning ajralmas xususiyati bo'lib, uning mustaqil yashash huquqini bildiradi. Bu huquqning ma'lum darajada amalga oshirilishi, ya'ni o'zining milliy davlat shaklini tanlashi, yakka holda yoki boshqa millatlar bilan birgalashib davlat tuzishi milliy suverenitetning amal qilishi hisoblanadi.

Davlat hokimiyatining oliyligi o'sha davlatdagi barcha huquqiy munosabatlarning belgilanganligida, umumiy huquqiy tartibotning o'rnatilganligida hamda davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning majburiyatlarini belgilanganligida namoyon bo'ladi. Davlatning butun hududida oliy davlat organi tomonidan chiqarilgan Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi davlat hokimiyatining oliyligini bildiruvchi asosiy belgi sifatida tan olinadi.

²⁰ Ж.Ж.Руссо. Об общественном договоре или принципы политических прав. — М.: 1938, 235-ст.

Shunday qilib, davlat hokimiyatining oliyligi — bu hokimiyatning shunday holatiki, bunda boshqa bir hokimiyat undan ustun bo'lmaydi va bo'la olmaydi. Biroq hokimiyatning oliyligi uning cheksizligini bildirmaydi. Konstitutsiyaviy davlatda u doimo qonun bilan cheklab qo'yiladi. Davlatning suveren hokimiyati o'zga barcha hokimiyatlardan ustun turadi. Davlat hokimiyatining oliyligi uni yagona siyosiy hokimiyat sifatida rasmiylashtiradi, bu davlat hokimiyati bilan muvoziy tarzda boshqa biron-bir siyosiy hokimiyatning mavjud bo'lishini istisno etadi.

Davlat hokimiyatining birligi davlatning oliy hokimiyatini tashkil qiluvchi yagona organ yoki organlar tizimi mavjud bo'lishida ifodalanadi. Davlat hokimiyati birligining yuridik belgisi, davlat hokimiyati oliyligini tashkil qiluvchi organlar tizimining bevosita davlat funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan vakolatlarni qamrab olishini anglatadi. Shu tizimga tegishli organlar esa, bir xil subyektlarga, bir xil vaziyatlarda o'zaro istisno qiluvchi xulq-atvor qoidalarini ifodalay olmaydi. Suveren davlat hokimiyatining asosiy xususiyati uning mustaqilligi hisoblanadi. Davlat hokimiyatining mustaqilligi, shu davlatning boshqa davlatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri, bevosita munosabatlarida o'z ifodasini topadi.

2-§. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi- ning huquqiy asoslari

O'zbekiston mustaqilligi haqida gap borganda, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ning o'rni va ahamiyatiga alohida to'xtalish lozim.

«Mustaqillik Deklaratsiyasi»da o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olinishi uqtirildi.

Deklaratsiyada O'zbekistonning suveren va mustaqilligi haqida shunday me'yorlar belgilangan:

Birinchidan, O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi Respublikaning o'z hududida, barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir.

Ikkinchidan, O'zbekiston SSRning davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo'yilmay turib, o'zgartirilishi mumkin emas.

Uchinchidan, O'zbekiston SSRda davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari ustidan amalga oshiriladi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqlidir.

To'rtinchidan, SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlangandan keyingina O'zbekiston SSR hududida kuchga ega bo'ladi.

Beshinchidan, O'zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O'zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi.

Oltinchidan, O'zbekiston SSR xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi va hurmat qiladi.

Yettinchidan, O'zbekiston SSR ittifoqdosh Respublikalar va boshqa davlatlar bilan o'zining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa munosabatlarini shartnomalar asosida belgilaydi va amalga oshiradi.

Sakkizinchidan, O'zbekiston SSR o'zining taraqqiyot yo'lini, o'z nomini belgilaydi va davlat belgilari (gerbi, bayrog'i, madhiyasi)ni o'zi ta'sis etadi.

To'qqizinchidan, Qoraqalpog'iston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi mustaqilligini Muxtor Respublika Konstitutsiyasi ta'min etadi. O'zbekiston SSR uning Asosiy Qonuni va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi asosida Qoraqalpog'iston MSSR manfaatlarini himoya qiladi.

O'ninchidan, O'zbekiston SSRning qonun chiqaruvchi hokimiyati O'zbekiston SSR davlat mustaqilligini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonunlarni ishlab chiqadi, O'zbekiston SSRning siyosiy va iqtisodiy sistemalari tarkibini va qurilishini belgilaydi.

O'n birinchidan, O'zbekiston SSR Oliy Soveti umumxalq muhokamasi asosida demokratik huquqiy davlat tuzishga qaror qilganini bildiradi, O'zbekiston SSRda yashayotgan barcha millat va elatlarning qonuniy, siyosiy, iqtisodiy, etnik, madaniy huquqlariga hamda ona tillari rivojlantirilishiga kafillik beradi.

O'n ikkinchidan, ushbu Deklaratsiya O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasini hamda yangi ittifoq shartnomasini ishlab chiqish uchun asosdir²¹.

²¹ Ushbu me'yorlar 1990-yilgi «Mustaqillik Deklaratsiyasi»dan olinganligi sababli unda O'zbekiston SSR Oliy Soveti, Qoraqalpog'iston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi, SSSR kabi o'sha davrga oid iboralar qo'llanilmoqda.

O'zbek xalqining asrlar davomidagi orzusi – o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga erishish 1991-yil 31-avgustda ushaldi. Shu kuni O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi. 1991-yil 31-avgust kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot O'zbekiston hukumatining siyosiy yo'lini to'la qonunlashtirib berdi. Bu tarixiy hujjatda quyidagi xulosalar ilgari surilgan edi:

« — O'tmishdan saboq chiqarib va SSR Ittifoqining siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni e'tiborga olib;

— Xalqaro-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib;

— O'zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas'u-liyatni anglab;

— Shaxs huquq va erkinliklarining, mustaqil davlatlar o'rtasidagi chegaralarning buzilmasligi to'g'risidagi qat'iy sadoqatni bayon etib;

— Millati, diniy e'tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, Respublika hududida yashovchi har bir kishining munosib hayot kechirishini, sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilib;

— Mustaqillik Deklaratsiyasini amalga oshirib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning davlat mustaqilligi va ozod suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qiladi.

O'zbekiston Respublikasining o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga hududi bo'linmas va daxlsizdir. O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlarga hududiy da'volari bo'lmay, u o'z hududi va tabiiy boyliklariga nisbatan oliy huquqqa egadir».

O'zbekiston parlamentining bu bayonoti o'zining qonun kuchi bilangina emas, siyosiy mantig'i, ma'naviy qudrati, xalqaro huquq normalariga mos kelishi va eng muhimi, millat taqdirini hal etadigan tarixiy qadriyat ekanligi bilan alohida ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1991-yilning 31-avgustida O'zbekiston Respublikasining «Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun qabul qilish ushbu qonun doirasida O'zbekiston SSRni bundan keyin O'zbekiston Respublikasi deb atash, 1-sentabrni Mustaqillik kuni deb e'lon qilish, O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimcha-

lar kiritish, shuningdek, ittifoqning va uning tarkibiga kiradigan barcha mustaqil davlatlarning oliy qonun chiqaruvchi idoralariga, barcha xorijiy davlatlarga va jahon hamjamiyatiga murojaat qilib, ularni Respublikaning davlat mustaqilligi e'lon qilingan hujjatini tan olishga da'vat etish to'g'risida qaror qabul qildi. Bu bevosita O'zbekiston mustaqilligining dastlabki huquqiy poydevori edi.

Ayni shu maqsadlarni ko'zlab, Respublika Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi 1991-yil 31-avgustda o'z ishini boshladi.

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyat kasb etganligini alohida ta'kidlash lozim. Unda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» Konstitutsiyaviy qonun hamda «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi qonun kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi.

Bilasizmi, hozirgi vaqtda dunyoda 230ga yaqin mustaqil suveren davlatlar mavjud.

Oliy Kengash deputatlari O'zbekiston Respublikasining «Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunni moddama-modda muhokama qilib, qabul qildilar. So'ngra Respublika Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot qabul qilinib, O'zbekiston SSRning nomi O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. Mustaqillik belgilangan kun 1-sentabr 1991-yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lganligi uchun bu muhim hujjat haqida batafsil to'xtash lozim. Mazkur qonun asosida O'zbekistonning huquqiy holati tubdan o'zgardi. O'z mohiyatiga ko'ra ushbu hujjat Respublika uchun vaqtincha Konstitutsiya rolini ham o'ynaydigan bo'ldi. O'n yetti moddadan iborat bu qonun suveren O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab beradi. Unda:

— O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga mustaqil demokratik davlat deb e'lon qilindi;

— O'zbekiston Respublikasining xalqi davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi ekanligi;

— O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga egaligi, o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash huquqi ko'rsatildi;

— O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya, uning qonunlari ustun ekanligi va davlat idoralarining tizimi, hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida qurilganligi;

— O'zbekiston mustaqilligining iqtisodiy asoslari izohlab berildi;

— O'zbekistonning tashqi siyosiy aloqalardagi mustaqilligi belgilandi;

— O'zbekiston Respublikasi hududida Inson huquqlari umumjahon Dek-laratsiyasiga muvofiq holda Respublika fuqaroligi joriy etilishi, fuqarolar millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi, qaysi dinga mansubligidan qat'i nazar, bir xil huquqlarga egaligi va ular Respublika Konstitutsiyasi va qonunlari himoyasida bo'lishlari qonunlashtirildi;

— Davlat ramzi bo'lgan gerb, bayroq va madhiya hamda davlat tili haqida normalar belgilandi;

— Qoraqalpog'iston O'zbekiston tarkibida ekanligi e'tirof etiladi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi tarkibidan tegishli tartibda chiqib ketishi mumkinligi ham e'tirof etildi.

Bunday Qonunning qabul qilinishi mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan yutuqlarning natijasi hisoblanadi. Bu esa huquqiy, iqtisodiy hamda ma'naviy-axloqiy munosabatlar natijasi sifatida juda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ushbu Qonunga O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1991-yil 30-sentabr qarori bilan Konstitutsiyaviy qonun maqomi berildi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi uning xalqi erishgan huquq va erkinliklarini, davlat hokimiyatini tashkil etishdagi o'z xohish-istaklarini qonuniy tartibda rasmiylashtirib, mustahkamladi. O'zbekiston Respublikasining «Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun e'lon qilingan kundan boshlab to yangi Konstitutsiya qabul qilingunga qadar 15 oy vaqt o'tdi, ana shu davr ichida davlat boshqaruvini qayta tashkil etishda g'oyat katta amaliy ishlar tajribasi to'plandi. Unda yashovchi xalqlarning yangicha yashashga va o'z davlat tuzumini barpo qilishga bo'lgan intilishlari va ularning huquq va erkinliklarini rivojlantirishning eng muhim kafolati ekanligi unda

mustahkamlab qo'yildi. Shu davr mobaynida demokratik ijtimoiy va davlat tuzumining asoslari, oliy va mahalliy davlat hokimiyati va idora organlarining tizimi tarkib topdi, umuminsoniy demokratiya prinsiplari o'rnatildi. O'zbekiston Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari maromiga yetkazildi. Bu prinsiplar xalq ommasining ham mamlakat ichida, ham butun jahonda mustaqillik uchun olib borgan kurashlari natijasini o'zida mujassamlashtirdi. Shu tariqa, mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi hamda faoliyati prinsiplarini va boshqa ijtimoiy munosabatlarni belgilab beradigan Konstitutsiya qabul qilish zaruriyati paydo bo'ldi.

3-§. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari: bayroq, madhiya va gerb

Har qanday mustaqil davlatning belgilari jumlasiga uning timsoliy ramzlari ham kiradi.

Ramzlar — shartli belgilar bo'lib, ular qadim zamonlardayoq turli xalqlarda u yoki bu hodisa, olam, mavjudot, odamlar tasvirini ifodalagan. Ramzlar bevosita xalq, millat hayoti, an'analari, ruhiyati, folklori, tarixi bilan chambarchas bog'liqdir.

Davlat ramzlari — bu mustaqil davlatning muhim tashqi belgilarini o'zida mujassamlashtiradi. Davlat ramzlarida xalqning azaliy orzusi, uning ezgu niyatlari, bugungi hayot mazmuni aks etadi.

O'zbekiston Respublikasining bayrog'i, gerbi va madhiyasi. Har bir mustaqil davlat o'z bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega bo'ladi. Konstitutsiyamizning 5-moddasida davlatimiz bayrog'i, gerbi va madhiyasining huquqiy asoslari belgilab berilgan. Yo'l boshchimiz ta'kidlaganidek, «Davlatimiz ramzlari — bayroq, gerb va madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi» va ular haqida maxsus qonunlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risidagi qonun 1991-yil 18-noyabrda, Davlat gerbi to'g'risidagi qonun 1992-yil 2-iyulda, Davlat madhiyasi to'g'risidagi qonun 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari muqaddas bo'lib, ularni har qanday yo'l bilan tahqirlash qonun bilan javobgarlikka tortiladi.

Davlat ramzlari haqida gapirar ekanmiz, avvalo ularning mohiyati, nima uchun zarurligi va tarixiy kelib chiqishi haqida ham bilib olish kerak. Shundagina ularning davlat hayotida tutgan o'rnini va ahamiyatini tushunarli bo'ladi.

Avstraliya gerbida faqat Avstraliyada yashovchi noyob hayvon kenguruning tasviri tushurilgan.

Davlat bayrog'i – bu tasviri qonun tomonidan (ko'pincha Konstitutsiya bilan) o'rnatiladigan, biror davlatni boshqa davlatlardan farqlovchi rasmiy belgisi, nishonidir. U davlat mustaqilligi, suvereniteti ramzi hisoblanadi. Davlat bayroqlari, ularning rangi, tuzilishi va emblemalari o'zboshimchalik bilan, ixtiyoriy suratda belgilanmaydi. Ular ma'lum ramziy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Davlat bayrog'i davlat muassasalari, elchixonalar, konsulliklar, missiyalar, bojxonalar va shu kabi qarorlarning binosida ko'tariladi. Elchixonalar, missiyalar, konsulliklar milliy bayramlari kuni o'z mamlakatlarining bayroqlarini osib qo'yadilar. Davlat bayroqlari, shuningdek, xalqaro konferensiyalar ochildishida, rasmiy marosim-uchrashuvlar vaqtida, xalqaro sport sovrinlari berilayotgan vaqtda va hokazo holatlarda ham ko'tariladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i 1991-yil 18-noyabrda Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan qonun bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i muqaddas hisoblanib, u davlatimiz mustaqilligining ramziy belgisidir. Qonunda ko'rsatilganidek, bayrog'imiz xalqaro maydonda O'zbekiston Respublikasi delegatsiyalarining xorijiy mamlakatlarga safari chog'ida, xalqaro tashkilotlarda, konferensiyalarda, jahon ko'rgazmalarida, sport musobaqalarida ko'tarilib, yurtimizni ulug'laydi. Respublikamiz bayrog'i doimiy suratda – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni binosida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari binosida, O'zbekiston Respublikasi hukumati – Vazirlar Mahkamasining binosida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va hukumati binosida, mahalliy Kengashlar va Respublikamiz doimiy vakolatxonalari binolarida ko'tariladi.

Gerb termini «erbo» so'zidan olingan bo'lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va

Bundan 2500 yil muqaddam Erondan Oltoygacha qadar cho'zilgan sarhadlarda hukm surgan qadimgi turk xoqoni O'g'izxon davrida ham turkcha «tamg'a» so'zi aynan shu ma'noni bildirar edi.

boshqa nasldan-naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.

Gerb – bu tamg'a, emblema; meros bo'lib qolgan, bir davlatni boshqalardan ajratib turadigan belgisi, tamg'asi, nishoni timsolidir.

1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi tomonidan tasdiqlangan gerb davlatimizning siyosiy, milliy xo'jalik, jo'g'rofiy, etnik va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini hamda boy tarixiy an'analarini mujassamlashtirgan. Shuningdek, gerbimizda O'zbekistonning ijtimoiy va davlat tuzilishi, tamoyillari o'ziga xos tarzda ifoda etilgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli ko'rinishida: Humo qushi va daryolar – kumush rangda; quyosh, boshloqlar, paxta chanoqlari va «O'zbekiston» yozuvi – oltin rangda, g'o'za shoxlari va barglari, tog'lar va vodiy — yashil rangda; chanoqlardagi paxta – oq rangda; lenta – O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining ranglarini aks ettiruvchi uch xil rangda; sakkizburchak – oltin zarhal bilan hoshiyalangan holda havo rangda; yarimoy va yulduzlar — oltin rangda tasvirlangan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi behurmat qilinganda O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda jazolanadi.

Madhiya – grekcha «gamn» so'zidan olingan bo'lib, u dasturiy xarakterdagi she'rni tantanali qo'shiq qilib tarannum etilishi ma'nosida qo'llaniladi. Madhiyalarning bir necha turlari mavjud. Masalan, davlat, inqilob, harbiy, diniy va hokazo madhiyalar bor. Bularning ichida eng asosiysi davlat madhiyasi hisoblanadi.

Davlat madhiyalari hozirgi zamon barcha mustaqil davlatlarida mavjud bo'lib, u davlat bayroq'i va davlat gerbi bilan bir qatorda davlatning rasmiy tantanavor ramzi bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonning o'z davlat madhiyasi uzoq ijodiy izlanishlar natijasida atoqli shoir Abdulla Oripov tomonidan yozilib, san'at arbobi Mutal Burxonov tomonidan kuy bastalandi va 1992-yil 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilindi. Madhiyamizda o'zbek xalqining shodiyona fikr-o'ylari va his-tuyg'ulari bekamu ko'st o'z ifodasini topgan. 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi qonunga binoan, O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzidir.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ko'pchilik huzurida ijro etilgan taqdirda hozir bo'lgan kishilar madhiyani tik turib tinglaydilar.

Shunday qilib, yurtboshimiz haqli ravishda ta'kidlaganidek, «Davlatimiz ramzlari – bayroq, tamg'a, madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtirdi. Mana shu ramzlarni e'zozlash – o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan mustahkamlash demakdir».

Demak, O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari faqat o'zbek davlatigagina taalluqli bo'lib, mohiyati chuqur ma'noga ega shartli belgilar badiiy ifoda sifatida ma'lum bir ko'rinishlarda aks etadiki, bunday ko'rinish ohanglar, so'zlar, tabiat tasviri, ranglar, astrologik jismlar va boshqa turli shakllarda bo'lib, xalqimizning o'tmishi, istiqboli, g'ururi va faxrini o'zida mujassamlashtiradi. Shundan biz sanab o'tgan milliy davlat ramzlari olamshumul voqea, ular mustaqil O'zbekiston davlatining yorqin timsollari bo'lib, bu timsollar bugun, erta va buyuk kelajagimiz uchun munosib xizmat qilajak. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «shu ramzlarni e'zozlash – o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir».

Har bir xalq, har bir elat o'zi hurmat-ehtirom qiladigan tilga ega. Tilga bo'lgan munosabat ana shu tildan foydalanuvchi odamlarning ko'p yoki oz sonli ekanligiga bog'liq emasdir. Tilda ana shu tilning ijodkori bo'lgan xalqning, elatning tarixi va madaniyati aks etadi.

Til millatning ajralmas belgisi va davlat mustaqilligi ramzlaridan biridir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida quyidagi normalar mustahkamlangan:

«O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analarini hurmat qilishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bu moddasi o'zbek tilining qonuniy huquqlarini tiklashga qaratilgan bo'lib, unda avvalo O'zbekistondagi davlat tili o'zbek tili ekanligi bayon etilgan. Konstitutsiyamiz ushbu moddasining o'ziga xos yaratilish tarixi bor. Ma'lumki, 1989-yil 21-oktabrda O'zbekiston Oliy Kengashi O'zbekistonning davlat tili haqidagi qonunini qabul qildi, 1995-yil 21-dekabrda «Davlat tili haqida»gi qonun-

ning yangi tahriri amalga kiritildi. Sobiq ittifoq davrida – «qizil imperiya» sharoitida, «markaz»ning tazyiqi va ta'siri kuchli bo'lgan bir paytda ona tilimizga davlat tili maqomining berilishi katta jasorat edi. Bu o'sha vaqtlardayoq milliy istiqlool sari qo'yilgan dadil qadamlardan bo'lib, bu borada xalqimizning eng ezgu orzu-umidlari ro'yobga chiqdi. Bu o'zbek tilining 120 yillik siyosiy bosqindan ozod bo'lib, o'zining erkin va tabiiy taraqqiyot yo'liga tushib olishining debochasi edi.

O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa til-larga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishiga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjat-lariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Shvetsariyada bir yo'la uch-ta til rasman davlat tili hiso-blanadi.

Davlat tilining muhim belgilaridan biri — uning barcha rasmiy ish yuritishda to'laligicha qo'llanilishidir. O'zbekiston-ning davlat tili haqidagi qonuniga ko'ra, O'zbekiston hududida yashovchi har bir shaxsning davlat, jamoat idoralari va tashkilotlariga ish yuzasidan taklif, ariza hamda shikoyat bilan davlat tilida murojaat etish va javoblar olish huquqi ta'min-lanadi. O'zbekistonda ishlovchi barcha mansabdor shaxslar, rahbar xodimlar o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun Respub-lik davlat tilini yetarli darajada bilishlari shart. Aholiga xizmat ko'rsatish ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxslar ham o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun davlat tilini bilishlari lozim. Respub-likamizda qonunlar, qarorlar, farmonlar va boshqa hujjatlar bevosita davlat tilida tayyorlanib, qabul qilinmoqda va e'lon etilmoqda. Hozirgi vaqtda barcha turdagi yig'ilishlar, majlis-lar va kengashlarning o'zbek tilida o'tayotganligi Qonunning tobora hayotimizga singib ketayotganligini ko'rsatmoqda.

Kirill yozuvidan lotin yozuviga o'tilayotgani ham ona tilimiz ravnaqi yo'lidagi yana bir muhim qadamdir. Bu qachonlardir unutilgan tariximiz ummoniga to'liq kirish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Xullas, O'zbekistonning davlat tili haqidagi Qonuni va Konstitutsiyaning 4-moddasi o'zbek tilining yanada rivojlanishi, keng o'rganilishi, targ'ib qilinishi uchun yordam beradi. O'zbek tilining davlat tili sifatida yashayotganligi bugungi milliy istiqlolimizning muhim belgilaridan biridir.

Shunday qilib, Konstitutsiyamizning ushbu moddasida belgilangan me'yor bir tomondan, o'zbek tili va o'zbek xalqi

hayotida tilning taraqqiyoti va xalqlarning ma'naviy kamolotida, milliy istiqloлга erishishida beqiyos omil bo'lib xizmat qilsa, ikkinchi tomondan esa, boshqa millat va elatlarning teng huquqliligi saqlab qolinishida, ularning tillari, urf-odatları va an'analarining hurmat qilinishi va yanada rivojlanishida muhim kafolatdir.

4-§. Xalq hokimiyatchiligi — davlat hokimiyatini amalga oshirishning asosiy tamoyili sifatida

Xalq davlat hokimiyatining manbaidir. Uning xohishi-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O'zbekiston barcha fuqarolarining munosib turmushini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasiga muvofiq, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.

«O'zbekiston, — deydi Prezidentimiz Islom Karimov, — kelajagi buyuk davlat. Bu mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu — insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir»²².

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tartiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat demokratik taraqqiyotining strategik yo'nalishlarini, insonning siyosiy huquqlarini xalqaro andozalar miqyosida belgilab beradi, xalqaro huquq ustunligini, hokimiyatlar taqsimlanishini, davlatning asosiy muassasalari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralarining saylanishini, ko'ppartiyaviylikni, mafkuraviy plyuralizmni o'zida aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardayoq, u qanday taraqqiyot yo'lidan

²² Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloл, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1-T.: «O'zbekiston», 1996, 44-bet.

boradi, qanday jamiyat, qanday davlat quradi, uning qiyofasi qanday bo'ladi, degan savollar ko'ndalang turardi. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini belgilash lozim edi. Ana shu yo'lni belgilashda O'zbekiston Prezidenti I. Karimov ulkan hissa qo'shdi. I. Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» nomli asarlarida, shuningdek, Respublika parlamentida va boshqa yig'ilishlarda qilgan ma'ruzalari va nutqlarida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, demokratik jamiyat qurishning, milliy huquqiy davlat barpo etishning nazariy metodologik, g'oyaviy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy asoslari ishlab chiqildi. O'zbekistonning taraqqiyot yo'li, birinchidan, xalqaro tajribaga asoslangan holda, ikkinchidan, xalqimizning milliy xususiyatlari, qadriyatlari, urf-odatlariga, uchinchidan, Respublikaning o'z imkoniyatlari va shart-sharoitlariga mos ravishda ishlab chiqildi. Bu yo'lga quyidagi asosiy yo'nalishlar asos qilib olindi:

- demokratik, odil, fuqarolik jamiyat qurish;
- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish;
- milliy davlatchilik tarixi tajribasiga asoslangan huquqiy davlat barpo etish;
- qonun va qonunlarga rioya qilish ustunligini ta'minlash;
- islohotlarda davlatning tashabbuskor va yetakchilik roli;
- ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlikka ko'maklashish;
- bir mafkuraning yakkahokimligidan voz kechish, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olish, hurfiylik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish;
- kommunistik partiya yakka hukmronligiga chek qo'yish, ko'ppartiyaviylikni amalda shakllantirish;
- ozchilikdan iborat millatlarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish;
- hamma uchun umumiy ta'lim olish, mehnat qilish, dam olish shart-sharoitlarini yaratish;
- ijodiy mehnatni qadrlash, odamlarning iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etish uchun imkoniyatlar yaratish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasiga binoan xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai sanaladi. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi. Ushbu moddadan kelib chiqib, davlat hokimiyati xalq manfaatlari yo'lida xizmat qilar ekan, uning uchun o'z faoliyatini olib borar ekan, o'z navbatida xalq ham davlat uchun o'zining oldiga qo'yilgan yuksak va ishonchli vazifalarni amalga oshirmog'i lozim.

Konstitutsiyaning 7-moddasiga binoan, davlat hokimiyati faqat Konstitutsiyada va qonunlarda ko'zda tutilgan va ular asosida tuzilgan idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda bizda davlat hokimiyatining tizimi — uning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi tamoyiliga asoslanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Oliy Majlis tomonidan, ijroya hokimiyati Prezident va Vazirlar Mahkamasi tomonidan, sud hokimiyati esa Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud hamda Oliy xo'jalik sudi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi barcha idoralar o'z faoliyatini faqat qonun tomonidan berilgan vakolat doirasidagina yuritadilar. Ularning o'zboshimchalik bilan Konstitutsiya va qonunlardan tashqari vakolatlarga ega bo'lishi, o'zlariga berilgan vakolatdan chetga chiqishi mumkin emas. Shuningdek, ularning vakolatlarini boshqa organlar yoki tashkilotlar, alohida shaxslar amalga oshirishi mumkin emas.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha davlat idoralarining tashkil etilishi va huquqiy holati Konstitutsiya va tegishli qonunlarda belgilab qo'yilgan. Barcha davlat idoralari va mansabdor shaxslar, shu jumladan, fuqarolar ham O'zbekiston Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonunlarga so'zsiz itoat etishlari lozim. Bu esa huquqiy davlatimizning muhim belgilaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasiga muvofiq O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

Konstitutsiyada «O'zbekiston xalqi», «O'zbekiston fuqarolari» degan tushunchalarga ta'rif berilgan. Bunga ko'ra, O'zbekistonda tug'ilgan va uning hududida istiqomat qiladigan har bir inson millatidan, irqidan, qaysi dinga e'tiqod qilishidan qat'i nazar, O'zbekiston xalqini tashkil etadi va Respublikamizning teng huquqli fuqarosi bo'lish huquqiga egadir.

Konstitutsiyaning 8-moddasida belgilangan yana bir muhim demokratik ruhdagi qoida O'zbekiston fuqarolarining milliy tengligi tamoyilining mustahkamlanishidan iborat. Bu esa inson huquqlari haqidagi xalqaro huquq me'yorlariga to'la mos tushadi. Masalan, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 2-moddasida shunday deyiladi: «Har bir inson, biror-bir ayrimachiliksiz, irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy e'tiqodi yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan, mulkiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa holatlardan qat'i nazar, mazkur deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklar sohibi bo'lishi kerak.

«O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart». (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 18-modda).

Mazkur qoida O'zbekistonni davlat sifatida dunyodagi eng demokratik mamlakatlar darajasiga ko'tardi. Chunki insonni ulug'lash, uning kim bo'lishidan qat'i nazar qonun oldida tengligini ta'minlash hamda uning haq va huquqlarini qo'riqlash demokratik davlatlarga xosdir. Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasida bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lish qoidasi Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi qoidalariga to'la-to'kis mos keladi. Shu bilan bir qatorda, barcha fuqarolar bir-birlari bilan do'stona munosabatda bo'lishlari va tinch-totuv yashashlarining zaminida inson huquqlari turishi va bu birinchi navbatda, Konstitutsiyaviy huquq bilan himoya qilinishi zarur.

Davlat hokimiyatining taqsimlanishi har qanday davlatning demokratik xususiyatini belgilaydi, uning xalq hokimiyatchiligiga asoslanganligini bildiradi. Bu prinsip O'zbekiston Konstitutsiyasining 11-moddasida quyidagicha mustahkamlangan: «O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi».

Davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipini mustahkamlagan ushbu modda, me'yor O'zbekistonning Konstitutsiyaviy tarixida birinchi marta paydo bo'ldi. O'zbekistonning ilgarigi 1927, 1937 va 1978-yillardagi Konstitutsiyalarida bunday prinsip mavjud emas edi. Chunki ushbu Konstitutsiyalar markscha-lenincha

kommunistlar hukmronligi nazariyasiga asoslanib, unda «hokimiyatning bo'linishi» prinsiplari rad etilar edi.

«Hokimiyatning bo'linishi» g'oyasi qadimiy bo'lib, qadimgi yunon faylasufi va olimi Aristotel tomonidan ham ilgari surilgan. XVIII asrning o'rtalariga kelib, bu g'oya mustaqil ta'limotga aylangan. Mashhur fransuz ma'rifatparvari, huquqshunos, faylasuf va yozuvchi Monteske (1689-1755-yillar) o'zining «Qonunlarning ruhi haqida» kitobida hokimiyatning bo'linishi prinsipini ilgari surgan. Monteske fikricha, siyosiy xiyonatlarning bo'lmasligini ta'minlaydigan narsa uch hokimiyatning: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining to'la bo'linishi va bir-birini cheklashidir. Monteske ta'limotida alohida o'rin tutadigan g'oya — bu hokimiyatlarning muvozanati, tengligi hamda ularning «o'zaro bir-birini tiyib turish va qarama-qarshi ta'sir etish tizimi» haqidagi g'oyadir. Yuqorida zikr etilgan hokimiyatlar o'rtasida shunday munosabat o'rnatilmog'i lozimki, bunda ularning har biri davlat vazifalarini mustaqil o'tash bilan birgalikda o'z huquqiy vositalari yordamida bir-birlarini muvozanatga chorlab turadilar, hokimiyat vakolatlarining birgina muassasa tomonidan qonunsiz ravishda tortib olinishi (uzurpatsiya qilinishi)ni bartaraf etadilar. Masalan, qonun doirasida ishlashi lozim bo'lgan ijro etuvchi hokimiyat, ayni paytda, qonun chiqaruvchi kengashning faoliyatini chegaralab turishi talab etiladi, aks holda parlament o'zining mutlaq hokimligini o'rnatishi mumkin. Shu sababli ham ijro hokimiyatining boshlig'i qonunlarni imzolashda «veto» (ya'ni, imzolashni vaqtincha rad etish) huquqidan foydalanadi, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'ladi.

Umuman «hokimiyatning bo'linishi» nazariyasiga ko'ra, davlat hokimiyati yagona, yaxlit, bir butun deb emas, balki turli hokimiyat (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud vakolatlarini amalga oshiruvchi hokimiyatlar) funksiyalarining yig'indisi sifatida tushuniladi. Bunday turli funksiyalarni amalga oshiruvchi hokimiyat organlari bir-biridan mustaqil ravishda harakat qilishlari lozim. Lekin bu uchala hokimiyat idoralari bir-biriga bog'liq emas, degan ma'noni bildirmaydi. Aksincha, ular bir-birini to'ldiradi va nazorat qilib boradi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Mamlakatda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida tan olinmaydi va hatto o'rnatilishi ham mumkin emas. Respublika-

mizda ijtimoiy hayotni rivojlantirishning muhim yo'li — bu demokratiyaga asoslangan turli siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanar ekan turli mafkuralar va fikrlar davlat va jamiyat xavfsizligiga tajovuz etmasligi, o'z navbatida jamiyatni iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan rivojlantirishga hissa qo'shmog'i lozimdir. Har qanday jamiyatning ijtimoiy hayotini turli fikrlar, g'oyalar, siyosiy institutlar orqali rivojlantirish, shakllantirish mumkin ekan, Respublikamizda ham o'z navbatida ijtimoiy hayot shu yo'sinda shakllanib boradi. Insonning erkin fikrlash, o'z aql-idroki, qobiliyati, olgan bilimlaridan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi davlatda shaxs haqiqiy erkinligining yorqin ifodasidir. Har qanday mafkura muayyan ijtimoiy tabaqa, guruh, millatning o'tmishiga, bugungi kuniga va kelajagiga qaratilgan qarashlari yig'indisidan iborat. Har qanday davlatning demokratik, huquqiyliigi yoki zulmkor, zo'ravonligini baholashda ko'pincha unda shaxsiy daxlsizlik kafolatlanganligiga, mustaqil sud mavjudligiga, sud hokimiyatining mamlakatdagi o'rni va obro'siga e'tibor qilinadi.

Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi mamlakatning tarixiy shart-sharoitlarini hisobga olgan holda oqilona joriy etilsagina, hokimiyat organlarining muvozanati va tengligini ta'minlash mumkin. Mazkur prinsip hokimiyat egasi bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlarini tartib (muayyan qolip, andoza)ga solish imkoniyatini beradi. Zero, ularning har biri o'z sohasi doirasida mustaqil, boshqa hokimiyatga itoat etmaydi, so'zsiz ijro etilishga mo'ljallangan qarorlar (hujjatlar) qabul qiladi.

Hokimiyatning uchala shaxobchasi, faqat ular va albatta, ularning uchalasi birgalikda yagona davlat hokimiyatini tashkil etadilar. Ulardan boshqa hech bir davlat organi hokimiyatga da'vogarlik qilolmaydi. Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi-ning muhim jihatlaridan biri shuki, unda hokimiyatning har bir shaxobchasi qolgan ikki hokimiyat subyekti-ning har birini nazorat qilish huquqi va imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Hokimiyat bo'linishi prinsipi adolatli, demokratik, huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Bunday prinsip muayyan davlatda biror organning yoki alohida davlat rahbarining kuchli diktaturasi o'rnatilishining oldini oladi. Shuningdek, tegishli davlat organlarining vakolatlari, vazifalari aniq bo'lishini ta'minlaydi, bir organning ikkinchi organ ishlariga aralashuviga barham beradi, boshqarish sohasida chalkashliklar kelib chiqishiga yo'l qo'ymaydi va hokazo.

Mazkur prinsip hokimiyat organlarining o'zaro kelishib, bir-birini nazorat qilib, uyg'unlashib ishlashlariga ham imkoniyat yaratadi. Bular esa adolatli, demokratik davlatga xos jihatdir.

Rivojlangan demokratik davlatlar singari O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali (yuqori – Senat, quyi – Qonunchilik palatasi) Oliy Majlis tomonidan, ijro hokimiyati Prezident va Vazirlar Mahkamasi tomonidan, sud hokimiyati esa faoliyat yo'nalishiga qarab, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy Xo'jalik sudi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi barcha idoralar o'z faoliyatini faqat qonun tomonidan berilgan vakolat doirasidagina yuritadilar. Har bir hokimiyat o'z faoliyatini o'ziga tegishli bo'lgan vakolatlarni amalga oshirish orqali o'z hokimiyatiga mustaqil sanaladi. Ushbu organlar o'z vakolatlarini boshqa bir tashkilotga yoki bo'lmasa biron-bir shaxsga berishga haqli emas.

Darhaqiqat, hozirgi zamon jahon mamlakatlarining Konstitutsiyaviy tajribasi shuni ko'rsatadiki, hokimiyatlarning bo'linish prinsipi, ular ushbu prinsip rasman o'rnatilgan yoki o'rnatilmaganligidan qat'i nazar, barcha chet el Konstitutsiyalari tomonidan qabul qilingan. Chunonchi, mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasida ham bu prinsip rasman 11-moddada o'rnatilgan. Unga ko'ra, O'zbekistonda qonun chiqarish hokimiyati Oliy Majlis, ijroiya hokimiyati esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. Sud hokimiyati Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi tomonidan amalga oshirilib, ular birgalikda O'zbekiston Respublikasining yagona sud tizimini tashkil etadi.

Zero, Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati — davlatning uchta asosiy tayanchidir».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas», deb mustahkamlanishi davlatimizning demokratik mohiyatidan kelib chiqadi.

Ma'lumki, har qanday adolatli, demokratik davlatda fuqarolarning erkin fikrlash huquqi kafolatlangan bo'ladi.

Albatta, erkin fikrlash bor joyda fikrlar xilma-xil bo'ladi va turli mafkuralar, siyosiy institutlar, harakatlar paydo bo'lishi mumkin. Aks holda, ya'ni erkin fikrlash cheklangan joyda ko'pincha inson o'z fikrlarini, xohish-istaklarini oshkora bayon qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Bunday holatlarda odatda yagona mafkura hukmron bo'ladi. Masalan, sobiq totalitar tuzumning 70 yildan ortiq hukmronligi davrida kommunistik mafkuraning yakkahokimligi o'rnatilgan edi.

Mafkura — bu ma'lum tizimga solingan g'oyalar, qarashlar, fikrlar majmuidir. Har qanday mafkura muayyan ijtimoiy tabaqa, guruh, millatning o'tmishiga, bugungi kuniga va kelajagiga qaratilgan qarashlari yig'indisidan iborat.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'z taraqqiyot va istiqlol yo'lini mustaqil va erkin belgilab oldi. Endilikda mustaqil davlatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy poydevorini yaratish asosiy vazifa bo'lib qolgan. Bunda bizga eski, zo'ravonlik bilan o'rnatilgan kommunistik mafkura mutlaqo to'g'ri kelmay, millatimizni birlashtiradigan, jipslashtiradigan mafkuraga muhtojlik yaqqol sezilib qoldi. Bir so'z bilan aytganda, milliy mafkuramizni yaratish dolzarb masalaga aylandi. Shu yo'lda qo'yilgan dadil qadam — bu tariximizda birinchi marta Konstitutsiyamizning 12-moddasida belgilangan me'yor bo'ldi. Unda ilk bor O'zbekistonning ijtimoiy hayoti siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi belgilandi. Demak, bu bilan bitta mafkuraning, bitta dunyoqarashning yakkahokimligidan qat'iyon voz kechildi.

Konstitutsiyamizning aynan shu moddasi jamiyatimizda turli sinf, toifa, millat va elatlarning manfaatlarini ifodalovchi partiyalar, uyushmalar va ularning mafkuralari bo'lishi mumkinligini qonuniy mustahkamlaydi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 12-moddasida o'rnatilgan me'yor oldimizga milliy istiqlol mafkurasini yaratish vazifasini dolzarb qilib qo'yadi. Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning qadimiy an'analariga, urf-odatlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-muhabbat, insof, sabr-toqat, adolat, muruvvat tuyg'ularini targ'ib qilishi lozim. Unda jamiyatimizdagi barcha kuchlar, harakatlar, jamoat birlashmalari, aholi turli tabaqalarining o'y-fikrlari, orzu-umidlari o'z ifodasini topmog'i lozim. U davlatimiz fuqarolarini ulug' maqsad yo'lida qalban birlashtirishga ko'maklashishi lozim, deb ko'rsatadi Prezidentimiz Islom Karimov. Shu bilan birga bu mafkura xalqimizda, o'zining qudrati va himoyasiga suyanan

holda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi taraqqiy etgan davlatlar orasida teng huquqli munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti xalq dunyoqarashini hisobga olmasa, taraqqiyot asoslari uning ma'naviy qadriyatlariga, moddiy manfaatlariga mos kelmasa, bunday jamiyat tanazzulga uchrashi tabiiy. Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov o'z mamlakati istiqboli haqida fikr yuritir ekan, «Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrat manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidadir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil-qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar bo'yi avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit yaratishdir», degan edi. Bu fikrdan anglanadiki, Prezident mamlakat kuch-qudratini xalqning ma'naviy kamolotida ko'radi. Shuning uchun ham u jamiki insoniy fazilatlarni takomillashtirish uchun zarur sharoit yaratishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Bu bir tomondan mustaqillik sharoitida endigina shakllanayotgan davlat siyosatining nechog'lik insonparvarligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan davlat rahbarining siyosiy-madaniy salohiyatining nechog'lik yuksakligini, xalq ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini naqadar chuqur o'rganganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga esa, bu xalq va hokimiyat intilishlarining mushtarakligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida eng oliy qadriyat sifatida davlat va ijtimoiy tizim emas, balki inson olindi. Konstitutsiyaning 13-moddasi bunga yorqin misoldir. Unga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi».

Inson huquq va erkinliklari faqatgina Konstitutsiya bilangina qo'riqlanib, kafolatlanib qolmasdan, balki ular jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan xalqaro huquqning normalari va prinsiplari bilan ham qo'riqlanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1948-yil 10-dekabrda «Barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga

intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida» Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini qabul qiladi. «Bundan muddao shuki, har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti hamisha ana shu deklaratsiyani nazarda tutib, ma'rifat va ilm yo'li bilan ushbu huquqlar va erkinliklarning hurmat qilinishiga yordam berishga intilishlari hamda milliy va xalqaro taraqqiyparvar tadbirlar yo'li bilan ham, ushbu huquqlar va erkinliklarning Tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar xalqlari o'rtasida va mazkur davlatlarning yuridiksiyasidagi hududlarda yashayotgan xalqlar o'rtasida yalpisiga va samarali tan olinishiga intilishlari kerak».

Mazkur deklaratsiya qabul qilinishini dunyoning qirq sakkiz davlati qo'llab-quvvatladi, sakkizta davlat betaraf bo'lgan bo'lsa-da, biron-bir davlat unga qarshi bo'lgan emas.

Bosh Assambleya raisi deklaratsiya qabul qilingandan so'ng bildirgan murojaatida deklaratsiyaning qabul qilinishi «Buyuk evolutsion jarayonlarga qo'yilgan dastlabki qadam va olamshumul yutuqqa erishilganligi»ni ma'lum qildi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov: «Inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarda inson manfaatlari ustuvor bo'lishi kerak», — degan edi. Konstitutsiya O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati, ya'ni xalqning o'zi bevosita boshqaradigan jamiyat va demokratik huquqiy davlat qurishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Unda jami dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i «inson» ekanligi yorqin mujassamlashtirilgan. Insonni ulug'lash, uni muhofaza qilish va har tomonlama kamol toptirish Konstitutsiyaning asosiy g'oyasiga aylantirilgan. Konstitutsiyamiz Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro huquqiy me'yorlar asosida ishlab chiqilgan va aytish mumkinki, uni yanada to'ldirgan. Masalan, Konstitutsiyaning 13-moddasi fikrimizga dalil bo'lishi mumkin. Ushbu moddada «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi»da e'lon qilingan umuminsoniy huquqlar oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Ma'lumki, «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» insonlarning ajralmas va daxlsiz huquqlarini e'lon qilib, quyidagilarni belgilaydi: «Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarida teng bo'lib tug'ilganlar» (1-modda); «Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir» (3-modda); «Hech kim qullikda yoki qaramlikda saqlanishi mumkin emas, qulchilik va qul savdosining barcha turlari taqiqlanadi» (4-modda) va hokazo. Konstitutsiyamizning 13-moddasida esa inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi, deyilgan. Bu O'zbekis-

tonning umumbashariy insonparvarlik qoidalariga asoslangan davlat ekanligini ko'rsatadi.

Konstitutsiyaning 13-moddasida O'zbekistonda barcha fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklari Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasida har qanday davlat organi-ning faoliyati inson va jamiyat farovonligiga xizmat qilishga, uni yuksaltirishga qaratilgan. Davlat o'z vazifasini tegishli organlari orqali amalga oshirar ekan, ijtimoiy adolat va qonuniylikka amal qilishi lozim bo'ladi. Huquqiy-demokratik davlatning eng muhim shartlaridan biri inson va shaxs manfaatlarining hamma narsadan ustunligidir. Qonuniylik prinsipi deganda avvalo qonunlarni va uning asosida qabul qilingan boshqa huquqiy hujjatlarni davlat organlari, mansabdor shaxs- lar, fuqarolar tomonidan aniq va og'ishmay bajarilishi lozimligi tushuniladi. Qonuniylik prinsipi qonunlarni yuridik hujjatlar tizimida oliy kuchga ega ekanligini, barcha uchun barobarligini, jamiyat a'zolarining barchasi uchun majburiyligini anglatadi.

Inson haq-huquqlarining himoyasi muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Shuning uchun ham istiqbolga erishgan O'zbekis- ton Respublikasi o'z mustaqilligining ilk qadamlarida qabul qilingan qonun va huquqiy normalarini, asosan, inson huquq- larini himoya qilishga, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan har tomonlama muhofaza qilishga qaratib keldi va bu yo'lda ish olib bormoqda.

Inson huquqlariga doir davlat siyosatida insonning huquq va erkinliklari jamiyatda qonunchilik asosida mustahkamlanib, iqtisodiy, siyosiy, yuridik, tashkiliy kafolatlar tizimi bilan ta'minlangandan keyingina amalga oshishi mumkinligi masalasi muhim o'rin egallaydi.

Har bir shaxs shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega bo'lib, hech kim uni o'zboshimchalik bilan ushbu huquqdan mahrum etishi mumkin emas, chunki inson erkinligi qonun tomonidan qo'riqlanadigan oliy ijtimoiy ahamiyatga molik qadriyatdir. Shu tufayli shaxsning erkinligi va shaxsiy daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi.

Inson huquqlari va demokratiya singari umumbashariy qadriyatlar Respublikamizning milliy davlatchilik manfaat- lariga to'la mos keladi. «Insonning eng ustuvor va muqaddas huquqlaridan biri, — deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Islom

Karimov, — bu tinch yashash huquqidir. Davlat va jamiyatning burchi ana shu huquqni barcha qonuniy vositalar bilan kafolatlab berishdir. Bu huquqni amalga oshirish — davlat va jamiyatni demokratiyalashtirishning eng muhim shartidir. Demokratiyaning insonparvarligi shu bilan belgilanadi».

O'zbekistonni demokratik davlat sifatida tavsiflovchi yana bir qoida Konstitutsiyaning 14-moddasida belgilangan. Unda ta'kidlanishicha, «Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi».

O'zbekiston Konstitutsiyasining ushbu moddasi davlatimiz faoliyatining eng asosiy prinsiplarini belgilab beradi. Bu juda muhimdir. Chunki davlat o'z faoliyati bilan inson va jamiyat taqdirini belgilashi mumkin. Ayniqsa, hozirgi vaqtda jamiyat davlatsiz yashay olmasligi hamma ayon bo'lib qoldi.

Davlatimizning jamiyat hayotida tutgan o'rnini belgilashda uning vazifalariga, funksiyalariga alohida e'tibor berish kerak. Davlatning qanday vazifalarni, funksiyalarni amalga oshirishiga, boshqacha qilib aytganda, davlat faoliyatiga qarab uning mohiyatiga baho beriladi. Agar davlat o'z faoliyatini avvalo inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga qaratgan bo'lsa, uni ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirib borsa, unday davlatni adolatli, demokratik deyish mumkin. Shu bois Konstitutsiyaning 14-moddasida o'rnatilgan me'yor O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy adolat tantana qilgan jamiyat, xalq hokimiyatchiligi qaror topgan davlat ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi, desak aslo yanglishmaymiz. Chunki mazkur modda alohida ravishda inson va jamiyat farovonligini, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplarini davlat faoliyatining ajralmas qismi sifatida e'tirof etadi.

Zero, huquqiy-demokratik davlatning eng muhim shartlaridan biri inson va shaxs manfaatlarining hamma narsadan ustunligidir. Inson va jamiyat farovonligi esa aynan shaxs manfaatlariga mos tushadi.

Konstitutsiyamiz ushbu moddasining kafolatlari O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtlarda amalga oshirilayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar, islohotlar bilan belgilanadi. Bunday islohotlardan ko'zda tutilgan eng asosiy maqsad inson va jamiyat farovonligi ekanligi hech kimga sir emas, albatta. «Maqsadimiz aniq, — deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Islom Karimov, — bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan, erkin, ochiq, demokratik davlat qurish». Davlatimiz

rahbari o'zining qator asarlari va kitoblarida O'zbekistonning ana shu maqsadini amalga oshirishga qaratilgan vazifalarini va faoliyat dasturini aniq ko'rsatib bergan. Bunda, ayniqsa, uning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asari muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Konstitutsiyaning 14-moddasida nazarda tutilgan me'yorning yana bir muhim tomoni shundaki, unga ko'ra davlat o'z faoliyatini qonuniylik prinsipi asosida amalga oshiradi. Bu huquqiy demokratik davlatning eng asosiy belgilaridan biridir.

Qonuniylik davlat tuzumidagi demokratizmning ko'rinishlaridan biri bo'lib, hammaning qonun oldida tengligini o'rnatadi. Shu bilan birga, bu prinsip fuqarolarning huquq va erkinliklari og'ishmay ta'minlanishi, fuqarolarga nisbatan davlat organlari va mansabdor shaxslarning qandaydir o'zboshimchaligiga yo'l qo'ymasligi, fuqarolarning jamiyat, davlat oldidagi majburiyatlari qat'iy bajarilishi lozimligini ham nazarda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, qonuniylik prinsipi o'z maqsad va mohiyati bilan xalq manfaatlariga xizmat qiladi.

Qonuniylikning asosiy vazifasi — mamlakatning ijtimoiy va davlat tuzumini mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun mulkning turli shakllariga yo'l ochish va ularni qo'riqlash, fuqarolarning huquq, erkinliklari va burchlarini mustahkamlashdir.

Qonuniylik huquqiy tartibot bilan uzviy bog'liq bo'lib, u orqali amalga oshiriladi. Huquqiy tartibot jamoat tartibining bir qismi bo'lib, faqat huquqiy normalarning amalga oshirilishi natijasida paydo bo'lib, kishilik o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy vositalar orqali tartibga soladi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibot orqali paydo bo'ladigan huquqiy munosabatlardan kengroq bo'lib, ularga axloq, urf-odatlar va boshqa turmush qoidalarining amalga oshirilishi natijasida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar kiradi. Kishilar o'rtasidagi yoki fuqarolar bilan davlat organlari o'rtasidagi munosabatlar huquqiy tartibot, ya'ni huquqiy normalar orqali amalga oshirilib, qonuniylik mustahkamlanadi.

5-§. Xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishning asosiy shakllari: bevosita va vakillik demokratiyasi

Y'O'zbekiston Konstitutsiyasining 9-moddasiga binoan, «Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq

muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovoz (referendum)ga qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi».

Ushbu me'yor O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xalq hokimiyatchiligi tamoyiliga asoslanganligini yana bir karra yaqqol ko'rsatadi. Xalq hokimiyatchiligi — bu butun hokimiyat amalda va yuridik jihatdan xalqqa tegishli degani. Konstitutsiyaga binoan, xalq hokimiyatni bevosita hamda o'zi saylab qo'yadigan organlari orqali amalga oshiradi. Xalq saylovlar yo'li bilan hokimiyatning vakillik organlarini tuzadi, mamlakat Prezidentini saylaydi, umumxalq muhokamasi va referendumlar orqali jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini hal qiladi.

Respublikamizda referendum o'tkazish tartibi 2001-yil 9-noyabrda kuchga kiritilgan yangi tahrirdagi «O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida»gi qonuni bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi referendumini O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarini qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir.

1995-yil 26-martda o'tkazilgan referendumda Respublikamiz fuqarolarining faol ishtirokida bir ovozdan yurtboshimiz Islom Karimovning Prezidentlik vakolatlari 2000-yilgacha uzaytirildi. 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendumda esa ikki palatali parlament va Prezident vakolati muddatini uzaytirish masalasi qo'yilib, referendumda ovoz beruvchilar ro'yxatiga kiritilgan 13266602 nafar fuqarolarning 12113070 nafari ishtirok etdi. Referendumda qatnashish huquqiga ega bo'lgan aholining 92 % dan ortig'i bu masalani yoqlab ovoz berdi.

Bular shuni anglatadiki, Konstitutsiyaning 9-moddasida belgilangan me'yor quruq qog'ozdagina bo'lmay, balki doimo harakatdadir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining O'zbekistonda xalq hokimiyatchiligi va uning amalga oshirilishi shakllari xususida ham muhim me'yorlar belgilandi. Jumladan, uning 10-moddasiga muvofiq, «O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas»/

O'zbekiston Oliy Majlisi bevosita xalq tomonidan tashkil etilib, uning vakillik organi hisoblanadi. Unga Qonunchilik palatasi deputatlari xalq tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri, yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Demak, O'zbekiston xalqi o'z ichidan munosib nomzodlar tanlab, ularni Oliy Majlisga vakil sifatida saylaydi. Ularga vakolat berib qo'yadi va xuddi shu tariqa hokimiyatga egalik qiladi. Biroq faqat shugina emas. Xalqning hokimiyatga egalik qilishi boshqa vositalar orqali ham amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tashkil etilishi, vazifalari, tuzilishi va faoliyati haqida Konstitutsiyaning XVIII bobi, 78-88-moddalarida batafsil ko'rsatib berilgan. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum qarorlari asosida 4-5-aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Unda mamlakatimiz parlamenti — Oliy Majlisning ikki palatali qilib shakllantirish prinsiplari va qoidalari belgilandi.

6-§. O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi. Konstitutsiya normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi

Konstitutsiya va qonunlar ustunligining ta'minlanishi huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bo'lib, u O'zbekistonda davlat-huquqiy qurilishining eng asosiy prinsipi hamdir. «Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, — deydi Prezidentimiz I.A. Karimov, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida, unga muvofiq bo'lishi talab etiladi»²³.

Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlariday: «Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi». O'zbekiston Konstitutsiyasida Konstitutsiya davlatimizning eng Asosiy Qonuni ekanligi, u boshqa barcha qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlardan yuqori turishi quyidagicha belgilangan: «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Konstitutsiya va qonun ustunligi davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, barcha jamoat birlashmalari va fuqaro-

²³ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. I – T.: «O'zbekiston», 1996, 125-bet.

larning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq faoliyat olib borishini taqozo etadi. Bundan tashqari, bu Konstitutsiyaviy tamoyil, barcha normativ huquqiy hujjatlar Konstitutsiyada mustahkamlangan qoidalarga to'liq mos kelishini ham qat'iy talab etadi. Bu Konstitutsiyaviy qoidaga to'la rioya etish mamlakatda qonunchilik va huquqiy tartibot, taraqqiyot va barqarorlik hukm surishiga olib keladi.

Shu munosabat bilan, qonun ustuvorligi haqida gap ketganda, avvalo, bir holat haqida ta'kidlab o'tish joiz. Ilmiy adabiyotda qonun ustuvorligi bilan huquq hukmronligi tushunchalarini ba'zan aralashtirib yuborish hollari mavjud. Aslida bular mohiyatan yaqin huquqiy hodisalar bo'lsa-da, har holda bir-biridan muayyan darajada farqlanadi.

Huquq hukmronligi shunda ko'rinadiki, har qanday davlat, o'zi huquqiy normalar yaratar ekan, eng avvalo, o'zi aynan shu huquqiy normalarga rioya etishi kerak, ya'ni amaldagi huquq normalari fuqarolar uchun qanchalik majburiy xarakterga ega bo'lsa, davlat uchun ham shunchalik majburiy xarakterga egadir.

Davlat hokimiyati qonunda belgilab qo'yilgan asoslarda va doiralarda harakat qilmog'i, davlat organlari esa, hech bir istisnosiz harakatdagi huquq normalariga bo'ysunmog'i lozim. Buning ma'nosi shuki, davlat organlari faqat qonun bergan vakolat doirasida harakat qilib, Konstitutsiyaga muvofiq uning kompetensiyasi (huquq va majburiyatlar majmui)da kiradigan qarorlarni qabul qilish va harakatlarni sodir etish huquqiga ega.

Huquq hukmronligi bu — davlatning, uning mansabdor shaxslarining, davlat organlarining, fuqarolarning va ularning turli tuzilmalarining faoliyati huquq bilan bog'liqligi, huquq asosida kechishidir.

Qonun ustuvorligi bu — muayyan bir davlatda amal qilib turgan huquqiy normalar, normativ-huquqiy hujjatlar ichida qonunning oliy yuridik kuchga ega ekanligi, barcha qonun osti hujjatlari qonunga mos kelishi lozimligidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining uchinchi bobi huquqiy davlat barpo etishda muhim bo'lgan ushbu prinsipni o'zida mustahkamlagan: «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar» (15 -modda).

Oliy yuridik kuchga ega bo'lgan va O'zbekiston hududida bevosita to'g'ridan - to'g'ri amal qiladigan Konstitutsiyaning ustunligi shuni anglatadiki, O'zbekiston hududida qabul qilinadigan barcha qonunlar va boshqa normativ hujjatlar Konstitutsiyaga zid kelmasligi, unga mos kelishi lozim. Davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar, o'zini boshqarish organlari, barcha boshqa tashkilot va tuzilmalar O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etishlari kerak. Shu tariqa davlat faoliyati huquq va qonunlar bilan «bog'lab» qo'yiladi, ma'lum darajada cheklab qo'yiladi.

Qonunlarga rioya etish uchun ular rasmiy tarzda e'lon etilgan bo'lishi shart. Qonunlarning e'lon qilinishi — ularga rioya etishning shartidir, chunki e'lon qilinmagan qonun qo'llanilmaydi²⁴.

Qonun ustuvorligi va huquq hukmronligi («rule of law») — huquqiy davlatning eng muhim tamoyillaridan, tavsiflaridan biri hisoblanadi. Biroq biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, qonun ustuvorligi bilan huquq ustuvorligi bir narsa emas. Chunki har qanday qonun doimo huquqiy xarakterga ega bo'lmasligi mumkin, ya'ni o'zida insonga huquq beradigan, uning erkinligi, real tengligi, ijtimoiy xavfsizligini ta'minlaydigan qoidani ifodalamasligi mumkin, shu bois doimo huquq va qonun tushunchasi bir-biriga mos kelmasligi mumkin.

Shu bois ham olimlar huquq ustuvorligi bilan qonun ustuvorligini alohida talqin etishlari bejiz emas, albatta. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, hatto huquq ustuvorligi g'oyasining «yoshi» qonun ustuvorligi g'oyasidan ulug'roq, ya'ni undan oldinroq shakllangan. Qonun ustuvorligi g'oyasining mazmunini Konstitutsiyaning ustuvorligi, qonunni qabul qilishning va unga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishning alohida tartiboti, muolijasi mavjudligi, qonunga barcha boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mos kelishi majburiyigi, qonunni amalga oshirish va uni muhofaza etishning maxsus mexanizmi mavjudligi, yaxlit qonunchilik tizimining ziddiyatsiz bo'lishini ta'minlaydigan Konstitutsiyaviy nazoratning mavjudligi tashkil etadi.

Huquq ustunligi o'z ichiga quyidagilarni olishi kerak:

1. Davlat va jamiyat hayotining barcha muhim masalalariga huquq va qonun nuqtayi nazaridan qarash va hal eitish;
2. Davlat va jamoat organlarining har qanday qarorlarini g'oyaviy-huquqiy asoslash;

²⁴ Qarang: Saburov N. Qonunga itoatkor shaxs. — T.: TDYU, nashriyoti, 2003, 7-10-betlar

3. Davlatda huquqning ifodalanishi va harakatini ta'minlashning ishonchli vositalari mexanizmi mavjudligi²⁵.

Huquq ustunligi haqida gapirganda, albatta, huquq va qonunning birligi tamoyilini ham ta'kidlash lozim. Chunki bu huquqiy davlat qurish amaliyoti uchun juda muhim huquqiy masala. Zero, huquqiy davlatda istalgan normativ-huquqiy hujjat nafaqat shakli, nomlanishi, qabul qilinish tartibi bo'yicha emas, balki mazmuni va mohiyatiga qarab ham huquqiy qonun bo'lishi kerak.

Buning ma'nosi shuki, mazkur qonun, albatta, o'zida insonning tabiiy huquqlarini jamlagan, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari borasidagi xalqaro andozalarga mos keladigan, qonunda belgilangan asos va tartibda shakllangan davlat organi tomonidan qabul qilingan bo'lishi kerak.

Chunki, hatto o'zida buyuk g'oyalarni ifodalagan qonun ham doimo huquqiy qonun bo'lavermasligi mumkin. Ma'lumki, qonunlar mazmunan ilg'or yoki qoloq, mantiqiy yoki ziddiyatli, adolatli yoki adolatsiz bo'lishi mumkin. Qonun ustuvorligi, shu bois, huquqiy davlatning tashqi, formal tarafi, aslida esa, huquqiy davlatning ichki, mazmuniy jihati bu — bevosita qonunlarning sifati va ichki mohiyatida namoyon bo'ladigan jihatidir, qisqasi, haqiqiy demokratik davlatda qonun huquq mazmun va mohiyatiga mos kelishi kerak.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar (15-modda).

Konstitutsiya va qonunlar to'g'risida so'z ketar ekan, avvalo, ularning bir-biridan farqini ajratib olish kerak. Konstitutsiya davlatning Asosiy Qonuni bo'lib, u boshqa joriy qonunlardan shu bilan farq qiladiki, unda eng asosiy, eng barqaror ijtimoiy munosabatlar, uzoq davrlarga mo'ljallangan asosiy qoidalar mustahkamlangan va bu qoidalar bevosita amal qilib, boshqa qonun chiqarish hujjatlarida ochib beriladi va aniqlashtiriladi. Shu sababli Konstitutsiya garchi muhim bo'lsada, lekin Asosiy Qonun doirasiga sig'maydigan bir qancha qoidalarni o'z ichiga olmaydi. Konstitutsiyada mavjud bo'lgan qoidalar negizida va ularni rivojlantirib, zaruriyatga qarab boshqa qonunlar va o'zgacha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi va qabul qilinadi. Bunda barcha joriy qonunlarning huquqiy asosi, bosh

²⁵ Qarang: Исломов З. Общество. Государство. Право.— Т.: «Адолат», 2001, 354-361-ст.

manbai Konstitutsiya bo'lib qoladi. Konstitutsiya esa oliy yuridik kuchga ega bo'lib, boshqa barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar unga muvofiq kelishi lozim.

Konstitutsiyaning Asosiy Qonun sifatidagi ahamiyati, obro'-e'tibori, barqarorligi, uning oddiy qonunlardan farqi shu bilan belgilanadi. Bir so'z bilan aytganda, Konstitutsiyani qonunlar qonuni deyish mumkin. Shu bois O'zbekiston Konstitutsiyasida Konstitutsiyaning eng yuqori kuchga egaligi, hamma qonunlardan ustun turishi alohida e'tirof etilgan. Bunda faqat Konstitutsiyaninggina emas, balki uning asosida qabul qilinadigan qonunlarning ustunligi o'rnatiladi.

Yuqoridagi prinsip jamiyatimizda qonunchilik va huquqiy tartibot tantanasini anglatadi. Qonunchilik — bu qonunlarning mavjudligidan, jamiyatda chinakam demokratik muhit va haqiqiy huquqiy rejim o'rnatilganligidan dalolat beradi. Qonunchilik bu davlat tomonidan qonunlar tizimini jamiyat taraqqiyoti talablariga mos ravishda takomillashtirib borish va davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlarga qat'iy rioya etish va ularni og'ishmay amalga oshirishda namoyon bo'ladigan davlat va jamiyat hayotining prinsipidir. Qonunchilik prinsipi qonunlarning hamma uchun istisnosiz majburiyligini, hammaning qonun oldida tengligini, qonunlarning hamma yerda bir xilda joriy qilinishini ham anglatadi.

Qonunchilik bilan huquqiy tartibot bir-biridan farq qiladi. Qonunchilikning mazmuni huquqiy me'yorlarga qat'iy va og'ishmay rioya etishlarida ifodalansa, huquqiy tartibot esa jamiyat a'zolarining yurish-turishlari, ularning subyektiv huquq va burchlariga muvofiq kelishida ifodalanadi. Boshqacha qilib aytganda, huquqiy tartibot huquqiy munosabatlar doirasida shu munosabatlarning ishtirokchilari o'z subyektiv huquqlarini amalga oshirishlari va huquqiy burchlarini bajarishlari natijasida vujudga keladi. Demak, qonunchilikni amalga oshirish huquqiy tartibotni ta'minlash vositalaridan biri bo'lsa, huquqiy tartibotni mustahkamlash esa, o'z navbatida qonunchilikni mustahkamlashga yordam beradi. Shu bois ular bir-biridan ajralmas bo'lishi lozim.

O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunlar oldida hamma teng darajada mas'uliyatga ega bo'lib, qonunlar ham o'z navbatida barchaga barobardir.

Konstitutsiyaning 15-moddasi ikkinchi qismida davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari,

fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar, deb ko'rsatilgan. Davlat, uning organlari, jamoat birlashmalari Konstitutsiya va tegishli maxsus qonunlar asosida tashkil qilinadi hamda faoliyat yuritadi. Ular Konstitutsiya va maxsus qonunlarda belgilangan vakolatlarnigina amalga oshiradilar. Mansabdor shaxslar va fuqarolarning birontasi ham Konstitutsiya va qonunlardan tashqari ish ko'rishga haqli emas. Zero, Konstitutsiya va qonunlarni chetlab o'tish, ularning talablarini buzish g'ayriqonuniy xatti-harakat hisoblanadi. Bunday harakatlar uchun esa maxsus qonunlarda tegishlicha javobgarliklar o'rnatilgan, sanksiyalar belgilangan.

Demokratik huquqiy davlatda Konstitutsiya va qonunlarga og'ishmay amal qilish talabi bilan bir qatorda Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emasligi ham o'rnatilgan bo'ladi.

Demak, Konstitutsiyaning har bir moddasi hayotga tatbiq qilinayotganda xalq va davlat manfaatlariga zarar yetkazmaydigan tarzda talqin qilinishi zarur. Zero, Konstitutsiyaning o'zi xalq va davlat irodasining ifodasidir. Shuning uchun Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilishi kerak.

O'zbekiston Konstitutsiyasining birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas. Shuningdek, Konstitutsiyaga ko'ra, birorta ham qonun yoki boshqa me'yoriy-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas. Chunki Konstitutsiya davlatimizning Asosiy Qonuni bo'lib, u oliy yuridik kuchga ega bo'lgan qonunchilik hujjatidir, Konstitutsiya huquqning hamma tarmoqlari: fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, mehnat huquqi, ma'muriy huquq va hokazolar uchun qonunchilik negizi hisoblanadi. Davlat organlarining barcha qonunlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida chiqarilib, uning qoidalariga xilof bo'lmasligi lozim.

Asosiy Qonunimizga binoan O'zbekiston tarixida birinchi marta Konstitutsiya maxsus tarzda muhofaza qilinadigan bo'ldi. Shu maqsadda Konstitutsiyaviy sud joriy qilindi. Bu organ qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mos kelishini tekshirib turadi. Konstitutsiyaviy sudning tashkil etilishi, vazifalari va

vakolatlari haqida Konstitutsiyaning 108-109-moddalarida ma'lumotlar berilgan.

Shunday qilib, Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikkinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida ta'kidlaganidek, qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash — bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vazifasi, eng muhim sharti hisoblanadi ²⁶.

7-§. O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlat tashqi siyosatiga alohida bir bobni bag'ishlash bilan mamlakat xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga tarafdor ekanligini butun jahonga ma'lum qildi/«Biz tashqi siyosatimizni shakllantirishda Konstitutsiyaviy tamoyillarga amal qilgan holda, avvalo, o'z kuch-qudratimizga, ma'naviyatimizga, ko'p avlodlar mehnati bilan yaratilgan xalqimiz salohiyatiga tayanyapmiz, — deb ta'kidlagandi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov. — Bu — tashqi munosabatlarda ochiq, teng huquqli va o'zaro foydali hamkorlik qilish, xalqaro huquqning umume'tirof etgan qoidalariga rioya etish demakdir»²⁷.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari Konstitutsiyaning 17-moddasida o'zining qonuniy aksini topgan, Tashqi siyosat tushunchasi davlatning xalqaro ishlardagi umumiy yo'nalishini o'z ichiga oladi. Tashqi siyosat davlatning boshqa davlatlar va xalqlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarini o'z ichiga oluvchi maqsad va vositalarini qamrab oladi.

Asosiy Qonunimizning 17-moddasida shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik,

²⁶ Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10 — T.: «O'zbekiston», 2002, 28-bet.

²⁷ Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. — T.: 1993, 25-b

chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin». «O'zbekiston Respublikasi — xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti» degan Konstitutsiyaviy qoida O'zbekiston Respublikasining hozirgi dunyodagi o'rnini bildiribgina qolmay, mamlakatimizni haqiqatan xalqaro hamjamiyatning ajralmas qismi ekanligini isbotlaydi.

Bu esa quyidagilarni anglatadi:

Birinchidan, O'zbekiston suveren davlat sifatida zamonaviy xalqaro huquq prinsiplari va normalari bilan bog'liq, boshqa majburiyatlar davlatimizning roziligisiz zimmamizga yuklatilishi mumkin emas;

Ikkinchidan, O'zbekiston hududida davlat hokimiyati chegaralanmaydi va xalqaro huquqning hech qaysi bir subyekti bunga aralashish huquqiga ega emas, o'zining hududidan tashqarida u o'z hokimiyatini faqat boshqa manfaatdor davlat roziligi bo'lgandagina amalga oshirishi mumkin;

Uchinchidan, O'zbekiston xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan diplomatik aloqalarni amalga oshirib, ikkitomonlama va ko'ptomonlama xalqaro shartnomalarni tuzib, bevosita davlatlararo munosabatlarda qatnashadi.

Istiqlol yillarida O'zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilarda namoyon bo'ldi:

1. Mustaqillik yillarida O'zbekiston 120 dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqalarni o'rnatdi. Toshkentda 35 ta davlat elchixonasi ochildi. 19 ta davlat elchilari esa O'zbekiston Respublikasida o'rindoshlik asosida faoliyat yurgizadi. Respublikada 88 ta xorijiy vakolatxonalar akreditatsiyadan o'tgan, 24 ta hukumatlararo va 13 ta hukumatlarga tegishli bo'lmagan tashkilotlar faoliyat olib boradi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi.

2. Konstitutsiya asosida O'zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida bildiruvchi huquqiy asoslar yaratildi. Tashqi aloqalar sohasida muhim qonunlar qabul qilindi.

3. O'zbekistonning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini ta'minlab beruvchi davlat organlari shakllantirildi. Tashqi ishlar vazirligining funksiyalari va faoliyatining yo'nalishlari tubdan o'zgartirildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va tashqi iqtisodiy faoliyat banki tashkil etildi, tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi firmalarning maxsus tizimi shakllantirildi, xorijiy firma, bank va kompaniyalarning 260 dan ortiq vakolatxonalari ochildi.

4. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va xalqaro faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi normalari va prinsiplariga Respublikaning tashqi siyosatni tartibga soluvchi qonunchiligiga, harbiy sohadagi qonunchilikka, BMTning hamda YEXHT ning prinsiplari va maqsadlariga, O'zbekistonning xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlariga asoslanadi. O'zbekiston dunyodagi eng nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'ldi va muhim xalqaro shartnomalarga qo'shildi.

Diplomatiya tashqi siyosatni amalga oshirishning o'ta muhim vositasi hisoblanadi. Aynan tashqi siyosat diplomatiyaning maqsad va vazifalari, ya'ni tashqi siyosatni amalga oshirishda foydalaniladigan shakllar, vositalar va usullar, amaliy tadbirlar majmuasini namoyon etadi hamda belgilab beradi. Diplomatiya bilan bir qatorda davlatning tashqi siyosati vositalari sifatida uning iqtisodiy, madaniy va boshqa muhim aloqalari hisoblanadi.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy maqsadi davlat suverenitetini himoya qilish, ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishga yordam beruvchi xalqaro sharoitlarni yaratish, tinchlik, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatishdir.

O'zbekiston o'zining mustaqil tashqi siyosatini amalga oshirishda quyidagi ustuvor holatlardan kelib chiqadi:

Birinchidan, o'zining milliy-davlatchilik manfaatlarining ustuvorligi sharoitida o'zaro manfaatlarni to'liq hisobga olish;

Ikkinchidan, insonlar va davlatlar orasidagi o'zaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini tan olgan holda O'zbekiston xalqaro aloqalarda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etishni yoqlab chiqmoqda. O'zbekiston yadro qurolidan ozod hudud bo'lib qoladi, agressiv tabiatdagi harbiy bloklar va ittifoqlarga a'zo bo'lmaydi, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni tan oladi va muttasil ularga sodiqlikni isbotlaydi;

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati o'zaro tinchlik, o'zaro foyda, ichki ishlarga aralashmaslik prinsiplariga, mustaqillikni va suverenitetni chegaralovchi hamda davlatlararo munosabatlarni mafkuralashtirishga qaratilgan harakatlarga yo'l qo'yilmaydigan prinsiplarga quriladi;

To'rtinchidan, O'zbekiston tashqi siyosatda ochiqlik prinsipini turli xil mafkuraviy qarashlardan xoli ravishda amalga oshirib, barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o'rnatmoqda;

Beshinchidan, O'zbekiston xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikdan ustunligini tan oladi, xalqaro-huquqiy standartlarni hurmat qiladi.

Konstitutsiyaning davlatni rivojlantirish bilan bog'liq ichki masalalarni hal etishga qaratilgan qoidalarigagina emas, balki O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'min etadigan qoidalariga ham taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, «Ochiq demokratik davlatni qurish, bozor munosabatlarini vujudga keltirish xalqaro e'tirof etilgan Konstitutsiyaviy hamda huquqiy asosda amalga oshirilmoqda. Bu asos iqtisodiyotni isloh qilish, uning keng ko'lamda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi uchun kuchli huquqiy kafolatlar va shart-sharoitlarni ta'minlab beradi»²⁸.

Asosiy Qonun huquqiy davlatni shakllantirish sharoitida demokratiya prinsiplarini, inson huquqlarini, hokimiyatning tashkil etilishi, ichki va tashqi siyosat asoslarini mustahkamlab borib, davlat organlarining huquqni muhofaza etish borasidagi, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sohadagi faoliyatinigina emas, balki tashqi siyosatini ham inson manfaatlariga xizmat qildiradi. Huquqiy davlatda tashqi siyosatga taalluqli eng mas'uliyatli qarorlar hokimiyatning oliy davlat organlari tomonidan, eng avvalo, Konstitutsiyaga muvofiq ravishda qabul qilinadi. Tashqi siyosat sohasini tartibga soluvchi qonunchilik normalari butun tizimini shakllantirish tashqi siyosat Konstitutsiyaviy-huquqiy institutidan boshlanadi. Xalqaro huquqning umume'tirof normalari tamoyillari milliy huquqqa nisbatan yetilgan maqomi, shuningdek, davlatning ko'ptomonlama va ikkitomonlama diplomatiya sohasidagi faoliyati tegishli

²⁸ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. —T.: 1997. 37-b.

Konstitutsiyaviy qoidalarga bog'liqdir. Bu Konstitutsiyaviy-huquqiy institut ayrim normalarni, shuningdek, hokimiyat oliy organlarining tegishli vakolatlarini to'g'ridan-to'g'ri belgilab borib, davlat tashqi siyosiy faoliyatining mavjud masalalariga boshqalarga nisbatan yaqinroq turadi. Bu hol tashqi aloqalar mexanizmi faoliyat olib borishining sharoitlari va tartibini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo hamjamiyati tomonidan yaratilgan huquqiy normalar asosida o'zining Konstitutsiyasini yaratgan Respublikamiz tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini asosiy prinsiplar sifatida asosiy qonunda e'tirof etdi. Xalqaro hamjamiyatning teng huquqli subyektiga aylangan O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatni hamda iqtisodiy aloqalarni amalga oshiruvchi institutlarni shakllantirdi. Ular asosida xalqaro tashkilotlar, iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari, davlat tuzilmalari va boshqa davlat organlari bilan birinchi navbatda umuminsoniy qadriyatlarga hamda milliy manfaatlarimizni hisobga olib munosabatga kirishildi.

O'zbekiston Respublikasi suverenitetini, xavfsizligini, siyosiy va iqtisodiy erkinligini mustahkamlashda, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini hal qilishda O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati muhim ahamiyat kasb etadi.

«Biz milliy manfaatlarimiz mos keladigan barcha mamlakatlardan bilan faol hamkorlik qilishga tayyormiz. Ayni paytda xalqaro hayotning muayyan prinsipial masalalari bo'yicha qarashlarimizda tafovut bo'lgan davlatlar bilan ham ochiq muloqot olib borishga hozir ekanligimizni bildiramiz»²⁹, — deb muhtaram Prezidentimiz tomonidan ta'kidlangan edi.

O'zbekiston mustaqillik yillarida xalqaro aloqalarda boy tajriba to'plagan holda, o'z mustaqil tashqi siyosatini yuritib, jahon hamjamiyatiga qo'shilishning o'ziga xos yo'nalishlarini ishlab chiqdi, davlatlararo munosabatlardagi tamoyillar va ustuvor yo'nalishlarini belgiladi va ularning rivojlanishini ta'minlash maqsadida tegishli chora-tadbirlarni jadal sur'atlar bilan amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli subyekt sifatida xalqaro hamjamiyatda o'z obro'-e'tiboriga ega bo'lib bir qancha yutuqlarni qo'lga kiritmoqda.

²⁹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatimizni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. — T.: «O'zbekiston», 2005, 58-b.

Tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston quyidagi asosiy prinsiplarga amal qilib kelmoqda:

Birinchidan, tomonlar manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda, o'z milliy manfaatlarining ustunligini ta'minlash;

Ikkinchidan, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik hamda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik ;

Uchinchidan, mafkuraviy qarashlarga qaram bo'lmagan hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarni tan olish, tinchlik va xavfsizlikni asrash;

To'rtinchidan, xalqaro huquq normalarini ichki huquq normalaridan ustunligini e'tirof etish;

Beshinchidan, tashqi aloqalarni ham ikkitomonlama hamda ko'ptomonlama shartnomalar asosida rivojlantirish.

Shuni ta'kidlash lozimki, mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasida ilk marotaba tashqi siyosatni tartibga soluvchi norma-ning kiritilishi katta siyosiy va huquqiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu o'z navbatida, O'zbekistonning jahon hamjamiyati-ning a'zolaridan biri sifatida qanday maqsadda harakat qilishini belgilab beradi. Ma'lumki, sobiq sho'rolar davrida xom ashyo bazasi bo'lib kelgan O'zbekiston mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyatidan mahrum edi. Xuddi shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish — davlat faoliyatining davlat va amalda qo'llanilmagan yo'nalishlaridan biridir. Yakkahokimlik tizimi sharoitida O'zbekiston xalqaro maydonga to'g'ridan-to'g'ri va ochiq chiqish imkoniyatidan mahrum etilgan bo'lib, o'zining tashqi siyosiy davlat idoralariga ega emas edi» deb hisoblaydi³⁰.

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun va boshqa hujjatlarning qabul qilinishi O'zbekistonning o'z tashqi siyosatini mustaqil amalga oshirishiga zamin yaratdi.

Mazkur qonunlarning qabul qilinishi o'zbek xalqining daxlsiz huquqi — o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirishini belgilab berdi. Bu tabiiy holdir, chunki davlatimizning o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritishi uning tashqi siyosiy faoliyatini mustaqil amalga oshirishida muhim belgilovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

³⁰ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlof, iqtisod, siyosat, mafkura. T.I — T.: «O'zbekiston», 1996, 50-b.

O'zbekiston xalqaro huquqning to'la huquqli subyektiligi, xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishi, uning Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tashkilotlariga, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti kabi boshqa xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi hamda ularning faoliyatida qatnashishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: «O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritganligi va u xalqaro miqyosda tan olinganligi shuni bildiradiki, bundan buyon Respublika mustaqil ichki va tashqi siyosatini olib boradi, hech kimning vositachiligisiz o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatadi. Respublikani haqiqatan uning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda yuksaltirish amalda mumkin bo'lib qoldi»³¹ degan edi.

Shuni qayd etish zarurki, Respublikada tashqi siyosatning vujudga kelishi va rivojlanishi muammolariga chuqur e'tibor berilmoqda, jumladan, Prezidentimiz «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida tashqi siyosatning asosiy tamoyillarini quyidagicha ta'riflagan:

— O'zining milliy-davlat manfaatlari ustun bo'lgani holda o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;

— Tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga a'zo bo'lmaslik;

— Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

— Oshkora tashqi siyosat olib borish; xalqaro huquq normalari ustuvorligini tan olish;

— Xalqaro tashqi aloqalarni to'la ishonch tamoyili asosida o'rnatish.

«O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir» degan jumlar bilan boshlangan ushbu normaning tub ma'nosi mohiyatan, o'zbek xalqining butun tarixiy yutug'ini o'zida ifodalagan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi shunday huquqni qo'lga kiritishga harakat qilgan, ma'lum tarixiy davrlarda minglab azob-uqubatlarni hamda mustamlakachilik siyosatini boshidan kechirgan xalqimiz uchun ulkan yutuq hisoblanadi.

³¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. — T.: «O'zbekiston», 1996, 39-b.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan tashqi siyosat borasidagi barcha tamoyillar xalqaro huquqning asosiy qoidalariga to'la muvofiqdir.

8-§. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari

Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining tashqi siyosatga bag'ishlangan moddasida mamlakat tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi tamoyiliga asoslanishi belgilab qo'yilgan. Chunki xalqaro huquq tartibotni faqatgina davlatlarning yuridik jihatdan tengligini to'liq hurmat qilish asosidagina amalga oshirish mumkin. Har bir davlat boshqa ishtirokchilar suverenitetini hurmat qilishga majbur. Buning ma'nosi shundan iboratki, hech bir davlat o'zga davlatlarning hududlaridagi qonunchilik, ijro va sud hokimiyatining faoliyatiga hamda o'sha davlatning mustaqil tashqi siyosiy faoliyat yuritishiga aralashmasliklari va o'z tashqi siyosatlarini mustaqil ravishda yurita olishlari lozim. Ushbu qoida BMT Nizomining birinchi bo'lim 2-moddasida o'z ifodasini topgan. Unda shunday ta'rif beriladi: «Tashkilot unga a'zo bo'lgan barcha davlatlarning suveren tengligi tamoyiliga asoslanadi». Shunday qoidalar BMT tizimidagi xalqaro tashkilotlar nizomlarida, aksariyat mintaqalararo xalqaro tashkilotlarning nizomlarida ko'ptomonlama va ikkitomonlama davlatlararo hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tuzilgan hamkorlik kelishuvlarida hamda xalqaro tashkilotlarning huquqiy hujjatlarida ya'ni Xelsinki Kengashi-ning yakunlovchi hujjatlari, Parij va Madrid xartiyalarida o'z ifodasini topgan.

Suveren tenglik tamoyilining asosiy ijtimoiy mohiyati davlatlarni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa xarakterdagi farqlaridan qat'i nazar xalqaro munosabatlarda yuridik jihatdan teng ishtirokini ta'minlashdan iborat. Chunki davlatlar xalqaro munosabatlarning teng huquqli qatnashchilaridir va ular bir xil huquq hamda majburiyatlarga ega.

1970-yilgi Deklaratsiyaga asosan suveren tenglik prinsipi tushunchasi quyidagi asosiy qoidalarni o'z ichiga oladi:

- a) Davlatlar yuridik jihatdan tengdirlar;
- b) Har bir davlat to'la suverenitetga xos bo'lgan huquqlardan to'liq foydalanadi;
- d) Har bir davlat boshqa davlatlarni huquq subyekti sifatida hurmat qilishga majbur;

e) Har bir davlatning yaxlitligi, hududiy va siyosiy mustaqilligi daxlsizdir;

f) Har bir davlat o'zining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimini erkin tanlash, ularda mavjud munosabatlarni tartibga solish huquqiga ega;

g) Har bir davlat o'zining xalqaro majburiyatlarini to'liq va vijdonan bajarish hamda boshqa davlatlar bilan tinchlik va osoyishtalikda yashashga majburdir.

YEXHTning 1975-yilgi Yakuniy hujjatidan o'rin olgan tamoyillar Deklaratsiyasiga binoan davlatlarning suveren tengligi prinsipi quyidagilarni anglatadi:

- Davlatlar o'z munosabatlarida tarixiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishlardagi farqlarni hurmat qilishlari lozim;

- Yo'nalishlar va qarashlarning har xilligi, ichki qonunlar hamda ma'muriy qoidalar suverenitetga rioya qilish yo'lida g'ov bo'lmasligi kerak;

- Har bir davlat boshqa davlatlar bilan munosabatini o'z xohishicha va xalqaro huquqqa muvofiq belgilash va amalga oshirish huquqiga ega;

- Davlatlar xalqaro tashkilotlarga kirish, ikki yoki ko'ptomonlama shartnomalarga a'zo bo'lish hamda betaraflik huquqlariga ega.

Shunday qilib, har bir davlat suveren tenglik tamoyilining asosiy qoidalari nafaqat davlat suverenitetini taqozo etibgina qolmay, balki uni hurmat qilishni ham talab etadi. Davlatlar o'zaro munosabatlarda bir-birlarining tarixiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishiga, ulardagi turli yondashuv va qarashlarni shakllanishiga, ichki qonun va qoidalarini yaratishlariga, xalqaro huquq ta'sirida boshqa davlatlar bilan bo'ladigan munosabatlarini o'z nuqtai nazari bilan amalga oshirishlariga to'sqinlik qilmasligi lozim.

Davlatlarning yuridik jihatdan tengligi ularning faktik jihatdan xalqaro munosabatlarda tengligini bildirmaydi. Chunki BMT Xavfsizlik Kengashining a'zolari alohida huquqiy holatga ega ekanligi bunga misol bo'la oladi. Muayyan bir davlat, davlatlararo ittifoqlar yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan yaratilgan normalar boshqa davlatlarga tazyiq bilan o'tkazilishi mumkin emas.

Xalqaro huquq subyektlarini har qanday xalqaro huquqiy munosabatlar tizimiga kiritish, faqatgina uning erkinligiga asosan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, suveren davlatlar bor ekan, suveren tenglik tamoyili xalqaro huquq tizimidagi asosiy qoidalardan biri bo'lib qoladi.

Xalqaro huquqning kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik tamoyili ham mamlakat Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan.

Xalqaro munosabatlarda kuch ishlatishdan yoki kuch bilan tahdid qilishdan voz kechish tamoyili tomonlarni boshqa davlatlarga qarshi bevosita yoki bilvosita kuch ishlatishni ifodalovchi har qanday harakatlardan o'zini tiyib turishini anglatadi. Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik to'g'risidagi masala ilk bor Ikkinchi jahon urushi yillarida yuzaga keldi va xalqlarning urushdan keyin xalqaro munosabatlarni adolatli asosda qurishga bo'lgan intilishlari va umidlarini aks ettirdi. Bu obyektiv qonuniyat birinchi marta xalqaro huquq prinsipiga aylandi va BMT Nizomida mustahkamlab qo'yildi.

BMT Nizomining IV bo'lim 2-moddasiga asosan xalqaro huquq subyektlari kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipi asosida faoliyat ko'rsatishini o'z zimmasiga oladilar. BMT Nizomidagi me'yorga asosan qabul qilingan 1970-yilgi xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya va Xelsinki Kengashining yakunlovchi hujjatlari kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid solmaslik prinsipini mazmunan boyitadi.

Kuch ishlatmaslik majburiyati barcha davlatlarga taalluqlidir, chunki xalqaro xavfsizlik va tinchlikning saqlanishi, nafaqat BMT ga a'zo bo'lgan davlatlarga, balki barcha a'zo bo'lmagan davlatlarga ham ushbu tamoyilga amal qilishni shart qilib qo'yadi. Biroq BMT Nizomining na 2-moddasida va na boshqa bandlarida davlatlar tomonidan shu tamoyilga asosan qanday faoliyat ko'rsatmasligi yoki ularga qanday xatti-harakatning taqiqlanganligi aniq tavsiflab berilmagan.

BMT Nizomiga muvofiq, nafaqat qurolli kuchlarning, balki har qanday kuchning haq-huquqlariga qarshi qo'llanilishi, ya'ni qurol ishlatmasdan qilinadigan zulm-zo'ravonliklar ham taqiqlanadi. «Kuch» atamasiga alohida urg'u berib, kuch ishlatishning tinchlikka o'ta katta xavf-tahdid solishini e'tirof etmoq lozim. Nizomning 2-modda, 4-bandida, avvalombor, qurolli kuch ishlatishning man etilganligi haqida so'z boradi.

YEXHTning yakunlovchi hujjatida a'zo davlatlarning «boshqa a'zo-davlatni majburlash maqsadida kuch ishlatish-

ning barcha ko'rinishlaridan tiyilishi», «har qanday iqtisodiy majburlash ta'siridan o'zini tiyib turishi» kerakligi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib qo'yilgan. Bularning barchasi, shubhasiz, hozirgi zamon xalqaro huquq hujjatlari tomonidan har qanday ko'rinishdagi g'ayriqonuniy kuch ishlatishni qat'iyman man etilayotganligidan dalolat beradi. BMT Nizomining 42-47 va 51-moddalarida qurolli kuchni qonuniy ravishda qo'llash holatlari haqida, 41 va 50-moddalarida esa qurolsiz kuchlarning qonun doirasida qo'llanilishi haqida aytib o'tilgan. Bu moddalarda quyidagi usullar sanab o'tiladi: «Iqtisodiy munosabatlar, temir yo'l, dengiz, havo, pochta, telegraf, radio va boshqa aloqa vositalarini to'la yoki qisman uzib qo'yish, diplomatik aloqalarni to'xtatib qo'yish».

Nizomda qurolli kuchlarni davlatlar tomonidan ikki holatdagina, ya'ni o'zini-o'zi mudofaa qilish (51-modda) va BMT Xavfsizlik Kengashining qaroriga asosan, dunyo xavfsizligiga tahdid, tinchlik, sulh buzilgan yoki agressiya holatlarida (39 va 42-m.m) qonuniy ravishda qo'llash mumkinligi ta'kidlanadi.

Ma'lum davlatning o'zini-o'zi mudofaa qilishi, shu davlatga qurol bilan bostirib kirilganidagina huquqiy asosga ega bo'ladi. Bir davlat boshqasiga qarshi iqtisodiy yoki siyosiy chora ko'rganida, birinchi davlatga qarshi qurolli kuch ishlatish 51-moddaga binoan to'g'ridan-to'g'ri taqiqlangan.

Bunday vaziyatlarda yoki hatto qurol bilan davlat hududiga bostirib kirish holati namoyon bo'lganida, himoyalannuvchi davlat unga nisbatan teng o'lov tamoyiliga amal qilgan holda javob tadbirini qo'llashi mumkin.

BMT Nizomi aniq majburiy choralarning to'la ro'yxatini o'zida ifodalamagan. Xavfsizlik Kengashi Nizomda maxsus sanab o'tilmagan boshqa chora-tadbirlarni ham ko'rishi mumkin.

Kuch ishlatmaslik tamoyili, eng avvalo, agressiv urushlarning taqiqlanishini ko'zda tutadi. Chunki ma'lum bir davlat tomonidan qurolli kuch ishlatilishi, avvalo agressiv urush deb tan olinadi va xalqaro jinoyat sifatida davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarlikka tortilishiga, shuningdek, bunga aybdor shaxslarning xalqaro jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

Agressiya harakatlari Nyurnberg va Tokio xalqaro harbiy tribunallarining nizomlarida xalqaro jinoyatlar deb yuridik jihatdan tasniflangan. Urushdan keyingi yillarda, ushbu

tamoyilning mazmuniga davlatlarning agressiv urushlarni tashviq qilmasliklari majburiyati ham kiritilgan.

Agressiya tushunchasidan tashqari xalqaro huquqda «qurolli hujum» tushunchasi ham e'tirof etilgan. Har ikkala o'xshash holatda ham ularning oqibatlarini turlicha talqin qilinadi. BMT Xavfsizlik Kengashining ta'rificha, bevosita qurolli hujum bilan bog'liq bo'lmagan harakatlar agressiya deb nomlangan.

Ushbu tamoyilning mazmuniga 70-yillardan boshlab davlatlarning kuch bilan tahdid solish yoki boshqa davlat chegaralarini buzish maqsadida kuch ishlatish yoki bo'lmasa hududiy ixtiloflar va davlat chegaralari bilan bog'liq masalalarni hal etish vositasi sifatida kuch ishlatilishidan o'zini tiyishi lozimligi alohida kiritilgan.

Kuch ishlatmaslik tamoyilining mazmuniga ko'ra, xalqaro huquq me'yorlarining buzilishi orqali boshqa davlat hududlarini bosib olish, kuch ishlatish bilan bog'liq repressaliya harakatlari man etiladi, shu jumladan, uchinchi bir davlatga qarshi agressiyani amalga oshirmoqchi bo'lgan ikkinchi davlat ixtiyoriga foydalanish uchun o'z hududlarini berish, boshqa bir davlatdagi fuqarolar urushi yoki terroristik harakatlarda ishtirok etish yoki yordam ko'rsatish, gijgijlash uyushtirish, bir davlat hududiga bostirib kirish uchun qurolli to'dalar, muntazam kuchlar, yollanma jangari guruhlarini tashkil etish yoki bunday harakatlarni rag'batlantirish kabilar taqiqlanadi.

Davlat chegaralari daxlsizligi tamoyili davlat xavfsizligining muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu tamoyil dastlab sobiq Ittifoqning GFR bilan 1970-yil 12-avgustda tuzgan shartnomasida, so'ngra PXR, GDR va CHSSRning GFR bilan tuzgan shartnomalarida huquqiy rasmiylashtirildi. Shu vaqtdan boshlab chegaralarning daxlsizligi barcha davlatlar uchun yuridik majburiy bo'lgan xalqaro huquq normasiga aylandi.

Chegaralarning daxlsizligi tamoyili 1975-yildagi Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashining yakunlovchi hujjatida ifodalandi: «Ishtirokchi davlatlar bir-birlarining va Yevropadagi barcha davlatlarning chegaralarini buzilmas hamda daxlsiz deya qaraydilar va shu bois hozir ham, kelajakda ham, bu chegaralarga nisbatan, har qanday xavf solishga qaratilgan harakatdan o'zlarini tiyib turadilar».

Davlat chegarasiga xavf solish – bu chegara chiziqlarini o'zgartirishga uning yuridik (huquqiy) qonuniyligi yoki chegara

chizig'ining holatini o'zgartirishga yo'naltirilgan bir tomonlama xatti-harakat, tahdid yoki talabdir.

Shu bois bunday tamoyilning e'tirof etilishi har qanday hududiy ko'z olaytirishlardan voz kechish demakdir, ya'ni hujjat matnida aytilganidek, davlatlar «A'zo davlatlardan istalgan birining butun hududi yoki undan bir qismini egallab olish yoki bo'lib olishga qaratilgan har qanday talab yoki harakatdan o'zlarini tiyib turadilar».

YEXHT ishtirokchi-davlatlari tomonidan Yevropa davlatlarining mavjud chegaralarining e'tirof etilishi xalqaro-huquqiy holat bo'lib, uning oqibatida muayyan huquqiy natijalar yuzaga keladi. Mavjud chegaralarning xalqaro huquq asosida tan olinishi hududiy chegaraga nisbatan davlatlararo bitimga tenglashtiriladi.

1. Chegaralar yaxlitligi tamoyilini uch qoida asosida: birinchidan, xalqaro huquqiy me'yorlarga muvofiq yuridik jihatdan belgilangan mavjud chegaralarning tan olinishi; ikkinchidan, ayni vaqtda yoki kelajakda har qanday hududiy ko'z olaytirishlardan voz kechish; uchinchidan, har qanday bosqinchilik harakatlari va tahdidlardan, jumladan, kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid solishdan voz kechish deb izohlash mumkin.

Chegaralarning buzilmas (yaxlit)ligi tamoyili xalqaro huquqning an'anaviy tamoyili bo'lgan davlat chegaralari daxlsizligi tamoyiliga juda o'xshash bo'lib, davlat chegaralari daxlsizligi tamoyilining mazmun va mohiyati davlatlarning ma'lum joydagi mavjud chegara chizig'iga rioya qilish majburiyatlarini o'z ichiga oladi, bu ma'lum joydagi chegara chizig'ini bemalol o'zgartirishi va tegishli ruxsatsiz yoki qoidadan tashqari ravishda uni kesib o'tishga yo'l qo'ymaslikning oldini oldi. Bu tamoyil har bir suveren davlatga o'z chegarasini insonlar yoxud transport vositalari bilan kesib o'tilishini nazorat qilish huquqini beradi.

Davlat chegaralarining yaxlit (buzilmas)ligi prinsipi va chegara daxlsizligi prinsipi jo'g'rofiy jihatdan farq qiladi. 1975-yildagi Yakunlovchi hujjatga muvofiq, chegaralarning buzilmasligi tamoyili ushbu qaydnoma ishtirokchilari hisoblangan davlatlar, ya'ni Yevropa davlatlari, AQSH va Kanadaga nisbatan amal qiladi. Chegara daxlsizligi tamoyili esa ancha keng doirada amal qilib, umumiy xalqaro huquq tamoyili hisoblanadi va bu xususda maxsus kelishuv-shartnomalar bor-yo'qligidan qat'i nazar ushbu tamoyil barcha qit'alarda amal qiladi.

Davlatlarning hududiy yaxlitligi tamoyili BMT Nizomi qabul qilinishi bilan o'z tasdig'ini topgan, lekin mazkur tamoyilning rivojlanish jarayoni davom etmoqda va bu tamoyilning nomlanishi oxirigacha o'z yechimini topgani yo'q. Shuning uchun huquqiy adabiyotlarda hududiy yaxlitlik, hududiy daxlsizlik, hududiy butunlik iboralarini uchratishimiz mumkin.

BMTning Nizomi kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid solishni davlatning hududiy butunligiga va har qanday davlatning siyosiy mustaqilligiga qarshi qo'llanishini taqiqlab qo'ygan. Nizomning 2-modda, 4-bandida bu tamoyil alohida eslatib o'tilmagan bo'lsa-da, uning ko'pgina elementlari o'z aksini topgan. Xususan, har bir davlat:

Birinchidan, boshqa davlatning milliy butunligi va hududiy daxlsizligini qisman yoki to'la buzilishiga qaratilgan har qanday xatti-harakatdan o'zini tiyib turishi kerak;

Ikkinchidan, davlatning hududi Nizom qoidalarini buzish orqali kuch ishlatish natijasida harbiy bosib olish obyekti bo'lmasligi lozim;

Uchinchidan, davlat hududi kuch bilan tahdid qilish yoki uni ishlatish natijasida boshqa davlat tomonidan egallab olinish obyekti bo'lishi mumkin emas.

1975-yildagi YEXHT ning Yakunlovchi hujjatida hududiy yaxlitlik tamoyiliga shunday ta'rif beriladi: «A'zo davlatlar har birining hududiy yaxlitligini hurmat qiladi va bunga muvofiq, BMTning Nizomi maqsadlariga mos kelmaydigan har qanday harakatga, har qanday a'zo davlatning hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqilligiga qarshi qaratilgan harakatlarga qarshidir».

Yakunlovchi hujjatga muvofiq, davlatlar bir-birlarining hududiy yaxlitligini hurmat qilish majburiyatini olib, «BMT Nizomi maqsad va tamoyillariga mos kelmaydigan har qanday xatti-harakatga qarshi chiqishlari lozim». Bu yerda gap hududiy yaxlitlik yoki daxlsizlikka qarshi har qanday xatti-harakat haqida bormoqda. Masalan, hududiy suveren davlatning ruxsatisiz xorijiy hududdan har qanday transport vositasining tranzit olib o'tilishi nafaqat chegara daxlsizligi, balki davlat hududining daxlsizligiga ham xilofdir. Barcha tabiiy xaziralar davlat hududining tarkibiy qismlari hisoblanadi, agar hudud butunlay daxlsiz bo'lsa, uning qismlari ham daxlsiz bo'lishi lozim. Davlat o'zga mamlakat hududidan foydalanish chog'ida ushbu davlatning tabiiy shart-sharoitlariga zarar yetkazmasligi lozim.

Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish tamoyili BMT Nizomining 2 - modda 3 - bandiga muvofiq «BMTning barcha

a'zolari o'z xalqaro nizolarini xalqaro tinchlik, xavfsizlik hamda adolatga xavf solmaydigan holda tinch vositalar bilan hal qiladilar».

Ushbu prinsip qator xalqaro shartnoma va bitimlarda belgilab qo'yilgan. Ularda urush usuliga murojaat qilish huquqi chegaralanib, xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish vositalari rivojlantirilgan va davlatlar zimmasiga bunday vositalarni qo'llash majburiyati yuklangan.

BMT Nizomining 33-moddasiga muvofiq nizo ishtirokchi taraflar «Bahslarni muzokara, tekshiruv, vositachilik, yarashish, sud muhokamasi, arbitraj, mintaqaviy organlarga murojaat etish yo'li bilan yoki o'z xohishlariga ko'ra boshqa tinchlik vositalari bilan hal etishga harakat qilishlari lozim».

Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish tamoyilining tahlili (EXHTning Yakuniy hujjati, Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi 1970-yilgi Deklaratsiya) shuni ko'rsatadiki, BMT Nizomini rivojlantiradigan va to'ldiradigan bir qator qoidalarni saqlab qolishga erishildi. Jumladan:

— Davlatlarning «Qisqa muddat ichida xalqaro huquqqa asoslangan adolatli qarorga kelish uchun barcha choralarni ko'rish» majburiyatini;

— Nizo hal qilinmayotgan hollarda «Nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishning o'zaro kelishilgan yo'llarini izlashni davom ettirish» majburiyatini;

— «Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga tahdid tug'iladigan va shu bilan nizoni tinch yo'l bilan hal qilishni yanada og'irlashtiradigan har qanday harakatlardan o'zini tiyish»ni.

Xalqaro huquqning hozirgi zamon konsepsiyalariga muvofiq davlatlararo nizoni tinch yo'l bilan hal etishlari lozim.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik davlatlar tinchlik vositalari tizimida eng qulay bo'lgan diplomatik muzokaralar yo'lini afzal biladi, chunki ko'p masalalar diplomatik yo'l bilan hal etilib kelinmoqda.

Bevosita muzokaralar xalqaro nizoning tezda hal etilishi talablariga javob beradi, tomonlarning teng huquqliligini kafolatlaydi, ham siyosiy, ham yuridik ixtiloflarni hal etish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan kelishuvga erishishga ko'maklashadi, muammo yuzaga kelishi bilan unga darhol barham berilishi imkoniyatini yaratadi, muammoning dunyoning tinchligi va xalqaro xavfsizlikka tahdid solish darajasiga yetmasidan yoki yoyilib ketmasidan hal etilishiga yo'l ochadi.

Xalqaro munosabatlar taraqqiyoti, so'nggi yillarda davlatlarning muzokara doirasidan chiqib, nizoni yechishning boshqa qulay vositalarini yaratish, bu borada uchinchi bir tomonga yoki xalqaro organlarga murojaat qilish yo'llarini ham keng ochib bermoqda. Ko'pincha bunday holatlarda BMT Xalqaro sudining roli bilan bog'liq masalalar ko'tariladi.

So'nggi yillarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, bir tomondan, xalqaro nizolarni tinchlik vositasida hal etishning salmog'i oshib bermoqda, ikkinchi tomondan esa, davlatlar ushbu tamoyilning mazmunini jamiyatning amaliy ehtiyojlariga moslashtirishga tinimsiz harakat qilib kelmoqda.

Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili xalqaro munosabatlarda umumiy tamoyil sifatida millatlarining o'z davlatchiligi uchun kurashishlari jarayonida, ya'ni burjua-demokratik inqiloblar davrida shakllandi. Ilgarigi davrlarda ushbu tamoyil bir oz cheklangan ravishda qo'llanilar edi, chunki xalqaro huquq ko'p holatlarda davlatning ichki ishlariga turli xil aralashuvlar, hattoki qurolli aralashuvlarga ham yo'l qo'ya olar edi. Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili hozirgi nuqtayi nazardan umumiy shaklda BMT Nizomining 2-modda 7-bandida qayd etilgan bo'lib, obro'li xalqaro hujjatlarda yanada oydinlashtirilgan: bu 1970-yildagi Xalqaro huquq tamoyillari haqidagi Deklaratsiya, YEXHTning Yakunlovchi hujjatida BMTning davlatlarning ichki ishlariga aralashishiga yo'l qo'ymaslik haqidagi Deklaratsiyasi kabilar: BMT Nizomining 2-modda 7-bandiga muvofiq BMT hech bir davlatning tub ichki vakolati (kompetensiya)ga kiruvchi ishlarga aralashish huquqiga ega emas. Bunday taqiqlash nafaqat BMTning o'ziga, balki xalqaro munosabatlarning barcha ishtirokchilariga ham taalluqlidir.

Xalqaro huquq davlatning ichki siyosiy ahvoriga tegishli masalalarni tartibga solmaydi, shu bois ham davlat yoki xalqaro tashkilotlarning muayyan bir davlatning ichki vakolatiga oid ishlarini hal etishga urinishi uning ichki ishiga aralashuvi deb baholanmog'i lozim.

Ammo BMT Nizomining VII bobida bir istisno belgilangan, unga muvofiq dunyo tinchligiga tahdid, agressiya holatlarda majburiy choralar ko'rilishi mumkin. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, «Har qanday davlatning tub vakolatiga kiruvchi ishlar» sof hududiy muammoga kirmaydi. Bu demak, ma'lum bir voqea-hodisa, agar biror davlat hududi ichida sodir bo'layotgan bo'lsa-da, uning ichki vakolatiga tegishli emas deb

qaralishi mumkin. Masalan, BMT xavfsizlik Kengashi biror-bir davlat hududida yuz berayotgan hodisa xalqaro tinchlik va xavfsizlikka xavf solayapti deb hisoblasa, u holda voqea o'sha davlatning ichki ishlari hisoblanib qolmaydi va BMTning harakatlari o'sha davlat ichki ishlariga aralashuv deya baholanmaydi.

Aralashmaslik konsepsiyasi davlatning o'z ichki vakolatlariga har qanday masalalarni bemalol kirita olish mumkinligini bildirmaydi. Davlatlarning xalqaro majburiyatlari, jumladan, BMT Nizomidan kelib chiqadigan majburiyatlari ushbu masalaning hal etilishiga to'g'ri yondoshuv mezonini me'yor hisoblanadi. Sharhlanayotgan moddaga asosan mamlakatimiz tashqi siyosati xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Ular jumlasiga inson huquqlariga hurmat tamoyilini kiritish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. «Suverenitet» atamasi ilk bor qaysi davlatda va nechanchi asrda vujudga kelgan hamda qaysi so'zdan olingan?
2. O'zbekistonning davlat suvereniteti tushunchasi va mohiyati qaysi qonun hujjatlarida mustahkamlangan?
3. O'zbekistonning davlat ramzlari qachon qabul qilingan va uning mazmun-mohiyatiga qanday ta'rif berilgan?
4. «Demokratiya» so'zi qayerdan kelib chiqqan va u nimaning anglatadi?
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida demokratiya tushunchasi haqida qanday ta'rif bergan?
6. To'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita demokratiya tushunchasini bilasizmi?
7. Vakillik demokratiyasi nima?
8. To'g'ridan-to'g'ri va vakillik demokratiyasi shakllari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarida o'z aksini topgan?
9. To'g'ridan-to'g'ri va vakillik demokratiyasi shakllari O'zbekistonning qaysi qonunlari asosida amalga oshirilishi belgilangan?
10. «Referendum» so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?
11. O'zbekiston Respublikasida necha marotaba referendum o'tkazilgan va nechanchi yillarda?

12. O'zbekistonni demokratik davlat sifatida tavsiflovchi belgilarini aniqlang.
13. «Hokimiyatning bo'linish» nazariyasi nechanchi asrdan boshlab mustaqil siyosiy-huquqiy ta'limotga aylangan?
14. Jahon tajribasida «Demokratiya va inson huquqlari» qanday asoslarda himoya qilinadi?
15. O'zbekistonda siyosiy va mafkuraviy xilma-xillik qanday rivoj topmoqda?
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov Oliy Majlisning 2-chaqiriq 2-sessiyasida so'zlagan nutqida, O'zbekistonda siyosiy va mafkuraviy plyuralizmni yanada rivojlantirish uchun Parlament faoliyati qanday tashkil etilishi bilan bog'liq ekanligini asoslab bergan?
17. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qachon qabul qilingan va qanday ahamiyatga ega bo'ldi?
18. Ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarida o'z aksini topgan?
19. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari deganda nimani tushunasiz va uni belgilab bering?
20. O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi qanday amalga oshiriladi?
21. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining Konstitutsiyaviy asoslari qaysi qonun hujjatlarida belgilangan?
22. O'zbekistonda mudofaa va xavfsizlikning ta'minlanishini Konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini aniqlang.
23. O'zbekiston qurolli kuchlari qachon tashkil etilgan?
24. Milliy istiqlol mafkurasiga qanday ta'rif berilgan?
25. O'zbekistonning davlat mustaqilligini amalda namoyon qiladigan va ro'yobga chiqaradigan tashkiliy tuzilmalar tizimi haqida nimalarni bilasiz?
26. O'zbekiston Konstitutsiyasining birinchi moddasida «Davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi» deb yozib qo'yilgan, buning mazmun va mohiyatini aniqlang.

INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI

V BOB

INSON VA FUQARO HUQUQ VA ERKINLIKLARI HAMDA BURCHLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

1-§. Inson huquqlarining xalqaro-huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari tushunchasi va ularning turkumlanishi

Insoniyat tarixida yangi davr — inson huquqlari davri boshlandi. Inson huquqlari, eng avvalo, umuminsoniy qadriyat-larga, umumjahon sivilizatsiyasiga, bu sohada boshqa xalqaro erishilgan tajribalarga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlariga asoslangan.

«Inson huquqlariga asoslangan demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari bor. Tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi va ozchilikning manfaat-larini ham ro'yobga chiqarish, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlatning asosiy idoralariga saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi, davlat va jamiyat boshqaruvi-da qonun ustuvorligi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat idoralarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi»³².

³² Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3.— T.: «O'zbekiston», 1996, 8-bet.

Inson huquqlariga doir xalqaro hujjatlarga BMTning 1948-yilgi «Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi», 1966-yilgi «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida»gi, «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi Xalqaro paktlar kiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi «Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi»ning barcha asosiy g'oya va qoidalarini o'zida singdirgan. Tarixda sinalgan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, eng rivojlangan, taraqqiy etgan davlatlarning huquqiy tajribasiga tayangan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti insoniyat tarixida inson omilining yangi bosqichini boshladi va 1995-2005-yillarni kurramizda «Inson huquqlari o'n yilligi», deb e'lon qildi. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida zikr etilgan inson asosiy huquqlari va erkinliklari ifodasini O'zbekiston Konstitutsiyasi-ning quyidagi moddalarida yaqqol ko'rish mumkin:

1. Teng fuqarolik huquqi (21-modda);
2. Yashash huquqini himoya qilish (24-modda);
3. Har kimning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egaligi, qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi (25-modda);
4. Hech kimni qiynoqqa solmaslik va aybi aniqlanmaguncha aybdor hisoblamaslik holati (26-modda);
5. Fuqarolar turar joyi, telefon yozishmalari daxlsizligi (27-modda);
6. So'z, fikr va e'tiqod erkinligi va uni tarqatish huquqi (29-modda);
7. Din va vijdon erkinligi (31-modda);
8. Fuqarolar uchun jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi (32-modda);
9. Mulkdorlik huquqi va erkin kasb tanlash (38-39-moddalar);
10. Qonunga muvofiq siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalari tashkil etish (56-modda);
11. Saylash va saylanish huquqi (117-modda) va shuningdek, boshqa ko'p moddalarda xalqaro miqyosda e'tirof etilgan insonning asosiy huquqlari va erkinliklari o'z munosib o'rnida har tomonlama aks ettirilib, Konstitutsiya va boshqa qonunlar bilan kafolatlangan³³.

Konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va burchlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, qonun chiqaruvchi hokimiyat Konstitu-

³³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi (mualliflar jamoasi). TDYUI. — Toshkent: «Moliya», 2002, 189-190- betlar.

tsiyada asosiy huquq, erkinlik va burchlarni mustahkamlaydi, qonun va qonun osti hujjatlarida esa, ular asosida vujudga keladigan hosila huquq, erkinlik va burchlarni belgilash bilan birga ular mazmunini keng yoritish imkonini beradi. Konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va burchlarning yuridik xususiyatlari qatoriga Konstitutsiyada mustahkamlangan har qanday qoida singari, ular oliy yuridik kuchga va o'zgartirishning maxsus tartibiga ega ekanligini, shuningdek, uning asosida ishlab chiqiladigan boshqa sohalar qonunchiligi uchun asosiy yo'nalishlarni belgilashini ta'kidlash joiz³⁴.

Konstitutsiyaviy huquq, erkinliklarni yuridik jihatdan mustahkamlash shakllari turli davlatlarda turlicha bo'lib, bu har bir davlatning iqtisodiy, siyosiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Huquq va erkinliklarni mazmun jihatdan o'rganish hamda huquqiy tomondan tartibga solish, ularni ma'lum guruhlariga ajratishni talab qiladi. Bu esa yurisprudensiyada huquq institutlari bilan bog'liq muammolarni o'rganish va ularni yechishni osonlashtiradi. Tasniflash har doim shartli ravishda kechadi, chunki ko'p hollarda biror huquq, erkinlik, burch bir paytda ikki yoki undan ko'p tasnifiy guruhlariga tegishli bo'lib qolishi mumkin.

Huquq va erkinliklar mohiyatiga ko'ra, XVI-XVII asrlarda vujudga kelgan ta'limotlarga asosan *tabiiy* huquq, erkinliklar va *pozitiv* huquq, erkinliklarga ajratiladi.

Tabiiy huquq va erkinliklar insonning uzviy, ajralmas huquq va erkinligi bo'lib, tug'ilgandan boshlab, vafot etguniga qadar mavjud bo'ladi. Tabiiy huquq va erkinliklarga har qanday inson (fuqaroligi yo'q shaxslar hamda chet el fuqarolari) hech qanday moneliksiz ega bo'ladi. Tabiiy huquq va erkinliklar jumlasiga yashash huquqi, shaxsiy erkinlik va daxlsizlik huquqi, fikr va so'z erkinligi va hokazolar kiradi.

Pozitiv huquq va erkinliklar faqat biror-bir davlatga tegishli fuqarolarda mavjud bo'lib, ular o'sha davlat bilan o'zaro huquqiy aloqada bo'ladi. Masalan, fuqaro o'z davlati oldida Konstitutsiyaviy burchlarni bajarishga majburligi.

Subyektga tegishliligiga ko'ra:

- *individual* (masalan, bilim olish huquqi);
- *jamoa (kollektiv)* turlariga ajratish mumkin. Masalan, ish tashlash huquqi – jamoa huquqidir. Individual tartibda ish

³⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi (mualliflar jamoasi). TDYUI. — Toshkent: «Moliya», 2002, 234-bet.

tashlash – ish tashlash hisoblanmasdan, balki u ishga kelmaslik, deb baholanishi mumkin.

Shuningdek, huquq, erkinlik va burchlarni *asosiy va qo'shimcha* turlarga ajratish mumkin. Masalan, davlatni boshqarishda ishtirok etish asosiy huquq hisoblansa, saylov huquqi undagi hosila huquq bo'lib, uning mazmunini ifodalash shakli hisoblanadi.

Huquq, erkinlik va burchlarning mazmun-mohiyati bo'yicha tasniflash juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, umumjahon miqyosida tan olingan ko'rinishi quyidagicha:

— **Shaxsiy huquqlari, erkinliklari va burchlari:** ya'ni yashash huquqi, shaxsiy erkinlik va daxlsizlik hamda turarjoy daxlsizligi kabi huquq, erkinlik va burchlar;

— **Siyosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari:** davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etish, ovoz berish, yig'ilish huquqi, vatanni himoya qilish bilan bog'liq qator siyosiy huquq, erkinlik va burchlar;

— **Iqtisodiy-ijtimoiy huquqlari, erkinliklari va burchlari:** mehnat huquqi, mehnat erkinligi, mulk huquqi, soliq to'lash burchi, ta'lim olish huquqi, ijod erkinligi va shu kabilar iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq erkinlik va burchlar guruhini tashkil etadi;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham huquq, erkinliklar xuddi shunday guruhlariga ajratiladi.

2-§. Fuqarolik tushunchasi.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik

Fuqarolik — bu jismoniy shaxsning ma'lum bir davlatga mansubligini anglatib, ushbu fuqaroning tegishli davlat bilan doimiy ravishda huquqiy aloqada bo'lib turishini bildiradi. Bunda fuqaro shu davlat tomonidan belgilangan huquq va burchlarni amalga oshiradi, davlat esa fuqaroni har yerda va har vaqt himoya qiladi. Mazkur huquqiy aloqadorlik fuqaroning tug'ilganida yuzaga kelib, uning butun umri davomida saqlanib qoladi.

1992-yil 2-iyulda «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Qonunda yozilishicha, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi, bu aloqa ularning o'zaro huquqlari va burchlarida ifodalanaadi.

Birinchi bo'lib «*Fuqaro*» atamasi fransuz inqilobining 1799-yildagi «Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi»da

ko'rsatilgan edi. Dunyo mamlakatlarida hozir bir fuqarolik va ko'p fuqarolik (bipatrid) mavjud bo'lib, masalan, Rossiya, Braziliya kabi davlatlarda ko'p fuqarolikka asoslanadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 21-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi va u barcha uchun tengdir. Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida har bir shaxs fuqaro bo'lish huquqiga egadir. Hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir yilligiga atalgan ma'ruzasida shunday degan edi: «Shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilar ekan, bu bilan u Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. Shuningdek, u ma'lum burchlarni ham bajarishga majburdir. Tabiiyki, O'zbekiston davlati ham fuqarolarning manfaatlari va erkinliklarini Respublika hududida va uning tashqarisida himoya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi»³⁵.

Jahon amaliyotida fuqarolikni qabul qilishning asosiy ko'rinishlari:

- Tug'ilish orqali (filiatsiya);
- Fuqaroligi bo'lmagan yoki chet davlat fuqarosi bo'lgan shaxsning fuqarolikka qabul qilinishidir (naturalizatsiya);
- Xalqaro shartnomalar va qonunlarda belgilangan tartibda fuqarolikni tiklash (reintegratsiya);
- Davlatlarning bo'linib ketishi oqibatida fuqarolikni tanlash (optatsiya);
- Hududiy o'zgarishlar vaqtida avtomatik tarzda fuqarolikning o'zgarishi (transfert).

Fuqarolikni olishning eng asosiy ko'rinishi tug'ilish orqali fuqarolikka qabul qilinish bo'lib, bu o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

«Qon huquqi» (jus sanguinus) asosida chaqaloqning fuqaroligi ota-onasining fuqaroligi bilan belgilanib, tug'ilgan joyiga bog'lanmaydi.

«Tuproq huquqi» (jus soli) asosiga ko'ra, fuqarolik chaqaloqning tug'ilgan joyidan kelib chiqib, uning ota-onasi fuqaroligi bilan bog'liq bo'lmaydi.

³⁵ Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. — T.: «Sharq», 1993, 9-bet.

O'zbekiston Respublikasida ham tug'ilish orqali fuqarolik olish «qon huquqi»ga asoslanadi, ya'ni «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonunining 14-moddasiga binoan tug'ilgan paytida ota-onasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bola, O'zbekiston Respublikasi hududida yoxud O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tug'ilgan bo'lishidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi. Ushbu qonunga ko'ra quyidagilar O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub bo'ladilar:

1) Kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodi, mashg'ulotining turi va sajiyasidan qat'i nazar ushbu Qonun kuchga kirgan vaqtda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmagan hamda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslar;

2) Davlat yo'llanmasi bilan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishlayotgan, harbiy xizmatni o'tayotgan yoki o'qiyotgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasining hududida tug'ilgan bo'lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo'lsalar, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmاسalar va ushbu Qonun kuchga kirganidan keyin kechi bilan bir yil ichida O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan bo'lsalar;

3) Ushbu Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan shaxslar.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z iltimosnomalariga ko'ra ushbu Qonunga binoan kelib chiqishidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, siyosiy va boshqa e'tiqodlaridan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish shartlari quyidagilardan iborat:

1) Chet el fuqaroligidan voz kechish;

2) So'nggi besh yil davomida O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganlik.

Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslarga, basharti ular shu yerda tug'ilgan va hech bo'lmasa ota-onasidan biri, buvasi yoki buvisi O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilganligini va boshqa davlatlarning fuqarosi emasligini isbotlasa, taalluqli bo'lmaydi;

- 3) Qonuniy tirikchilik manbalarining mavjudligi;
- 4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olish va bajarish.

Shaxsning o'z iltimosnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan **chiqishga** ruxsat etiladi. Quyidagi hollarda esa bu inkor etiladi:

— Shaxs davlat oldidagi majburiyatlarini yoki fuqarolarining yoxud davlat va jamoat tashkilotlarining muhim manfaatlari bilan bog'liq mulkiy majburiyatlarini bajarmagan bo'lsa;

— Shaxs ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan yoxud unga nisbatan qonuniy kuchga kirgan va ijro etilishi zarur bo'lgan sud hukmi bo'lsa;

— Shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi O'zbekiston Respublikasi davlat xavfsizligi manfaatlariga zid bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining **yo'qotilish** asoslari bo'lib:

1) Shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, politsiyaga, adliya idoralariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa idoralariga ishga kirganligi natijasida;

2) Agar chet elda doimiy yashovchi shaxs besh yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobiga turmagan bo'lsa;

3) Agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg'onligi shak-shubhasiz ma'lumotlar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida olingan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni chiqqan kundan boshlab O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi yo'qotiladi.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik bilan shug'ullanuvchi davlat organlariga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasining Prezidenti;
- O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasiga ko'ra «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi».

3-§. Shaxsiy huquq va erkinliklarning Konstitutsiyaviy asoslari

Yashash huquqi. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 3-moddasida har bir insonning yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqlari mustahkamlangan. Shuningdek, fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 6-moddasida «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Bu huquq qonun tomonidan himoya qilinadi. Hech kim o'zboshimchalik bilan hayotdan mahrum qilinishi mumkin emas» deyilgan.

Inson – bioijtimoiy mavjudot bo'lib, tabiat mahsuli sifatida biologik tirik organizm hamda jamiyat mahsuli sifatida shaxs bo'lib shakllanadi. Yashash huquqi aynan insonlarning biologik mavjudligini saqlashga bo'lgan huquqidir.

Shu bois huquq tomonidan qo'riqlanadigan ijtimoiy qadriyatlar qatorida inson, uning shaxsi bilan bog'liq xususiyatlari ijtimoiy ma'noda tengi yo'q, biologik ma'noda takrorlanmas, tabiat va jamiyat ijodining mahsuli sifatida markaziy o'rinni egallaydi. Insonning har qanday tirik mavjudotlar kabi fiziologik va psixologik tuzilishi, ayniqsa, uning jamiyat hayotidagi ishtiroki, ijtimoiy munosabatlarning yaratuvchisi va ishtirokchisi, subyekti ekanligi bois ham uning hayoti oliy darajada muqaddas hisoblanadi hamda u muhofaza qilinadi³⁶

2001-yil Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasida qabul qilingan «Jinoiy jazolarni liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni³⁷ inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini rivojlantirish sohasidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

O'lim jazosini qo'llash bosqichma-bosqich kamayib borayotganligi O'zbekiston Respublikasida sud huquq tizimini, jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida amalga oshiriladigan jarayonning muhim yo'nalishi bo'ldi. Mamlakat mustaqillikka

³⁶ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi (mualliflar jamoasi). TDYUL. — Toshkent: «Moliya», 2002, 244-bet.

³⁷ «Jinoiy jazolarni liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001.

erishgan paytda jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari o'lim jazosini nazarda tutuvchi 30 dan ortiq moddalardan iborat edi. O'zbekiston Respublikasining 1994-yilgi jinoyat kodeksida bunday moddalar soni 13, 1998-yilda 8, 2001-yilda esa 4 gacha kamaytirildi. 2003-yilda jinoyat qonunchiligini liberallashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng, faqat ikki turdagi jinoyat-javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm jinoyatlarini sodir etganlik uchun o'lim jazosi nazarda tutiladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «O'tgan o'n ikki yildan ortiqroq vaqt mobaynida o'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar tarkibi 33 tadan 2 tagacha qisqartirildi»³⁸. Ayni vaqtda, mamlakatda amalga oshirilayotgan jamiyat va davlat hayotini demokratik jihatdan yanada yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish borasidagi islohotlarning mohiyati va mazmuni, sud-huquq tizimini liberallashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning natijalari jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilinishini hamda uning umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan almashtirilishi zarurligini taqozo etmoqda. 2005-yil 1-avgustda insonning yashash huquqini e'lon qiluvchi va mustahkamlovchi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalaridan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, jinoiy jazolarni yanada liberallashtirish borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi³⁹. Ushbu farmonda 2008- yilning 1-yanvaridan boshlab, jinoiy jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilinishi va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi joriy etilishi ko'rsatilgan.

Har bir insonning yashash huquqi o'z navbatida tabiiy huquqlar qatoridan joy olib, uni ta'minlash uchun davlat tomonidan:

— Har bir insonning hayoti xavfsizligini kafolatlovchi qonunchilik tizimini shakllantirish;

38 Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: «O'zbekiston», 2005, 48-b.

39 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi Farmoni // «Xalq so'zi» gazetasi, 2005-yil, 2-avgust.

— Insonning biologik mavjudligini saqlab qolish uchun yetarlicha iste'mol mahsulotlari (oziq-ovqat) bilan ta'minlash choralarini ko'rish;

— Ekologik toza tabiiy atrof-muhitni yaratish;

— Sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash va rivojlantirish kabi muhim tadbirlar amalga oshirilishi kerak.

Yashash huquqi kafolatlarini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan fuqarolarning sog'lig'ini saqlashga jiddiy e'tibor berilmoqda. Uning uchun sog'liqni saqlashning yagona tizimi yaratilgan bo'lib, bu tizim sog'liqni saqlash sohasidagi qonunchilikni ham o'z ichiga olgan.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash hamda onalik va bolalikka katta e'tibor berilmoqda. Buning uchun qator davlat dasturlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilgan. Ularning asosiy vazifasi bolalar o'limining oldini olish, ekologiyani yaxshilash, jismoniy va sog'lom avlodni o'stirish, onalik va bolalikni himoya qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ko'zlaydi.

Insonlarning yashash huquqini ta'minlash va muhofaza qilish jinoyat huquqi qonunchiligida rivojlantirilib, unda inson hayotini muhofaza qilishga doir o'nlab jinoiy huquqiy choralar tizimi mustahkamlangan. Undan tashqari jinoyat huquqi qonunchiligida afv etish instituti ham mavjud.

Shaxsiy erkinlik va daxlsizlik huquqi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasiga ko'ra O'zbekistonda «**Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.**».

Fuqarolarni erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi Konstitutsiyaviy huquq sifatida insonlarning tug'ilishi bilan qo'lga kiritilib, o'z ixtiyori bo'yicha harakat qilishi, boshqalarning shaxsiy erkinligi va daxlsizligiga ziyon yetmaydigan tarzda harakat qilishi lozim. Hech kim insonga qonunda nazarda tutilmagan yo'llar orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin emas. Shaxsning erkinligi jamiyatdagi axloq me'yorlari doirasidan chiqmasligi va qonun asosida bo'lishi kerak. Fuqarolarni erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi va boshqa muhofaza choralari nazarda tutilgan qonunlar bilan himoya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida ham sud-huquq tizimini isloh qilish davomida Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek «Sud-huquq tizimi qurilishining mutlaqo yangi Konsepsiyasi amalda joriy etildi» hamda «Jinoiy va protsessual qonunchiligimizning

dastlabki tergov va sudgacha bo'lgan jarayon ustidan sud nazoratini kuchaytirish bilan bog'liq ayrim qoidalarini qaytadan ko'rib chiqish zarurati vujudga keldi»⁴⁰.

Sud-huquq tizimini liberallashtirish davomida jinoyat qonunchiligimizdagi jinoyatlar tasnifi qaytadan ko'rib chiqildi va ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar ko'lamini kengaytirildi. «Natijada jazoni manzil koloniyalarda o'tayotgan shaxslarning ulushi qamoqda saqlanayotganlar soniga nisbatan ancha ko'paydi. Ya'ni, 1990- yilda manzil koloniyalarda jazoni o'tayotgan shaxslar mahbuslarning umumiy soniga nisbatan 7 foiz bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 21 foizni tashkil etmoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda har 100 ming aholiga nisbatan qamoqdagilar soni 158 kishini tashkil etadi. Ayni paytda ushbu ko'rsatkich, masalan, AQShda 715, Rossiyada 584, Ukrainada 416, Qozog'istonda 386, Qirg'izistonda 390, Estoniyada 339 kishidan iborat»⁴¹.

Shaxsiy erkinlik va daxlsizlik to'g'risidagi Konstitutsiyaviy normalar jinoyat-protsessual qonunchiligida rivojlantiriladi va tildiriladi. Masalan, Jinoyat-protsessual kodeksining 18-moddasi 2-qismida: «Hech kim sud qaroriga asoslanmay yoki prokuror sanksiyasiz hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas»⁴², deb belgilangan. Uning 3-qismida esa sudya va prokuror qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum etilgan yoki qonun yoxud sud hukmida nazarda tutilganidan ortiq muddat hibsdan ushlab turilgan yoki qamoqda saqlangan har qanday shaxsni darhol ozod qilinishi shartligi qat'iy belgilangan. Ushbu moddaning 4-qismida fuqarolarning shaxsiy hayoti, ularning turarjoylari daxlsizligi, o'zaro yozishmalari, telegraf aloqalari va telefon orqali so'zlashuvlarining sir saqlanishi qonun bilan himoyalinishi haqidagi norma mustahkamlab qo'yilgan.

Jinoyat-protsessual kodeksining 220-moddasiga binoan, ushlab turish jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni

40 Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. —T.: «O'zbekiston», 2005, 43-47-b.

41 Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. —T.: «O'zbekiston», 2005, 45-46-b.

42 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995, №2, 5-modda.

uning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishiga barham berish, qochib ketishi, dalillarni yashirishi yoki yo'q qilib yuborishining oldini olish maqsadida, qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdan iboratdir.

Jinoyat-protsessual ushlab turishning asosiy maqsadi va uning mohiyati – erkinlikni cheklashning vaqtinchaligidir. Qonunga muvofiq inson erkinligini qisqa vaqtga cheklash, faqat ushlangan shaxsning jinoyatga haqiqatan aloqadorligi yoki aloqador emasligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Ushlab turish asoslarining qat'iy tartibda belgilab qo'yilishi hozirgi zamon qonunchiligida ustuvor bo'lib, shaxsning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarining yana bir kafolatlanishi shakli hisoblanadi.

Shaxsni qonunga xilof ravishda ushlab turish va hibsga olish qonuniy yoki qonunga xilof ekanligini aniqlash uchun JK 234-moddasining 1-qismiga ko'ra, shaxs erkinligini qisqa muddatga cheklash uchun asos bo'lgan holatlarni har tomonlama tahlil qilish talab qilinadi⁴³.

Shunday qilib, ushlab turish asoslarining qonunda aniq belgilanishi yagona maqsadni, ya'ni shaxsning noqonuniy ravishda ushlanishining oldini olishni ko'zlaydi. Shu maqsadda JPKning 220-235-moddalarida ushlab turishning jinoiy-protsessual tartibi belgilangan⁴⁴.

JPK 226-moddasi 1-qismida ushlab turish ushlangan shaxs militsiyaga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan vaqtdan boshlab etmish ikki soatdan ortiq davom etishi mumkin emasligi belgilangan. JPK 237-moddasi mazmuniga ko'ra jinoyatni sodir qilishda gumon qilingan va ushlab turilgan shaxsni hech qanday shartlarsiz qo'yib yuborish uchun uning shaxsini tasdiqlovchi hujjat asos boladi.

Ushlab turilgan shaxsni ozod qilish uchun asoslar qatoriga jinoyat sodir qilishda gumonning tasdiqlanmaganligi ham kiradi (JPK 234-moddasi, 1-qismi 1-band). Jinoyat kodeksi-ning 234-moddasi 1-qismida shaxsning aybsizligini oldindan bila turib, noqonuniy ushlashga sababchi bo'lganlar uchun javobgarlik belgilangan. Ular surishtiruvchi, tergovchi, prokuror bo'lishi mumkin.

43 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995, №1, 3-m.

44 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi.//O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995, №2. 5-m.

Sudyaning oldindan bila turib, adolatsiz hukm, hal qiluv qarori yoki ajrim chiqarishi ham uning tegishli javobgarlikka tortilishi uchun sabab bo'ladi.

Hibsga olish jinoiy jazo hisoblanmay, odil sudlovni ta'minlash uchun ko'maklashuvchi protsessual majburlov chorasi bo'lib, u eng oxirgi zaruriyatda qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Hibsga olish ehtiyot chorasi sifatida ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo'yin tovlashning oldini olish, uning bundan keyingi jinoiy faoliyatining oldini olish, uning ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik, hukmning ijro etilishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi.

Sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, insonning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq protsessual majburlov choralari qo'llashga sanksiya berish huquqi sudlarga bosqichma-bosqich va izchil o'tkazilishini ta'minlash maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolarni sud orqali himoya qilish huquqini belgilovchi 19, 25 va 44-moddalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi Farmonida⁴⁵ jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran sudlar vakolatiga o'tkazilishi belgilandi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligida ayblanuvchini hibsdan ushlab turish muddatlarini uzaytirish tartiblari qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lib, uni buzishga hech kimning haqqi yo'q.

Inson erkinligi va shaxsiy daxlsizligining buzilishi har bir shaxsning sudga shikoyat bilan murojaat qilish hamda buzilgan huquqlarini tiklash va uning talablarini qondirish huquqini keltirib chiqaradi. Ushbu huquqni amalga oshirish tartiblari O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustdagi «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonuni⁴⁶ bilan

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi Farmoni // «Xalq so'zi» gazetasi, 2005-yil, 9-avgust.

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarining huquq va erkinliklarini buzadigan harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995, №9, 183-modda.

tartibga solinadi. Modomiki, jamiyatimizda inson manfaat-lari ustuvor ekan, fuqarolar o'zligini anglash, haq-huquqini tanish uchun murojaat etish huquqlaridan foydalanishlari lozim.

Shaxsning aybsizlik prezumpsiyasi. O'zbekiston Respublikasida jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sud-da qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sud-da ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilishi uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarz-dagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

Aybsizlik prezumpsiyasi (aybi isbot qilinguncha shaxsni aybsiz deb faraz qilish) O'zbekiston Konstitutsiyasining 26-moddasida mustahkamlangan bo'lib, uning mazmuni quyidagi-larda ko'rinadi:

1) Shaxsning aybi isbot qilinmagunga qadar u aybsiz deb topiladi;

2) Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi aybini isbot qilish faqat vakolatga ega tegishli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi, ya'ni shaxs o'z aybsizligini isbotlab berishga majbur emas;

3) Agar barcha gumonlar isbotlanmasa, bunda bu gumon-lar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi foydasiga hal etiladi;

4) Shaxs faqat sudning hukmi, qaroriga binoan aybdor deb topiladi va qonunda ko'zda tutilgan javobgarlikka tortilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 3-avgustdagi qarori bilan 1984-yil 10-dekabr-dagi «Qiynoqqa solish va muomalada bo'lish, jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi Konvensiya»ga qo'shildi.

Bu Konvensiyada yuqorida bayon etilgan ta'rif qonuniy choralar qo'llash natijasida paydo bo'ladigan og'riq va azob-larga taalluqli emasligi alohida ta'kidlanadi. Qiynoqqa solish, shafqatsiz yoki insonning qadr-qimmatini tahqirlaydigan har qanday harakatga jinoyat qonunchiligida jinoyat sifatida qaraladi.

Shaxsiy hayot daxlsizligi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida «Har kim o'z sha'ni va

obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniş va turarjoy daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turarjoyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas» deyilgan.

Bu normada, ya'ni:

- Shaxsning sha'ni va qadr-qimmati;
- Nomulkiy huquqlarni qo'riqlash va hurmat qilish;
- Shaxsiy hayot;
- Turarjoy daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Sha'n va qadr-qimmat faqat insonga xos sifat bo'lib, u insonga tug'ilganidan qo'lga kiritadigan ajralmas va boshqalarga o'tkazib bo'lmaydigan huquqi hisoblanadi, ya'ni ma'naviy dunyosini tavsiflaydigan nomoddiy boyliklardan biri hisoblanadi.

Shaxs sha'ni deganda shaxs yurish-turishiga nisbatan o'zga shaxslarning bergan ma'naviy-axloqiy bahosi tushuniladi.

Qadr-qimmat – shaxsning jamiyatdagi o'rniga, shaxsiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, dunyoqarashiga qarab o'z-o'zini ichki baholashidir.

Shu bois u ijtimoiy fikr bilan mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin. Shunga qaramasdan, shaxsning qadr-qimmati, shaxsning ichki o'zini-o'zi baholash mezonlari va jamiyatning unga bergan bahosi o'zaro biri-biriga bog'langan mezonlardandir. Shuning uchun ham insonning sha'n va qadr-qimmati katta ijtimoiy ahamiyatga ega va u qonun tomonidan himoya qilinadi.

Qonunlarda fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan tahqirlash ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat sifatida baholanib, bunday harakatlar tuhmat yoki haqorat deb e'tirof etiladi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeks yoki Jinoyat Kodeksi bilan javobgarlikka tortilishi mumkin.

Konstitutsiyaga muvofiq hech kim O'zbekiston Respublikasida shaxslarning turarjoyini qonunda ko'rsatilmagan hollarda shaxsning ruxsatisiz turarjoyga kirishga, tintuv o'tkazish yoki uni ko'zdan kechirishi mumkin emas. Faqat prokurorning ruxsati bilan jinoyatga aloqadorligi mavjud deb gumon qilinayotgan turarjoyda yuqoridagi xatti-harakatlarni amalga oshirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida «O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga

kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir» deb mustahkamlangan.

Fuqarolarning ko'chib yurish huquqi — shaxs ushbu huquqqa muvofiq o'z xohishiga ko'ra, O'zbekiston hududi doirasida bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tishi, undan chiqib ketishi va qaytib kelishi mumkin. Qonunda belgilangan cheklash hol-lari bundan mustasnodir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 6-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elga chiqish tartibi va O'zbekiston Respublikasi diplomatik pasporti to'g'risidagi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori bilan Respublika hududidan chiqish va unga kirish tartibi belgilangan.

O'zbekistonda Konstitutsiyaning 29-moddasiga ko'ra «Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin».

Har kimning o'z fikrini erkin ifoda qilish huquqi o'z ichiga izlanish erkinligi, har qanday axborotni olish, tarqatish, yozma yoki nashr shaklida yoxud badiiy shaklda ifodalash erkinligini amalga oshirish imkonini beradi.

Fikrlash va e'tiqod erkinligi so'z erkinligi orqali amalga oshiriladi, bu o'z fikrini ochiq so'zlash va boshqa shaxslarning e'tiboriga yetkazish deb tushuniladi. Ko'p holatlarda so'z erkinligi ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi va ular har bir fuqaroning so'z erkinligini, ommaviy axborot vositalarida chiqish huquqini, o'z fikr va e'tirozlarini ochiq so'zlashni kafolatlaydigan «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosida faoliyat ko'rsatadilar.

Axborotlarni yig'ish, to'plash, qayta ishlash, uzatish va ruxsat etilmagan tanishuvdan himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan hamda axborot tizimlarining ma'lumot asoslari va banklarini tashkil qilish, axborotlarni qayta ishlash va uzatish-ning boshqa tizimlarini yaratish, joriy etish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlar «Axborot olish kafolat-

lari va erkinligi to'g'risida»gi, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Har turdagi ma'lumotlarni yig'ish va tarqatishga bo'lgan huquq Konstitutsiyaviy tizimga qarshi yo'naltirilgan, insoniyatning tinchligi va himoyasiga zid bo'lsa, jamiyat manfaatlariga qarama-qarshi maqsadda foydalanilsa yoki boshqa insonlarning huquq va erkiga zid holatlarda qonun tomonidan cheklanadi.

Fikrlash va so'zlash erkinligi qonun tomonidan davlat yoki boshqa ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazar bilan cheklanishi mumkin. Bunday cheklanishlar quyidagilar bilan izohlanadi: davlat sirlarini ovoza qilish davlatning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligiga, mudofaa qudratiga va davlat hamda jamiyatning boshqa manfaatlariga putur yetkazishi mumkin.

1993-yilning 7-mayida qabul qilingan «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxat bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatli mutlaqo maxfiy-harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o'zga xil ma'lumotlar Respublikaning davlat sirlari deb ko'rsatilgan bo'lib, ular haqida ma'lumotlar to'plash va tarqatish cheklanadi. Davlat, harbiy va xizmat sirlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar davlat sirlari safiga kiradi⁴⁷.

O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30-moddasi).

O'zbekistonning barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquqlari va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozimligini qayd qilgan. Shaxsning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishda davlat organlari tomonidan qabul qilingan, fuqarolarning huquqi va manfaatiga daxldor huquqiy qoidalar bilan ularni tanishtirish muhim ahamiyatga egadir. Bundan tashqari barcha ishlarni sudlarda ko'rib chiqayotganda fuqarolarni o'zlariga tegishli hujjatlar bilan

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi (mualliflar jamoasi). TDYUI. —Toshkent: «Moliya», 2002, 263-264-betlar.

tanishish huquqlari, barcha sudlarda ishlarni ko'rib chiqishning ochiq tarzda o'tkazilishi sud protsessi qatnashchilarining barchasiga o'z huquq va manfaatlarini, uning hujjatlari orqali himoya qilishga imkon yaratadi⁴⁸.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi» deyilgan.

Vijdon erkinligi — har bir inson o'zi xohlagan diniga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmasligi va dinga nisbatan betaraf bo'lishi, shuningdek, dinga qarshi bo'lishligi bilan ifodalanadi. Bu xudoning borligini yoki yo'qligini e'tirof etish bilan bog'liq.

1998-yil 30-aprelda (yangi tahrirdagi) «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Bu hujjat O'zbekistonda shaxs erkinligini haqiqiy ma'noda ta'minlovchi qonun hujjati bo'lib, vijdon erkinligini amalga oshirish borasida yangicha tartib-qoidalarini belgilab berdi. Ushbu qonunning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek, diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat.

Vatanimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» gi qonunda har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqi, dinga munosabati, fuqarolarning tengligi, diniy tashkilotlarning faoliyati demokratik va huquqiy davlat qurish tamoyillari nuqtai nazaridan aniq chizgilar berilgan.

Ushbu qonunning 3-moddasida fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi mustahkamlangan bo'lib, vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan Konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod qilmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi.

⁴⁸ Qayumov R. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. — Toshkent: «Adolat», 1998, 158-bet.

Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek, ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi.

Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanadilar.

O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qonunning 5-moddasida diniy tashkilotlarga quyidagicha ta'rif berilgan: «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi».

4-§. Fuqarolarning siyosiy huquqlari va demokratik erkinliklari

W. 3
41 Siyosiy huquq va erkinliklar deyilganda insonlarning bevosita siyosiy manfaatlariga tegishli huquqlar tushuniladi. Siyosiy huquqlari shaxsning siyosiy jarayon va davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish imkoniyatlarini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Xalq davlat hokimiyatining manbaidir. Uning xohish-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O'zbekiston barcha fuqarolarining munosib turmushini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak»⁴⁹.

Siyosiy huquq va erkinliklar o'z tabiatiga ko'ra inson tug'ilganidanoq ega bo'ladigan va uzviy hisoblangan asosiy shaxsiy huquqlardan farqli o'laroq, davlat fuqaroligiga ega bo'lishi bilan bog'liqdir. Bu farqlar Konstitutsiyalarda shaxsiy

⁴⁹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. — T.: «O'zbekiston», 1993, 43-bet.

huquqlar «har kim», siyosiy huquqlar «fuqarolar» deb aniq yo'naltirilganligida o'z ifodasini topgan.

/ Siyosiy huquqlarning fuqarolik bilan bog'liqligi, uni demokratik davlatlarda har bir fuqarolarning tabiiy huquqlari hisoblanmasdan va ular davlat tomonidan berilgan hosila, ikkinchi darajali huquqlar deb tushunilishi to'g'ri emas. Aynan ularning ushbu xarakteriga ko'ra ham bu huquqlar davlat tomonidan berilgan va o'rnatilgan huquqlar sifatida qaralishi mumkin emas. Davlat ularni insonlarning shaxsiy huquqlari singari tan oladi, ularga rioya etadi va muhofaza qiladi.

Saylov huquqi passiv va faol turlarga bo'linadi. Saylash huquqi **faol huquq** hisoblanadi. Saylash huquqiga 18 yoshga to'lgan fuqarolar ega bo'ladilar va ular ushbu huquq orqali harakatdagi qonunchilikka muvofiq u yoki bu lavozimga nomzodni ilgari surishi mumkin. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotganlar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar.

Passiv saylov huquqi davlat hokimiyati organi yoki mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylanish huquqi hisoblanadi. Passiv saylov huquqi davlat hokimiyati organi yoki mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organining xarakteriga bog'liq ravishda turli yoshlarda qo'lga kiritiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lmagan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga 25 yoshga, mahalliy vakillik organlariga 21 yoshga to'lgan shaxslargina saylanish huquqiga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasida saylovlar umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi» deyiladi. Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi huquqiy-demokratik davlatning muhim prinsiplaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyatining vakillik organlariga va o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylanish va saylash, shuningdek, referendumda ishtirok etish

huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. O'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi. Demokratiyaning asosiy shakllaridan biri bu — davlat va jamiyat hayotining muhim muammolarining umumxalq muhokamasida o'z yechimini topishi referendum hisoblanadi.

1994-yil 5-mayda O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra:

Saylov huquqi fuqarolarning referendumlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida va hokimiyatning vakillik organlari saylovida qatnashishi orqali amalga oshiriladi.

Saylovchilar qayerda bo'lishlaridan qat'i nazar, ularga referendumlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida va hokimiyatning vakillik organlari saylovlarida bevosita qatnashish huquqi kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida ko'rsatilishicha: «Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega».

Fuqarolarning o'z ijtimoiy faolliklarini mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar yo'li bilan amalga oshirish huquqlarini O'zbekiston Respublikasi tan oladi va kafolatlaydi.

Miting bu — siyosiy masalalarning muhokamasi uchun yig'ilgan jamoa yig'ilishidir.

Yig'ilish bu — yopiq imoratda yoki biror xonada o'tkaziladigan, ma'lum bir masalalarni muhokama qilish va qaror qabul qilish uchun yig'ilgan shaxslarning majlisidir. Majlis shaklidagi yig'ilishlar majlis tashkilotchilari tomonidan ishtirokchilar sonini chegaralash uchun tanlanishi mumkin, lekin bu yig'ilishlarning asosiy mohiyatini belgilamaydi.

Namoyish — bu ijtimoiy siyosiy norozilikning ochiq ko'rinishi bo'lib, namoyishchilarning u yoki bu masalalar bo'yicha ommaviy tarzda ochiq munosabatlaridir. Namoyish asosan miting bilan boshlanadi va tamom bo'ladi⁵⁰.

Davlat fuqarolarning bu huquqini amalga oshirish maqsadini ko'zda tutib, ularga binolarni, maydonlarni va

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi (mualliflar jamoasi). TDYUI. — Toshkent: «Moliya», 2002, 271-272- betlar.

ko'chalarni berish, axborotlarni keng tarqatish, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlaydi.

Hokimiyat organlari miting, yigilish va namoyishlarning yo'nalishlarini belgilaydi, hamda ularning boshlanish va tugash vaqtini nazorat qilishadi.

Yig'ilishlar, miting yoki namoyishlar uyushtirish yoxud o'tkazish tartiblari ularning tashkilotchisi tomonidan buzilsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi ma'muriy va jinoyat qonunchiligida belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Davlat ishlarini boshqarishda fuqarolarning ishtirok etish huquqlariga bevosita aloqador bo'lgan muhim huquqlardan biri — bu fuqarolarning o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqidir (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasi).

Bu huquq fuqarolarga yuqorida aytib o'tilgan maqsadlarda ijtimoiy uyushgan faoliyat olib borishning turli shakllariga birlashish, u yoki bu vazifalarni bajarish uchun kuchlarini umumlashtirish imkonini beradi.

Ijtimoiy uyushmalar fuqarolarning siyosiy faolligi va o'zlarini namoyon qilishlarini rivojlantirishga, ularning turli ehtiyojlarini qondirishga ko'mak beradi.

Fuqarolarni uyushmalar a'zoligiga qabul qilish uning nizomida yozilgan shartlarga muvofiq ko'ngilli ravishda amalga oshiriladi. Hech kim biron-bir uyushmaga kirishga yoki unda bo'lishga majbur qilinishi mumkin emas. Fuqaro partiya a'zosi bo'lishi yoki partiyasiz bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda jamoat birlashmalarining faoliyatini tartibga solib turuvchi qator qonunlar qabul qilindi. 1999-yil 14-apreldagi O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi. 1996-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi, 1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi, 1991-yil 20-noyabrda O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi, 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi, 14-iyunda O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi (yangi tahriri) qonunlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasiga ko'ra, «Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birlashmada vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart»ligi mustahkamlangan.

Vakolatli organlarga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish — bu fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishining amaliy shakllaridan biri bo'lib, bu huquq — fuqarolarning siyosiy faolligini namoyon qilish, ijtimoiy ishlarga qiziqishi, shuningdek, o'zlarining huquqlarini himoya qilishning muhim vositalaridan biridir. Shu bilan birga fuqarolarning murojaatlari jamiyat hayotidagi joriy masalalarni hal qilish uchun zarur axborot manbai, davlat apparatining aholi bilan muloqotini mustahkamlash usuli va yo'li sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Ushbu munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2002-yil 11-mayda O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Unda fuqarolarning murojaatlari huquqini belgilaydigan asosiy qoidalar, shuningdek, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish muddati va tartibi belgilangan.

Fuqarolarning murojaatlari mazmuniga ko'ra uch shaklda bo'ladi:

- 1) Taklif;
- 2) Ariza;
- 3) Shikoyat.

Taklif — fuqarolarning davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning faoliyatini yaxshilashga qaratilgan murojaatlaridir.

Ariza — fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish to'g'risida iltimos bayon etilgan murojaatlardir.

Shikoyat — davlat organlarining, jamoat birlashmalarining, mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari yoxud qarorlari tufayli fuqarolarning buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini tiklash talab qilingan murojaatlardir.

Fuqarolarning takliflari taklif tushgan kundan e'tiboran bir oy muddat ichida ko'rib chiqiladi, qo'shimcha o'rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno bo'lib, bu haqda taklif kiritgan shaxsga ma'lum qilinadi.

Arizalar va shikoyatlar davlat organiga, jamoat birlashmasiga, korxona, muassasa va tashkilotga tushgan kundan e'tiboran bir oy muddat ichida hal etiladi. Qo'shimcha o'rganishlar va tekshirishni talab qilmaydigan masalalarni esa 15 kundan kechiktirmay hal etishlari shart.

Ariza yoki shikoyatni hal etish uchun maxsus tekshiruvlar o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoki boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lsa, tegishli organ, korxona, muassasa, tashkilot rahbari yoki rahbar o'rinbosari ariza yoki shikoyatni hal etish muddatini, istisno tariqasida uzaytirishi mumkin, biroq bu muhlat bir oydan oshmasligi lozim bo'lib, bu haqda ariza yoki shikoyat bergan shaxsga ma'lum qilinadi. Bunda murojaatni ko'rib chiqishning umumiy muddati ikki oydan oshmasligi kerak.

Ko'rib chiqilayotgan huquqning to'liq ta'minlanishi birinchi navbatda boshqarish madaniyati darajasi, vakolatli davlat organlari xizmatchilarining mas'uliyati va ongi bilan bog'liq.

5-§. Iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarning Konstitutsiyaviy asoslari

Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari ichida iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar muhim rol egallaydi.

Bular inson hayotining eng muhim jabhalarida, jumladan, mulkdor bo'lish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, ishsizlikdan himoyalaniish, dam olish, ijtimoiy ta'minot olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlaridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida, ya'ni **«Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankga qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi»** deb belgilangan.

Mulk huquqi har kimning o'ziga tegishli mol-mulk o'z xohishiga ko'ra, o'z manfaatini ko'zlab egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishni anglatadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi hamda yer va boshqa tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish zarur. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida ko'rsatilganidek, ular davlat muhofazasidadir.

Sobiq Ittifoq davrida davlat monopoliyasi hukmron bo'lgan barcha moddiy va nomoddiy ne'matlar xalq mulki deb hisoblangan, aslida esa uning egasi davlat edi. O'sha davrda xom ashyo tarqatish, ishlab chiqarish jabhalari — hammasi davlat tomonidan rejalashtirilgan. Shu rejalalar asosida moddiy boyliklar iqtisodiy va madaniy rivojlanishni har bir korxona uchun davlat rejalashtirib bergan. O'sha davrda shaxslar xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishi umuman man etilgan edi. Chunki, bu sotsialistik ishlab chiqarish prinsiplariga to'g'ri kelmas edi. Konstitutsiyada fuqarolarning shaxsiy mulklarining obyekt deb ularning mehnat jamg'armalari, turarjoylari, uy-ro'zg'or buyumlari, yordamchi xo'jalik asbob-uskunolari va shaxsiy buyumlari tan olinar edi.

Mulk huquqiga oid Konstitutsiyaviy normalarning rivojlanishi uchun va uning huquqiy mexanizmini yaratishga doir bir qancha qonunlar qabul qilindi. «Mulkchilik to'g'risida»gi, «Fuqarolik kodeksi», «Ijara to'g'risida»gi, «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi, «Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolati to'g'risida»gi, «Erkin iqtisodiy hududlar to'g'risida»gi va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda mulkning xususiy va ommaviy (davlat) shakllari mavjud va bular bir xilda kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasida barcha mulkdorlarning huquq va erkinliklari himoya etiladi. Mulkning barcha shakllari daxlsiz va qonun bilan qo'riqlanadi. O'zbekiston Respublikasida jamg'arma, omonatlar barcha tijorat banklari tomonidan qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida bank omonatchilari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hisoblanadi. Bank omonatining sir tutilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlanganidek, insonlarning iqtisodiy huquqlari sirasiga kiradi. Bank tomonidan omonat sirlari saqlashga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasining «Bank va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuni bilan tartibga solinadi.

Fuqarolarning mulklari davlat ehtiyojlari uchun, faqatgina qonunda belgilangan asoslarda va tartibda barcha xarajatlarini qoplash sharti bilan olinishi mumkin. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

O'zbekistonda har bir inson meros qoldirish huquqiga ega ekanligi O'zbekiston Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlanadi.

Meros ikki yo'l bilan qonun va vasiyat yo'li bilan qoldiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi 1120-moddasida «Har bir shaxs o'z mulkini to'raligicha yoki mulkining ma'lum bir qismini bir kishiga yoki davlatga yoxud o'zini o'zi boshqarish organlariga meros qoldirishi, o'zining vasiyatnomasini har qanday vaqtda o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin» deyilgan. Davlat vasiyatnomaning sir tutilishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi» deb mustahkamlangan.

Ukraina Konstitutsiyasida korxona, tashkilot va muassasa mehnat jamoasini ishlash huquqi ham mustahkamlangan.

Mehnat huquqi birinchi bo'lib, sobiq Ittifoq Konstitutsiyasida 1936-yil va O'zbekiston SSRning 1937-yildagi Konstitutsiyasida mustahkamlangan edi. Uning tarkibiga ko'ra har bir shaxsning mehnat qilish va haq olishi kafolatlangan. 1992-yil O'zbekiston Konstitutsiyasida bunga qo'shimcha qilib har kim erkin kasb tanlash huquqiga egaligi ta'kidlanib, majburiy mehnat taqiqlanishi mustahkamlangan.

Respublikamizda qonun bo'yicha to'la erkin iqtisodiy faoliyat har bir inson uchun ta'minlanadi, muhit tanlash, o'z mehnatini sarflash erkinligi, har bir shaxsning mehnat qilish huquqi, erkin ish joyini tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va ishsizlikdan himoyalaniş kabi shaxslarning Konstitutsiyaviy huquqlari O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi»gi, «Mehnat muhofazasi to'g'risida»gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi bilan tartibga solinadi⁵¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasiga ko'ra, ya'ni «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

⁵¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi (mualliflar jamoasi). TDYUI. — Toshkent: «Moliya», 2002, 282- bet.

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan, tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas».

Bular sirasiga pensiya, nafaqa va ijtimoiy nochor fuqarolarni pul va shunga o'xshash shakllardagi moddiy ta'minotlar bilan ta'minlash kiradi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyilidan biri, davlatning olib borayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarini amalga oshirishda kuchli ijtimoiy siyosat olib borishga asoslanadi. Undan tashqari O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi» qonuni qabul qilindi.

Hozirda Respublikamizning bir qator organlari va institutlari fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti masalalari bilan shug'ullanib, ularning Konstitutsiyaviy huquqlarini davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilish mexanizmi yaratilgan. Ijtimoiy ta'minot huquqi bilan malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi — shaxslarga maxsus tibbiy bilimlarga ega malakali shifokorlar yordamida tibbiyot muassasalarida yoki tibbiy xizmat ko'rsatish mumkin bo'lgan joylarda maxsus kerakli tibbiy yordam olish bilan ifodalanadi.

O'zbekistonda har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasi).

«Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustdagi qonunining 13-moddasida: «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sog'liqni saqlash borasida daxlsiz huquqqa egadirlar. Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar fuqarolarning sog'lig'i saqlanishini ta'minlaydi. Davlat fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan qat'i nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishini kafolatlaydi» deb mustahkamlangan.

Fuqarolar sog'lig'ini saqlash huquqi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) Fuqarolarning sog'liqni saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishini ta'minlash;

2) Fuqarolarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

3) Davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish.

Mamlakatimizda fuqarolarning sog'lig'ini saqlashning davlat tomonidan belgilangan asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

— Sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi;

— Aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'la olishi;

— Profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi;

— Sog'liq'ini yo'qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi;

— Tibbiyot fanining amaliyot bilan birligi.

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlari yig'indisidan iborat yagona sog'liqni saqlash tizimi amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasida bu sohada, shuningdek, «OITS bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida»gi qonun, «Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risida»gi qonun, «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi qonun, «Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risida»gi qonun va ular asosida qabul qilingan boshqa huquqiy hujjatlar muhim o'rin egallaydi.

Shaxsning barkamol bo'lishida bilim olish huquqi katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-ning 41-moddasida «**Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir**» deyilgan.

Ta'lim — bu davlat tomonidan qat'iy o'rnatilgan ta'lim me'yorlarini o'rganish bo'lib, shaxs, jamiyat va davlat manfaat-lari yo'lida, aniq maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiya jara-yonidir⁵².

Ta'lim inson turmush tarzining ajralmas elementidir. Unga nafaqat moddiy jihatdan ta'minlanish vositasi, balki salomatlik hamda jamiyat hayotida muntazam ishtirok etish vositasi sifatida ham qaraladi. Ta'lim har qanday rivojlangan jamiyat-ning asosi hisoblanadi. Madaniyat ta'limsiz mavjud bo'lmaydi. Bu jamiyatda adolatsizlik va tengsizlikni bartaraf etishning vositalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida xususan, 1997-yil 29-avgustdagi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda **bilim olish huquqi** jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga

⁵² Безуглов А.А., Солдатов С.А. Конституционное право России. — М: Том I, 2001, 541-ст.

munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turarjoyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanishi mustahkamlangan.

Qonunga ko'ra ta'limning quyidagi turlari mavjud: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

Bilim olish huquqi:

— Davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;

— Ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;

— Ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek, ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;

— Barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi;

— Oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha, iloji bo'lsa oldin tarbiya, so'ngra ta'lim berilishi lozim. Uyda, oilasida yaxshi tarbiya ko'rgan bola ixlos va ishonch bilan ta'lim olishga, ilm-fanni o'rganishga intiladi.

Agar yoshlarda ma'naviy kamolot yetishmasa, ularda ishtiyoq sust bo'ladi. Ana shularni hisobga olib, Forobiy avval yoshlarni tarbiyalab, mehnat qilish va kasb-hunarni o'rgatib, keyin ta'lim berish lozim, deya ta'kidlaydi⁵³.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida umumiy ta'limning davlat tomonidan bepulligi kafolatlab qo'yilgan. Bu esa bir tomondan aholining ta'lim olishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirishda bosh huquqiy asos va ancha insonparvar, demokratik xususiyat kasb etadi.

Jahonda sanoqli davlatlarda mavjud bo'lgan kadrlar tayyorlash sohasida maxsus dastur, ya'ni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» Oliy Majlis tomonidan qabul qilinib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning zamon talablariga javob

⁵³ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. —T.: 1998, 130-134-betlar.

beradigan tizimini rivojlantirish, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa sharoitlarni yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ushbu dasturda kadrlar tayyorlashda ta'limning uzluksizligiga katta e'tibor berildi. Mamlakatimizda savodxonlik darajasi ancha yuqori bo'lib, bu ko'rsatkich 97,7 % ni tashkil etadi. Ayni vaqtda jahonda savodsizlikka qarshi kurash hali davom etayotganini hisobga olsak, O'zbekistonda bu sohada qudratli moddiy-texnik asos mavjudligini e'tiborga olish lozim. Albatta, jamiyatda yalpi savodlilik ko'lamini oshirish bu umumta'lim muassasalari (maktablar) gardaniga tushadi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jami 9 mingdan ortiq umumta'lim muassasalari, ya'ni maktablar faoliyat ko'rsatmoqda.

Konstitutsiyaning 42-moddasida berilishicha, «**Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi**». Konstitutsiyamiz madaniy boyliklarimizdan har bir kishining foydalanish huquqini kafolatlaydi. Madaniyat deganda inson tomonidan yaratilgan barcha boyliklar, yutuqlar yig'indisi tushuniladi va u ijtimoiy hayotda universal xususiyatga ega.

Madaniyatning tarkibiy qismlarini fan, ta'lim va san'at tashkil qiladi. Adabiy, musiqiy, badiiy asarlar va xalq eposi, ilmiy nazariya va hunarlar madaniyat fenomeniga kiradi. Har bir madaniyat elementi xalq hayotining u yoki bu ko'rinishini o'zida aks ettiradi. Har birimizning san'at, kino, adabiyot, musiqa dunyosidan bahramand bo'lish huquqimiz asosiy qonunimizda mustahkamlanadi. Barcha uchun teatr, muzey, kutubxona va arxitektura yodgorliklari eshiklari hech bir to'siqsiz ochiqdir. Har bir shaxs istagan fan va texnika sohasi bilan shug'ullanishi mumkin. Buni davlatimiz huquqiy, tashkiliy, moddiy va siyosiy jihatdan kafolatlaydi⁵⁴.

6-§. Fuqarolarning huquq va erkinliklarining kafolatlari. Fuqarolarning burchlari

Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini amalga oshirishni davlat tomonidan

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi (mualliflar jamoasi). TDYUL. Toshkent: «Moliya», 2002, 292-bet

ta'minlashga yordam beradigan vositalar, usullar va shart-sharoitlar majmui kafolat tushunchasini beradi.

Kafolatning asosiy vazifasi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan to'siqlarni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43- moddasida «**Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi**» deyilgan.

Kafolatlarni quyidagicha turkumlash mumkin:

1. **Yuridik (huquqiy);**
2. **Ijtimoiy-siyosiy;**
3. **Iqtisodiy(moddiy).**

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda **yuridik** kafolatlar alohida o'rin tutadi, chunki boshqa barcha kafolatlar yuridik jihatdan tartibga solinishni taqozo etadi. Ya'ni, yuridik kafolatlar fuqarolarning huquq va erkinliklarining qonunlar asosida huquqiy jihatdan kafolatlanishidir. Yuridik kafolatlarning real amalga oshishi faqat demokratik rejim sharoitida kuzatiladi.

Yuridik kafolatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzish mumkin bo'lgan harakatlarni taqiqlash va chegaralashning yuridik me'yorlarini mustahkamlash;

— Fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini hech qanday to'siqsiz amalga oshirishlarida davlat idoralari va mansabdor shaxslar mas'ulligini;

— Huquqlarni buzganlik uchun yuridik javobgarning belgilanganligi (mulkiy, intizomiy, ma'muriy, jinoiy);

— Fuqarolarga qaratilgan va huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan, tegishli davlat va fuqarolarning huquqlarini amalga oshirishni mustahkamlashga jamoat idoralari, mansabdor shaxslarning faoliyati.

Yuridik kafolatlarning quyidagi shakllari mavjud:

1. Konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlar;
2. Sudlar tomonidan huquq va erkinliklarni kafolatlash;
3. Ombudsman faoliyati;
4. Hukumat faoliyati.

Konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlarga mamlakatning Konstitutsiyasining o'zida bevosita mustahkamlangan kafolatlar kiradi. Ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining X bobining 43-46-moddalarida mustahkamlangan normalar.

Sudlar tomonidan huquq va erkinliklarni kafolatlash – fuqarolar huquq va erkinliklarining sudlar orqali himoya qilinishidir. Uning mazmuni har bir fuqaro davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yoki mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) bilan o'z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqi orqali o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish, demak.

Ombudsman faoliyati — O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning huquq va erkinliklarining himoyasi sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) tomonidan ham amalga oshiriladi. Uning faoliyati O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-apreldagi «Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (OMBUDSMAN) to'g'risida»gi qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasida davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari to'g'risidagi amaldagi qonunchilikka rioya etilishining samaradorligi ustidan parlament nazoratini o'rnatadi. Vakil ko'rilayotgan masalalar bo'yicha xulosalar qabul qiladi. Xulosalar faqat tavsiyaviy xarakterga ega.

Hukumat faoliyati – hukumat tomonidan fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ni chiqargan normativ-huquqiy hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Siyosiy kafolat — bu davlatda amal qilib turgan siyosiy tizim. Ushbu tizim, mamlakatning olib borayotgan siyosiy maydon-dagi faoliyati orqali jamiyatda inson huquqlari va erkinliklari-ni buzilishidan himoya etish uchun xizmat qiladi. Fuqaro-larning huquq va erkinliklarini siyosiy kafolatlash quyidagi-larga bog'liq:

— Davlatning mamlakat miqyosida olib borayotgan siyosatining maqsadiga;

— Siyosiy plyuralizmga;

— Siyosiy mafkuraga;

— Inson huquqlarini himoya qilish holatiga;

— Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga.

Iqtisodiy kafolatlarga vujudga kelgan ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy tizim kiradi. Mustaqil O'zbekiston

bozor munosabatlariga asoslangan, mulkchilikning barcha shakllari tengligi va himoyasini tan olgan holda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish yo'li bilan mulkdorlarning safini kengaytiradigan huquqiy jamiyatni barpo etmoqda. Qilinayotgan ushbu harakatlar xalqni iqtisodiy kafolatlashga yordam beradi.

Iqtisodiy kafolatlariga:

— Adolatli iste'mol savatini davlat tomonidan rasmiy ravishda mustahkamlash;

— Eng kam oylik ish haqi miqdorini belgilash;

— Davlat tomonidan aholini kam ta'minlangan qatlamini, voyaga yetmaganlar va nogironlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

— Barcha mulk shakllarining tengligini hamda fuqarolarning mulk huquqlarini ta'minlash kiradi.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash Konstitutsiya asosida qabul qilingan maxsus qonunlar orqali ham tartibga solinadi. Ushbu qonunlarga: «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi, «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi, «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi, «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi, «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida «Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi» deb mustahkamlangan. Ushbu Konstitutsiyaviy huquqiy norma bevosita O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustda «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi qonunda to'la rivojlantirilgan.

Har bir fuqaro davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi

Ukraina Konstitutsiyasida har bir fuqaroga davlat ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini saqlab qolishni kafolatlaydi.

boshqarish organlari yoki mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) bilan o'z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda «Sudlar to'g'risida»gi (yangi tahriri) qonuniga ko'ra fuqarolar huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini har qanday tajovuzlardan himoya qilish sud organlarining vazifasi etib ko'rsatilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini «Prokuratura to'g'risida»gi (yangi tahriri) qonunning 4-moddasiga ko'ra prokuratura organlari o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish mustahkamlab qo'yilgan.

Shikoyat deganda fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash to'g'risidagi talabi bayon etilgan murojaatni tushunamiz.

Sudga shikoyat qilish huquqi – fuqarolar tomonidan ularning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud tartibida tiklashni talab etgan huquqidir.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi qonuniga binoan davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslarning sudga shikoyat qilishga loyiq xatti-harakatlari (qarorlari) jumlasiga:

- a) Fuqaroning huquqlari va erkinliklarini buzgan;
- b) Fuqaroning o'z huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarishiga monelik tug'dirgan;
- d) Fuqaro zimmasiga qonunga xilof ravishda qandaydir majburiyat yuklatilishiga sabab bo'lgan xatti-harakatlar (qarorlar) kiradi.

Fuqaro o'z huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan shikoyat bilan bevosita sudga yoki tobelik tartibida yuqori turuvchi organga yoxud mansabdor shaxsga murojaat qilish huquqiga ega.

Berilgan shikoyatni tegishli davlat organi, mansabdor shaxs bir oylik muddatda ko'rib chiqishlari shart. Agar fuqaroning shikoyatini qanoatlantirish rad qilingan bo'lsa yoki u shikoyat bergan kundan boshlab bir oy mobaynida javob olmagan bo'lsa, sudga shikoyat bilan murojaat qilishga haqli.

Sudning qonuniy kuchga kirgan qarori barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiy va uni bajarish shart.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasida **«Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir»** deb mustahkamlangan. Bu O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarni davlat himoyasida ekanligini Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish hamda ijtimoiy davlat barpo etish kabi strategik maqsadlarni amalga oshirishning salmoqli asosi hisoblanadi. Shuningdek, bu sohada qabul qilingan qator normativ hujjatlarni davlatimizning ijtimoiy sohada olib borayotgan odilona siyosatining mahsuli sifatida baholashimiz mumkin. Ushbu normativ hujjatlar qatoriga misol tariqasida «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida» 2002-yil 25-yanvardagi Prezident Farmonini (bola ikki yoshga to'lgunga qadar uni parvarish qilish bo'yicha onalarga beriladigan oylik nafaqalar miqdori 2002-yilning 1-fevralidan boshlab eng kam ish haqining 170 foizi, 2003-yilning 1-yanvaridan boshlab esa 200 foizi miqdorida belgilanganligi mustahkamlangan) ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy sohada olib borilayotgan siyosati yoshi ulug', keksa fuqarolarimizni ham nazardan chetda qoldirgani yo'q. Ularga g'amxo'rlik ko'rsatishni oshirish hamda ijtimoiy muhofaza qilish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish maqsadida 2002-yil O'zbekiston Respublikasida «Qariyalarni qadrlash yili» deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002-yil 24-yanvarda «Qariyalarni qadrlash yili» davlat dasturi qabul qilindi.

Konstitutsiyamizning 46-moddasida **Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqlarga ega ekanligi** mustahkamlangan. «Ayollar bilan erkaklarning teng huquqliligini ta'minlash uchun davlat keng miqyosda qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirmoqda. Davlat ayollarga bilim olishi, kasb egallashi, mehnat qilishi, unga haq olishi, siyosiy hayotda faol ishtirok etishi uchun erkaklar bilan teng imkoniyatlar yaratib ayollarning oiladagi o'rni, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, ularga mehnat qilishda,

sog'lig'ini mustahkamlashda yaxshi sharoitlar va imtiyozlar yaratib berishi ham zarurdir. Chunki, teng imkoniyat va qo'shimcha sharoit, imtiyozlar o'rnatish bilangina ayollar teng huquqliligi ta'minlanishi mumkin. Bundan tashqari, oiladagi ishlarning asosiy qismi ayollar zimmasiga tushadi, buning natijasida ayollar o'zlarining to'la huquqliligi imkoniyatidan foydalana olmaydilar. Shuning uchun davlat ayollar bilan erkaklarning tengligini e'lon qilar ekan, buni ta'minlash uchun ayollarni qo'shimcha ravishda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish choralarini ko'rmoqda»⁵⁵.

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarga beriladigan e'tibor milliy qonunchiligimizda ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi (yangi tahrirda) qonunda siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka qo'yiladigan nomzodlarning 30%i xotin-qizlardan bo'lishi mustahkamlandi.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining, Respublika xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy va madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlar hamda yoshlarning ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish borasida olib borayotgan ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-mayda «O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. Unda O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va ularning joylardagi bo'linmalari faoliyatining eng muhim vazifalari va yo'nalishlari zamon talablariga javob beradigan tarzda belgilandi.

Fuqarolarning Konstitutsiyaviy burchlari – bu Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan va tegishli davlat hududida yashovchi har bir fuqaro uchun jamiyat, davlat va shaxslar manfaati yo'lida ma'lum bir xatti-harakatlarni bajarish yoki ulardan tiyilish majburiyatidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning birinchi chaqiriq VI sessiyasida qilgan ma'ruzasida: «Insonning o'z huquq va burchlarini bilishi insonning Konstitutsiyaviy huquqlarining ta'minlanishini kafolatlaydi. Biz odamlardagi eski tuzum psixologiyasini o'zgartirishimiz va yangi

⁵⁵ Qayumov R. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. —T.: «Adolat», 1998, 181-b.

huquqiy ongni shakllantirishimiz lozim. Inson anglasinki, erkinlik – bu burch mas'uliyatidir» deb ta'kidladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining burchlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 47-52-moddalarida mustahkamlangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

— Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar;

— Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadri-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar;

— Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidir;

— Fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar;

— Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar;

— O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.

Har bir fuqaro qonun oldida tengdir va boshqa fuqarolarning millati, tili, dini va e'tiqodini hurmat qilishi shart. Har bir fuqaro o'z huquq va erkinliklaridan manfaatlari yo'lida foydalanayotganda, uning xatti-harakatlari boshqalarga, ya'ni shaxs, davlat va jamiyat manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Inson huquqlari bo'yicha qonunchilik taraqqiyoti bosqichlari qaysi davrdan boshlab o'rganib kelinmoqda?
2. Hozirgi demokratik davlatlar Konstitutsiyalarida inson huquqlariga oid qanday muhim qoidalar mustahkamlangan?
3. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi mazmunini so'zlab bering.
4. Teng huquqlilik tushunchasi nimani anglatadi?
5. Fuqarolik tushunchasi deganda nima nazarda tutiladi?
6. Kimlar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'ladilar?

7. Fuqarolikning yuzaga kelishi (kelib chiqishi) qanday yo'l bilan va qay asoslarda amalga oshiriladi?
8. Naturalizatsiya, reintegratsiya ma'nolari nimalarni anglatadi?
9. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lish asoslari qonunda qanday belgilangan?
10. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik masalalari bilan qaysi davlat organlari shug'ullanadi?
11. O'zbekistonda Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar qanday kafolatlanadi?
12. O'zbekiston fuqarolarining burch va majburiyatlarini belgilang.
13. O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning huquq, erkinlik va burchlarning Konstitutsiyaviy tasniflanishi qaysi maqsadlarda va asoslarda belgilanishi mumkin?
14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator moddalarida fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari mustahkamlangan. Bu qaysi qonunlar asosida kafolatlanishi ta'minlanadi?
15. O'zbekistonda har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Bu so'zning ma'nosini ochib bering.
16. Shaxsning aybsizlik prezumpsiyasi O'zbekiston Konstitutsiyasining qaysi moddasida mustahkamlangan va qaysi qonunlar asosida amalga oshirilishi belgilangan?
17. O'zbekistonda fuqarolarning Konstitutsiyaviy sha'ni va qadr-qimmatini tavsifini ifodalab bering.
18. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalari qaysi qonunlar asosida qo'riqlanishi mustahkamlangan?
19. O'zbekiston fuqarolarining ko'chib yurish huquqi qaysi Konstitutsiyaviy huquq turiga kiradi?
20. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elga chiqish va kirish huquqlari qaysi hujjatda belgilangan?
21. O'zbekiston fuqarolarining chet elga chiqishi to'g'risidagi qoidalarda alohida toifadagi fuqarolarga chet elga chiqishga asoslangan cheklashlar o'rnatilgan. Ichki ishlar organlari qaysi toifadagi shaxslarning chet elga chiqish huquqini rad etishi mumkin?
22. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida fuqarolarning fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi mustahkamlangan. Bu huquqlarning amal qilish tartibi qaysi qonunlarda o'z aksini topgan?
23. O'zbekiston fuqarolarining Konstitutsiyaviy-huquqiy vijdon erkinligini tartibga soluvchi me'yorlarni ta'riflab bering.
24. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga birlashish

hamda ommaviy harakatlarda ishtirok etishlari mumkin. Bu esa fuqarolarning qaysi bir maqsad va vazifalarini amalga oshirish huquqini belgilab beradi?

25. O'zbekiston fuqarolarining mulk huquqlari qaysi Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar shakliga kiradi?
26. O'zbekiston fuqarolarining meros huquqi qanday huquqiy yo'l bilan amalga oshiriladi?
27. O'zbekistonda har bir shaxsning mehnat qilish huquqi, erkin ish joyini tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va ishsizlikdan himoyalaniish kabi Konstitutsiyaviy huquqlari O'zbekiston Respublikasining qaysi qonun va kodeksi bilan tartibga solinadi?
28. O'zbekiston fuqarolarining Konstitutsiyaviy dam olish huquqlari qaysi qonun bilan belgilanadi?
29. O'zbekiston fuqarolarining Konstitutsiyaviy ijtimoiy ta'minot olish huquqi qanday hollarda amalga oshirilishi ta'minlanadi?
30. O'zbekiston fuqarolarining Konstitutsiyaviy bilim olish huquqlari O'zbekiston Respublikasining qaysi qonuni asosida amalda mustahkamlangan?

JAMIYAT VA SHAXS

VI BOB

O'ZBEKISTONDA JAMIYAT VA SHAXS MUNOSABATLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

1-§. Jamiyatning iqtisodiy asoslari

Jamiyatning iqtisodiy negizlari deganda, jamiyatdagi mavjud iqtisodiy hayot, ishlab chiqarish vositalariga nisbatan mulkchilik shakllari, ijtimoiy yo'nalishga qaratilgan ishlab chiqarish maqsadi, jamiyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning adolat prinsipi asosida taqsimlanishi, xo'jalikni boshqarishda bozor iqtisodiyoti prinsiplariga asoslanganlik tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim sanalgan iqtisodiy ijtimoiy sohalarida muhim o'zgarishlar va yangiliklarni nazariy asoslab, hayotga tatbiq eta boshladi. «Jamiyatning iqtisodiy negizlari» deb nomlangan XII bobda, Respublikamiz hayotining iqtisodiy asoslari ya'ni mulkchilik masalalari, xo'jalik yuritish va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari belgilanib, hozirgi paytda bozor munosabatlarini rivojlantirish amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurlashtirishda ahamiyati beqiyosdir.

O'zbekistonda yashovchi har bir fuqaroning iqtisodiy huquq va erkinliklari bevosita Konstitutsiyamizda o'z aksini topgan. Jumladan, Konstitutsiyaning 36-moddasida shunday deyiladi, «Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi». Demak, har bir inson dunyoga kelmasdan turib ham,

hayotiy davrida ham qonuniy asosda o'z mulkiga ixtiyoriy asosda egalik qiladilar. Shunday holatlar ham bo'ladiki, bola ona qornidagi davrida ham qonunda ko'rsatilgan tartibda mulkka egalik huquqini saqlab qoladi. Bu holat tegishli qonunchiligimizda mustahkamlab qo'yilgan.

Mulkka bo'lgan huquq nafaqat Konstitutsiyamizda, balki Fuqarolik Kodeksida⁵⁶, «Mulkchilik to'g'risida»⁵⁷gi, «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining erkinligi to'g'risida»gi qonunlar va boshqa qonun hujjatlarida ham o'z aksini topgan.

Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Bu munosabat Konstitutsiyamizning 53-moddasida o'z aksini topgan. Bilamizki, mustaqillikdan oldingi davrda barcha mulk davlatga tegishli bo'lgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, bozor munosabatlariga o'tish davrida mulkning xilma-xil shakllari joriy qilina boshlandi. Jumladan, davlat o'ziga tegishli bo'lgan mulklarni asta-sekin xususiylashtirib, insonlarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini shakllantira boshladi.

Jamiyatning iqtisodiy negizini asosan mulkiy munosabatlar tashkil etadi. Kishilar tomonidan yaratilgan yoki tabiat tomonidan insonlarga o'ziga xos tarzda taqdim etilgan boyliklar doim mulk bo'lib kelgan. Mulk egasi bo'lish yoki bo'lmasligiga qarab, kishilarning jamiyatdagi mavqei va o'rnini bevosita o'lchab boriladi.

«Eng asosiy ijtimoiy institut bo'lgan mulkka (asosan, xususiy mulkka) munosabatning o'zgarishi, — deb ta'kidlaydi I. Karimov, — butun jamiyatni va xususan, iqtisodiy hayotni demokratiyalashning bosh bo'g'ini bo'ldi. Jamiyatni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yangilash asosan yangi mulkchilik munosabatlari orqali o'tadi»⁵⁸.

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. — T.: «Adolat», 1996, 558-b.

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida»gi qonuni. (O'zbekiston Oliy Sovetining Vedomostlari, 1990-yil, 31-33-son, 371-modda; 1993-yil, 7-may, 48-modda;)

⁵⁸ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. — T.: «O'zbekiston», 1998, 558-559-betlar.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilik munosabatlarini tubdan qayta ko'rib chiqishga olib keladi. Insonlarning mulkka bo'lgan huquqlarining kengayishiga bevosita asos bo'ladi. Ayniqsa, mulkni xususiylashtirish masalasi davlat oldida turgan muhim masalalardan biri bo'lib qoldi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1991-yil 19-noyabrda «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida» qonun qabul qildi. Bu qonun asosida davlat tasarrufida bo'lgan korxona va tashkilotlar endi asta-sekin davlat tasarrufidan chiqarilib, mulkdorlarga topshirila boshlandi. Bu qonun bo'yicha yer, yer osti boyliklari, ichki suv, havo havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi, boshqa tabiiy zaxiralar, madaniyat boyliklari va tarixiy boyliklar davlat tasarrufidan chiqarilmaydi. Davlat tasarrufidan chiqarilmaydigan va xususiylashtirilmaydigan korxonalar va mol-mulklarning turlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi taklifiga muvofiq, Oliy Majlis palatalari tomonidan belgilanadi. Demak, har qanday mulk har doim ham xususiylashtirilmas ekan.

Mamlakatimiz Oliy Majlisi tomonidan mulkchilik munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida bir qancha qonunlar qabul qilindi. Bular jumlasiga; mulkchilik to'g'risidagi, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi, ijara to'g'risidagi, davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risidagi va boshqa qonunlarni kiritish mumkin.

Mamlakatni modernizatsiya qilish va aholiga munosib turmush sharoiti yaratib berish borasida o'z oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarimiz hamda mintaq va jahon bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, kuchli talab va raqobat iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni obyektiv shart qilib qo'ymoqda⁵⁹.

Hozirgi rivojlanish davrida xususiylashtirish tadbirkorlarga zarur resurslarni sotib olish va o'z mahsulotini sotish uchun bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha boshlangan ishlarni davom ettirish, birja va auksion savdolari orqali sotilayotgan tovarlar turi va hajmini kengaytirishga qaratilgan qat'iy chora-tadbirlar ko'rish, markazlashtirilgan taqsimot tizimiga qaytishga bo'lgan har qanday urinishlarga barham berish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bo'lgani kabi bizda ham tekshirishlar natijalari bo'yicha moliyaviy va ma'muriy

⁵⁹ Qarang. «O'zbekiston ovozi» gazetasi, 2005-yil 29-yanvar, 4-bet.

jazolar (misol uchun, xo'jalik subyekti faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan katta miqdorda jarima olish, korxona faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hisob raqamidan foydalanishni taqiqlash va hokazolar)ni faqat sud tomonidan tayinlash tizimiga o'tish vaqti yetdi.

Ishlab chiqarishning jadal modernizatsiya qilinishi, zamonaviy quvvatlarning ishga tushirilishi iste'mol bozorini sifatli va raqobatga bardoshli mahsulotlar bilan to'ldirish imkonini bermogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy sohadagi vazifalar haqida to'xtalib quyidagilarni e'tirof etdi: «Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, tadbirkorlikka erkinlik berish, tajribalar va iqtisodiy yangiliklarni rag'batlantirish, iqtisodiy omillar vositasini ishga solish, tayyorga-ayyorlikni batamom tugatish»ni muhim masalalardan ekanligini ta'kidlab o'tgan edi.

2-§. Mulk va uning shakllari

Mulk—ishlab chiqarishning zarur sharti va ishlab chiqarilgan boyliklarning o'zlashtirilishi natijasi hisoblanadi. Insonlar buyumlarni, ne'matlarni o'ziniki qilib olgandagina o'zlashtirishlari mumkin, chunki jamiyatda o'zganiki bo'lgan ne'matlarni o'zlashtirib bo'lmaydi. Har bir shaxs mulkdor bo'lish huquqiga ega bo'lib, o'z mulkidan ixtiyoriy ravishda va istalgan vaqtda foydalanadi. Mulk sohibi o'z mulkiga mustaqil tayanib ish ko'radi.

Mulk ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni egallash, foydalanish va ularni tasarruf etish sohasida bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarning majmui sifatida ta'riflanishi ham mumkin. Jamiyatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash mamlakatimizda bozor munosabatlarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, zero, hech qaysi bir mamlakatni mulkchilik munosabatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Mulkchilik to'g'risidagi qonuniga ko'ra, mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkka o'z ixtiyoriga ko'ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Bunga asosan mulkdor o'z mulkiga bo'lgan huquqlarini ixtiyoriy ravishda o'z xohishiga ko'ra amalga oshiradi. Mulkdorning o'z xohishi deyilganda, uning o'z erki, irodasi bilan o'zining, shuningdek, boshqalarning yoki ijtimoiy manfaatlarini ko'zlab bironing tazyiqsiz, zo'rlashsiz harakat qilishi nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda kichik va o'rta biznes, xususiy tadbirkorlik yetakchi rol o'ynaydigan ko'p ukkladli iqtisodiyot jadal shakllanmoqda. Kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha samarali mexanizmning amalda joriy etilgani iqtisodiyotimizda katta ahamiyatga ega bo'lgan xususiy tarmoqni yanada rivojlantirish va mustahkamlash imkonini berdi⁶⁰.

O'zbekiston Respublikasi «Mulkchilik to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mulkka egalik qiladi, foydalanadi hamda tasarruf etadi.

Mulkni egallash huquqi – mulkni qo'lda yoki unga nisbatan o'z huquqlarini amalga oshirishda imkon beruvchi biron joyda saqlab turishga aytiladi. Birovning o'g'irlatgan yoki yo'qotgan mulkini qo'lda saqlash qonunsiz egallash deb aytiladi.

Mulkdan foydalanish huquqi — mulkning foydali xususiyatlarini olish mulkdan iqtisodiy maqsadlarda foydalanishdir. Mulkdan foydalanish huquqi mulkka egalik qilish huquqi bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Negaki mulkka egalik qilmay turib, undan foydalanib bo'lmaydi. Ya'ni xalq ta'biri bilan aytganda, yo'q narsadan bor qilib bo'lmaydi. O'zganing mulkidan kelishuvsiz, qonunda ko'rsatilmagan tartibda foydalanilsa, noqonuniy foydalanish deb topiladi.

Mulkni tasarruf etish huquqi deb mulkning taqdirini belgilashga, mulk yuzasidan boshqa shaxslar bilan bo'ladigan huquqiy munosabatni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan huquqqa aytiladi. Agar shaxs qonuniy ravishda tasarruf etgan bo'lsa, boshqa shaxslar bilan mulk yuzasidan bitimlar, shartnomalar, shuningdek, mulkni sotish, hadya qilish, ijaraga qo'yishi mumkin.

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 17-moddasida ko'rsatilishicha: «Har bir inson yakka holda, shuningdek, boshqalar bilan birgalikda mulkka egalik qilish huquqiga ega. Hech kim zo'ravonlik bilan o'z mulkidan mahrum etilishi mumkin emas».

Mulkdorlar o'zlariga tegishli bo'lgan mol-mulkdan qonunga zid holda foydalanishga, birovlarning mulkiy huquqlarini kamsitishlariga yo'l qo'yilmaydi. Oddiy misol qilib, agar shaxs biron-bir ko'p qavatli uy qurmoqchi bo'lsa, albatta, qo'shnisi-

⁶⁰ Karimov I.A. Islohotlar strategiyasi –mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir. — T.: «O'zbekiston», 2003, 6-bet.

ning roziligini olib, keyingina uy qurishligi mumkin. Agar o'zboshimchalik bilan bu harakatni amalga oshirsa, tegishli tartibda harakati asossiz deb topiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida shunday deyiladi: «Mulkdor mulkdan foydalanishda ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart».

Fuqarolik Kodeksining 192-moddasiga ko'ra, yo'qolgan ashyoni topib olgan shaxs bu haqda uni yo'qotgan shaxsni yoki ashyo egasini yoxud uni olish huquqiga ega bo'lgan o'zga ma'lum shaxslardan birontasini darhol xabardor etishi hamda topilgan ashyoni shu shaxsga topshirishi shart.

Fuqarolik Kodeksining 193-moddasiga asosan, agar olti oy mobaynida topilmaning egasi aniqlanmasa, ashyoni topib olgan shaxs unga egalik huquqini qo'lga kiritadi.

Mulk shakli deganda moddiy ne'matlarni muayyan subyektlarga tegishli bo'lishini mustahkamlovchi va tegishli mulkning huquqiy rejimini belgilovchi huquqiy me'yorlar yig'indisidan iborat⁶¹.

O'zbekiston Respublikasi FK ning 167-moddasida quyidagi mulk shakllari mavjud:

1. **Xususiy mulk.**
2. **Ommaviy mulk.**

Shu bilan birga xususiy mulk ham bir necha turlarga bo'linadi: a) yakka shaxsga tegishli mulk; b) nodavlat yuridik shaxslar mulki. Ommaviy mulk esa: a) O'zbekiston Respublikasi mulki; b) ma'muriy tuzilmalar mulki (munitsipal mulk).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga muvofiq, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin. Demak, davlat barcha mulk shakllarini himoyalaydi, ularga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Agar mulkdor qonundan chetga chiqqan holda faoliyat olib borsa, o'ziga tegishli bo'lgan mulkdan mahrum bo'lishi mumkin. Fuqaro mulki xususiy mulkning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, mulkning boshqa turlariga nisbatan quyidagi afzalliklariga ega:

1. Mulkdor har doim aniq shaxs bo'ladi;
2. Mulkdor mulkka nisbatan eng yaqin bo'ladi;

⁶¹ Qarang. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi. — T.: «Adolat», 1996, 146-bet

3. Bunday mulk tashmachilik, o'g'rilik, xo'jasizlikning qurboni bo'lish ehtimolidan uzoq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi FK ning 209-moddasiga asosan xususiy mulkning subyektlariga quyidagilar kiradi:

— Uy-joylar, xonadonlar, dala hovlilar, ekinlar, hayvon va parrandalar, uy-ro'zg'or buyumlari;

— Aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar;

— Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, savdo va boshqa xo'jalik faoliyati sohasidagi korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskuna, transport va boshqa ishlab chiqarish vositalari;

— Ixtirolar, seleksiya yutuqlari, sanoat namunalari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari;

— Iste'mol qilishga va ishlab chiqarishga mo'ljallangan har qanday boshqa mol-mulk qonunlarga muvofiq xususiy mulk bo'lishi mumkin, ayrim mol-mulk turlari bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasida ommaviy mulkning xususiy mulk singari bir qancha turlari mavjud. Bular:

a) O'zbekiston Respublikasi mulki;

b) Ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulki (munitsipal mulk).

O'zbekiston Respublikasi mulkiga quyidagilar kiradi: davlatga tegishli bo'lgan mol-mulk, yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkiga esa quyidagilar kiradi: mahalliy budjet mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo'jalik korxonalar va boshqa mulkiy majmualar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari.

O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarning mulk turlari quyidagicha turlanadi: a) mahalla mulki; b) ijara korxonasining mulki; d) xo'jalik shirkati mulki; e) diniy tashkilotlarning mulki; f) jamoat birlashmalarining mulki.

Chet el fuqarolariga O'zbekiston Respublikasi hududidagi mulklariga egalik qilish huquqi beriladi. Davlat bu mulkning daxlsizligini va boshqa davlatlarga erkin o'tkazilishini kafolatlaydi. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilish borasida amalga oshirilayotgan keng miqiyosdagi islohotlar shu kafolatlar mavjud ekanligidan kelib chiqib olib borilmoqda⁶².

⁶² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning iqtisodiy islohotlar va investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengashda so'zlagan nutqi // «Xalq so'zi» gazetasi, 2000-yil, 2-fevral

3-§. Jamoat birlashmalari tushunchasi va tizimi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasiga asosan kasaba uyushmalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmasi sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamoat birlashmalariga o'z ustavlarida nazarda tutilgan asosiy maqsad va vazifalarni bajarish imkonini kafolatlaydi. Bu kafolat fuqarolarning ixtiyoriy uyushishga bo'lgan huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalarining huquqiy asosi yaratilgan- Konstitutsiyaning XIII bobi hamda fuqarolarning jamiyat va davlatni boshqarishda ishtirok etish (32-modda), kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga, jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda qatnashish (34-modda) huquqi kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonunida jamoat birlashmasi tushunchasi, maqsadi, shakllari, faoliyat doirasi va huquqlari, maqomi va ro'yxatga olinishi kabi normalar o'z ifodasini topgan.

O'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasi hisoblanadi.

Jamoat birlashmalari ustavda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun tashkil etiladi. «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra, «Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish va havaskorlik qiziqishlarini qondirish; ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish; aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sog'lomlashtirish va sport ishlarini o'tkazish; tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarni muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi; Respublika-

lararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi».

Jamoat birlashmasi deganda uning mohiyatiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Jamoat birlashmasi biron-bir shaxsni yoki oilani yoxud ayrim guruhlarining shaxsiy foyda olish istagini ifodalamaydi. Jamoat birlashmalari odatda g'oya, iroda bilan harakatga keladi, ularning yagona maqsadi — jamiyatni takomillashtirish. Ular o'z oldiga nazorat qilish yoki foyda olish vazifasini qo'ymaydi, balki ular jamiyatni mukammallashtirish yo'nalishi va istagida faoliyat yuritadi. Demak, jamoat birlashmalari fuqarolarga o'zlariga-o'zlari yordam berishlari, o'z hayotlarini jamiyatni takomillashtirish orqali yaxshilashlari imkonini beradi.

Jamoat birlashmalari o'z a'zolarining ixtiyoriyligi, teng huquqliligi, o'zini-o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik tamoyillari asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi.

Jamoat birlashmalari o'zlarining ustav faoliyatiga hamda tashkiliy-huquqiy maqomiga ko'ra uchta turga bo'linadi:

1. Xalqaro miqyosdagi jamoat birlashmasi;
2. Respublika miqyosdagi jamoat birlashmasi;
3. Mahalliy miqyosdagi jamoat birlashmasi.

Xalqaro jamoat birlashmalari deyilganda o'z ustaviga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston hududida hamda bitta yoki undan ko'proq chet el davlati hududida faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan jamoat birlashmalari tushuniladi.

Chet elda tuzilgan va faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro jamoat birlashmasining O'zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatxona yoki filiali ham xalqaro jamoat birlashmasi hisoblanadi.

Respublika jamoat birlashmalariga o'z ustavida belgilangan maqsad va vazifalarini butun O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradigan jamoat birlashmalari kiradi.

Mahalliy jamoat birlashmalari deyilganda ustavlarida belgilangan maqsad va vazifalarni butun viloyat hududida, Toshkent shahrida esa shahar hududida amalga oshiradigan jamoat birlashmalari deyiladi.

Tuman (shahar) hududida faoliyat ko'rsatadigan jamoat birlashmalari tuman (shahar) jamoat birlashmalari deyiladi.

Zaruriyat bo'lgan hollarda viloyatlararo va tumanlararo jamoat tashkilotlari tuzilishi mumkin.

Xalqaro, Respublika hamda viloyatlararo maqomdagi jamoat birlashmalarining ustavi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Mahalliy miqyosda faoliyatini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarining ustavleri esa tegishli ravishda Toshkent shahar yoki viloyatlar adliya boshqarmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Jamoat birlashmalarining ustavleri ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab, o'z faoliyatlarini amalga oshirish vakolatiga ega bo'ladilar hamda yuridik shaxs deb e'tirof etiladilar.

Jamoat birlashmalari Qonunda belgilangan hollarda va tartibda:

- Davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini tuzishda qatnashadi;

- Davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining qarorlarini tayyorlashda ishtirok etadi;

- Davlat va jamoat idoralarida o'z a'zolari (qatnashchilari) nomidan ish yuritadi va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

«Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonunga asosan jamoat birlashmasi kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi. Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta'sis syezdi (konferensiyasi)ni yoki umumiy yig'ilishini chaqirib, unda ustav qabul qilinadi va rahbar organ idoralari tuziladi.

Jamoat birlashmalari qonunlarda belgilab qo'yiladigan tartibda ishlab chiqarish va o'zga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadilar hamda faqat o'z ustavidagi vazifalarni bajarish maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar xo'jalik hisobidagi tashkilotlarni tuzishga haqlidirlar.

Jamoat birlashmalarining ishlab chiqarish va o'zga tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar faqat ustavda ko'rsatilgan vazifalarni bajarish uchun foydalaniladi. Jamoat birlashmalarining mulki qonun bilan muhofaza qilinadi. Jamoat birlashmalari ommaviy axborot vositalarini ta'sis etishlari hamda amaldagi matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunlarga muvofiq noshirlik faoliyati bilan ham shug'ullanishlari mumkin.

Konstitutsiyaning 62-moddasida belgilangan normadan kelib chiqib, jamoat birlashmalari faoliyatini tugatish uning yuqori organi qarori bilan yoki sud tartibida amalga oshiriladi.

Jamoat birlashmasi tomonidan amaldagi qonun hujjatlari buzilgan, shuningdek, ustav maqsadlariga zid harakatlar sodir

etilgan taqdirda prokuratura yoki adliya organlari tomonidan ularning rahbar organlariga taqdimnoma kiritiladi. Agar bu harakatlar belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, prokuratura yoki adliya organlarining taqdimnomasi asosida tegishli sud qarori bilan tugatiladi.

Jamoat birlashmasining faoliyati u O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarini buzgan taqdirda sud tomonidan to'xtatib qo'yilishi mumkin.

Kasaba uyushmalari ham jamoat birlashmalari tarkibiga kirib, ularning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Ushbu qonun talabiga ko'ra, «Kasaba uyushmasi ko'ngilli jamoat tashkiloti bo'lib ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga qarab, o'z a'zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog'langan mehnatkashlarni birlashtiradi».

Konstitutsiyaning 59-moddasiga ko'ra kasaba uyushmalari ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir, deb belgilangan.

Fuqarolarning mehnat va dam olish huquqlari, sog'liqni saqlash, uy-joy va turmush darajalarini yaxshilash hamda himoya qilish sohasida O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi va uning tarkibidagi turli tarmoq kasaba uyushmalari ahamiyati alohidadir.

Kasaba uyushmalarining amaldagi qonunlarni bajarish faoliyatini nazorat etish prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'z ustavlarida ko'rsatilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi esa adliya organlari tomonidan nazorat qilinadi.

Siyosiy partiyalar Konstitutsiyaning 60-moddasiga asosan turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar, deb belgilangan.

Konstitutsion normaga asosan jamiyatda tub ma'nodagi ko'ppartiyaviylikni shakllantirish uchun 1996-yil 26-dekabrda «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

Mazkur Qonunning 1-moddasiga asosan, «Siyosiy partiya — qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida

tuzilgan, jamiyat muayyan qismining davlat hokimiyatini shakllantirishdan iborat siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ko'ngilli birlashmasidir».

Siyosiy partiyalar to'g'risidagi ushbu qonunda, siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatish prinsiplari, ular faoliyatining kafolatlari, ularni tuzish tartibi, nizomi, ro'yxatga olish, faoliyatini to'xtatish tartibi, ularning huquqlari, vakillik organlaridagi partiya fraksiyalari, guruhlarining maqsadi, vazifalari to'liq ko'rsatib berilgan.

«Siyosiy partiyalarning davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.»

Siyosiy partiyalar tashkilotlarining tadbirlari asosan ular a'zolarining ishdan tashqari vaqtida va ana shu partiyalar mablag'i hisobidan amalga oshiriladi.

Siyosiy partiyaning tuzish uchun kamida sakkizta hududiy subyekt (viloyat)da, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiya birlashish istagida bo'lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi.

«Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi.

Agar siyosiy partiyaning ustavi, maqsadlari, vazifalari va faoliyat uslubi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga hamda boshqa qonun hujjatlariga zid bo'lsa yoki oldinroq xuddi shunday nomdagi siyosiy partiya yoki jamoatchilik harakati ro'yxatga olingan bo'lsa, bu partiya ro'yxatga olinmaydi.

«Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga egadirlar:

— O'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish;

— Saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;

— Qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;

— Partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

— Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish.»

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlarning ta'sis yig'ilishida o'z partiyasining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun tuziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda davlat hokimiyati mahalliy vakillik organlaridagi partiya guruhlar siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlar ta'sis yig'ilishlarida o'z partiyasining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun tuziladi. Partiya guruhlar partiya guruhi-ning rahbari bergan ariza yoki ta'sis hujjatlariga asosan tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan ro'yxatga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi siyosiy partiyalarning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonun hujjatlariga va o'z ustavlariga muvofiqligini nazorat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida bugunga kunda keng ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ifodalash va himoya qilishga qodir bo'lgan beshta siyosiy partiya faoliyat ko'rsatib kelmoqda:

- O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasi (XDP);
- «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi;
- O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi;
- O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi;
- Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati — O'zbekiston liberal demokratik partiyasi.

O'zbekistonda tashkil topgan ushbu siyosiy partiyalar ijtimoiy taraqqiyot, voqealar rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy tashkilotdirlar.

O'zbekistonda dinning jamiyatda tutgan o'rni uning konstitutsion maqomi bilan belgilangan. O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, barcha fuqarolar millatidan, irqidan, diniy e'tiqodidan qat'i nazar vijdon erkinligi kafolatlangan.

4-§. Jamiyatda oilaning o'rni va uning huquqiy himoyalanganligi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga muvofiq, «Oila — jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» deb ko'rsatib

o'tilgan. Albatta, jamiyatning paydo bo'lishida oilaning roli beqiyosdir. Oilaning shakllanishi va rivojlanishi, jamiyatning rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Davlat doimiy ravishda oila manfaatlarini barcha jabhalarda himoya qilib, ularga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

1991-yil mustaqillikka erishganimizdan so'ng, davlat oilaviy munosabatlari sohasida tub islohotlar amalga oshirila boshladi. Jumladan, 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan tashkil qilingan «Mahalla xayriya jamg'armasi» kam ta'minlangan oilalarga, boquvchisini yo'qotgan shaxslarga moddiy jihatdan katta yordam ko'rsatdi va ularga keng shart-sharoitlar yaratdi. 1993-yil 4-martda Prezidentimiz farmoni bilan «Sog'lom avlod uchun» ordeni tashkil etildi. Bu orden onalik va bolalikni muhofaza qilish, yosh avlodning salomatligini saqlash hamda yoshlarni vatanparvarlik tuyg'usida tarbiyalash ishlarida o'zining xizmatlari bilan tanilgan shaxslarga berildi.

1994-yil 22-avgustda Prezidentimizning «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. Bu farmonga ko'ra moddiy jihatdan qiynalib qolgan oilalarga yaqindan yordam berish, ularga yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berishni nazarda tutadi.

Oila munosabatlarini 1998-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Oila kodeksi» tartibga soldi. Bu qabul qilingan Oila kodeksi o'zida xalqaro normalarni, jahon oilaviy tajribalarini, shu bilan birga o'zbekona urf-odat hamda qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirdi. Oila kodeksida oila qonunchiligimiz uchun yangi bo'lgan munosabatlar, nikoh shartnomasi, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv, qon-qarindoshlik va boshqa munosabatlar kiritildi.

1998-yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi, davlatimiz tomonidan oila manfaatlarini himoyalash, ularni rag'batlantirish hamda ularga yetarli shart-sharoit yaratib berish chora-tadbirlarini ishlab chiqdi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan oilaviy munosabatlarni himoyalash bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Bu dasturga ko'ra oilalarni huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy jihatdan himoyalash tadbirlari belgilandi.

Balog'at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati yoki diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklashlarsiz nikohdan o'tishga va oila qurishga haqli. Ular nikohdan o'tishda, nikohda turgan vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil

huquqdan foydalanadilar⁶³. Bundan ko'rinib turibdiki, har qanday shaxs qonunda belgilangan yoshga yetgach, xohlagan shaxs bilan nikoh munosabatlariga kirishishi mumkin. Hech kim har qanday kamsitilishlar bilan birovning nikoh tuzishiga to'sqinlik qilishi mumkin emas.

Oilaviy munosabatlarda er va xotin bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Ayol faqatgina uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanmasdan, balki davlatning boshqaruv sohasida ham ishtirok etadi. Hozirgi rivojlanish jarayonida ayollarimizning ko'plab boshqaruv sohalarida rahbarlik lavozimida faoliyat olib borayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ayol va erkak nikohni qayd qilar ekan, albatta, uning qonuniy bo'lishligini xohlaydi. Shu sababli nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi (FHDYO). Diniy rasm-rusmlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas. Oila qonunchiligi diniy holatlarni cheklab qo'ymaydi, faqatgina bunday holat oila qonunchiligiga zid bo'lmasligi kerak.

Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning FHDYO organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Ba'zi holatlarda nikoh bir oy o'tgunga qadar ham tuzilishi mumkin. Bunday holatlarga:

- Nikohlanuvchilar uzoq vaqt birga turgan bo'lsalar;
- Nikohlanuvchilardan biri o'qish yoki mehnat safari bilan xorijiy mamlakatlarga ketayotgan bo'lsa;
- Bo'lajak er-xotinning yaqin qarindoshlaridan biri og'ir kasal bo'lsa;
- Taraflardan biri harbiy xizmatga chaqirilgan bo'lsa.

Shunday holatlar ham uchraydiki, nikoh ariza beruvchilar tomonidan ariza berilgan kuni ham qayd etilishi mumkin. Masalan: ayol kishi homilador bo'lib qolsa, o'rtada farzand tug'ilganda.

Agar shaxs og'ir kasal bo'lib qolganda, nikohni kasalxonalarda ham qayd etishga ruxsat beriladi. Nikohni qayd etish vaqtida, albatta, taraflarning o'zlari hamda ikkita vakil ishtirok etadi, ya'ni kelinning dugonasi hamda kuyovning o'rtog'i. Nikoh qayd etilganidan keyin ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlariga muhr qo'yiladi.

Nikoh tuzish uchun qonunda belgilangan yosh erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh qilib belgilab qo'yilgan.

⁶³ Qarang. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi. 1948-yil, 10-dekabr, 16-modda.

Ba'zi holatlarda nikohlanuvchilar yashayotgan tuman va shahar hokimining roziligi asosida nikoh yoshini bir yilga qisqartirib berishi mumkin.

Nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin⁶⁴.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 14-moddasiga ko'ra, nikoh tuzish ixtiyoriydir. Nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi. Demak, nikoh tuzilar ekan, albatta, taraflarning roziligi birinchi o'ringa qo'yiladi. Agar nikoh tuzishga majbur qilish aniqlansa, O'zbekiston Respublikasi JKning 136-moddasiga muvofiq, javobgarlik masalalarini keltirib chiqaradi.

Ba'zan nikoh tuzishga imkon bermaydigan holatlar ham kuzatiladi. Bunday holatlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Loaqal bittasi qonuniy boshqa nikohda turgan bo'lsa;
- Nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opasingillar o'rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

- Ruhiyat buzilishi natijasida sud tomonidan muomalaga layoatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida;

Oilaviy munosabatlarda er va xotin o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda ota-onalik huquqlaridan mahrum bo'ladi-lar. Quyidagi holatlar ota-onalik huquqidan mahrum qilinishiga asos bo'ladi:

- Ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa;
- Uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan olishdan bosh tortsa;
- Bolalariga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa;
- Muttasil ravishda ichkilikbozlik va giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa;
- O'z bolalarining sog'lig'i yoki hayotiga qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa.

Har xil asoslar bo'yicha nikoh o'z vaqtidan oldin tugatilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 37-moddasiga muvofiq, quyidagi hollarda nikoh tugatilishi mumkin:

- Er-xotindan birining vafoti;

⁶⁴ Qarang. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi. 1948-yil, 10-dekabr, 16-modda, 2-qism.

— Sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilinishi oqibatida;

— Er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq;

— Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda.

Nikohdan ajratish asosan sud tartibida hamda FHDYO organlari tomonidan amalga oshiriladi. Er-xotin o'rtasida nizoli vaziyatlar mavjud bo'lmasa, nikoh FHDYO organlari tomonidan ajratilishi mumkin. Agar er-xotin o'rtasida farzandlar masalasida, mulkiy masalalarda nizoli vaziyatlar yuz bersa, nikoh fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ajratiladi.

Respublikamizda nikohdan ajratishdan oldin ularning nikohini saqlab qolish maqsadida, ularga olti oylik muddat beriladi. Bu muddat davomida er va xotin o'z nikohlarini saqlab qolish uchun harakat qilishadi. Buning uchun mahalla, xotin-qizlar uyushmalari, tegishli idoralar yaqindan yordam beradilar. Demak, oilani birdaniga ajratib yuborish emas, aksincha, oilani saqlab qolish uchun harakat qilish kerak.

Mamlakatimizda oilaning huquqiy himoyalanganligini Prezidentimiz farmonlarida, hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan qarorlarda va boshqa huquqiy hujjatlarda ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, o'zini-o'zi boshqarish organlari, sud organlari, prokuratura organlari, vasiylik, homiylik organlari va shunga o'xshash organlar bevosita oilaning huquqiy jihatdan kafolatlanganligini belgilab beradi.

5-§. Siyosiy institutlar tizimida ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'z oldiga adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, huquqiy demokratik davlat qurish va xalqni farovon hayot sari olib borish kabi buyuk maqsadlarni qo'ydi.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida boshlangan bu keng miqyosdagi islohotlarni jamiyatning eng ichki qatlamlarigacha olib kirish, albatta, mamlakat aholisining ijtimoiy ongini va saviyasini, hayotga bo'lgan qarashlarini tubdan o'zgartirishni talab etardi. Shubhasiz, bu mashaqqatli jarayonda ommaviy axborot vositalari eng muhim o'rinlardan birini egallaydi.

Aynan shu sababli ham bugungi kunda ommaviy axborot vositalariga davlat rahbariyati tomonidan juda katta e'tibor qaratilmoqda.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatini isloh qilish, ularning samarali ishlashiga ko'mak beruvchi mexanizmlarni

tartibga soluvchi qonunchilik bazasini yaratish borasida muayyan ishlar qilindi. Shu sababdan, bu muammo O'zbekiston Respublikasining bir qator boshqa qonunlarida ham o'z ifodasini topgan. «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi (1997-yil, 26-dekabr), «Noshirlik faoliyati to'g'risida»gi (1996-yil, avgust), «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi (1996-yil, sentabr), «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi (1997-yil, aprel), «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi, (1997-yil, aprel), «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi (2002-yil, dekabr) qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radio-ning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (1996-yil, may) Farmoni va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

Shubhasiz, yaratilgan qonunlar davlat hamda nodavlat shakldagi, televideniye kanallari ishini tashkil qilish, shuningdek, jurnalistlarning professional jihatdan kamol topishiga keng ko'lamda yordam berish, matbuot va ommaviy axborot vositalari erkinligini ta'minlashda, jamiyatda demokratik muhitni qaror toptirishda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

«Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonunida ommaviy axborot vositalarining turlari ko'rsatilgan. Ular gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, bulletinlar, axborot agentliklari, televideniye (kabelli, efir-kabelli televideniye) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalaridir.

Ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ilovalar nashr etishi mumkin.

Demokratik davlatlarda ommaviy axborot vositalari erkinligini, ularning faoliyat ko'rsatishi sharoitlarini ta'minlash bilan birga, bu erkinliklarning suiste'mol qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Birinchi navbatda ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar yuqorida aytib o'tganimizdek, berilayotgan axborotning to'g'riligi uchun javobgardirlar. Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining mavjud Konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga davlat qilish, urush va zo'ravonlik, shafqatsizlik, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib etish, davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan o'zga sirni oshkor etish, jinoiy javobgarlikka

sabab bo'ladigan xatti-harakatlar sodir qilishni targ'ib qilishga ruxsat berilmaydi. Uchinchidan, fuqarolarning sha'ni va qadrigimmatini tahqirlash, ularning shaxsiy hayotiga aralashish ham taqiqla-nadi/ Ushbu cheklashlar yana bir marotaba huquqiy davlatda so'z erkinligi, ommaviy axborot vositalari erkinligi istalgan fikr yoki qarash ifoda etilishiga yo'l qo'yilmasligidan, lekin bu cheklashlar kichik va aniq bo'lishidan dalolat beradi. Demokratik huquqiy davlatning mavjud bo'lishi, qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarni asta-sekinlik bilan bo'lsa ham asrab-ardoqlash uchun so'z erkinligi huquqining kichik bir qismini cheklash talab qilinadi. Bu hol yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, rivojlangan mamlakatlarda ham mavjud.

Ma'lumki, axborotni birinchi navbatda jurnalistlar qidiradilar, oladilar va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatadilar. Shu sababdan, jurnalistlar faoliyatini ham ko'rib chiqish lozim. Yuqorida aytib o'tganimizdek, «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi qonun jurnalistning faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi, uning huquq va majburiyatlarini belgilaydi, unga huquqiy va ijtimoiy kafolatlar beradi, jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risidagi Qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilaydi.

Jurnalist — O'zbekiston Respublikasining yoki xorijiy davlatning ommaviy axborot vositalarida xizmat qiladigan yoxud ularda shartnoma asosida ishlaydigan va ma'lum mavzudagi axborotni to'plash, tahlil etish hamda tarqatish bilan shug'ullanuvchi shaxsdir. Qonunning 5-moddasida aytilishicha:

«Jurnalist o'z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirish chog'ida:

—Axborot to'plash, uni tahlil etish va tarqatish;

— Axborot olish uchun davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga murojaat etish;

— Davlat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni istisno etgan holda hujjatlar, materiallar va axborotdan foydalanish;

— Jurnalist tekshiruvini o'tkazish;

— O'zi tayyorlagan xabarlar va materiallarni ommaviy axborot vositalari orqali imzosini yoki taxallusini qo'yib tarqatish, ularda o'z fikr-mulohazasini ifodalash;

— Jurnalistlik faoliyatini amalga oshirish yuzasidan mansabdor shaxs qabulida bo'lish;

— Ma'lumotlarni belgilangan tartibda yozib olish, shu jumladan, zarur texnika vositalaridan foydalangan holda yozib olish;

— Sudlarning ochiq majlislarida, harbiy harakatlar maydonlarida, tabiiy ofat yuz bergan hududlarda, ommaviy tadbirlarda hozir bo'lish;

— E'lon qilishga tayyorlangan ma'lumotlarni tekshirish uchun mutaxassislariga murojaat qilish;

— Basharti qonunni buzishga olib keladigan bo'lsa, ommaviy axborot vositasi tomonidan berilgan topshiriqni bajarishni rad etish;

— O'zi tayyorlagan xabar yoki materialning mazmuni tahrir jarayonida buzilgan degan fikrga kelsa, unga imzo qo'ymaslik yoxud uni nashrdan olib qolish (efirga bermaslik)ni talab etish;

— Axborot manbai yoki muallifning nomi sir saqlanishini talab qilish;

— Taqdim etgan xabarning mazmunini ommaviy axborot vositasi buzib e'lon qilishi oqibatida o'ziga yetkazilgan ma'naviy zarar va moddiy ziyon qoplanishini sud orqali talab qilish;

— Jamoat birlashmalariga, shu jumladan, jurnalistlarning xalqaro tashkilotlariga kirish huquqlariga ega.

Jurnalist o'ziga qonun hujjatlari bilan berilgan boshqa huquqlardan ham foydalanadi.»

6-moddada jurnalistning majburiyatlari quyidagicha bayon qilingan:

«O'z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirish chog'ida jurnalist:

— Qonun hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari talablariga rioya etishi;

— O'zi tayyorlayotgan materiallarining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirishi va xolis axborot taqdim etishi;

— Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga amal qilishi;

— Shaxsning huquqlari va erkinliklarini, sha'ni va qadrigimmatini hurmat qilishi shart.

Jurnalist o'z kasbiga doir axborotdan shaxsiy maqsadlarda foydalanishi, axborot manbai yoki muallif roziligisiz jismoniy shaxsning shaxsiy hayotiga taalluqli ma'lumotlarni e'lon qilishi mumkin emas.

Jurnalist qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham bajarishi shart».

Jurnalistlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida u Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan shaxs daxlsizligi kafolatidan foydalanadi.

Tanqidiy materiallar e'lon qilganligi uchun, agar ular haqqoniy bo'lsa, jurnalistni ta'qib qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolar yoki boshqa axborot manbalari tomonidan ixtiyoriy ravishda ma'lum qilingan maxfiy xabar, shuningdek, fakt yoki voqealar jurnalistika sohasining siri hisoblanadi.

Jurnalistning jurnalistika sohasining siri hisoblanadigan ma'lumotlarni bu ma'lumotlar manbaining roziligisiz oshkor etishi, shuningdek, ulardan o'zining g'arazli manfaatlari yoki uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko'zlab foydalanishi taqiqlanadi.

Jurnalist axborot to'plash va jurnalist tekshiruvini o'tkazish huquqiga ega. O'z tekshiruvlarining natijalarini u ommaviy axborot vositalari orqali tarqatishi, ularni davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarga ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin. Jurnalist tekshiruv davrida u qo'lga kiritgan materiallar va hujjatlar olib qo'yilishi yoki ko'zdan kechirilishi mumkin emas.

Jurnalistning kasbiga doir faoliyati Qonunning 10-moddasida shunday kafolatlangan:

«Jurnalistning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini qonun bilan qo'riqlanadi.

Davlat jurnalistga axborotni erkin olishi va tarqatishini kafolatlaydi, o'z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirishda uning himoya qilinishini ta'minlaydi.

Jurnalistning jurnalistik faoliyatiga aralashish, undan o'z kasbiga doir vazifalarni bajarish chog'ida olgan biror-bir ma'lumotni talab etish taqiqlanadi».

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mansabdor shaxslari:

— Senzura qilganlik;

— Jurnalist o'z kasbiga doir qonuniy faoliyatni amalga oshirishiga akkreditatsiya qilishni asossiz ravishda rad etish yoki akkreditatsiyani noo'rin bekor qilish yo'li bilan to'sqinlik qilganlik;

— Jurnalistning so'rov bilan murojaat qilish va zarur axborotni olish huquqini buzganlik;

— Jurnalistga tazyiq o'tkazganlik, uning jurnalistlik faoliyatiga aralashganlik;

— Jurnalistning materiallari va zarur texnika vositalarini g'ayriqonuniy ravishda olib qo'yganlik;

Axborot manbaini yoki muallif nomini uning roziligisiz oshkor etganlik uchun javobgarlikka tortiladilar.

Jurnalistning ushbu Qonunda belgilangan huquqlarini buzganlik, uning kasbiga doir faoliyati bilan bog'liq holda sha'ni va qadr-qimmatini haqorat qilganlik, uning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga tahdid, zo'ravonlik yoki tajovuz qilganlik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Jurnalistning javobgarligi Qonunda shunday ta'riflangan:

«Jurnalist o'zi tayyorlayotgan va tarqatayotgan xabarlar hamda materiallarning haqqoniy bo'lishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgardir.

Jurnalist rasmiy xabarlarda bayon etilgan axborotni tarqatganlik uchun javobgar bo'lmaydi».

Yurtimizda ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlashga, jurnalistlar faoliyatini har tomonlama rag'batlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu maqsadda 1997-yilda Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash fondi tashkil etilgandi. Jurnalistlar huquqlariga doir qonunlar qatorida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni keltirish mumkin.

Ularda qonun va huquq nuqtai nazaridan ommaviy axborot vositalaridan qonunga xilof ravishda foydalanish bilan bog'liq jinoiy harakatlar va huquqbuzarliklar uchun aniq javobgarliklar belgilangan, zero, «Inson huquqlarini va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risida»gi Yevropa konvensiyasining 10-moddasida aytilganidek, «So'z va matbuot erkinligi demokratik jamiyatda milliy xavfsizlik, ijtimoiy osoyishtalik manfaatlarini yo'lida, tartibsizliklarning oldini olish, axloqni himoya qilish, boshqa shaxslarning obro'-e'tibori va huquqlarini himoya qilish yoxud odil sudlovni ta'minlash maqsadlarida majburiyat va javobgarlik yuklash imkoniyatini keltirib chiqaradi». Chop etilgan axborotning xolisligi va ishonchliligi prinsipi buzilgan taqdirda, uni buzgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo'l qo'yilmaydi. E'lon qilinayotgan xabarlar yoki materiallar oldindan kelishib olinishi, shuningdek, ularning matni o'zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishi (efirga berilmasligi)ni talab qilishga hech kimning haqqi yo'q. Senzura, oddiy qilib aytganda, bu muayyan axborot berilishiga (nashr qilinishiga) to'sqinlik qilish, unga nisbatan

ta'qib va cheklov o'rnatishdir. So'z erkinligi, fikr bildirish erkinligini har qanday cheklash demokratiyaga xilofdir. Va aksincha, senzuraning olib tashlanganligi jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari orqali istagan xabar, ma'lumot va materialni e'lon qilaveradi, degan gap emas, albatta. Masalan, «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasiga muvofiq jurnalist o'z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirish chog'ida davlat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni istisno etgan holda hujjatlar, materiallar va axborotdan foydalana olish huquqiga ega.

Ommaviy axborot vositalari «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida»gi Qonun⁶⁵ bilan taqiqlangan hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan alohida tasdiqlangan davlat sirlari hisoblangan obyektlar ro'yxatidan tashqari masalalar xususida erkin tarzda xabarlar e'lon qilishi mumkin. Qonunga binoan, davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy texnikaviy va o'zga xil ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining davlat sirlari hisoblanadi (1-modda).

Ommaviy axborot vositalaridan mavjud Konstitutsiyaviy tuzumni, Respublika hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qilish, davlat sirini oshkor etish, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan boshqa xatti-harakatlarni sodir qilish maqsadida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Qonunda yana bir muhim jihat borki, u ham bo'lsa, jurnalist yoki ommaviy axborot vositasi prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchining yozma ruxsatisiz dastlabki tergov materiallarini e'lon qilishi, muayyan ish bo'yicha sud qarori chiqmasdan turib yoki sudning hal qiluv qarori yoxud hukmi qonuniy kuchga kirmay turib, uning natijalarini taxmin qilishi yoki sudga o'zgacha yo'l bilan ta'sir ko'rsatishi taqiqlanadi.

Mazkur taqiq fuqarolarning aybsizlik prezumsiyasi prinsipi buzilmasligi uchun belgilangandir. Zero, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan (gumon qilinayotgan) hech bir shaxsning ishi sudga ko'rib, uning aybi isbotlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Shu bois, sud qarori yoki hukmi chiqmaguncha jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari ish bo'yicha oldindan xulosa chiqarishlari, shaxsning xatti-harakatlariga

⁶⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 1993-yil, 5-son, 232-modda.

baho berishlari joiz emas. Aks holda, shaxsning sha'ni va obro'si asossiz zavol topib qolishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonun talablarini buzishda aybdor, deb topilgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. Muharrir yoki jurnalist ommaviy axborot vositalarida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan materiallarni tarqatganligi uchun, agar ma'lumotlar rasmiy xabarlardan olingan bo'lsa; axborot agentliklari yoki davlat organlarining matbuot xizmatlari orqali olingan bo'lsa yoxud muallifning oldindan yozib olinmay, to'g'ridan-to'g'ri efirga berilayotgan nutqlarida aytilgan bo'lsa, javobgar bo'lmaydi.

Demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari «**To'rtinchi hokimiyat**», deb ta'riflanadi. Bu «hokimiyat»ni ro'yobga chiqarishda jurnalist, uning kasb mahorati, umumiy saviyasi va madaniyati katta rol o'ynaydi. Jurnalistlik faoliyatining davlat darajasida muhofazalanishi, jurnalistning huquq va majburiyatlari tartibga solinishi «**To'rtinchi hokimiyat**» uchun mustahkam zamindir.

Davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxona, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslari senzura qilganlik, jurnalistning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilganlik, uning so'rov va axborot olish huquqini buzganlik, jurnalistga tazyiq o'tkazganlik va faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlikka tortiladilar. Jurnalistning materiallari va texnika vositalarini g'ayriqonuniy ravishda olib qo'yish mumkin emas. Jurnalist sha'ni va qadr-qimmatini haqorat qilish, uning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga tahdid, zo'ravonlik yoki tajovuz qilish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning axborot olish huquqi maxsus qonunlar bilan ham mustahkamlab qo'yilgan. 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi Qonuni bevosita ushbu huquqni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Ushbu qonun har kimning axborotni erkin va moneliqsiz izlash, olish, tadqiq etish, uzatish hamda tarqatishga doir Konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan munosbatlarni tartibga soladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar har kimga o'zining huquq-

lari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan qonun hujjat-lari bilan, shuningdek, hujjatlar, qarorlar va boshqa material-lar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishga majburdir. Axborot olish imkoniyati qonun hujjatlarini va tegishli materiallarni e'lon qilish va tarqatish yo'li bilan ta'minlanadi⁶⁶.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar davlat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlardan iborat axborotni berishi mumkin emas. Davlat organlarining, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining, jamoat birlashmalarining, korxona-lar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarning, fuqarolarning axborot olishga doir huquqlarini kamsituvchi xatti-harakatlari yoki harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2005-yil 28-yanvardagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati-niing qo'shma majlisi nutqida beshta ustuvor vazifalaridan biri etib, «O'zbekistonda demokratik jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlash-niing g'oyat muhim sharti — bu ommaviy axborot vosita-larini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq choralarni amalga oshirishdir» deb belgilandi. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi o'rnini yanada oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash muhim vazifalardandir.

6-§. Diniy tashkilotlar va birlashmalarning huquqiy maqomi

O'zbekiston tarixida ilk bora, 1991-yil iyun oyida (01.05.1998 y. yangi tahrirda qabul qilindi) «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» qonun qabul qilingan edi. Ushbu qonunni qabul qilishdan maqsad har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek, diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat edi.

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasining «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi Qonuni. 2000-yildagi 15-dekabr 175-II-son qonuni tahriridagi modda // «Xalq so'zi» gazetasi, 2001-yil 9-yanvar, 6-son.

O'zbekistonda islom dini bilan bir qatorda pravoslavlar, yahudiylar, baptistlar, adventistlar, katoliklar, lyuteranlar, bahoichilar, krishnaitlar, buddistlar, xristian-presvitorianlari singari bir qancha din va mazhablar mavjud.

Ulardan har birining o'ziga xos va mos tartib-qoidalari, hayot tarzi, dunyoqarashi, talab va ehtiyojlari mavjud. Ana shunday xilma-xillikdan va haqiqiy demokratik tamoyillardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: **«Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega»**, degan qoida kiritilgan (31-modda).

Davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabat masalasiga esa quyidagi moddada aniqlik kiritilgan: **«Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi»** (61-modda).

Konstitutsion normalarda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar masalasidagi ikki jihati yaqqol ajralib turadi.

Birinchisi, din — jamiyatda insonparvarlik ruhiyatini shakllanishida, yuksak madaniyat va ma'naviyat quroli, beqiyos axloqiy tarbiyasi, insonlarni kamtarinlik, kamsuqumlikka, halollik, poklikka undashi kabi qadriyatlarni barcha milliy qadriyatlar qatorida teng huquqli qadriyat sifatida tan olinganligidir.

Ikkinchidan, dindan g'arazlik yo'lida foydalanish, diniy omillardan foydalanib siyosatga, davlat ishiga aralashish, hokimiyatga intilish kabi holatlarning qat'iy man etilishidir.

Musulmonlar hayotida qutlug' kunlar hisoblangan Qurbon va Ramazon hayitlari kunlarini doimiy suratda bayram qilish va ularning dam olish kunlari deb e'lon qilinishi ham yosh mustaqil davlatimizning tarixida alohida bir sahifani ochdi.

Mustaqillik tufayli davlat musulmonlarga iltifot va muruvvat ko'rsata boshladi. O'zbekiston musulmonlari bevosita hukumat yordamida har yili muqaddas Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatiga erishdilar. Hozirga qadar 30 mingga yaqin O'zbekiston musulmonlari ana shu muqaddas qadamjolarni ziyorat qilib qaytish sharafiga muyassar bo'ldilar.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan bu ishlar, musulmonlarga ko'rsatilayotgan muruvvatning maqsadi diniy qadriyatlarni qaytadan tiklash va uni yanada rivojlantirish, xalqimizni barkamol qilish va komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgandir.

Dinning ulug' qadriyatlaridan biri shundaki, unda millatlararo mojarolar, qonli to'qnashuvlar qattiq qoralanadi, turli dindagi va millatdagi odamlarning o'zaro birodar, ahil bo'lib tinch-totuv hayot kechirishga, barcha dindorlar milliy totuvlikda yashashga da'vat etiladi.

Bugungi kunda Respublikada turli millatdagi din vakillarining hech qanday to'siqlarsiz o'z dinlariga e'tiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Sobiq Ittifoq davrida Respublikamizda bor-yo'g'i 89 ta masjid va ikkita madrasa faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozir O'zbekiston musulmonlari idorasi boshqaruvi ostida rasmiy ro'yxatdan o'tgan 1871 dan ortiq masjid faoliyat ko'rsatib turibdi.

Shuningdek, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat vakillari ham o'zlari e'tiqod qilayotgan dinlarida erkin ibodat qilmoqdalar. Bugun Respublikamizda 15 turdagi 186 dan ziyod noislomiy diniy tashkilotlar rasman faoliyat ko'rsatmoqda.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 9-moddasi asosida, markaziy boshqaruv organi hisoblangan O'zbekiston Musulmonlar idorasiga qarashli Toshkent islom instituti, «Ko'kaldosh», «Mir-Arab» madrasasi, «Xadichai Kubro» kabi 11 ta diniy o'quv yurti faoliyat ko'rsatmoqda.

Bulardan tashqari, Rus Pravoslav Cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasining Toshkent rus pravoslav seminariyasi hamda O'zbekiston To'liq yevangel-Xristianlar Markazining Samarqand protestant diniy seminariyasi ishlab turibdi⁶⁷.

Bugungi kunda Respublikada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar hamda inson huquqlari himoyasini kuchaytirishga qaratilgan izchil siyosat fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi bo'lgan jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini tobora oshirmoqda.

Zero, jamoat tashkilotlari o'z maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda Respublikada o'tkazilayotgan keng ko'lamli islohotlarga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Hozirgi kunda jamoat va nodavlat tashkilotlari oldida katta vazifalar turibdi. Zotan, yangi jamiyat barpo etish jarayonida

⁶⁷ Samatov P. Abdusattorov J. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: jamoat birlashmalari. — T.: 2000, 46-b.

xalqning bevosita faol ishtirokini ta'minlash aynan nodavlat notijorat tashkilotlari zimmasiga tushadi. Buning uchun ular yangi davr talablariga mos ish uslubi va shakllarini ildam qat'iyat bilan o'zlashtirishlari, ko'proq tashabbus, tashkilotchilik ko'rsatib faoliyat yuritishlari taqozo etiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekiston fuqarolarining mulk huquqlari qaysi Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar shakliga kiradi?
2. Mulkka egalik qilish deganda nimani tushunasiz?
3. Mulkdan foydalanish tartibi qanday amalga oshiriladi?
4. Mulkni tasarruf qilish nima?
5. Mulk turlarini ifodalang.
6. Xususiy mulk deganda nimani tushunasiz?
7. O'zbekiston fuqarolarining meros huquqi qanday huquqiy yo'l bilan amalga oshiriladi?
8. Jamoat birlashmalari deganda nimani tushunasiz?
9. Davlat boshqaruvida siyosiy partiyalarning o'rni qanday?
10. Jamiyatda oilaning tutgan o'rni qanday?
11. Oilaviy munosabatlarda ayol va erkaklarning teng huquqliligi deganda nimani tushunasiz?
12. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asosi deganda nimani tushunasiz?
13. Diniy tashkilotlarning faoliyati tartibi qanday?

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
MA'MURIY-HUDUDIIY VA DAVLAT
TUZILISHI**

VII BOB

**MA'MURIY-HUDUDIIY VA DAVLAT
TUZILISHI TUSHUNCHASI, SHAKLLARI
VA TAMOYILLARI**

1-§. Davlat tuzilishi tushunchasi va shakllari

Muayyan bir davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishini o'rganishda ma'muriy- hududiy tuzilish tushunchasi bilan birga davlat tuzilishi shakli tushunchasiga ham e'tibor qaratish lozim. Chunki, bu tushunchalar mazmunan bir-biriga bog'liq bo'lib, har doim biri ikkinchisini taqozo etib turadi. Davlat tuzilishi davlat shaklining muhim bir turi hisoblanadi. Davlat tuzilishi shu davlat oldida turgan vazifalar va maqsadlar bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov davlat qurilishi va uning tuzilishi asoslariga bag'ishlangan bir qator asarlarida, xususan, «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» degan kitobida bizda davlat tuzilishi yer kengliklarini viloyat, tuman va shaharlarga bo'linishi sun'iy ravishda, o'z-o'zidan kelib chiqqan «texnik» jarayon bo'lmay, balki Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi asosiy strategik maqsadni amalga oshiruvchi tayanch qismlariga ajratilishi ekanligiga alohida urg'u bergan⁶⁸.

Davlat tuzilishi shakliga quyidagi turli xil omillar ta'sir etadi:

1) Davlat va jamiyat oldida turgan iqtisodiy vazifalar;

⁶⁸ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. —T.: «O'zbekiston», 1999, 117-bet

- 2) Davlatdagi siyosiy kuchlarning o'zaro nisbati;
- 3) Davlat hududida istiqomat qilayotgan aholining ko'p millatliligi va o'zaro munosabati;
- 4) Davlat hududining katta yoki kichikligi ta'sir etadi;
- 5) Uzoq yillar davomida shakllangan tarixiy an'analar;
- 6) Jamiyatdagi mavjud ijtimoiy ong.

Shunday qilib, **davlat tuzilishi shakli** deganda, davlat hokimiyatining ma'muriy-hududiy uyushuvi, davlat va uni tashkil etgan hududlarning, ayrim qismlarning, markaziy va mahalliy idoralar orasidagi munosabatlarning tabiati tushuniladi⁶⁹.

Davlat tuzilishi — davlatning ma'muriy-hududiy bo'linish tamoyillari va tuzilishini hamda ma'muriy-hududiy birliklarning yuridik maqomini, davlatning markaziy organlari bilan mazkur organlarning joylardagi mahalliy organlarining o'zaro munosabatlari qanday xususiyatlardan iborat ekanligini qamrab oluvchi tushunchadir.

Milliy-davlat tuzilishi deganda davlatning tuzilishi, uning ma'muriy-hududiy bo'linishi, davlat bilan uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, davlat va uning tarkibiy qismlarining huquqiy holati, ularning vakolatlari xarakteri va hajmidan iborat ekanligi tushuniladi⁷⁰.

Ma'muriy-hududiy tuzilish deyilganda davlat tuzilishi tushunchasining tarkibiy qismi bo'lib, davlat o'z vazifa va funksiyalarini bajarishi uchun, muayyan cheklangan hududini ma'lum bir hududiy (ma'muriy-hududiy) bo'laklarga bo'linishini tushunish lozim. Ushbu hududiy bo'laklarda davlat apparati mahalliy organlarining strukturasi tuziladi. Shuning uchun davlatning hududiy tuzilishini ma'muriy-hududiy tuzilish deb ataymiz.

Davlatni hududiy jihatdan tashkillashtirish o'z *maqsadi* va *vazifalariga* ko'ra nafaqat *ma'muriy-hududiy*, balki *iqtisodiy-hududiy* (masalan, erkin savdo qiluvchi hududlar), *harbiy-hududiy* (masalan, O'zbekistonda tashkil etilgan Toshkent, markaziy, shimoliy, janubiy, g'arbiy, sharqiy harbiy okruglar), *siyosiy-hududiy* (masalan, barqarorlikni saqlash va etnik masala-

⁶⁹ Tadjixanov U., Odilqoriyev H., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. — Toshkent: 2001, IIV Akademiyasi, 436-437-betlar.

⁷⁰ Tadjixanov U., Odilqoriyev H., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. — Toshkent: 2001, IIV Akademiyasi, 435-bet.

larni hal qilish uchun ajratiladigan mintaqalar), *ekologik-hududiy* (masalan, Orol va Orol bo'yi ekologik inqiroz holatidagi alohida muhofazaga muhtoj bo'lgan yer kengligining quruqlik qismi va suv akvatoriyasi) shakllarda namoyon bo'lishi mumkin⁷¹.

Federativ davlatlarda ma'muriy-hududiy birliklar o'zining muayyan hokimiyat organlari tizimiga, Konstitutsiya va qonunchiligiga, shuningdek, hududiy ramzlariga ega bo'ladi.

Ma'muriy-hududiy birlik — davlat ma'muriy-hududiy tuzilishi tizimining mustaqil tarkibiy qismi bo'lib, bir necha pog'onada tashkil etilishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi ham ko'p pog'onali ma'muriy-hududiy tuzilishga ega (viloyat, tuman, qishloq yoki ovul).

Kichkina, mitti davlatlarning ba'zilarida umuman ma'muriy-hududiy bo'linish amalga oshirilmagan, masalan, Okeaniyada joylashgan Nuara va Tuala, Monaka, San-Marino.

Tegishli ma'muriy-hududni alohida ma'muriy-hududiy birlik sifatida e'tirof etish uchun faqat davlat hokimiyati mahalliy organlarni tashkil etish bilan chegaralanmasdan, balki mahalliy hududning iqtisodiy-madaniy rivojlanganligi darajasi, aholining hududiy uyushishi bilan ham bog'liqdir.

Davlat ichki tuzilishiga, uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlariga, davlatning markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi munosabatlarga, ma'muriy-hududiy birliklarning yuridik mavqeiga ko'ra, davlat tuzilishi odatda uch shaklga bo'linadi: unitar; federativ, konfederativ.

Jahonda hududi bo'yicha yirik beshtalikka kiruvchi Xitoy davlati ham davlat tuzilishi shakliga ko'ra unitar davlatlar qatoriga kiradi.

Unitar (fransuzcha «unitaire» — «yagona») davlat tarkibida hech qanday davlat tuzilmalari mavjud bo'lmagan yaxlit davlatdir. Hozir jahonda eng ko'p tarqalgan davlat tuzilish shakllaridan biridir. Ular qatoriga Italiya, Yaponiya, Ukraina va boshqalar kiradi. Unitar davlatlar huquqiy jihatdan teng bo'lgan ma'muriy-hududiy qismlar (viloyatlar, regionlar, guberniya, grafliklar)ga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi ham unitar davlat hisoblanadi.

Unitar davlatlarning aksariyati muayyan ma'muriy-hududiy bo'linish (Masalan: O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tuman-

⁷¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi (mualliflar jamoasi). TDYUI. — Toshkent: «Moliya», 2002, 377-bet

lar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar)ga ega bo'ladi. Biroq mazkur hududiy qismlar davlat tuzilmasi alomatlariga ega emas. Unitar davlatlar quyidagi huquqiy belgilarga ega:

- Unitar davlatlarda yagona davlat hokimiyati, oliy organlar tizimi mavjudligi;
- Yagona Konstitutsiya va qonunchilik tizimiga egaligi;
- Yagona fuqarolik;
- Unitar davlatlarning yagona bo'linmas va daxlsiz hududga ega bo'lishi.

Barcha unitar davlatlarga xos bo'lgan markazlashtirish turli shakl va darajalarda namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zi mamlakatlarda umuman mahalliy idoralar mavjud bo'lmay, ma'muriy-hududiy o'lkalar markaziy hokimiyat tayinlaydigan vakillar tomonidan boshqariladi. Boshqa davlatlarda esa mahalliy idoralar tuzilib (jumladan, vakillik organlari tuziladi), ular markaziy hokimiyat oldida (bevosita yoki bilvosita) hisobot beradilar.

Markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat idoralari o'rtasidagi munosabatning xususiyatlaridan kelib chiqib, unitar davlatlar **markazlashgan, nisbiy markazlashgan va markazlashmagan** turlarga bo'linadi.

Markazlashgan unitar davlatlarda ma'muriy-hududiy birliklarni boshqarish davlat hokimiyati markaziy organlari tomonidan bevosita amalga oshiriladi. Bunda markazdan tayinlanadigan mansabdor shaxslar tegishli ma'muriy hududni boshqaradi. Bunga xorijdan misol tariqasida Indoneziya davlatini keltirish mumkin.

Nisbiy markazlashgan unitar davlatlarda ma'muriy-hududiy birliklarni boshqarish bir vaqtning o'zida markazdan tayinlanadigan mansabdor shaxslar hamda mahalliy vakillik organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunga Fransiya mahalliy boshqaruvidagi markazdan tayinlanadigan prefektlar va munitsipal Kengashlarni misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini ham aynan shu turdagi unitar davlatlar qatoriga kiritamiz.

Markazlashmagan unitar davlatlarda esa ma'muriy-hududiy birliklar ancha mustaqil bo'lib, markazga umuman bo'ysunmaydi hamda boshqaruv to'la-to'kis mahalliy vakillik organlari vakolat doirasiga kiritiladi (Buyuk Britaniya grafliklaridagi mahalliy boshqaruvni saylab qo'yiladigan organlar amalga oshiradi).

Unitar davlatlar tarkibidagi ma'muriy hududiy birliklarning huquqiy maqomi va xususiyatlariga ko'ra:

• **Oddiy unitar davlat.** Bunday davlatlarning ma'muriy-hududiy tuzilishi sodda bo'lib, ma'muriy-hududiy birliklar bevosita markazga bo'ysunadi va huquqiy maqomi, nomlanishi hamda ijtimoiy tarkibi jihatdan aksariyat hollarda bir xil bo'lishi kuzatiladi. Ularning tarkibida hududiy avtonomiyalar mavjud bo'lmaydi.

• **Murakkab unitar davlat.** Ko'pchilik unitar davlatlarda bir yoki bir necha ma'muriy-hududiy birliklarga, o'lkalarga imtiyozli huquqiy maqom beriladi. Bunday unitar davlat ma'muriy avtonomiyaga ega bo'ladi. Qayd etilgan davlat tuzilishi shakli hududiy o'lkalarning maxsus manfaatlariga e'tibor berish zarur

Bilasizmi, dunyoda shunday davlatlar borki, bu davlatlar ma'muriy-hududiy birliklarining barchasi avtonomiyalardan iborat. Bunday davlatlar qatoriga Afrika qit'asida joylashgan Janubiy Afrika Respublikasi kiradi.

bo'lgan hollarda qo'l keladi. Bunday holat alohida millatning o'z taqdirini o'zi belgilashi, etnik va milliy kamsitilishining oldini olish, ozchilikni tashkil etuvchi millatlarning madaniyatini saqlab qolish va hokazolarda kuzatiladi. Mazkur avtonomiyalarda o'zini-o'zi boshqarish huquqi mamlakat aholisining boshqa qismiga qaraganda kengroq bo'ladi. Lekin ularning mustaqilligi markaziy hokimiyat belgilagan doiradagina saqlab qolinadi. Amaliyotda ayrim hollarda bunday avtonomiyalar mustaqillik uchun kurash olib borishishlari kuzatilib, aksariyat hollarda ayanchli oqibatlarni, jumladan, fuqarolik urushlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Avtonomiya bu — davlatning muayyan qismining ichki o'zini-o'zi boshqarishi bo'lib, bu qism davlatning boshqa qismlaridan ba'zi maxsus jihatlari, masalan, tarixiy, madaniy, diniy, maishiy, til, jo'g'rofiy, ba'zan milliy jihatlari bilan farqlanadi. Demak, avtonomiya — bu o'sha hududda zich yashaydigan aholining tarixiy, madaniy, diniy, til, jo'g'rofiy, milliy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan alohida siyosiy-hududiy birlikdir.

Avtonomiyaning turlari:

— Syosiy avtonomiya;

— Ma'muriy-hududiy yoki etnohududiy avtonomiya;

— Madaniy-milliy avtonomiya.

O'zbekiston Respublikasi ham o'z davlat tuzilishi shakliga ko'ra murakkab, nisbiy markazlashgan unitar davlatdir. Sodda unitar davlatlar hududida boshqa mustaqil davlatlar bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi murakkab tuzilishga ega ekanligi-

ning sababi, uning tarkibida alohida davlat tuzilmasi, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi mavjudligidir.

Unitar davlatlar ichidagi ma'muriy-hududiy bo'linmalar faqat mahalliy miqyosdagi masalalarni hal etish huquqiga ega, yagona markaziy davlat hokimiyatining kuchi davlatning butun hududida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi unitar davlat bo'lib, davlat hokimiyati Konstitutsiyada hokimiyatning taqsimlanish nazariyasiga binoan mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi hududiy jihatdan bo'linmas yagona davlatni tashkil etadi. Uning tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar kiradi⁷².

Federativ davlat (lotincha «feodus» — «ittifoq») unitar davlatga qaraganda murakkab tuzilishga ega bo'lib, uning subyektlari birmuncha siyosiy mustaqillikka ega bo'ladi.

Federatsiya bu — davlatlar ittifoqi bo'lib, uning tarkibiga ittifoq huquqlari bilan rasmiy cheklangan, yuridik mustaqillikka ega bo'lgan davlat tuzilmalari kiradi. Federativ davlat unitar davlatdan farq qiladi, bu farq Federatsiya tarkibiga kirgan tarkibiy qismlarning ma'muriy hududiy bo'linma emas, balki davlat tuzilmalaridan iborat ekanligidadir.

Kishilik jamiyatining rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyot, yangi iqtisodiy muammolar va boshqa omillarning paydo bo'lishi natijasida yaqinlashuv (integratsiya) jarayonlari boshlanadi. Bular esa murakkab davlatlar va ular turlari bo'lmish federatsiyalar, konfederatsiyalar, hamdo'stliklar kabi-larning barpo etilishiga olib keladi⁷³.

Ko'pincha «federativ davlat» termini o'rniga «ittifoq davlat» termini ham ishlatiladi (masalan, sobiq Yugoslaviya Ittifoqi). Federativ davlatlar tarkibiga kirgan davlat tuzilmalari turlicha nomlanadi: Germaniyada yerliklar, AQSH, Hindistonda shtatlar, Kanada va Pokistonda provinsiyalar, Birlashgan Arab Amirliklarida amirliklar, Shveysariyada kantonlar deb ataladi. Ilmiy adabiyotda va amaliyotda ularni umumlashtirib Federatsiya a'zolari yoki subyektlari deb atash keng tarqalgan.

⁷² O'zbekiston Respublikasining davlat va ma'muriy tuzilishi. I-tom. Huquq va boshqaruv sohasidagi xalqaro atamalar to'plami. Ruscha-o'zbekcha. — Toshkent: 1996, 13-bet.

⁷³ Tadjixanov U., Odilqoriyev H., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. — Toshkent: IIV Akademiyasi, 2001, 438-bet.

Federatsiyalarning tashkil topish asoslariga qarab ikki guruhga ajratish mumkin:

- Shartnomaga asoslangan;
- Shartnomaga asoslanmagan.

Shartnoma asosida tashkil topgan Federatsiya bu qoidaga ko'ra, bo'lajak Federatsiyaning a'zolari bo'lishi mumkin bo'lgan mustaqil davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida tashkil topgan ittifoq davlatidir. Bunday Federatsiyalarga misol qilib, AQSH, Avstraliya va Malayziyalarni keltirish mumkin.

Shartnomaga asoslanmagan federatsiyalarda esa, davlat hokimiyati ma'muriy birliklarga kengroq xuquqlarni berishi asosida, ular federatsiya subyektlariga aylanadi. Bunday o'zgarish avval unitar shaklda bo'lgan davlatning ixtiyoriga binoan amalga oshiriladi. Bunday federatsiyalarga misol qilib Hindiston, Nigeriyalarni keltirish mumkin. Bunday federatsiyaning subyektlari shartnomali Federatsiyalardan farq qilgan holda, suverenitetga ega bo'lmaydilar, ular faqat ichki suverenitetga ega bo'ladilar.

Davlat tuzilishi shakli sifatida Federatsiya quyidagi spetsifik belgilarga ega:

- Federatsiya davlat tuzilmalaridan iborat bo'ladi;
- Unitar davlatlardan farqli o'laroq federatsiya hududi yaxlit hudud sifatida e'tirof etilmaydi;
- Federatsiya subyektlari suveren mustaqil davlat emas, shuning uchun sesessiya (ajralib chiqish huquqi) berilmaydi;
- Federatsiya subyektlarida umumfederal Konstitutsiya va qonunlar bilan bir qatorda o'zlarining Konstitutsiya va qonunlariga ham ega bo'lishi mumkin;
- Federativ davlatlarda federatsiya fuqaroligi bilan bir vaqtda federatsiya subyektlarining ham fuqaroligi mavjud bo'ladi;
- Aksariyat hollarda federativ davlatlar ikki palatali parlament tizimiga ega bo'ladi (bikameralizm).

Lekin bunday federativ davlatlar yagona federal qurolli kuchlar, moliya, soliq va pul tizimlariga ega bo'ladi. Federal idoralar yagona tashqi siyosatni amalga oshiradilar.

Federatsiya sharoitida eng muhim masala Federatsiya bilan uning subyektlari o'rtasida kompetensiyalarning taqsimlanishi, bo'linishi hisoblanadi va ularni uchga ajratish mumkin:

1. Federatsiyaning mutloq vakolatlari;
2. Federatsiya va uning subyektlari birgalikda hal etadigan masalalar bo'yicha vakolatlari;

3. Federatsiya subyektining mutloq vakolatlari.

Birinchi masala, ya'ni federatsiyaning mutloq vakolatini tashkil etuvchi masalalarga mudofaa, tashqi ishlar, pul muomalasi, soliqlar, federal organlarni tashkil etish, federatsiya bilan uning subyektlari, subyektlar o'rtasidagi nizolarni hal etish kabi masalalar kiradi.

Birgalikdagi kompetensiyaga kiruvchi masalalarni Federatsiya ham, subyektlar ham hal qilishi mumkin, baribir ustuvorlik Federatsiya tomonida bo'ladi.

Federatsiya subyektining mutloq vakolatlariga kiruvchi masalalar qatoriga mahalliy organlarni tashkil etish, jamoat tartibini saqlash, yo'llar qurish, atrof- muhitni muhofazalash, mahalliy hujjatlar qabul qilish, madaniyat, ta'lim, tibbiyot masalalarini kiritish mumkin.

Konfederatsiya. Xorijiy mamlakatlarning hududiy davlat tuzilishi shakllari ichida xalqaro shartnomalar asosida tashkil topgan tuzilmalar ham mavjud. Bunday davlat-hududiy tuzilmalarni konfederatsiya deb atashadi.

Konfederatsiya bu — ma'lum bir vazifani bajarish uchun birlashgan mustaqil davlatlar ittifoqidir. Konfederatsiya Federatsiyadan farq qilgan holda, u ittifoq davlati emas, balki davlatlar ittifoqi hisoblanadi. Konfederatsiya iqtisodiy, siyosiy, harbiy, bojxona va boshqa maqsadlarda tuzilishi mumkin.

Konfederatsiya o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish va a'zo davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtirish uchun oliy organlar tuzishi mumkin, biroq bu organlar a'zo davlatlarning hukumatlari bilan muloqotda bo'ladi, bevosita aholiga murojaat qilish huquqiga ega emas.

Konfederatsiya federatsiyaga nisbatan uncha mustahkam emas, chunki u odatda biron-bir masalani hal etish ehtiyoji orqali tashkil etiladi. Tarixda ham konfederatsiyalar uncha ko'p bo'lmagan, bo'lganlari ham keyinchalik yoki federatsiyaga aylanishgan, yoki alohida-alohida unitar davlatlarga bo'linib ketishgan.

Undan tashqari jahon amaliyotida **davlatlarning hamkorlik shakllari** ham mavjuddir. Ularga quyidagilar kiradi: hamdo'stlik, hamjamiyat, ittifoqlar, uniyalar, protektorat.

2-§. Ma'muriy-hududiy tuzilish prinsiplari

Har qanday davlat o'z ma'muriy-hududiy tuzilishini hal etishda turli xil omillar, shart-sharoitlarni inobatga olmasdan iloji yo'q. Shuning uchun tashkil etilayotgan har qanday ma'muriy-hududiy birlik ma'lum bir prinsipial ahamiyatga ega

bo'lgan qonuniyatlar, ustuvor ko'rsatkichlar asosida shakllantirilishi kerak. Ushbu ma'muriy-hududiy tuzilish prinsiplari:

- Iqtisodiy prinsip;
- Siyosiy prinsip;
- Milliy- madaniy prinsip;
- Fuqarolarning huquq va erkinliklarini bir xilda ta'minlash;
- Davlat apparatini ommaga yaqinlashtirish.

Iqtisodiy prinsip. Tashkil etilayotgan ma'muriy-hududiy birlikning iqtisodiy potensialini inobatga olish lozim. Bunda tegishli hudud sanoati, qishloq xo'jaligining rivojlanganlik darajasi, shuningdek, mahalliy hudud transportining salohiyati inobatga olinadi.

Siyosiy prinsip. Ma'muriy-hududiy birliklar davlatning siyosiy strategik maqsadlaridan kelib chiqib tuzilishi shart. Har bir ma'muriy-hududiy birlik davlat hokimiyatining vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi va yagona siyosiy hokimiyatni o'rnatish hamda saqlab turish uchun ko'maklashadi.

Milliy - madaniy prinsip. Ma'muriy-hududiy bo'linishda tegishli hudud aholisining milliy va etnik tarkibi, madaniyati, ijtimoiy xususiyatlari inobatga olinadi. Davlat sarhadlarini ma'muriy-hududiy birliklarga ajratib, chegaralarini belgilashda bir millatga mansub aholini har xil ma'muriy-hududiy birlikda qolib ketmasligi ta'minlanib, ularning o'z madaniyati, urf-odat-lari va tilini saqlab qolish uchun sharoit yaratiladi. Bunday tadbirlar O'zbekiston Respublikasida ham milliy qadriyatlarimizning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, madaniy, diniy, tarixiy tomonlarga e'tibor berishni ta'minlaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasi, 2-bandida quyidagi normalar mustahkamlangan: «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi».

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini bir xilda ta'minlash. Ma'muriy-hududiy tuzilishni amalga oshirishda, fuqarolar uchun teng demokratik sharoitlarni ta'minlab berish va ularning ehtiyojlarini qondirish, prinsiplari va omillari ham hisobga olinadi. Mazkur prinsip har bir ma'muriy-hududiy birlikda madaniy- oqartuv, tibbiy, savdo, maishiy xizmat mavjud bo'lishini taqozo etadi⁷⁴.

⁷⁴ Qayumov R. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. —Toshkent: «Adolat», 1998, 241-bet.

Davlat apparatini ommaga yaqinlashtirish. Ushbu prinsipning mazmuni aholi qatlamini davlat boshqaruviga keng jalb etish, davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi aloqani mustahkamlashdan iborat bo'lib, davlat boshqaruvini osonlashtiradi.

3-§. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini hal etish tartibi

Fransiya Respublikasida besh pog'onali ma'muriy-hududiy bo'linish mavjud: region, departament, okrug, kanton, kommunalar. Lekin okrug va kantontlarda mahalliy hokimiyat organlari tashkil etilmaydi.

Har bir mustaqil va suveren davlatlar singari O'zbekiston Respublikasi ham o'z ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishiga oid masalalarni mustaqil hal etadi. O'zbekiston Respublikasi uch pog'onali ma'muriy-hududiy bo'linishga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVI bobida O'zbekis-

ton Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishini tartibga soluvchi normalar mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 68-moddasida «O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat» ekanligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi, toponomik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal qilish tartibi to'g'risida»gi qonuni viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullarni tuzish, tugatish, ularning chegaralarini o'zgartirish, ma'muriy markazlarni ko'chirish hamda aholi punktlarini shahar, shaharchalari turkumiga o'tkazish, ma'muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlariga, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fizik-jo'g'rofiy, geologik va boshqa obyektlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibini belgilaydi. Buning Konstitutsiyaviy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasida «Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek, viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-ning roziligi bilan amalga oshiriladi» deyilgan.

Viloyat — ma'muriy-hududiy birlik sifatida o'rta asrlardan ma'lum. Sharqning ayrim mamlakatlari (Afg'oniston, Turkiya

va boshqalar), shuningdek, O'rta Osiyo xonliklari tarixda viloyatlarga bo'lingan. 1924-yil sho'rolar o'tkazgan milliy davlat chegaralanishi arafasida Turkiston ASSR 6 ta viloyatga: Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Zakaspiy (Turkmaniston), Yettisuv, Amudaryo viloyatlari; Xorazm xalq Sovet Respublikasi (XXSR) 3 ta viloyatga, Buxoro xalq Sovet Respublikasi (BXSR) esa 15 ta viloyatga bo'lingandi. 1925-yil 13-yanvardan *uyezd* deb yuritila boshlandi. Keyinchalik ruscha *oblast* nomi bilan qayta tashkil etildi. O'zbek tili davlat tiliga aylanishi bilan tarixiy ma'muriy-hududiy birlik nomi sifatida *viloyat* so'zi qayta tiklandi⁷⁵.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tizimidagi eng yuqori bo'g'indir va eng yirik bo'linma sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'muriy-hududiy birliklarning qolgan bo'g'inlari – tuman, shahar, shaharcha, qishloq, ovul, viloyatning tarkibiy qismlari, ichki bo'g'inlari bo'lib, shu tariqa u muhim tashkiliy funksiyani bajaradi. Chunki u orqali O'zbekiston Respublikasi davlat vakillik hokimiyat organi va boshqaruv idoralari bilan aloqa bog'lashning butun tizimi amalga oshiriladi. Bunday holat viloyat quyi hokimiyat vakillik va ijroiya organlari faoliyatiga nafaqat rahbarlik qilishni, balki ularni umumdavlat va mahalliy manfaatlardan kelib chiqib birlashtirilishini anglatadi.

Viloyat yirik ma'muriy-hududiy bo'linma sifatida barqaror bo'lmog'i lozim. Uning tuzilishi, mustahkamlanishi, yiriklashuvi yoki bo'linishi iqtisodiy jihatidan asoslantirilishi lozim, bu mazkur ma'muriy-hududiy birlikda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarining kompleks rivojlanishiga olib kelmog'i lozim va bu viloyat barcha tarkibiy bo'g'inlarining mavjud iqtisodiy va madaniy aloqalariga tayanmog'i shart⁷⁶.

O'zbekiston Respublikasi hududining viloyatlarga bo'linishi tarixiy an'analarimizga sodiq qolgan holda tarixiy ma'muriy-hududiy bo'linish holatini qayta tikladik. Mavjud viloyatlarga bo'linish, mamlakatimiz daxlsizligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda viloyatlar soni barqaror saqlanib qolmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi tarkibida 12 ta viloyat mavjuddir. O'zbekiston Respublikasining poytaxti,

⁷⁵ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2-jild. — Toshkent: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2001, 456-457-betlar.

⁷⁶ Tadjixanov U., Odilqoriyev H., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. IIV Akademiyasi. — Toshkent: 2001, 443- bet.

Toshkent shahri Respublikaga bo'ysunuvchi shahar bo'lganligi uchun unga viloyat maqomi berilgan.

«O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi, toponomik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish, masalalarini hal qilish tartibi to'g'risida»gi qonuniga ko'ra viloyatlarni tuzish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Viloyatlar chegaralarini o'zgartirish tegishli viloyatlar (shuningdek, Toshkent shahri) hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Viloyatlarning ma'muriy markazlarini belgilash va ko'chirish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Viloyatlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Tuman — o'rta asrlarda sharqdagi, jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi ma'muriy-hududiy birlik sifatida e'tirof etilib, hozirda ham ko'pchilik davlatlarda mavjud (MDH mamlakatlari). O'zbekiston sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan davrda ularni «rayon» deb atash rasm bo'lgan. Mustaqillikka erishilgandan so'ng ushbu ma'muriy-hududiy birliklarni tarixiy nom bilan ya'ni, «*tuman*» deb atalishi huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga muvofiq tuman ma'muriy-hududiy bo'linish pog'onalaridan bo'lib, o'rtancha bo'g'in hisoblanadi. Tuman davlat yuqori organlarining ko'rsatmalari, qarorlarini hayotga tatbiq etuvchi va bajaruvchi asosiy ma'muriy-hududiy birlik. Tumanlar hududiy joylashishi nuqtai nazariga ko'ra ikki xil: **qishloq tumani** va **shahar tumanlariga** bo'linadi. Qishloq tumanlari ma'lum bir viloyat tarkibiga kiruvchi ma'muriy-hududiy birlik hisoblansa, shahar tumanlari esa yirik shaharlar tarkibida tashkil etiladi (masalan, Toshkent shahridagi *Yunusobod tumani*). Tumanlarni tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi. Tumanlarga tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadigan hamda tuman xalq deputatlari Kengashida tasdiqlanadigan tuman hokimi rahbarlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasida tumanlarni tuzish va tugatish yuqoridagi qonunga ko'ra tegishli viloyat va Toshkent shahri hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

• Qoraqalpog'iston Respublikasida tumanlarni tuzish va tugatish Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 69-moddasi).

Tumanlarning chegaralarini o'zgartirish tegishli viloyatlar, Toshkent shahri hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tumanlarning chegaralarini o'zgartirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Tumanlar ma'muriy markazlarini belgilash va ko'chirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Tumanlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tumanlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shahar deganda ko'pchilik aholining madaniylashgan holda o'zaro zich yashaydigan hududi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasidagi shaharlar uch toifaga ajratiladi:

- Respublikaga bo'ysunuvchi;
- Viloyatga bo'ysunuvchi;
- Tumanlarga bo'ysunuvchi shaharlarga bo'linadi.

Respublika bo'ysunuvidagi shaharlar toifasiga aholisi 500 ming kishidan ortiq iqtisodiy, madaniy, ma'muriy markaz bo'lgan shaharlar kiradi. Bunday shaharlar turkumiga hozircha yagona Toshkent shahri kiradi.

Viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga, qoida tariqasida, kamida o'ttiz ming aholisi bo'lgan, muhim

ma'muriy ahamiyat kasb etadigan, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar deb hisoblangan shaharlar kiritilishi mumkin (masalan, Buxoro va Qo'qon shaharlari).

Shaharlarni viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish, ularni qayta tuzish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi maqomi viloyat maqomiga tenglashtirilgani uchun uning bo'ysunuvidagi shaharlar, viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritiladi. Ularni tashkil etish va qayta tuzish Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Hozir O'zbekiston Respublikasida viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar soni 51 tani tashkil etadi. Viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar qoida tariqasida tumanlar maqomiga tenglashtiriladi.

Tuman itoatidagi shaharlar toifasiga sanoat korxonalari, kommunal xo'jaligi, davlat uy-joy fondi, rivojlangan ijtimoiy-madaniy muassasalarni, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari mavjud bo'lgan hamda aholisi 7 ming kishidan kam bo'lmagan shaharchalar, aholi punktlari kiritiladi. Bunda mazkur shaharchalar, aholi punktlari ma'muriy ahamiyati va rivojlanish istiqbollari e'tiborga olinadi.

«O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi, toponomik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish, masalalarini hal qilish tartibi to'g'risida»gi qonuniga ko'ra shaharchalarni, aholi punktlarini tuman bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish, ularni qayta tuzish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli viloyat, Toshkent shahri hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli tuman, shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida shaharlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tegishli shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalar turkumiga sanoat korxonalari, qurilishlar, temir yo'l stansiyalari va boshqa muhim obyektlar yaqinida joylashgan hamda kamida ikki ming aholisi bo'lgan aholi punktlari kiritilishi mumkin. O'zbekistonda hozirgi kunda 106 ta shaharchalar mavjud.

Aholi punktlarini shaharchalar turkumiga kiritish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tegishli tuman, shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi

Qishloqlar — O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy bo'linishning quyi bo'g'inlaridan biridir. Ushbu ma'muriy-hududiy bo'linishning quyi bo'g'inini qishloq deb nomlash tarixiy qadriyatlarimizni amalda ifodalashning yorqin misolidir. Shahar hududlariga kirmaydigan, ma'lum aholi soniga ega bo'lgan qishloq markazlari va ma'lum sanoat

obyektlari atrofida istiqomat qiluvchi aholining yashash joylari qishloqlar bo'lib hisoblanadi.

Ovullar esa qishloqlarga qaraganda kichikroq hajmdagi yashash va turarjoylardan iborat bo'lgan aholi punktlaridir. Ovullarda ko'p hollarda chorvador oilalar istiqomat qilib, ular asosan ko'chib yuruvchi bir necha cho'ponlar oilalaridan tashkil topadi. O'zbekistonda hozirgi vaqtda 1427 ta qishloq va ovullar mavjud⁷⁷.

Qishloqlar, ovullarni tuzish va tugatish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa Jo'g'org'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qishloqlar va ovullar chegarasini o'zgartirish, aholi punktlarini birlashtirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tegishli tuman, shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

«O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi, toponomik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal qilish tartibi to'g'risida»gi qonuniga ko'ra viloyatlar, tumanlar, shaharlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish vaqtida O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan nomlarni berishga, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga esa Qoraqalpog'iston Respublikasi yoki ushbu viloyatda mavjud bo'lgan nomlarni berishga yo'l qo'yilmaydi.

4-§. O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi maqomi alohida bobda mustahkamlangan (XVII bob). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. IIV Akademiyasi. —Toshkent: «O'zbekiston», 2001, 354-bet.

ning 70-moddasida «**Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasining suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi**» deyiladi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida «**Qoraqalpog'iston — O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren demokratik Respublikadir**» deb mustahkamlangan.

1992-yil 9-yanvarda Qoraqalpog'iston Respublikasi tashkil topdi hamda 1993-yil 9-aprelda o'zining Konstitutsiyasini qabul qildi. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun xalq bayrami sifatida e'lon qilindi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining ahamiyati quyidagilarda o'z aksini topgan:

-- Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kirishi hamda ular o'rtasidagi o'zaro do'stona munosabatlarning huquqiy asosi;

— Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z davlat ramzlariga ega ekanligini belgilaydi;

— Suveren hamda mustaqil davlat ekanligining kafili;

— Davlat va ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini mustaqil hal qilishi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lishligi, uning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo'lmasligi ko'rsatilgan. Shuni ta'kidlash joizki, sobiq Ittifoq davrida Avtonom Respublikalarning Konstitutsiyalari ular qaysi Respublikalar tarkibiga kiritilgan bo'lsa, o'sha davlat hokimiyatining oliy organlari tomonidan tasdiqlanishi shart edi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib bu adolatsizlikka chek qo'ydi. Qoraqalpog'iston suveren Respublikasi bilan mustaqil O'zbekiston Respublikasining bir-butun yaxlitligi mustahkamlangan⁷⁸.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasining 15-bandida «**O'zbekiston Respublikasining Oliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi haqida O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudiga taklif kiritish**» huquqi belgilangan. 81-moddasida esa «**Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisining vakolatlari jumlasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlarini va Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston**

⁷⁸ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi (mualliflar jamoasi). TDYUI. --Toshkent: «Moliya», 2002, 370-bet.

Respublikasi Prezidentining farmonlari va boshqa hujjatlarini hayotga tatbiq etishni tashkil qiladi» deyilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyalari va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston fuqarolari uchun majburiy bo'lgan qonunlar uning tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston hududida ham majburiydir⁷⁹.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishini uning o'zi ko'rib chiqadi, davlat hokimiyati organlari va boshqaruv tizimini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 73-moddasida **«Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari uning rozilgisiz o'zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi»** deyilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlar, shaharlar, shaharchalar, ovullardan iborat. O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatiga mos holda o'z siyosatini yurgizadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi bo'linmas va daxlsizdir.

Qoraqalpog'istonda davlat tili qoraqalpoq va o'zbek tilaridir. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishi ta'minlanadi, davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida javobgar ekanligi qayd etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ramzlariga egadir.

— Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat bayrog'i 1992-yil 14-dekabrda qabul qilingan;

— Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat gerbi 1993-yil 9-aprelda qabul qilingan;

— Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat madhiyasi 1993-yil 14-dekabrda qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 74-moddasi Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun g'oyat muhim siyosiy mazmun kasb etadi. Unda **«Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumida asosida ajralib chiqish huquqiga ega»**ligi mustahkamlangan. Bu Konstitutsiyaviy norma Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasida: **«Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga, ya'ni**

⁷⁹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi (mualliflar jamoasi). TDYUI. — Toshkent: «Moliya», 2002, 370-bet.

referendumga qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi» deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 75-moddasida va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasining 2-bandida ular o'rtasidagi munosabatlar mustahkamlangan bo'lib, unda, jumladan, shunday deyiladi: **«O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida va ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar va bitimlar orqali»** tartibga solinadi. Hozirgi kunda dolzarb bo'lib turgan masalalardan biri — O'zbekiston bilan Qoraqalpog'iston Respublikalari o'rtasidagi turli sohalarida, ayniqsa, iqtisodiy masalalarda o'zaro munosabatlarni keng tarmoqli rivojlantirishga erishishdir.

O'zbek xalqi bilan qoraqalpoq xalqi azaldan do'st, birodar, qon-qarindosh va muruvvatlidir. Ularning ma'naviyat birligi, xo'jalik yuritish usul va shakllarining yakdilligi, har ikki xalq o'rtasida qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamladi va bu holat o'zining Konstitutsiyaviy ifodasini topdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 21-moddasining 3-bandiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi, 68-moddasida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy, hududiy birliklari qatoriga kiritilishi, bu ikki xalqning munosabatlari do'stona rishtalarga asoslanganligini anglatadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida fuqarolarning huquq va erkinliklariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ustuvorligini tan oladi. Bu birinchi navbatda Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasi va qonunlarining tamoyil va moddalari mos kelishi kerakligini anglatadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mos kelishi O'zbekiston va Qoraqalpog'iston o'rtasidagi davlat-huquqiy munosabatlari bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ham amal qilishi majburiydir. Qoraqalpog'iston xalqini millatidan qat'i nazar, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. Qoraqalpog'iston xalqi nomidan faqat u saylagan Oliy hokimiyat organi Jo'qorg'i Kengesi ish olib boradi. Uning

davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish tamoyillariga asoslanadi.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatda saylanadigan 75 nafar deputatdan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyat organlari tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarolari vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar.

Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

-- Qonuniylik, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

-- Hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

-- Mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlarni, yig'implarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;

-- Fuqarolik kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish;

-- Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etishni ta'minlash;

-- Normativ hujjatlarni qabul qilish, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarining vakolat muddati - besh yil, vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishlilikiga qarab, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z Konstitutsiyaviy nazorat organiga ega bo'lib, uni Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi amalga oshiradi. Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan tarkibi saylanadi. Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasiga saylangan sudyalarning vakolat muddati 5 yildir. Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasiga saylangan shaxslar o'z vazifalarini bajarishda daxlsizdirlar va faqat Qoraqalpog'iston Respub-

likasi Konstitutsiyasiga bo'ysunadilar. Uni tashkil etish va ish tartibini belgilash Qoraqalpog'iston Respublikasining «Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi to'g'risida»gi qonuni bilan belgilangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy Sudi, Xo'jalik sudi, shu muddatga tayinlanadigan tuman, shahar sudlaridan iborat. Ular O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonuniga muvofiq o'z faoliyatini olib boradilar. Ushbu qonunda, jumladan, «Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi faoliyat ko'rsatadi» deb belgilangan. Ular faoliyatining tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari jumlasiga kirib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti roziligi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi raisi va a'zolari, shuningdek, tuman, shahar sudlarining sudyalari, lavozimlariga nomzodlarni tavsiya qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi jinoiy, fuqaroviy va ma'muriy sud ishlarini yuritish borasida, sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Tuman, shahar sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazoratni olib boradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Davlat shakllari deganda nimani tushunasiz?
2. Davlatni hududiy jihatdan tashkillashtirishning qanday ko'rinishlari mavjud?
3. Ma'muriy-hududiy tuzilish deganda nimani tushunasiz?
4. Ma'muriy-hududiy tuzilish qanday prinsiplarga asoslanadi?
5. Davlat tuzilishiga qanday omillar ta'sir etadi?
6. Unitar davlat ko'rinishlarini ko'rsating.
7. Avtonomiya nima?
8. Konfederativ davlat belgilarini aytib bering.
9. O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilish shakliga ko'ra qanday davlat?
10. O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv shakliga ko'ra qanday davlat?
11. O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi maqomini so'zlab bering.
12. Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) qachon qabul qilingan?

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT
HOKIMIYATI TASHKIL ETILISHINING
KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI**

VIII BOB

**OLIJ MAJLIS — O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASINING OLIJ VAKILLIK
ORGANI VA QONUN CHIQARUVCHI
HOKIMIYAT**

**1-§. Oliy Majlisning davlat organlari tizimidagi
o'rni va ijtimoiy vazifasi**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining birinchi qo'shma majlisidayoq yurtboshimiz I.A.Karimov «Bizning bosh maqsadimiz sifatida jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etish» nomli ma'ruzasida davlatning keyingi strategik yo'nalishlarini deputatlar va Senatorlar e'tiboriga taqdim etdi. Ma'ruzada qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifalari sifatida belgilandi⁸⁰.

Insoniyat huquqiy tafakkurining mahsuli hisoblangan hamda jamiyatning umummilliy vakillik muassasasi sifatida dunyoga kelgan parlament uzoq yillar davomidagi tarixga ega va uning ildizlari XII-XIII asrlardagi ingliz parlamenti va ispan korteslariga borib taqaladi. Parlament so'zining lug'aviy

⁸⁰ Qarang: Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etishdir. — T: «O'zbekiston», 2005, 37-bet.

ma'nosi fransuz tilidan olingan bo'lib, «gapirmoq» ma'nosini anglatadi. Parlamentarizm katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi va uning chinakam tarixi burjua inqiloblari davridan boshlanadi.

Endilikda aksariyat mamlakatlarning parlament institutiga ega ekanligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Hozir yer kurrasidagi 200 ga yaqin davlatning qariyb 177 tasida oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi — parlamentlar bor.

Hozirgi zamon parlamentlari o'zlarining tuzilishi, vakolatlarining hajmi, ijtimoiy tarkibi, o'z mamlakatlari siyosiy tizimida tutgan o'rni, saylanish tartibi mavqei bilan bir-birlaridan ajralib turadilar. Ular hatto nomlanishi, deputatlarining soni bilan ham farq qiladilar, masalan: AQSHda 535 deputatdan iborat Kongress, Xitoy Xalq Respublikasidagi Umumxitoy Xalq vakillari majlisida 2979 a'zo, Rossiyada 626 deputatdan iborat Federal Majlis, Misrda 454 deputatli Xalq Assambleyasi, Isroilda 120 a'zodan iborat Knesset, Islandiyada 63 a'zodan iborat Altningni misol qilib ko'rsatish mumkin. Jahon parlamentlarining ko'pchiligi bir palatali tuzilishga ega. Yer kurrasidagi 65 ta davlatda esa, ikki palatali oliy vakillik organlari mavjud. Odatda, ikki palatali parlamentning palatalaridan biri ko'pincha «quyi palata» deb yuritilib, u xalqning yagona irodasini ifodalaydi (AQShda Vakillar palatasi, Fransiya Millat Majlisi), boshqasi esa «yuqori palata» deb atalib, u davlatning tarkibiy qism (hudud)larining manfaatlarini ifodalaydi. Parlamentlarning bunday tuzilishi muqim demokra-tik an'analar hamda federativ davlat tuzilishiga ega bo'lgan mamlakatlarga xosdir. Masalan, shu kabi parlamentlar AQSh, GFR, Braziliya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va boshqalarda faoliyat yurgizmoqdalar.

Jamiyat manfaatlarining ifodachisi bo'lmish parlamentlar aholining turli ijtimoiy qatlamlari guruhlarining vakillaridan tashkil topadi. Ko'rinib turibdiki, dunyodagi parlamentlar rang-barang, ammo ular o'z mamlakatlarida muhim ijtimoiy vazifa — qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 10-moddasida davlat hokimiyatining birdan-bir manbai — xalq nomidan faqat u saylagan Respublika Prezidenti va Oliy Majlisi ish olib borishi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida aytilganidek, davlat hokimiyatining tizimi — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga

asoslanadi. Unga ko'ra, davlat funksiyalari qonun chiqaruvchi organ — Oliy Majlis, davlat va ijroiya hokimiyati rahbari— O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va sud hokimiyati o'rtasida taqsimlanadi. O'zbekiston Oliy Majlisi esa davlatning boshqa idoralari bilan hamkorlik qilish bilan birga qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Hokimiyatlar taqsimlanishi nazariyasida qonun chiqaruvchi hokimiyat alohida o'rin tutadi. Konstitutsiyamizda kuchli qonun chiqaruvchi hokimiyatni tashkil etishga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palata — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati — besh yil.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning X sessiyasi (2002-yil, 12-dekabr) «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunlarning qabul qilinishi bilan ikki palatali parlament shakllantirishning asosiy huquqiy asoslarini yaratish jarayoni muhim ahamiyat kasb etdi.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunga binoan «Qonunchilik palatasi» O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasidir. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi»⁸¹.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylash huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanishi tufayli qonun chiqaruvchi hokimiyat katta vakolatlarga ega. Xalq hokimiyatni ayni saylov asosida o'z vakillariga topshiradi va vakolatli organlarni davlat hokimiyatini amalga

⁸¹ O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonuni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2002-yil, 27-dekabr.

oshirishga vakil qiladi. Bu vakolatli organlar davlat hokimiyati mexanizmda birlamchi ekanligi, ularning ustuvorligi hamda ustunligi to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi.

2-§. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatini shakllantirish tartibi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatini shakllantirish tartibi 2003-yil 29- avgustda yangi tahrirda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonun bilan tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolari (senatorlar)dan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — olti kishidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan, alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Konstitutsiya parlament deputatlarining hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyalilik asosida saylanishini muhim Konstitutsiyaviy prinsip sifatida mustahkamlaydi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovini o'tkazuvchi saylov okruglari O'zbekistonning butun hududida saylovchilar soniga qarab teng holda tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas, deb ko'rsatilgan.

«O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisga saylov to'g'risida»gi qonunining 25-moddasida:

— Sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar;

— Saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan fuqarolar;

— O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari;

— Diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar, deyilgan.

Hozirda amalda bo'lgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylanish huquqiga 25 yoshga to'lgan fuqarolar ega bo'lishi mumkin. Yoshning bunday belgilanishi shu bilan izohlanadiki, deputat ozmi-ko'pmi ma'lum hayot tajribasiga ega bo'lishi, o'zini davlat va jamoat faoliyatida ko'rsata olishi lozim. Bu masala bir qancha xorijiy mamlakatlarning Konstitutsiyalari va qonunchiligida ham deyarlik shunday hal etilgan. AQSH Konstitutsiyasida 25 yoshga to'lmagan shaxs Kongressning Vakillar palatasining a'zosi bo'lishi mumkin emas. Yaponiya parlamentining vakillar palatasiga 25 yoshga to'lgan, maslahatchilar palatasiga esa 30 yoshga to'lgan fuqarolar passiv saylov huquqidan foydalana olishlari mumkin. Shuni ham aytish joizki, jahon tajribasida passiv saylov huquqining bundan ham yuqori senzlari ma'lum.

2004-yilning 26-dekabrida mamlakatimizda ilk bor O'zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamenti – Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylovlar bo'lib o'tdi. Mazkur saylovlarda beshta siyosiy partiya va tashabbuskor guruhlar o'zlarining deputatlikka qo'ygan nomzodlari uchun kurash olib boradilar.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar hamda saylovchilarning mustaqil tashabbuskor guruhlar taqdim etgan nomzodlarni Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olish yakunlari bilan bog'liq ma'lumotlarni (jadvallarda) berib o'tishni joiz deb bildik⁸².

⁸² Ushbu ma'lumotlar Markaziy Saylov Komissiyasining www.elections.uz rasmiy saytidan olingan.

Deputatlikka nomzodlarning partiyaga mansubligi

№	Siyosiy partiyalar va saylovchilarning mustaqil tashabbuskor guruhlar	Ro'yxatga olingan deputatlikka nomzodlarning soni	Umumiy dep. nomzodlar soniga foizlardagi nisbati
1.	O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasi	118	22,8
2.	O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi	74	14,3
3.	O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi	61	11,8
4.	O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi	89	17,2
5.	O'zbekiston Liberal-Demokratik partiyasi	119	23
6.	Saylovchilarning mustaqil tashabbuskor guruhlar	56	10,8
	Jami	517	100

Yuqoridan ko'rinib turibdiki, siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan nomzodlar barcha deputatlikka nomzodlarning 89,2 % ini tashkil qiladi.

2004-yil 26-dekabr va 2005-yil 9-yanvarda takroriy ovoz berish natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining barcha 120 deputati saylandi va ro'yxatga olindi. Saylovda 489 deputatlikka nomzod, shu jumladan, siyosiy partiyalardan 435 va saylovchilarning tashabbuskor guruhlardan mustaqil nomzodlar 56 kishi ishtirok etdi. 2004-yil 26-dekabrdagi asosiy saylovda 12197159 (85,1%) saylovchi, joriy yil 9-yanvarida esa 5400000 dan ortiq kishi yoki takroriy ovoz berishda ishtirok etish huquqiga ega saylovchilarning qariyb 80% i ishtirok etdi.

Qonunchilik palatasiga nomzodi qo'yilgan xotin-qizlardan 159 nafari kuchli intiluvchanlik va yuksak professionalizmni namoyish etdi, siyosiy yetuklik, aql-zakovatda raqiblaridan qolishmadi. Natijada qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning qariyb 18 % ni xotin-qizlar tashkil etdi, bu esa 1999-yilda Oliy Majlisga bo'lgan saylovlardagidan ikki yarim baravar ko'pdir.

Tashabbuskor guruhlardan ko'rsatilgan 56 nomzoddan 14 kishi deputatlikka saylandi, qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar orasidan ular 11,6% ni tashkil etdi.

Saylangan deputatlar orasida 18,3% i yuristlar, 21,7% i iqtisodchilar, 10% i sanoat, qurilish, transport va aloqa sohasi vakillari, 7,5% i qishloq xo'jaligi vakillari, 12,5% i tadbirkorlar, 20% i ta'lim, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash xodimlari, 16% i nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari.

«Bu o'zgarishlar, eng avvalo, Qonunchilik palatasining doimiy, professional asosida ish olib borishidir. Bu palataga a'zo bo'lish uchun asosiy da'vogarlar sifatida siyosiy partiyalar va saylovchilarning tashabbus guruhlarini maydonga chiqadi», — deb ko'rsatadi I.A. Karimov.

Bu palataga saylangan deputat siyosiy jarayonda faol ishtirok etib, professional nuqtai nazardan mana shu qonun chiqaruvchilik, qonun yaratuvchilik va qonun ijod qilish ishiga mukammal yetarli tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslar bo'lishi lozim.

Yuqori Senatorlar palatasi esa territorial subyektlar — Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning har biridan 6 tadan hamda Prezidentning o'zi tomonidan tayinlanadigan o'n olti nafar el-yurt obro'-e'tiborini qozongan, ko'zga ko'ringan kishilardan tarkib topadi.

«Senat quyi palata bilan birgalikda bevosita qonun yaratish ishi bilan shug'ullanmasligi lozim», balki unga saylangan har bir Senator Qonunchilik palatasi ishlab chiqqan va taqdim etgan qonunlarni ma'qullash yoki rad qilish orqali ham o'z mintaqasi hamda butun mamlakatimiz — O'zbekiston taraqqiyoti manfaatlarini hisobga olgan holda qonunlarni yaratishda ishtirok etadi.

O'zbekiston Parlamentidagi Qonunchilik palatasi va Senat o'rtasidagi oqilona muvozanat ana shunday Konstitutsiyaviy-huquqiy nazariyaga hamda huquq amaliyoti asosiga tayanadi. Bu esa bozor iqtisodiyotiga o'tish, erkinlashtirilgan «Ochiq demokratik jamiyat» qurishning birinchi Konstitutsiyaviy-huquqiy asosi va kafolati bo'lib xizmat qiladi.

3-§. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining vakolatlari

Xalqaro tajribadan parlament qonunchilik, moliya, tashqi siyosat, ijro, ma'muriy (ba'zi ijro organlari mansabdor shaxslarni tayinlash, ijro organlari ustidan nazorat va hk.), sud (ba'zi sudyalarni saylash va hk.), Konstitutsiyani qabul qilish va unga o'zgartishlar kiritish vakolatlariga egaligi ayon bo'ladi⁸³.

⁸³ Qarang: Дюверже М. Политическое право. — М.: 1957, 207-ст.

Konstitutsiya va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunda Qonunchilik palatasining vakolatlari ikki turga ajratiladi. Bular O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi hamda Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlaridir.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining X sessiyasida (2002-yil 12-dekabr) «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunlarning qabul qilinishi bilan ikki palatali parlament shakllantirishning huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida Qonunchilik palatasining Senat bilan birgalikdagi vakolatlari quyidagicha belgilandi:

1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

2) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

3) O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

4) O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

5) O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;

6) O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;

7) Boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;

8) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;

9) Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;

10) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish;

11) Tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish;

12) Davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish;

13) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

14) O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

15) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash;

16) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash;

17) O'zbekiston Respublikasi hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;

18) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash;

19) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

20) Xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;

21) Ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatida ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunning 9-moddasiga binoan Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlariga:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

3) O'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

4) Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

Qonunchilik palatasining mutlaq va Senat bilan birgalikdagi vakolatlarini amalga oshirish tartibi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida»gi qonunlarining alohida normalarida mustahkamlangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida»gi qonunning 18-moddasida, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatning Reglamenti to'g'risida»gi qonunning 14-moddasiga ko'ra tartibga solinadi.

Qonunchilik palatasi «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasini tegishli taklif kiritilganidan keyin olti oy ichida uning keng muhokamasini inobatga olgan holda ko'rib chiqishi mumkin.

Agar Qonunchilik palatasi «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasini qabul qilmasa, uni ko'rib chiqish bir yildan keyin qayta boshlanishi mumkin», deb belgilangan. Xuddi shu tartibda Asosiy qonunning 78-moddasidagi keyingi bandlarining amaldagi ifodasi Oliy Majlis palatalarining Reglamenti to'g'risidagi qonunlarida mustahkamlangan.

Qonunchilik palatasi majlisida mas'ul qo'mita vakilining axboroti eshitaladi va muhokama natijalari yuzasidan deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasi qarori qabul qilinadi.

Spiker va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini Qonunchilik palatasining mutlaq o'zi saylashi uning mustaqil hokimiyat organi sifatidagi faoliyatining kafolatlaridan biridir. O'zbekistonda Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini saylashning o'ziga xos tartibi ishlab chiqildi. Markaziy saylov komissiyasi raisi boshchiligida saylangan deputatlardan shakllantiriladigan oqsoqollar kengashi palata Spikeri va uning o'rinbosarlarining saylovini obyektiv o'tkazilishini ta'minlaydi.

«Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy

Qonunda yuqori palataning asosiy vazifasi Senatning hududiy vakillik palatasi sifatida ta'riflanishi orqali ifodalangan.

Barqarorlik va nazorat omili sifatida konservativ element muayyan normalarda o'z ifodasini topdi. Birinchidan, Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan va alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanishi normada aks etdi. Ikkinchidan, qonunni qabul qilish tartibida aks etgan bo'lib, unga ko'ra, Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunni Senat ko'rib chiqadi hamda uni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Senat tomonidan rad etilgan va Qonunchilik palatasiga qaytarilgan qonun, agar quyi palata deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan shu qonunni yana ma'qullasa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, konservativ elementning demokratikligi yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni kelishuv komissiyalarini tuzish orqali bartaraf etish tartibida aks etgan.

Senatning mutlaq vakolatlari jumlasiga, birinchidan, Senatning ichki ishini tashkil etish (masalan, Rais, uning o'rinbosarlari, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash; palata faoliyatini tashkil etish va ichki tartib-qoidalari), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudini saylaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimlaridan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Senat O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi.

Shuningdek, Senat vakolatiga O'zbekiston Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etishni kiritish mumkin. Shu bilan birga

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish Senatga berilgan yangi parlament vakolati hisoblanadi.

Palatalarning birgalikdagi tasarrufiga kiritilgan vakolatlar, aslini olganda, parlamentning qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi yagona oliy davlat vakillik organi sifatidagi asosiy vazifasini aks ettiradi. Bular ikkala palataning tegishli tartib-taomillar asosida o'zaro muvofiqlashtirilib kelishilgan qarori talab qilinadigan masalalardir. Mazkur tartib-taomillar (palatalarni shakllantirishning turli usullari bilan bir qatorda) ikki palatali tizimga nisbatan uyushtiruvchi elementlar hisoblanadi va bu tizim ularsiz o'zining bajaradigan mazmunini yo'qotadi. Mazkur tartib-taomillar yordamida birgalikda quyidagi masalalar hal etilib, ularni to'rt guruhga bo'lish mumkin:

- 1) Qonunchilikka oid;
- 2) Vakillikka oid;
- 3) Nazoratga oid;
- 4) Ma'muriy-hududiy tuzilishga oid.

Birinchi guruhni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish; O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish; xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish tashkil etadi.

Ikkinchi guruhni vakillik vazifalari bilan bog'liq va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahamiyatga molik vakolatlar tashkil etadi.

Shuningdek, ushbu vazifalar O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash; boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish; davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish; O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish hamdir.

Vakolatlarning uchinchi guruhi parlamentning vakillik vazifalari jumlasiga kiritilishi va Prezidentning siyosiy qarorlari qabul qilinishida ishtirokchi sifatida ta'riflanishi mumkin. Mazkur vakolatlar jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari

va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlashni kiritish kerak bo'ladi.

Nihoyat, vakolatlarning to'rtinchi guruhi, bular: O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish; tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirishdir.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar asosan avval O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatida ko'rib chiqilishi kerak. Muvofiq ravishda yuqori palataning faoliyati pirovard natijada qonunchilik hokimiyatining rolini kuchaytirishga va aholining siyosiy faolligini oshirishga ko'maklashmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, «Bugungi kunda hokimiyat tuzilmalarini tashkil etish va muvozanatni saqlashning yangi, yanada mukammal demokratik tizimini shakllantirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar, Konstitutsiyamizga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar jamiyat siyosiy hayotini faollashtirish, fuqarolarimizda ijtimoiy va siyosiy jihatdan o'zligini anglash tuyg'usining kuchayishi uchun jiddiy omil bo'lmog'i kerak»⁸⁴.

⁸⁴ Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l — demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. — T.: «O'zbekiston», 2003, 224-bet.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o'tkazadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Konstitutsiya va Konstitutsiyaviy qonunlarda palatalar vakolatlari, shakllantirilishi va faoliyatining eng muhim prinsiplari, normalari to'la-to'kis mustahkamlab qo'yilgan.

4-§. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati faoliyatining tashkiliy huquqiy masalalari

Darhaqiqat, qonun chiqaruvchi organ davlat mexanizmida asosiy o'rin tutishi isbot talab qilmaydigan hol. Buning sababi shundaki, u ijro etuvchi hokimiyat amalga oshirishi lozim bo'lgan va sud hokimiyatining faoliyati uchun qonunchilik asosi bo'lib xizmat qiladigan umummajburiy talablarni o'rnatadi. Shuningdek, Oliy Majlis nazorat-tahlil, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha faoliyat olib boradi⁸⁵.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish Qonunchilik palatasi ishini to'g'ri tashkil etish masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Qonunchilik palatasi vakolatlarining samarali bajarilishi ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etishni taqozo etadi.

Qonunchilik palatasi ishini tashkil qilishning muhim jihatlardan biri – bu deputatlar o'rtasida vazifalarning to'g'ri

⁸⁵ Bu haqda batafsilroq qarang: Халилов Е.Х. Парламент Узбекистана на современном этапе развития страны. // Право. №1. 1998, 8-11-ст.

taqsimlanishidir. Bunday taqsimotning asosiy maqsadi har bir deputatlar vazifalarining aniq-tiniq bo'lishiga erishishdir.

Odatga ko'ra, boshqa davlatlarda ham vazifalar quyi palata tarkibidagi rahbar shaxslar va devon xodimlari borligini nazarda tutgan holda taqsimlanadi. Palataning yuqoridagi tarkibi chet davlatlar tajribasiga xos bo'lib, uning ishini unumli tashkil etishda raisning roli, ayniqsa, muhim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri:

— Qonunchilik palatasi va uning Kengashi majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

— Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

— Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunlarni ma'qullash uchun Senatga yuboradi;

— Qonunchilik palatasi qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

— O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

— Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

— Parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq Qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

— Qonunchilik palatasi matbuot organlarining ustavlarini va tahrir hay'atlari tarkibini hamda ularning ishlashi uchun zarur xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi;

— Kengash bilan kelishilgan holda Qonunchilik palatasi matbuot organlarining bosh muharrirlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi;

— Qonunchilik palatasi matbuot organlarining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi;

— Senat, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Qonunchilik palatasi nomidan ish ko'radi;

— Qonunchilik palatasi va uning Kengashi qarorlarini imzolaydi;

— Qonunchilik palatasi devoni faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, deputatlar va Qonunchilik palatasi devoni ishlashi uchun zarur xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi va hk.

Qonunchilik palatasi Spikeri o'zining vakolatiga taalluqli masalalarni Kengash muhokamasiga kiritishga haqli. Qonun-

chilik palatasi Spikeri vakolatlarining kengligi uning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni to'g'ri taqsimlashni taqozo qiladi.

Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari Qonunchilik palatasi Spikerining topshirig'iga binoan uning ayrim vazifalarini bajaradi va Qonunchilik palatasi Spikeri yo'qligida yoki o'z vazifalarini amalga oshirishi mumkin bo'lmagan hollarda uning vazifasini bajarib turadi, degan qoida mustahkamlangan. Umuman, qonunchilik palatasi, uning organlari va deputatlarining vazifalarni bajarish Qonunchilik palatasi devoni xodimlari tomonidan qator tadbirlarni amalga oshirishini taqozo qiladi.

Qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etishda uning devonining o'rni kattadir. Chunki Qonunchilik palatasi, uning organlari va deputatlar faoliyatining tashkiliy, axborot, moddiy-texnika ta'minotini Qonunchilik palatasi devoni amalga oshiradi. Qonunchilik palatasining devoni palata rahbariyati huzuridagi kotibiyatni, qo'mitalar bilan ishlash, yuridik, nazorat-axborot xalqaro aloqalar, matbuot va tarjimalar, umumiy bo'lim va buxgalteriyani o'z ichiga oladi⁸⁶.

Devonning bunday tuzilishi va ularning bajaradigan vazifalari palataning ishini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Lekin rivojlangan davlatlar parlamentlari devonlari faoliyatining tahlili mazkur nizomga ayrim o'zgartishlar kiritish lozimligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi faoliyatining asosiy shakli – bu uning majlislari. Uni o'tkazishning o'zi Qonunchilik palatasining faoliyati masalalarni birgalikda muhokama qilish, to'g'ri o'tkazish esa erkin muhokama, oshkoralik va jamoatchilik fikrini hisobga olish prinsiplarini amalda ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o'tkaziladi. Sessiyalar qoida tariqasida, sentabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi.

⁸⁶ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Devoni to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 2005-yil 7-apreldagi 73-sonli Farmoyishi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputat va Senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislarida, shuningdek, ularning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, Respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi raislari, Bosh prokurori, Markaziy bank boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Shuning uchun deputatlarni majlislarda muntazam va samarali ishtirokini ta'milash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, Qonunchilik palatasi kollegial organ bo'lib, uning vakolatlariga doir masalalar, albatta, deputatlarning birgalikdagi muhokamasi uning faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi majlislaridagi masalalar bo'yicha ovoz berish shakl va uslublarini belgilash katta ahamiyatga ega. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida»gi qonunning II-moddasiga ko'ra Qonunchilik palatasining qarorlari uning majlislarida ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali qabul qilinadi. Ochiq ovoz berish nomma-nom, ovozlarni hisoblashning elektron tizimidan foydalangan holda yoki yashirin ovoz berish bulletinlaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Qoida tariqasida, Qonunchilik palatasi majlisida ovozlarni hisoblashning elektron tizimidan foydalanilishi ustidan nazoratni Qonunchilik palatasi deputatlaridan bo'lgan guruh amalga oshiradi. Bu guruh ovozlarni to'g'ri tashkil etish uchun javob beradi. Agarda deputatlarda elektron tizimning to'g'ri ishlashi haqida shubha paydo bo'lsa, ular bulletinlardan foydalangan holda ovoz berishni tanlashlari mumkin.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi qonunning 17-moddasiga ko'ra Qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda palata tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan rais, uning o'rinbosari va a'zolaridan iborat tarkibda qo'mitalar saylanadi.

Milliy qonunchiligimizda bu vazifalarni amalga oshirish uchun qo'mitalar tashkil qilinsa, bir qancha xorijiy mamlakatlarda (Yaponiya, Fransiya, Italiya)da bu vazifalar komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi⁸⁷.

Qo'mita raisi, uning o'rinbosari va qo'mita a'zolari lavozimlari deputatlarning qaysi partiya yoki guruhga mansubligi hamda saylovda saylovchilarning qancha ovozi olganligini inobatga olgan holda yaxlit (umumiy) qaror bilan belgilanadi.

«O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida»gi qonuni 7-moddasining uchinchi qismiga ko'ra Qonunchilik palatasida reglament; budjet, bank va moliya masalalari; iqtisodiy masalalar va tadbirkorlik; qonunchilik va sud-huquq masalalari; mehnat va ijtimoiy masalalar; mudofaa va xavfsizlik masalalari; xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitalari tuzilishi shart. Qonunchilik palatasida boshqa qo'mitalar ham tuzilishi mumkinligi ko'rsatilib, ularning umumiy soni, qoida tariqasida, o'ntadan oshmasligi kerakligi mustahkamlangan.

Mazkur qoidaga asosan Qonunchilik palatasida budjet va iqtisodiy islohotlar, qonunchilik va sud-huquq masalalari, mehnat va ijtimoiy masalalar, mudofaa va xavfsizlik masalalari, xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar, sanoat, qurilish va savdo masalalari, agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya, fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari, demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari qo'mitalari tuzilgan⁸⁸.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi normativ-huquqiy atamalar komissiyasini tuzgan. Qonunchilik palatasi muayyan

⁸⁷ Конституции зарубежных государств. Учебное пособие. — Москва: «Бек», стр. 50-55, 60-61.

⁸⁸ «O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining qo'mitalari to'g'risida»gi 2005-yil 27-yanvardagi 14-I-sonli qarori.

vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzishi mumkinligi mustahkamlangan.

Qonunchilik palatasi deputatlari siyosiy, professional va boshqa asosda fraksiyalar va deputatlar guruhlar shaklida deputatlar birlashmalarini tuzishi mumkin.

Demak, mamlakatimiz parlamenti faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlariga muvofiq, deputatlar birlashmalarining ikki shakli — fraksiyalar va deputatlar guruhlar mavjud.

Fraksiya siyosiy partiyadan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir. Deputatlar guruhlarini Qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan, siyosiy partiyadan ko'rsatilmagan deputatlar tuzishi mumkin.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida»gi qonunning 9-moddasiga muvofiq, Qonunchilik palatasining kamida 9 nafar deputati fraksiya yoki deputatlar guruhini tuzish huquqiga ega. Qonunchilik palatasining deputati faqat bir fraksiya yoki deputatlar guruhining a'zosi bo'lishi mumkin. Lekin bundan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining har biri fraksiya yoki deputatlar guruhi a'zosi bo'lishi kerak, deb xulosa qilish kerak emas. Binobarin, saylangan deputat hech bir fraksiya yoxud deputatlar guruhiga kirmaslikka ham haqli.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi qonunning 24-moddasiga binoan Qonunchilik palatasida bugungi kunga qadar beshta siyosiy partiya fraksiyalari tuzildi. Bular O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 40 kishidan iborat⁸⁹, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi 27 kishidan iborat⁹⁰, «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasi 18 kishidan iborat⁹¹, «Milliy tiklanish» partiyasi 11 kishidan

⁸⁹ «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan saylangan deputatlar fraksiyasini ro'yxatga olish to'g'risida»gi 2005-yil 27-yanvardagi 9-I-sonli qarori.

⁹⁰ «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga O'zbekiston Xalq-demokratik partiyasidan saylangan deputatlar fraksiyasini ro'yxatga olish to'g'risida»gi 2005-yil 27-yanvardagi 10-I-sonli qarori.

⁹¹ «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasidan saylangan deputatlar fraksiyasini ro'yxatga olish to'g'risida»gi 2005-yil 27-yanvardagi 11-I-sonli qarori.

iborat⁹², «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi 10 kishidan iborat⁹³ fraksiyalaridir.

Qonunchiligimizning e'tiborga loyiq jihatlaridan yana biri shuki, Qonunchilik palatasidagi deputatlar guruhlarining vakolatlari doirasi siyosiy partiyalar fraksiyailari vakolatlari doirasiga tenglashtirildi. Ayni chog'da, ularning fraksiyalar bilan bir qatorda va ular bilan teng ravishda ish yurita olishining huquqiy asoslari mustahkamlandi.

Senat faoliyatini tartibga soluvchi hujjat «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonunidir.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida»gi qonunda Senat tomonidan o'z faoliyatini tashkil etish hamda palataning ichki tartib-qoidolari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish uchun asos hisoblanadi. Senat faoliyatini tashkil etish prinsiplari va tashkiliy shakli, Rais va uning o'rinbosarlarini saylash va muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish tartibi, Senat Kengashi, uning qo'mitalari va komissiyalarini tuzish to'g'risidagi qoidalar aks ettirilgan. Qonunda Senat majlisida masalalar, qonunlar va palata qarorlarini ko'rib chiqish tartibi belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish, mansabdor shaxslarni o'z vakolatlariga muvofiq tayinlash (saylash); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini tasdiqlash to'g'risidagi hamda Konstitutsiya bilan palataning birgalikdagi va mutlaq vakolatiga kiritilgan boshqa masalalarni ko'rib chiqish tartibi belgilangan. Qonunda shu bilan birga Senat tomonidan nazorat qilish sohasidagi vakolatlar, xalqaro aloqalarni amalga oshirish tartibi va xarajatlar smetasining tasdiqlanishi tartibga solingan.

Senatga doir huquqiy manbalar tizimida O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi

⁹² «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga «Milliy tiklanish» partiyasidan saylangan deputatlar fraksiyasini ro'yxatga olish to'g'risida»gi 2005-yil 27-yanvardagi 12-I-sonli qarori.

⁹³ «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan saylangan deputatlar fraksiyasini ro'yxatga olish to'g'risida»gi 2005-yil 27-yanvardagi 13-I-sonli qarori.

Qonuni alohida o'rin tutadi. Birinchi bo'limda Qonunchilik palatasiga o'tkaziladigan saylov tartibga solinadi. Ikkinchi bo'limda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini shakllantirish tartibi belgilangan.

Mazkur bo'limda Senatni shakllantirishning umumiy Konstitutsiyaviy ta'rifi berilgan. Quyidagi, ya'ni: saylov o'tkazish muddatlari; Senat a'zolariga saylanadigan nomzodlarga qo'yiladigan talablar; saylovni tashkil etishning umumiy tartibi kabi normalar belgilangan. Saylov yakunlari xususida yakunlarni chiqarish, ular ustidan shikoyat berish va Senatni shakllantirish yakunlarini e'lon qilish tartibi belgilangan. Takroriy saylov o'tkazish zaruriyati yuzaga keladigan shart-sharoitlar va uni o'tkazish tartibi aniqlangan. Bo'shab qolgan o'rinlarga Senat a'zolarining saylovini o'tkazish tartibi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining qo'shma majlislarida Senat a'zolarini saylash tartibi to'g'risidagi nizom Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ishlab chiqiladi.

Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Referendum yakunlari va davlat jamiyati tashkil etishning asosiy prinsiplari», «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunlar hamda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida»gi Qonunlar Senatni huquqiy jihatdan tartibga solib turuvchi manbalardir.

Senatning tarkibiy-funksional tizimi asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida aks ettirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuniga asosan tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 86-moddasi Senat Raisi va uning o'rinbosarlari misolida palata rahbariyatini shakllantirish tartibini,

Raisning vakolatlarini belgilab beradi. 87-modda esa Senatning muhokamaga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o'z vakolatlari muddatiga senatorlar orasidan qo'mitalarni saylashi (shakllantirish)ni tartibga soladi. Senat zarur hollarda muayyan vazifalarni bajarish uchun senatorlar orasidan komissiyalar ham tuzishi mumkin.

Senatning Konstitutsiya va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni bilan belgilangan asosiy tuzilmasi o'z tarkibida Senat Raisi, uning o'rinbosarlari, Kengash, qo'mita va komissiyalarni qamrab oladi.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga binoan Senatning O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Raisi ochadigan va Senat Raisi saylangunga qadar unga raislik qiladigan birinchi majlisida muvaqqat kotibiyat va sanoq komissiyasi saylanadi. Keyin elektron tizimdan foydalanish ustidan muvaqqat nazorat qilish guruhi saylanadi va Senat Raisi hamda uning o'rinbosarlarini saylash marosimiga kirishiladi.

Senat Raisligiga va uning o'rinbosarligiga nomzodlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan senatorlar orasidan ko'rsatiladi.

Nomzod yashirin ovoz berish natijasida senatorlar umumiy sonining yarmidan ko'p ovozini olgan bo'lsa, Senat Raisi yoki uning o'rinbosari etib saylangan hisoblanadi. Senat Raisining o'rinbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasi vakili bo'lishi lozim.

Senat Raisi o'z lavozimidan yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan, uning o'rinbosarlari esa yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan qaroriga binoan muddatidan oldin ozod etilishi mumkin. Senat Raisi yoki uning o'rinbosarlarini lavozimidan muddatidan oldin ozod etish to'g'risidagi masala O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga yoki senatorlar umumiy sonining kamida uchdan bir qismining taklifiga binoan Senat tomonidan ko'rib chiqiladi. Konstitutsiyaning 86-moddasi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'ri-

sida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni-ning 14-moddasiga binoan Senat Raisiga Senat ishini tashkil etishda asosiy mas'uliyat yuklatilganligi uchun ham ushbu mexanizmda Senat Raisining roli muhim bo'lishi lozim. Rais sifatida u Senat va uning Kengashi majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi; Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi; Senat ma'qullagan qonunlarni imzolash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboradi; Senat qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi; Senat Raisining o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi; parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq Senat guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi; Qonunchilik palatasi boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Senat nomidan ish ko'radi; Senat va uning Kengashi qarorlarini imzolaydi.

Senat faoliyatini samarali tashkil etish, qo'mitalar ishini muvofiqlashtirib borish, kun tartibi yuzasidan takliflar tayyorlash, qonunlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqishni tashkil etish maqsadida Senat Kengashi tuziladi.

Senat Kengashining tarkibiga Senat Raisi, uning o'rinbosarlari va Senat qo'mitalarining raislari kiradi.

Senat Kengashiga Senat Raisi rahbarlik qiladi, u Kengashning majlislarini olib boradi va uning qarorlarini imzolaydi.

Kengashning qator aniq funksiyalari «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida ham nazarda tutilgan. Ulardan biri, masalan, palata majlisining kun tartibi loyihasini tayyorlashdan iboratdir.

Senat majlisining kun tartibi loyihasi Senat majlisida ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan masalalar va ularning ko'rib chiqilishi navbati har bir masalani ko'rib chiqishga tayyorlash uchun mas'ul bo'lgan palata qo'mitalari, ma'ruzachi, shuningdek, boshqa ma'lumotlar ko'rsatilgan holda Senat Kengashi tomonidan shakllantiriladi. Senat Majlisining kun tartibi palataning qarori bilan tasdiqlanadi.

Konstitutsiya, qonunlar va qarorlarning ko'rib chiqilishi tartibiga binoan mas'ul qo'mitaning xulosasi Senat Kengashiga taqdim etilib, Kengash Qonunni Senat majlisining kun tartibi loyihasiga kiritish-kiritmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

Shuningdek, Senat majlislarining oraliq'ida uning Kengashi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining senatorni jinoiy javobgarlikka tortish, ushlab turish, qamoqqa olish yoki unga nisbatan sud tartibida qo'llaniladigan ma'muriy jazo choralarini qo'llashga rozilik olish to'g'risidagi taqdimnomalari ham ko'rib chiqiladi.

Xulosa qilib ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini tuzish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tizimidagi palataning maqsad va vazifalari bilan chambarchas bog'liq holda olib boriladi. O'z faoliyatini tashkil etish va ichki tartib-qoidalariga bog'liq masalalar yuzasidan yuqori palata mutlaq vakolatlarga ega ekanligi, shuningdek, ularning reglament shaklida tasdiqlanish munosabati bilan ushbu tuzilma nihoyatda ixcham tarkib topadi. Shuning uchun uning Senat Raisi, Rais o'rinbosarlari, Kengash, qo'mitalar va komissiyalardan iborat asosiy tuzilmasi Senat ishi davomida yuzaga kelgan ehtiyojlarga bog'liq holda qo'shimcha shtatlarga ega bo'lishi mumkin.

Senat qo'mitalari va komissiyalari Konstitutsiyaviy maqomga ega. Bunda qo'mitalar amalda Senatning doimiy faoliyat yurituvchi tarkibiy birligi hisoblanadi.

Birinchisi — Senatga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash. Ikkinchisi — O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilib borish.

Qo'mitalar rais, uning o'rinbosarlari va qo'mita a'zolaridan iborat tarkibda senatorlar orasidan palataning vakolatlari muddatiga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatida reglament bo'yicha, budjet va ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha, tashkiliy-ma'muriy masalalar bo'yicha, qonunchilik va sud-huquq masalalari bo'yicha, mudofaa va xavfsizlik masalalari bo'yicha, tashqi siyosiy masalalar bo'yicha qo'mitalar, albatta, tuziladi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risidagi qonun hujjatlari tuzilishi shartligi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan qo'mitalardan tashqari boshqa qo'mitalar ham tuzilishi mumkinligiga yo'l qo'yadi, ammo baribir ularning sonini, qoida tariqasida, sakkiztadan ko'paytirmasligi shart.

Senat qo'mitalarini shakllantirishning huquqiy tartibga solinishi shu bilan kifoyalanadi.

5-§. Qonun chiqarish jarayoni bosqichlari

Qonun chiqarish funksiyalarini amalga oshirish parlament va parlament palatalarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Hokimiyatni taqsimlash prinsipi shuni nazarda tutadiki, jamiyat barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini, butun millat manfaatlarini to'liq ifoda etuvchi parlamentlar boshqa davlat organlari tomonidan chiqariladigan boshqa huquqiy hujjatlarga nisbatan kattaroq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ huquqiy hujjatlarni qabul qilishlari lozim. Aynan parlamentlar tomonidan qabul qilinuvchi qonunlar boshqa barcha davlat organlari uchun zarur huquqiy negizni vujudga keltiradi, mazkur organlarning o'zaro hamda fuqarolar va ularning birlashmalari bilan munosabatlarini belgilab beradi. Xullas, qonunlar davlat va jamiyat hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham qonun chiqarish jarayonini, uning subyektlari maqomini, qonun chiqarish jarayonining bosqichlarini huquqiy tartibga solish muhim ahamiyatga ega.

Rasmiy nuqtai nazardan qonun chiqarish jarayoni tashkiliy-huquqiy tadbirlar (tartib-qoidalar)ning murakkab tizimi bo'lib, ularning natijasi o'laroq qonun yaratiladi⁹⁴. Mazkur tartib-qoidalar majmui qonun chiqarish jarayonining bosqichlarini tashkil etadi.

Qonun chiqarish jarayoni bosqichlarining ahamiyati shundaki, mazkur bosqichlarning har birining mazmunini tashkil etuvchi, huquq normalari bilan tartibga solingan barcha tadbirlarini amalga oshirishgina yuqorida zikr etilgan jarayonning navbatdagi bosqichiga o'tish imkonini beradi. Qonun chiqarish jarayonining bosqichlariga P.A. Rustamov tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi: «Mazkur jarayon bosqichlari — qonun loyihalarini tayyorlash, kiritish, muhokama qilish, qabul qilish va qonunlarni e'lon qilish bo'yicha yuridik ahamiyatga ega bo'lgan va tartib-qoidalariga asosan rasmiylashtirilgan tadbirlar majmui»⁹⁵.

Qonun loyihasini parlamentga kiritish mazkur jarayonning dastlabki bosqichidir.

⁹⁴ Bu haqda qarang: Законодательный процесс. Понятие. Институты. Стадии. Научно-практическое пособие. — М.: 2000.

⁹⁵ Рустамов П.А. Научно-информационное обеспечение законотворческой деятельности в Республике Узбекистан. Кандидатская диссертация. — Т.: 2000, 52-ст.

Qonun ijodkorligi faoliyatining asoslarini belgilaydigan muhim qoidalar, avvalambor, Konstitutsiyalarda, maxsus qonunlarda mustahkamlanadi, qonun chiqarish jarayonining bosqichlari parlament va uning palatalari reglamentlarida mufassalroq tartibga solinadi.

Qonunchilik tashabbusi huquqini ro'yobga chiqarish qonun chiqarish jarayonining birinchi bosqichi deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlarining ancha keng doirasi belgilangan. Konstitutsiyaning 83-moddasiga muvofiq, qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qonunchilik palatasi deputatlari, Respublika Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori ega.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bir qator davlatlar (Rossiya, O'zbekiston va boshqalar)da qonunlarni ko'rib chiqish va qabul qilish parlament tajribasi qonunchilik tashabbusi bosqichidan keyin *qonun loyihasini dastlabki tarzda ko'rib chiqish bosqichini* ajratish imkonini beradi. Mazkur bosqich asosan kiritilgan qonun loyihasi yuzasidan bildirilgan taklif-mulohazalar va takliflarni palataning bosh (mas'ul) qo'mitasi tomonidan umumlashtirish hamda qonun loyihasi haqida xulosa tayyorlashni nazarda tutadi. Mazkur bosqich qonun loyihasining keyingi taqdiri uchun muhim ahamiyatga ega: salbiy xulosa chiqarilgan taqdirda qonun loyihasi palatada qo'llab-quvvatlanishi ehtimoli juda kam.

Qonun loyihasini parlament (uning palatasi)da ko'rib chiqish va muhokama qilish hamda uni takomiliga yetkazish qonun chiqarish jarayonining navbatdagi bosqichidir. Mazkur bosqich parlament, uning palatalari majlislarida qonun loyihasi ustida ishlashni (odatda bu ish qonun loyihasini o'qish deb ataladi), shuningdek, qonun loyihasi ustida parlament qo'mitalari va komissiyalarida ish olib borishni o'z ichiga oladi.

Qonun loyihalari plenar majlislarda, qoida tariqasida, bir nechta (ikki, uch, to'rt) o'qishda ko'rib chiqiladi. Har bir o'qishning o'z maqsadi va o'z vazifalari bo'ladi.

Qabul qilingan qonun loyihasini parlamentning ikkinchi palatasida ko'rib chiqish ikki palatali parlamentlardagi qonun chiqarish jarayonining navbatdagi bosqichidir. Zero, bir palatali parlamentda qonunni qabul qilish oxirgi marta ovozga qo'yish

orqali amalga oshiriladi (u birinchi o'qishdan keyin ham, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi o'qishdan keyin ham o'tkazilishi mumkin). Ikki palatali parlamentda esa qonun loyihasi ayni bir tahrirda ikkala palata tomonidan qabul qilingan holdagina qonunga aylanadi (ammo ba'zan palatalardan biri qayta ovozga qo'yish orqali boshqa palata tomonidan qabul qilingan qonun loyihasini ma'qullamagan ikkinchi palataning «veto»sini yengishi ham mumkin).

Palatalar qonun chiqarish faoliyati sohasida teng huquqlarga ega bo'lgan va ular o'rtasida qonunni qabul qilish yuzasidan kelishmovchiliklar chiqqan hollarda murosaga keltirish tartib-qoidolari qo'llanadi.

Konstitutsiyaning 84-moddasiga muvofiq: a) qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanishi lozim; b) Senat tomonidan rad etilgan qonun Qonunchilik palatasiga qaytariladi va agar qonunni qayta ko'rib chiqishda palata deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana ma'qullasa, qonun parlament tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga palata tomonidan yuboriladi; d) Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan palatalar yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganda qonun odatdagi tartibda ko'rib chiqilishi kerak. Konstitutsiyaga o'zgartishlar kiritish. Konstitutsiyaviy qonunni qabul qilish parlamentning har bir palatasidagi umumiy ovozlar sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozini talab etadi. Odatdagi qonunlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Senatga kelib tushgan qonun ro'yxatga olinadi va Senat Raisi tomonidan qonunni ko'rib chiqadigan hamda uning yuzasidan xulosa tayyorlaydigan qo'mitaga topshiriladi. Senatning majlisida qonunni ko'rib chiqish ma'ruzachining mas'ul qo'mita xulosasini o'qib eshittirishidan boshlanadi. Shundan so'ng qonun muhokamasi tartibida senatorlar so'zga chiqishlari mumkin. Qonun Senat tomonidan belgilangan ko'pchilik ovoz bilan ma'qullansa, imzolanishi va e'lon qilinishi uchun belgilangan tartibda Respublika Prezidentiga yuboriladi. Rad etilgan qonun yuzasidan palatalar yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun kelishuv komissiyasi tuzishi mumkin.

Mazkur komissiya tenglik asosida tuziladi. Kelishuv komissiyasining har bir palatadan saylangan a'zolari o'z tarkibidan ko'pchilik ovoz bilan komissiya hamraislarini saylaydilar. Kelishuv komissiyasi qonunning yagona matnini ishlab chiqish maqsadida Senatning har bir e'tirozini alohida-alohida ko'rib chiqadi. Kelishuv komissiyasi o'z ishining natijalari yuzasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni o'z ichiga olgan xulosa qabul qiladi. Xulosaga qonunga doir o'zgartishlar va qo'shimchalar loyihasining matni ilova qilinadi. Xulosa Senat va Qonunchilik palatasiga topshiriladi. Senat kelishuv komissiyasining takliflarini qabul qilgan taqdirda qonun Qonunchilik palatasi tomonidan odatdagi tartibda qayta ko'rib chiqilishi kerak. Qonunni Qonunchilik palatasida qayta ko'rib chiqishda kelishuv komissiyasining bayonnomasida mavjud bo'lgan takiflarga muhokama qilinadi. Kelishuv komissiyasining loaqal bitta taklifi rad etilgan taqdirda Qonunchilik palatasi, Senat kelishuv komissiyasiga yangi takliflarni taqdim etish uchun palata tomonidan ma'qullangan tuzatishlarni inobatga olgan holda ishni davom ettirishni taklif qilishi mumkin. Agar Senat qonunni kelishuv komissiyasining tahririda ma'qullamasa, u rad etilgan qonun sifatida Qonunchilik palatasiga qaytarilishi kerak. Qonunchilik palatasi Reglamentining 17-moddasida Senat tomonidan rad etilgan, shuningdek, Respublika Prezidenti tomonidan e'tirozlar bilan qaytarilgan qonunni Qonunchilik palatasi tomonidan qayta ko'rib chiqish tartibi belgilangan. Mazkur tartibga muvofiq, mas'ul qo'mita rad etilgan qonun yuzasidan xulosa beradi. Mas'ul qo'mitaning xulosasini olganidan so'ng palata qonunni qayta ko'rib chiqish masalasini o'z majlisining kun tartibiga kiritadi. Agar Qonunchilik palatasi Senat tomonidan rad etilgan qonunni palata deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan yana ma'qullasa, qonun Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan hisoblanadi va Prezidentga imzolash va e'lon qilish uchun yuboriladi.

Qonunni imzolash va e'lon qilish — qonun chiqarish jarayoni-ning oxirgi bosqichi. Mohiyat e'tibori bilan, mazkur bosqich ikki yoki uch bosqichni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichni tavsiflovchi yuqorida zikr etilgan tadbirlar parlamentdan tashqarida amalga oshiriladi.

Parlament tomonidan qabul qilingan *qonunni imzolash* masalasiga to'xtalamiz. Odatda, bu davlat boshlig'ining

vakolatlariga kiradi. Chet el davlatlarining Konstitutsiyalarida, yuridik adabiyotlarda «*promulgatsiya*» atamasini uchratish mumkin. Promulgatsiya deganda ba'zan qonunni imzolash va e'lon qilish tushuniladi. Ammo mazkur atamaning yanada aniqroq ma'nosi shundan iboratki, promulgatsiya davlat boshlig'ining, shu jumladan, qonunni rasmiy e'lon qilish to'g'risidagi farmoyishi ifodalangan maxsus hujjat chiqarishini nazarda tutadi. Davlat boshlig'i tomonidan chiqarilgan mazkur hujjat (farmon, buyruq)ning matni rasmiy nashrlarda e'lon qilinayotgan qonun matnidan oldin keladi⁹⁶.

Bir qator davlatlarning Konstitutsiyalari davlat boshlig'iga qonunni imzolamasdan unga *veto* qo'yish, ya'ni qonunni parlamentga qaytarish huquqini beradi. Bunda Konstitutsiyalar qonunni rad etish uchun asoslarni ko'rsatmasligi, davlat boshlig'idan o'z qarorini asoslashni talab qilishi mumkin. Hozirgi parlamentarizm amaliyotiga vetoning faqat bir turi – parlament tomonidan bekor qilinishi mumkin bo'lgan *nisbiy veto* ma'lum. Mutlaq veto (u Buyuk Britaniyada ma'lum bo'lib, oxirgi marta 1707-yilda qo'llanilganiga qaramay, hozirgacha rasman saqlanib kelmoqda) qonunni uzil-kesil rad etadi va parlament tomonidan bekor qilinishi mumkin emas. Ba'zi bir mamlakatlar (Portugaliya, Meksika va boshqalar)da qisman veto qo'llaniladi. Mazkur veto butun qonunga emas, balki uning alohida moddalariga tegishli bo'ladi. Rossiyada Konstitutsiyaga muvofiq prezidentga berilgan veto huquqidan, amaliyotga qaraganda, prezident butun qonun bilan ham, uning alohida moddalari bilan ham kelishmagan hollarda foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (oldingi tahrirda ham, yangi tahrirda ham) O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'ziga taqdim etilgan qonunni imzolamaslik va unga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun parlamentga qaytarish huquqini beradi. Prezident vetosi nisbiy xususiyatga ega va parlament tomonidan bekor qilinishi mumkin. «Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qaytarilgan qonun palatada qayta ko'rib chiqilib, quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi: 1) qonunni Prezidentning mulohazalarini va takliflarini inobatga olgan holda qabul

⁹⁶ Qarang: Конституционное (государственное) право зарубежных стран. Т. 1-2. Общая часть, 550-ст.

qilish; 2) qonunni bundan buyon ko'rib chiqmaslik; 3) qonunni avvalgi qabul qilingan tahririda ma'qullash. Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda palata deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, Senatga ma'qullash uchun yuboriladi. Senat (senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan) qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Agar qonun Senat tomonidan ma'qullansa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 84-moddasiga muvofiq, qonunlarning e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir. Mazkur qoidalar Oliy Majlis palatalarining qonunlar bilan tasdiqlangan reglamentlarida ham o'z aksini topgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi organ nomi nima deb ataladi?
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qanday shakllantiriladi?
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri vakolatlarini sanab bering.
4. «Senat» so'zining lug'aviy ma'nosi qanday?
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qanday shakllanadi?
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati faoliyatini tashkil etish tartibi qanday?
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining nechta qo'mitalari mavjud?
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etish tartibi qanday?
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining qanday vakolatlarini bilasiz?
10. Oliy Majlis palatalari qanday huquqiy hujjatlar qabul qiladi?

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI

1-§. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik institutining ta'sis etilishi

Prezidentlik boshqaruvi davlat hokimiyatining taqsimlanish prinsipi asosida tashkil qilingan mamlakatlarda boshqaruvning eng maqbul shakllaridan biri hisoblanadi.

Davlat boshqaruvining prezidentlik shaklida Prezident umumxalq saylovlarida saylanadi va davlat boshlig'i hisoblanadi, ayni vaqtda u ijro hokimiyatini ham boshqaradi. Davlat organlari tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Prezident bevosita ijro hokimiyatini boshqarishi mamlakatdagi barcha kuchlarni bir maqsad yo'lida birlashtirishga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, mamlakatda barqarorlik o'rnatishga asosiy kafolat bo'ladi. Prezidentlik lavozimining ta'sis etilishi O'zbekiston Respublikasining mustaqillik sari qo'ygan dastlabki qadami edi.

O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik lavozimini joriy etishda quyidagi sabablar asos bo'ldi:

Birinchidan, davlat mustaqilligiga intilish, Respublikada boshqaruv jarayonlarini demokratlashtirish aynan prezidentlik instituti joriy etilishini taqozo etar edi. Chunki parlament uzoq bahs va munozaralarga berilib ketib, kun tartibida turgan dolzarb qarorlar qabul qilish va uni amalga oshirish imkoniyatiga ega emas edi. Shuning uchun ham mamlakatni bir kishi tomonidan boshqarish ehtiyoji paydo bo'ldi.

Ikkinchidan, Prezidentlik lavozimini joriy etish hokimiyatlarning bo'linishi prinsipini rivojlantirishdan kelib chiqadi. Prezidentlik lavozimi davlat hokimiyati organlarining tizimini tashkil etishda demokratik prinsiplarni amalga oshirishda yordam berishga qaratilgan edi.

Uchinchidan, Prezident o'z zimmasiga hukumatni shakllantirish va uning ishiga rahbarlik qilishdek ulkan mas'uliyatni olishi uchun obyektiv zarurat tug'ildi.

To'rtinchidan, vaziyatni barqarorlashtirish, tinchlikni ta'minlash va murakkab muammolarni paysalga solmasdan

zudlik bilan hal etish ehtiyoji paydo bo'ldi. O'sha paytlarda mavjud bo'lgan davlat strukturasi bu masalalarni hal etishga qodir emas edi⁹⁷.

Jahon mamlakatlari tajribasida prezidentlik institutiga quyidagacha *tavsif* berilishi kuzatiladi.

Birinchidan, Prezident muayyan davlatning boshlig'i va xalq birligining ramzi hisoblanadi.

Ikkinchidan, Prezident o'z mamlakati xalqi nomidan ish tutadi va uning milliy manfaatlarini himoya qiladi. U partiyaviy, ijtimoiy, mahalliy va boshqa manfaatlardan, ayniqsa, har qanday g'oyaviy kelishmovchiliklardan yuqori turadi, jamiyatni o'zaro muvofiqlashtiradi, ijtimoiy-siyosiy hayotni mustahkamlaydi.

Uchinchidan, Prezident mamlakatning umumiy holati uchun mas'ul bo'lib, siyosiy barqarorlik, huquqiy tartibot va xavfsizlikni ta'minlash hamda mamlakatning boshqa davlatlar oldidagi majburiyatini bajarish borasida qarorlar qabul qiladi, tezkor chora-tadbirlar ko'radi.

To'rtinchidan, Prezident ijro etuvchi hokimiyatni boshqaradi va uning faoliyatini yo'naltiradi.

Beshinchidan, Prezident mamlakat Qurolli kuchlarining Oliy bosh qo'mondoni hisoblanadi, davlat mudofaasi va fuqarolarning harbiy xizmatni o'tashi uchun rahbarlik qiladi.

Oltinchidan, Prezident ijro hokimiyati tizimida yuqori lavozimga tayinlash vakolatini amalga oshiradi, fuqarolik masalalarini hal qiladi, fuqarolarni davlat nishonlari bilan mukofotlaydi va aybidan o'tadi, inson huquq va erkinliklari ta'minlanishining, shuningdek, mamlakatda Konstitutsiya va qonunlarning kafolati hisoblanadi.

«Prezident» tushunchasi Konstitutsiyaviy-huquqiy ma'noda davlat boshlig'ini anglatadi. Aynan shuning uchun bu institut jahon davlat – huquqiy amaliyotida yaratilgan edi. Uning bunday roli Prezidenti bo'lgan har qanday zamonaviy demokratik Respublikaga xosdir. Prezident davlatni jipslashtirishi, davlat hokimiyati mexanizmining barqarorligi va harakatchanligini ta'minlashi lozim.

Sobiq Ittifoq Respublikalari orasida O'zbekiston birinchi bo'lib, davlat boshqaruvining prezidentlik shaklini joriy qildi. Prezidentlik instituti O'zbekistonda 1990-yil 24-martda

⁹⁷ Tadjixanov U. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. — T.: «Sharq», 2001, 562-b.

«O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun bilan ta'sis etildi. Oliy Sovet 12-chaqiriq birinchi sessiyasida O'zbekiston Prezidenti etib Islom Abdug'aniyevich Karimov saylandi. 1991-yil 29-dekabr va 2000-yil 9-yanvarda to'g'ridan-to'g'ri umumxalq Prezidenti saylovlari o'tkazildi. Saylovlar muqobillik asosida o'tkazilib, I.A.Karimov Prezident etib saylandi.

Konstitutsiyaning 89-moddasida «O'zbekiston Respublikasi-ning Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir» deyilgan.

Davlat boshlig'i sifatida Prezident davlat hokimiyati organlari tizimida yetakchi va muvofiqlashtiruvchi rol o'ynaydi. Prezident davlat ichida va xalqaro munosabatlarda xalq nomidan ish yuritadi. Davlat boshlig'i o'zida u yoki bu hokimiyat tarmog'ini emas, balki davlat va butun davlat hokimiyatining birligini namoyon etadi.

Konstitutsiyaga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ijro hokimiyatining boshlig'i ham hisoblanadi. Ijro hokimiyatiga bevosita iqtisodiyotga, ijtimoiy va ma'naviy sohalariga boshchilik qilish yuklatilgan.

2-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy-huquqiy holati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-bobi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti» deb nomlanadi. Bu bob 9 ta moddadan iborat bo'lib, ularda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy maqomi belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir. Prezident huquqiy holati Konstitutsiyaviy normalar bilan mustahkamlangan. Hokimiyatlarning o'zaro muvozanatini ta'minlashda Prezidentning o'rni beqiyos. Prezident davlat hokimiyati organlari tizimida alohida o'ringa ega.

O'zbekiston Respublikasining ushbu mustaqillik yillarida ichki va tashqi siyosatda Prezidentning o'rni ancha oshdi. Boshqaruvning eng maqbul shakli sifatida e'tirov etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 2005-yil 7-fevralda yangi tashkil etilgan ijro hokimiyati rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuvda «Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi» ma'ruzasida mustaqillik

yillarida kuchli ijro hokimiyati zarurligi, O'zbekiston Prezidentlik boshqaruvidagi davlat ekanligini ta'kidladi va uning afzalliklari to'g'risida gapirib o'tdi.

Boshqaruvning prezidentlik shaklining yaratilishi ilk bor Fransiyaning 1958-yilgi Konstitutsiyasida amalga oshirildi. Prezidentlik boshqaruvida asoslangan davlatlarda prezidentlik instituti uning vakolatlari, saylanish tartibi va boshqa davlat organlari bilan bo'ladigan munosabatlarda farqlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 91-moddasida «Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas. Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi» deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 25-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida»gi qonunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z vakolatlarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq samarali amalga oshirishi uchun zarur sharoitlar yaratish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan, shuningdek, Konstitutsiyaviy vakolat muddati tugab yoki sog'lig'i holatiga ko'ra iste'foga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yoki O'zbekiston Respublikasining eks-Prezidentiga zarur sharoitlar va kafolatlar yaratib berilgan.

✦ O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti qasamyod qabul qilgan paytdan boshlab, o'z lavozimini bajarishga kirishadi. Qasamyod – Konstitutsiya va xalqqa xizmat qilish yuzasidan Prezident o'z lavozimiga kirishganda beradigan tantanali va'dadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyodining matni Konstitutsiyaning 92-moddasida berilgan:

«O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman».

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti parlament deputatlari oldida tantanali ravishda qasamyod qabul qiladi. Qasamyod qabul qilishda Prezidentning qo'l ostida Konstitutsiya matni bo'ladi. Prezident O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy

rioya etishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qiladi. Prezident qasamyod qabul qilishi bilan, davlat madhiyasi ijro etiladi.

Bilasizmi, Shvetsariyada davlat boshlig'i atigi bir yilga saylanadi.

Prezidentning qasamyodi faqat rasmiy tantanali marosim sifatida-gina qabul qilinmaydi. Shuningdek, u yuridik ahamiyatga ham ega.

Prezident qasamyodining yuridik ahamiyati quyidagilardan iborat:

Birinchidan, Prezident qasamyod qabul qilishi bilan o'z lavozimiga kirishadi va o'zining Konstitutsiyaviy vakolatlarini bajara boshlaydi. Shu vaqtdan boshlab, oldingi Prezident o'z vakolatini tugatadi;

Ikkinchidan, qasamyodning matni odatda Konstitutsiyada beriladi, xalqqa e'lon qilinadi va parlament oldida Prezident tomonidan tantanali qabul qilinadi. Qasamyod matnida Konstitutsiyaga sadoqat, xalq va davlatga xizmat qilish bilan birga, ko'pincha, diniy tushdagi ifodalar bo'ladi.

Uchinchidan, qasamyodni buzish Prezidentni javobgarlikka olib keladi, bu uning o'z lavozimidan chetlatilishi uchun asos bo'lishi mumkin (bunday marosim ko'p mamlakatlarda impeachment nomini olgan);

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 91-moddasida Prezident o'z lavozimida ishlayotgan vaqtda quyidagi vazifalarni birga olib bormasligi nazarda tutilgan:

Birinchidan, boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallash;

Ikkinchidan, vakillik organining deputati (parlament, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish) bo'lish;

Uchinchidan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish;

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti daxlsizlik huquqiga ega. Prezidentning daxlsizligi mutlaq bo'lib, u bajaradigan majburiyatlardan kelib chiqib, Prezidentning qonunlar bilan alohida muhofaza etilishini anglatadi. Prezident shaxsining daxlsizligi uning butun vakolatlari davomida alohida kafolatlarning ta'minlanishi bilan bog'liq.

Prezident shaxsining daxlsizligi unga qarshi jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin emasligini bildiradi. Prezident majburiy ravishda, masalan, guvoh sifatida sudga chaqirilishi, ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Prezident hibsga olinishi, tintuv etilishi va shaxsiy ko'zdan kechirilishi mumkin emas. Shu ma'noda Prezidentning shaxsi daxlsizdir.

3-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlar o'tkazish tartibi va asosiy tamoyillari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining «Prezident saylovi to'g'risida»gi Qonuni bilan belgilangan⁹⁸.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga asosan Prezident lavozimi nomzodlariga quyidagi talablar qo'yiladi:

Birinchidan, fuqaroning 35 yosh-dan kichik bo'imasligi;

Ikkinchidan, nomzod O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lishi;

Uchinchidan, Prezidentlik nomzodiga O'zbekiston Respublikasi hudu-

AQSH Prezidentligiga saylanish uchun AQSH hududida kamida 14-yil yashagan va fuqaroligini faqat tug'ilish (filiatsiya) asosida olgan AQSH fuqarolarining-gina huquqi mavjud.

dida kamida 10 yil yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Bu muddat — Prezidentlikka nomzodning faqat bilimlar va amaliy tajribaga egaligi bo'lib qolmay, balki O'zbekistondagi hayotning o'ziga xos sharoitlarini tushunishi uchun ham zarur va yetarlidir;

To'rtinchidan, Davlat tilini yaxshi biladigan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi Prezidentlikka saylanishi mumkin. Tillardan foydalanishni tartibga solish — O'zbekistonda Konstitutsiyaviy ahamiyatga ega. U yoki bu tilning davlat tili sifatidagi maqomi Konstitutsiya bilan belgilanadi. Masalan, Konstitutsiyaning 4-moddasida «O'zbekiston Respublikasining davlat tili — o'zbek tilidir», deb belgilab qo'yilgan. Davlat hokimiyati organlari, rasmiy ish yuritish, sud ishlarini olib borish majburiy ravishda davlat tilida olib boriladi, normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy nashrlar e'lon qilinadi.

O'zbek tili — O'zbekiston Respublikasi aholisining mutlaq ko'pchiligi bo'lmish o'zbek xalqining ona tilidir. U O'zbekiston birligi va yaxlitligi, jamiyat jipsligining muhim omilidir. Aynan shuning uchun Konstitutsiya va O'zbekiston suvereni-

⁹⁸ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998, 3-son, 38-modda.

tetining kafili bo'lmish Prezident o'zbek tilini yaxshi bilishi shart;

Beshinchidan, bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Prezident bo'lib saylanishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 90-moddasining 2-qismida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining saylanish prinsiplari aniq belgilab qo'yilgan. Prezidentlik Respublikalarida Prezident mamlakatning barcha saylovchilari tomonidan umumxalq saylovlari yo'li bilan saylanadi.

Prezident saylovlarini o'tkazish tartibi 1991-yil 18-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari to'g'risida»gi Qonun bilan belgilab qo'yilgan. Bu qonunga 2004-yil 3-dekabrda Qonuni bilan o'zgartirish kiritilgan.

O'zbekistonda prezidentlik saylov huquqining Konstitutsiyaviy me'yori ko'ppartiyaviylik bo'lib, u fuqarolarning davlat va jamiyatdagi siyosiy huquqlari, qonuniylikni, barqarorlikni, demokratiyaviylikni kafolatlashga qaratilgandir.

Konstitutsiyaning 10-moddasida siyosiy partiyalar xalq nomidan ish olib borishga haqli emasligi alohida ko'rsatilgan. Umuman, Konstitutsiyaning 10 ta moddasida ko'ppartiyaviylik bilan bog'liq bo'lgan me'yorlar bor. 34-moddada fuqarolarning siyosiy partiyalarga uyushishi huquqi alohida belgilab qo'yilgan. Chunonchi, 60-moddada «Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar», deb Konstitutsiyaviy qoida mustahkamlab qo'yilgan.

«Ko'ppartiyaviylik» tushunchasi tom ma'noda Prezidentlik saylovlarida bir necha siyosiy partiyalarning ishtirok etishini bildiradi. Shu tariqa, saylov tizimning ko'ppartiyaviyligi fuqarolarning tanlash huquqini kafolatlaydi.

Ko'ppartiyaviylik asosida prezidentlik saylovlarini o'tkazish quyidagilarni bildiradi:

Birinchidan, huquqiy jihatdan ro'yxatga olingan barcha siyosiy partiyalarning saylov kompaniyasida ishtirok etishi;

Ikkinchidan, Konstitutsiya va qonun talablari doirasida o'z nomzodlarini prezidentlikka ko'rsatish huquqi;

Uchinchidan, siyosiy partiyalarning barcha darajalardagi saylov komissiyalarining ishida qatnashish huquqi va kafolatli shart-sharoit yaratish;

To'rtinchidan, Oliy sudga, prezidentlik saylovlari haqidagi Qonunning buzilishi faktlari ustidan shikoyat qilish huquqidir.

Saylov huquqining Konstitutsiyaviy prinsiplari yashirin ovoz berish yo'li bilan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylash huquqidir.

Prezident saylovlari haqidagi Qonun fuqarolarning saylov huquqining umumiyligi, ya'ni saylovchilar ro'yxatini tuzish tartibi, ovoz berish huquqini rasmiylashtirish va ovoz berish faktini tasdiqlash kabi tadbirlarning huquqiy jihatdan kafolatlanishini nazarda tutadi.

Teng saylov huquqi shundan iboratki, har bir saylovchi bir ovozga ega bo'ladi va barcha fuqarolar saylovlarda teng sharoitlarda ishtirok etadilar.

To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi shundan iboratki, saylovchilar Prezidentni saylashda bevosita ishtirok etadilar.

Yashirin ovoz berish esa saylovchining o'z irodasini bildirish ustidan nazorat qilishga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutadi. Bu Konstitutsiyaviy prinsip fuqarolarning o'z irodasini erkin bildirishini ta'minlashning huquqiy kafolatlanishi bo'lib, demokratik jamiyatning asosiy belgilaridan biridir.

Fuqarolarning Prezidentni saylash huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi. Albatta, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ba'zi hollar bundan mustasnodir.

O'zbekiston Respublikasining saylov kuniga qadar 18 yoshga to'lgan har bir fuqaro Prezidentni saylash huquqiga egadir. Prezidentlik saylovlarini tashkil etish belgilangan ba'zi hollar bundan mustasnodir. Prezidentlik saylovini o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan tuziladigan Markaziy saylov komissiyasi zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasining II chaqiriq, sakkizinchi sessiyasida qabul qilingan: «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunning qabul qilinishi, 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendumda mamlakatimiz Oliy Majlisini ikki palatali qilib belgilash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o'zgartirish to'g'risidagi muhim masala bo'yicha qabul qilingan Oliy Majlis qarorini hayotga tatbiq etish borasidagi tarixiy jarayonlardan hisoblanadi. Ushbu Konstitutsiyaviy Qonun asosida: «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesiga viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov ular-

ning Konstitutsiyaviy vakolati tugaydigan yilda – dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov muddatlari bir paytga to'g'ri kelib qolgan taqdirda, davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolat muddati bir yilga uzaytiriladi».

Saylov jarayonlari uning birinchi bosqichi bo'lmish saylov muddatini tayinlash bilan boshlanadi.

Ushbu bosqichning turli davlatlarda turlicha ko'rinishlari mavjud bo'lib, aksariyat davlatlarda parlamentga saylov o'tkaziladigan kun davlat boshlig'i tomonidan, Prezident saylovi kuni parlament tomonidan tayinlanadi.

Shunday holatlar ham borki, Konstitutsiya saylov o'tkazishning aniq muddatlarini emas, balki saylov o'tkazish shartlarini belgilab beradi. Masalan, Bolgariya, Polsha, Chexiya davlatlarida tegishli organ yoki mansabdor shaxsning vakolat muddati tugashi munosabati bilan saylov o'tkazish muddati belgilanadi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, har bir mamlakatda davlat hokimiyat organlariga saylov o'tkazish muddati turlicha belgilangan. Bunga shu shakllangan munosabatlar, mamlakat xalqining mentaliteti, tarixiy shart-sharoitlar sabab bo'lishi mumkin.

Saylovlarni o'tkazish muddati belgilangan ushbu moddaning ikkinchi bandi ham juda muhim qoidani o'zida ifodalab beradi. Bilamizki, davlat hokimiyati organlarining vakolat muddati turlicha bo'lsada, ma'lum davrga kelib, ushbu organlarga saylov bir vaqtga to'g'ri kelib qoladi.

Ushbu holatda Prezident bilan davlat hokimiyati vakillik organlarining bir vaqtda saylanishining oldini olish maqsadida quyidagi chora-tadbirni qo'llash ma'qul deb topildi. Ya'ni, davlat hokimiyatining vakillik organlari bo'lmish Oliy Majlis, Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolat muddatlari yana bir yilga uzaytiriladi. Demak, davlat boshlig'i – Prezidentga saylov bo'ladigan yil va kun ushbu qonun talabiga

Saylov o'tkazish muddati ba'zi mamlakatlarda o'z Konstitutsiyalarida qat'iy belgilab qo'yilgan. Masalan, Kosta-Rika Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, Prezident saylovi saylov yilining fevral oyidagi birinchi yakshanba kuni o'tkaziladi. AQSH Konstitutsiyasiga ko'ra, Prezident saylovi saylov yilining noyabr oyida o'tkaziladi. Bunda noyabr oyi birinchi dushanbasidan keyingi birinchi seshanba kuni saylov kuni deb belgilangan.

ko'ra, vakillik organlariga bo'ladigan saylov davriga to'g'ri kelmaydi.

O'zbekiston Respublikasi davlatchilik tarixidan munosib o'rin oladigan, milliy davlatchiligimizni rivojiga hissa qo'shayotgan islohotlarimizning yana bir samarasi hisoblangan 2002-yil 27-yanvardagi referendum natijalari bevosita saylov institutiga muhim o'zgartirishlar kiritish zaruriyatini belgilab berdi.

Prezident saylovlari O'zbekistonda bevosita demokratiya-ning asosiy shakllaridan biridir.

Konstitutsiyaviy asoslardan kelib chiqib, prezidentlik saylovining asosiy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini belgilash mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Markaziy saylov komissiyasi faoliyatining tartib va shakllanishi;
2. Okrug saylov komissiyalari va saylov uchastkalarini shakllantirish;
3. Saylovchi fuqarolarning ro'yxatini tuzish;
4. Nomzodlar ko'rsatishga siyosiy partiyalarga huquqiy ijozat berish;
5. Prezidentlikka nomzodlar ro'yxatini shakllantirish;
6. Saylov okruglari bo'yicha ovoz berish tartibi;
7. Ovozlarni sanash va ovoz berish yakunlarini chiqarish tartibi;
8. Saylov huquqi me'yorlarining buzilishi ustidan sudga murojaat qilish.

Prezident saylovi bir-biriga zid bo'lmagan umumdemokratik prinsiplar va aniq talablar asosida bo'lishi kerak. Prezident saylovi umumdemokratik prinsiplari Konstitutsiyaga asoslanadi, jahon mamlakatlarining tajribasi va o'z milliy tariximizga tayanadi. Prezident saylovining umumdemokratik prinsiplariga quyidagilar kiradi:

Birinchi prinsip: Prezident saylovining Konstitutsiyaga to'la muvofiq kelishi.

Ikkinchi prinsip: Prezident hokimiyatining qonuniyligi.

Uchinchi prinsip: Prezident saylovi tartibotlari va vazifalarining huquqiy jihatdan ta'minlanganligi.

To'rtinchi prinsip: Prezident saylovining demokratiyaviyligi, fuqarolarning va siyosiy partiyalarning teng huquqliligi.

Beshinchi prinsip: Prezident saylovining fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan barqarorlik, taraqqiyot, qonuniylik, huquqiy tartibot, inson huquqlarini himoya qilishni ta'minlashga yo'naltirilganligi.

Oltinchi prinsip: Prezident saylovining xalqchilligi, barcha fuqarolar uchun tushunarli va qulay bo'lishi.

Yettinchi prinsip: Prezident saylovining uyushganligi, Konstitutsiyaviy, huquqiy, sud nazorati ostida bo'lishi va qonuniy boshqarilishiga erishish.

Sakkizinchi prinsip: Prezident saylovining tejimli va samarali bo'lishi.

To'qqizinchi prinsip: ovoz berish va saylanishning ziddiyatlarsiz, uning uchun yetarli bo'lgan natijalarini olishga kafolat yaratilishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylashda fuqarolar ixtiyoriy ravishda qatnashadilar. Saylovda qatnashmaganlik uchun fuqaroga nisbatan biror-bir ma'naviy yoki moddiy chora ko'rish mumkin emas. Saylovlarda qatnashishning ixtiyoriyligi – bu saylov huquqining muhim prinsiplari va erkin saylovlarining demokratik kafolatidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylashda fuqarolar yashirin ovoz beradilar. Bunda har bir fuqaro bitta ovozga ega bo'ladi. Prezident saylovida ovoz berishlik fuqarolar tomonidan bevosita amalga oshiriladi. Ovoz berish jarayonida fuqarolarning xohish-iroda bildirishlari ustidan nazorat etilishga yo'l qo'yilmaydi.

Saylovchining o'z xohish-irodasini bevosita va erkin ifoda etishi ham saylov huquqining muhim prinsiplaridan bo'lib, shaxs erkinligining yaqqol namoyon bo'lishidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi, okrug va uchastka saylov komissiyalari tomonidan o'tkaziladi. Saylov komissiyalari Prezident saylovini ochiqlik va oshkoralik prinsipi asosida o'tkazadilar.

Prezident saylovlarini o'tkazishda oshkoralik prinsipi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, saylov komissiyalari fuqarolarni o'z ishlaridan, saylov okruglari, uchastkalari tuzilganligi, saylov komissiyalarining tarkibi, ularning joylashgan manzili va ish vaqtidan voqif etadi, saylovchilarning ro'yxati bilan tanishtiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar haqida ma'lumotlar, ovoz berish va saylov yakunlaridan xabardor qiladi.

Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari Prezident sayloviga tayyorganlikning borishi va saylov qanday o'tayotganligini keng yoritib boradi.

Uchinchidan, Prezident sayloviga tayyogarlik ko'rish va uni o'tkazishga oid barcha tadbirlarda, ayniqsa, saylov kuni ovoz berish xonalarida va ovozni sanab chiqishda prezidentlikka nomzod ko'rsatgan siyosiy partiyalardan, hokimiyat vakillik organlaridan bittadan kuzatuvchi, matbuot, televideniye va radio vakillari, xorijiy davlatlar va tashkilotlar, harakatlardan kuzatuvchilar qatnashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bilan bog'liq barcha harakatlar davlat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Prezidentlikka nomzodlarni boshqa mablag'lar hisobidan moliyaviy ta'minlash va boshqacha yo'l bilan moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash taqiqlanadi.

Prezidentlik saylovi uchun siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, korxona va tashkilotlar hamda fuqarolar o'z mablag'larini ixtiyoriy berishlari mumkin. Bu mablag'larni Markaziy saylov komissiyasi saylov kompaniyasida foydalanish uchun qabul qilib oladi.

Prezident saylovi xarajatlarining davlat mablag'laridan qoplanishi, prezidentlikka nomzodlar uchun teng moddiy sharoitlarni yaratishga qaratilgandir.

«O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonunlarni buzganlik uchun javobgarlik prinsipi saylov qonunlarini saylov jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan so'zsiz va og'ishmay rioya qilishga xizmat qiladi. Ushbu prinsip «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonunning 7-moddasida mustahkamlangan.

Prezident saylovida fuqarolarning:

Birinchidan, aktiv va passiv saylov huquqini erkin amalga oshirishga, saylovlarni olib borishga zo'rlik, aldov, tahqir etish va boshqa yo'lda to'sqinlik qilgan shaxslar;

Ikkinchidan, saylov hujjatlarini soxtalashtirgan, ovozlarni aynan noto'g'ri hisoblagan, ovoz berish yashirinligini buzgan;

Uchinchidan, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonunning boshqa yo'sinda buzilishga yo'l qo'ygan saylov komissiyalarining a'zolari, davlat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining mansabdor shaxslari;

To'rtinchidan, Prezidentlikka nomzodlarning sha'ni va qadrimmatiga dog' tushiradigan soxta ma'lumotlarni e'lon qilgan yoki boshqa tartibda tarqatgan, saylov komissiyalari a'zolariga nisbatan haqoratomuz munosabatda bo'lgan shaxslar tegishli qonun va kodekslarda belgilab qo'yilgan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish prinsiplari hamma saylovchilar, saylov jarayonining barcha ishtirokchilari uchun bosh qoidalaridir.

Dunyoning barcha demokratik davlatlarida davlat boshlig'i lavozimiga nomzod ko'rsatish huquqi siyosiy partiyalar va bevosita fuqarolariga berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar ko'rsatish siyosiy partiyalarning yuqori organlari tomonidan, saylovchilar tashabbuskor guruhi yig'ilishi tomonidan amalga oshiriladi.

Siyosiy partiyaning yuqori organi, saylovchilar tashabbuskor guruhi O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga bittadan nomzod ko'rsatishi mumkin.

Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning ro'yxati «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonunning 24-2-moddasida belgilangan hujjatlar asosida ro'yxatga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib ro'yxatga olingan shaxsga ro'yxatga olinganlik haqida guvohnoma beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarni ro'yxatga olish saylovga o'ttiz besh kun qolganida tugallanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar ro'yxatga olinganidan keyin besh kunlik muddat ichida Markaziy saylov komissiyasi ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi xabarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan yili, partiyaga mansubligi, egallab turgan lavozimi, ish va yashash joyi, shuningdek, uni nomzod etib ko'rsatgan siyosiy partiya yoki saylovchilar tashabbuskor guruhini ko'rsatgan holda e'lon qiladi.

Qasddan sodir etilgan jinoyati uchun ilgari sudlangan fuqarolar; o'zlariga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilganligi munosabati bilan qonun tomonidan ta'qib etilayotgan fuqarolar; diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar.

Siyosiy partiya, saylovchilar tashabbuskor guruhi u yoki bu shaxsni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib ko'rsatish to'g'risidagi o'z qarorini saylovga kechi bilan yetti kun qolganida bekor qilish huquqiga ega, bu shaxs Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi

Prezidentligiga nomzodlik maqomidan mahrum etilishi mumkin. Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar ko'rsatish muddati tugaguniga qadar Markaziy saylov komissiyasiga yangi nomzodni ro'yxatga olish to'g'risida taklif kiritishi mumkin.

Ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod uni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib ko'rsatgan siyosiy partiya faoliyatini tugatgan taqdirda ham Markaziy saylov komissiyasi tomonidan o'z maqomidan mahrum etilishi mumkin.

Prezidentlikka nomzod 15 nafargacha ishonchli vakilliklarga ega bo'lishi mumkin. Ishonchli vakillar nomzodga Prezident etib saylash uchun targ'ibot, tashviqot yuritadilar, davlat organlari va jamoat birlashmalarining organlari, saylovchilar bilan o'zaro munosabatlarda, shuningdek, saylov komissiyalarida nomzodning manfaatlarini himoya qiladilar.

Prezidentlikka nomzod ro'yxatga olingandan keyin o'z ishonchli vakillarini o'zi belgilaydi va Markaziy saylov komissiyasi ishonchli vakillarini ro'yxatga olib, ularga guvohnoma beradi.

4-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari

Prezident Konstitutsiyaviy vakolatlarining ko'lamini uning davlat va ijroiya hokimiyatining boshlig'i ekanligidan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi ko'plab vakolatlarni beradi. Prezident faqat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'rnatilgan vakolat doiralaridagina faoliyat ko'rsatadi. Prezidentning Konstitutsiyaviy vakolatlari davlat va jamiyat hayoti faoliyatining eng muhim sohalarini qamrab oladi.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlar tajribasida davlat boshlig'ining Konstitutsiyaviy vakolatlari tarixiy rivojlanish bosqichlarining, shu davlatda istiqomat qilayotgan xalqlarning milliy kelib chiqish xususiyatlari va jo'g'rofiy joylashuvining ta'sirida turli xil belgilangan bo'ladi. Asosan, davlat boshlig'ining Konstitutsiyaviy vakolat muddatlari diqqatga sazovordir. Masalan: AQSH, Rossiyada 4 yil, Fransiya, Ukraina, Germaniya, Braziliyada 5 yil, Meksika, Misrda 6 yil, Italiya,

Isroilda 7 yil. Prezident vakolat muddatlarining bunday tartibda belgilanganligi yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, har bir millat va elatlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida o'tkazilgan 2002-yil 27-yanvardagi referendum, mustaqillikdan keyingi davrning eng muhim O'zbekiston tarixida munosib o'rin egallaydigan davlat boshqaruvining takomillashtirish rejalarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II chaqiriq sakkizinchi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi-ning «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunning 8-moddasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning Konstitutsiyaviy vakolat muddati mustahkamlangan: «Umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirish ovoz berish yo'li bilan saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy vakolat muddati – yetti yil», deb belgilanganligi davlat boshlig'ining o'z xalqi oldiga qo'ygan vazifasini bajarish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Prezidentning asosiy vazifasi – davlatning birligini mamlakat ichida va tashqarisida namoyon qilishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining quyidagi yo'nalishlarida uning Konstitutsiyaviy vakolatlari yaqqol namoyon bo'ladi:

1. Avvalambor, O'zbekiston Prezidenti fuqarolar huquq va erkinliklarining kafilidir. Bu shuni bildiradiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti inson huquqlarini himoya qilish mexanizmining uzluksiz ishlashi uchun shaxsan javobgar, biror sabab bilan ushbu huquq va erkinliklar amalga oshirilishi buzilgan hollarda tegishli choralar ko'rishga majbur. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning ta'sirchan mexanizmini yaratish, xalqaro huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat organlari xodimlari va butun aholining inson huquqlari masalalari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida, BMTning demokratiyalash, inson huquqlari va boshqaruv tizimini qo'llab-quvvatlash borasidagi tavsiyalariga muvofiq, O'zbekiston Prezidenti 1996-yilning 31-oktabridagi farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tashkil qildi.

Prezident inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan hamda aholining alohida ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini, masalan, nafaqaxo'rlar, nogironlar va davlat

tomonidan himoyaga muhtoj fuqarolarni muhofaza qilishga yo'naltirilgan qonunlar, farmonlar chiqarish orqali o'zining inson huquq va erkinliklarining kafili sifatidagi funksiyasini bajarib kelmoqda.

2. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir. Prezident o'z vakolatlarini amalga oshirib, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarining o'z Konstitutsiyaviy majburiyatlarni zarur darajada bajarishlarini ta'minlaydi. U xatti-harakatlari Konstitutsiya talablariga javob bermayotgan organlar va shaxslarga bevosita murojaat qilish orqali ham, shu sohadagi vakolatli organlar, xususan sudlar vositasida ham bunga erishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyada belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'radi. Suverenitetni muhofaza qilish davlat hokimiyati barcha tarmoqlarining faoliyat ko'rsatishi orqali ta'minlanadi. Shuning uchun Prezident maxsus vakolatlarga ega, xususan, favqulodda vaziyatlar (mavjud tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiya-lar) yuz berganda shaxsan o'zi tezkor qarorlar qabul qiladi. Masalan, u fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi, qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida Respublika Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi.

3. Prezident davlat boshlig'i sifatida xalqaro munosabatlar sohasida muhim vakolatlarga ega. Bunda u muhim vakillik funksiyasini bajaradi. Bu funksiyani u yakka o'zi shaxsan amalga oshiradi.

Prezident mamlakat ichida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish yuritadi.

Prezident xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining vakilidir. Bu yerda Prezident O'zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlari subyekti, suveren va mustaqil mamlakat sifatida namoyon qiladi. Bu shuni anglatadiki, faqat Prezidentgina shartnoma va bitimlarga imzo chekishi, muzokaralarda O'zbekiston nomidan qatnashishi, Respublika-ni xalqaro majburiyatlari bajarilishini ta'minlashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnoma va bitim-lari qonun qabul qilish orqali O'zbekiston Oliy Majlis palata-

lari tomonidan ratifikatsiya qilinishi kerak. Xalqaro shartnoma va bitimning ratifikatsiya qilinganligi ratifikatsiya yorlig'i bilan tasdiqlanadi. Ratifikatsiya yorlig'iga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti imzo chekadi. Ikki tomonlama shartnoma va bitimlar tuzilganda uning ishtirokchilari ratifikatsiya yorliqlarini almashadilar. Ko'ptomonlama shartnomalarda ratifikatsiya yorlig'i depozitariy davlatga yoki xalqaro shartnoma matnini saqlovchi xalqaro tashkilotga berib qo'yiladi.

Prezidentning tashqi siyosat sohasidagi muhim vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

— Akkreditatsiyadan o'tgan elchilar va boshqa diplomatik vakillarga ishonch va chaqirib olish yorliqlarini topshirish;

— O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatiga O'zbekiston Respublikasining chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlardagi elchilari va boshqa diplomatik vakillari nomzodlarini tayinlash va vazifasidan ozod qilish to'g'risida taqdim kiritadi.

Yorliqlar topshirilayotganda, odatda, Tashqi ishlar vaziri qatnashadi. Diplomatik vakil o'zining nomi, davlatning nomi, davlat boshlig'ining nomini aytadi, yorliqni O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga topshiradi. Ko'pincha yorliqlar topshirish uchun bir nechta yangi elchilar yig'ilishadi. Yorliqlar topshirilgach, O'zbekiston Prezidenti yangi elchi bilan qisqacha suhbatlashadi. Prezidentning ishonch yorlig'ini qabul qilishi shuni anglatadiki, tayinlangan va O'zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy davlat elchisi yoki diplomatik vakil, xalqaro tashkilot vakili akkreditatsiyadan o'tgan, ya'ni rasmiy ravishda mamlakatimizda o'z majburiyatlarini bajarishga kirishgan, deb hisoblanadi.

Xorijiy davlat elchisi, xalqaro tashkilot hamda xorijiy davlatning diplomatik vakili funksiyasini bajarishining to'xtatilishi Prezidentga chaqirib olish yorlig'ini topshirish orqali rasmiylashtiriladi.

Chet el davlatlarida O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatlarining boshliqlarini tayinlash va chaqirib olishning tartibi «Xorijiy davlatlardagi O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining boshliqlarini tayinlash va ularni chaqirib olish to'g'risida» gi 1992-yil 3-iyuldagi qonun bilan belgilanadi. Bu qonun «Diplomatik aloqalar to'g'risida» gi 1961-yilgi Vena konvensiyasi hamda boshqa umume'tirof etgan xalqaro-huquqiy normalar va qoidalarga to'la mos keladi.

Diplomatik vakolatxona boshlig'i lavozimiga nomzodni Tashqi ishlar vazirligi manfaatdor organlarning kelishuvini

olgan holda tavsiya etadi. Favqulodda va muxtor elchi yoki favqulodda va muxtor vakilning belgilangan mamlakatga jo'natilishidan oldin Tashqi ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti imzo chekkan va tashqi ishlar vazirining imzosi qo'yilgan, belgilangan davlat boshlig'iga berish uchun mo'ljallangan ishonch yorlig'ini tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasining boshlig'ini chaqirib olish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

Birinchidan, diplomatik vakolatxona boshlig'i almashtirilganda;

Ikkinchidan, diplomatik vakolatxona boshlig'i nomaqbul shaxs (person non grata) deb e'lon qilinganda;

Uchinchidan, davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni uzilganda;

To'rtinchidan, davlatlar o'rtasida urush holati e'lon qilinganda;

Beshinchidan, davlat xalqaro huquq subyekti sifatida mavjudligini tugatganda.

4. Konstitutsiyada belgilab qo'yilganidek, Prezident mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan Oliy Majlis palatalariga har yili ma'lumotnoma taqdim etadi. Uning ma'lumotnomasi normativ hujjat hisoblanmaydi. Bu axborot siyosiy tusga ega bo'lib, mamlakatni rivojlantirishning dasturiy prinsiplari va strategik vazifalarini o'z ichiga oladi.

Ma'lumotnomada O'zbekiston Prezidentining mamlakat kelajagini qanday tasavvur qilayotganligi bayon etiladi. Jumladan, O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning quyidagi chiqishlarini ko'rsatib o'tish mumkin: 1995-yil 23- fevraldagi birinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasidagi «O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy tamoyillari», 1996-yil 29- avgustdagi milliy parlamentning oltinchi sessiyasidagi «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim vazifalari», 1999-yil 14- aprelda o'n to'rtinchi sessiyadagi «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», 2000-yil 22-yanvarda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasidagi «Oliy maqsadimiz — Vatan ozodligi va obodligi, xalq erkinligi va farovonligi» mavzusidagi chiqishlari va 2005-yil 28-yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisida «Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya

va isloh etishdir» ma'ruzasida davlatning tashqi va ichki siyosatining asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tildi. Prezidentning bu nutqlarida davlatning strategik siyosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijroiya hokimiyatini tuzish bilan bog'liq vakolatlari ancha keng bayon qilingan. Bunday vakolatlarning ko'pchiligiga quyidagi ikkita sabab bor:

Birinchidan, Prezident bo'lib saylangan shaxsning dasturi umumxalq saylovlari orqali qo'llab-quvvatlangani uchun u ijro hokimiyat organlarini tuzishda ma'lum vakolatlarga ega bo'lishi kerak. Chunki uning dasturini bajarish asosan, ijro hokimiyati organlari zimmasiga tushadi, ularni tuzishda Prezidentning vakolatlari juda muhim o'rin tutadi;

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asoslaridan biri bo'lmish hokimiyatlarning bo'linishi prinsipi davlat hokimiyatining biror organi faqat bir hokimiyat tarmog'i tomonidan tuzilishini istisno qiladi. Shuning uchun davlat hokimiyatining markaziy organlarini tuzishga ham Prezident, ham Oliy Majlis jalb qilingan. Bunga ikki yo'l bilan erishiladi: Prezident muayyan mansabdor shaxslarni tayinlaydi, Oliy Majlis palatalari esa ma'qullaydi yoxud Oliy Majlis palatalari tayinlaydi, nomzodni esa Prezident taklif qiladi.

Ijro hokimiyati organlarini tashkil qilishda Prezidentning vakolatlari juda keng. Prezident Bosh vazir nomzodini Oliy Majlis palatalariga kiritadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni Oliy Majlis Senatining tasdig'iga kiritadi. Shuningdek, Prezident viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi, bu masalalarni tegishli xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga qo'yadi. Prezident o'z qarori bilan Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini lavozimidan ozod etishga haqli. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi. Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalaga doir fapmonlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati taqdimiga kiritadi.

6. Sud hokimiyati organlariga kelganda, shuni aytish mumkinki, Prezident Oliy Majlis Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo'jalik sud

raisi va sudyalari nomzodlarini taqdim etadi. Shuningdek, Prezident viloyat, tuman, tumanlararo shahar, harbiy va xo'jalik sudi sudyalarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi. Prezidentning taqdimiga binoan, Oliy Majlis Senati Markaziy Bank boshqaruvi raisi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi.

Faqat ijro hokimiyati organlarini tuzishgina emas, balki ularning faoliyati bilan bog'liq sohada ham Prezidentga katta vakolatlar berilgan. Konstitutsiyaga muvofiq Prezident ijro hokimiyatining boshlig'i hisoblanadi.

Agar Respublika boshqaruv organlarining, shuningdek, hokimlarining qabul qilgan hujjatlari Konstitutsiya va qonunlarga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga zid bo'lsa yoki ular inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini poymol qilsa, ushbu masala tegishli sudda hal qilinmaguncha Prezident bu hujjatlarni to'xtatish yoki bekor qilishga haqli.

Bilasizmi, Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi hatto Federal Prezidentni yetarli asoslar mavjud bo'lganda vakolatidan chetlatish huquqiga ham ega ekan.

7. Prezidentning Respublika davlat va boshqaruv oliy organlarining o'zaro hamkorligini ta'minlashdagi vakolatlari ham bor. Buning uchun u Konstitutsiyada o'rnatilgan, Oliy Majlisga ta'sir o'tkazish (XVIII bob), Vazirlar Mahkamasiga ta'sir o'tkazish (XX bob) dastaklaridan foydalanishi, ba'zi hollarda sudga murojaat qilishi, masalani Konstitutsiyaviy sud ko'rib chiqishi uchun taqdim etishi mumkin.

Prezident O'zbekiston Respublikasi vazirliklarini, davlat qo'mitalarini hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, buni Oliy Majlis palatalarining tasdig'iga kiritadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlash uchun Prezident Konstitutsiyada ko'rsatilgan boshqa vositalardan ham foydalanish imkoniga ega. Lekin Prezidentning davlat va ijro hokimiyati boshlig'i sifatidagi obro'si hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki u to'g'ridan-to'g'ri umumiy saylovlarda xalq topshirgan siyosiy mandaatga ega.

8. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qonunlarni imzolaydi. Prezidentning imzosi bo'lmasa, qonun kuchga kirmaydi. Bu davlat boshlig'ining an'anaviy funksiyasi bo'lib, qonunga majburiy kuch beradi va qonun chiqaruvchilik

jarayonini yakunlaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-ning Senati ma'qullagan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun Prezidentga o'n kun ichida yuboriladi. Prezident esa o'ttiz kun ichida qonunni imzolaydi hamda qonun matbuotda e'lon qilinadi.

Qonunni imzolash uning xalqqa e'lon qilinganligini, ya'ni uni ommaga bildirganligini anglatadi. Bunday rasmiy e'lon qilish — Oliy Majlis qabul qilgan va Prezident imzolagan qonun matnini rasmiy maqom berilgan matbuot organida nashr etishdir. Qonun butun O'zbekiston Respublikasi hududida kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli. Konstitutsiyaviy huquqda bu «Prezident vetosi» nomini olgan bo'lib, boshqaruvning prezidentlik shaklidagi davlatlarga xosdir.

Veto — davlat boshlig'ining parlament qabul qilgan, lekin hali kuchga kirmagan qonunga e'tiroz bildirish huquqidir, O'zbekiston Konstitutsiyasida «Veto» atamasi ishlatilmagan. O'zbekiston Konstitutsiyasida Prezidentning o'z asoslangan e'tirozini bildirib, qonunni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarish huquqi haqida gapiriladi.

Qaytarish uchun asoslar ro'yxati Konstitutsiyada ko'rsatilmagan, lekin qonunni qaytarar ekan, Prezident bunday qaror-ning sababini asoslab beradi. Bunda Prezident umuman qonunga yoki uning biror qoidasiga e'tiroz bildirishi mumkin.

Agar Prezident tomonidan qaytarilgan qonunni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati a'zolarining umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi ma'qullasa qonun o'n to'rt kun ichida Prezident imzolashi va e'lon qilishi kerak bo'ladi.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat masalasidagi vakolatlari Konstitutsiyaning 93-moddasi 19-bandida aniqlanib ifodalangan. Faqat Prezidentgina butun Respublika hududida favqulodda holat joriy etishga haqli. U qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida Oliy Majlisning palatalari tasdig'iga kiritadi. Lekin Prezident bunday qarorni qabul qilishda erkin emas, chunki favqulodda holat faqat qonunda belgilangan hollarda va tartibdagina joriy etiladi.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining harbiy sohadagi vakolatlari ancha keng. U Respublika Qurolli Kuchlarining Oliy

Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning Oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, Xavfsizlik kengashini tuzadi va unga rahbarlik qiladi, oliy harbiy unvonlarni beradi.

Prezidentning Oliy Bosh qo'mondon ekanligi Mudofaa vazirligiga har qanday buyruqlar berishiga imkon tug'diradi. Mudofaa vaziri amalda bevosita Prezident rahbarligida ishlaydi. Urush yoki agressiya holatida Prezident har qanday vaqtda Qurolli kuchlarga boshchilik qilishni o'z qo'liga olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tajovuzdan, bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilishga haqli, u bu qarorini uch kun mobaynida mamlakat Oliy Majlisining palatalarinig tasdig'iga kiritadi.

11. Davlat boshlig'i sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari jumlasiga fuqarolik, siyosiy boshpana berish kabi masalalarni hal qilish kiritilgan.

O'zbekistonda yagona fuqarolik o'rnatilgan bo'lib, unga qanday asoslarda ega bo'lishidan qat'i nazar barcha uchun tengdir (Konstitutsiyaning 21-moddasi). Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotishning asos va tartiblari O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik to'g'risida» gi qonuni bilan belgilanadi. Qonunning 30-moddasida Prezidentning fuqarolik masalalari bo'yicha vakolatlari belgilangan.

Prezident bu masala bo'yicha quyidagi qarorlarni qabul qiladi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish;

Ikkinchidan, xorijda yashayotgan tegishli iltimosnoma bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat qilgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish;

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga tiklash to'g'risida;

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqarish to'g'risida;

Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo'qotganlik to'g'risida.

Yuqorida aytilgan masalalarni dastlabki ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida fuqaro-

lik masalalari bo'yicha komissiya tuzilgan. U har bir ariza yoki iltimosnomaning Prezident ko'rib chiqishiga tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini qabul qilish va undan chiqishining batafsil tartibi (zarur hujjatlari, ular qayerga yuborilishi kerak va hk.). «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishning tartibi to'g'risidagi qoidalar» bilan tartibga solinadi. U 1992-yil 22-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalari bo'yicha Prezident farmon chiqaradi.

Siyosiy boshpana — o'z mamlakatida siyosiy vajlarga ko'ra ta'qib qilinayotgan xorijiy shaxsga, fuqaroligi bo'lmagan shaxsga boshqa mamlakatda yashash huquqini berishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xorijiy shaxsga yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsga siyosiy boshpana berilishi shuni anglatadiki, bu odam O'zbekistonga kelishi mumkin va jinoyatchi sifatida boshqa davlatga berilmaydi. Odatda siyosiy boshpana siyosiy faoliyati, ilmiy va madaniy vajlar uchun, milliy va diniy vajlar tufayli ta'qib qilinayotgan shaxslarga beriladi. Siyosiy boshpana huquqi 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (14-modda) va BMT Bosh Assambleyasining 1967-yil 14-dekabrda rezolutsiyasi bilan qabul qilingan hududiy boshpana to'g'risidagi deklaratsiyada nazarda tutilgan, lekin rezolutsiya faqat tavsiya xususiyatiga ega. Siyosiy boshpana olish uchun zarur bo'lgan shartlarni belgilash — boshpana berayotgan davlatning suveren huquqidir. Faqat O'zbekiston Respublikasining Prezidentigina siyosiy boshpana berish to'g'risidagi qaror qabul qilishga vakolatlidir.

12. Davlat mukofotlari va faxriy unvonlar — davlatning iqtisod, fan, madaniyat, san'at, Vatanni himoya qilish va ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi yuksak xizmatlari uchun fuqarolarni rag'batlantirishning oliy shaklidir.

Konstitutsiyaga muvofiq davlat mukofotlari (ordenlar, medallar, yorliqlar) bilan taqdirlash O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi. U oliy harbiy unvonlar (masalan, armiya generali), oliy malakaviy unvonlar (masalan, diplomatik daraja), oliy maxsus unvonlar (masalan, amaldagi davlat adliya maslahatchisining toifa darajasi)ni beradi. Fan va texnika, adabiyot va san'at sohasidagi davlat mukofotlari bo'yicha komissiyaning qarori Prezident farmonlari bilan tasdiqlanadi. Faqat O'zbekiston Respublikasining fuqarolarigina emas, balki xorijiy fuqarolar hamda fuqaroligi

bo'lmagan shaxslar ham davlat mukofotlari va faxrli unvonlar bilan mukofotlanishi mumkin. Masalan, 1996-yil aprelda fransuz olimi, professor L. Keren Amir Temur merosini o'rganishga qo'shgan katta hissasi uchun «Shuhrat» medali bilan mukofotlandi.

Mukofotlangan shaxs qasddan jinoyat sodir etganda sudning taqdimnomasiga binoan faqat Prezident tomonidan davlat mukofotlaridan mahrum qilinishi mumkin (Prezidentning maxsus farmoni chiqariladi).

13. Amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida Oliy Majlisning Senatiga taqdimnoma kiritadi. Amnistiya – jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to'la yoxud qisman ozod qilish yoki ilgari sud tayinlagan jazoni o'tagan shaxslarning sudlanganligini olib tashlashdir. Amnistiya e'lon qilinishi bilan jazoni o'tayotgan shaxslar uni o'tashdan ozod qilinadilar yoki jazo muddati qisqartiriladi. Agar ayblanuvchi ishning amnistiya bo'yicha to'xtatilishiga e'tiroz bildirsa, ushbu ish tergov va sud yurituvida davom etadi. Sud ayblanuvchini aybdor deb topsa, shu amnistiya hujjatida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra to'xtatiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston sudlari tomonidan hukm qilingan fuqarolarni afv etadi. Afv etish to'g'risidagi qarorni qabul qilar ekan, Prezident inson huquqlari va erkinliklarining kafolati sifatida maydonga chiqadi. Chunki mahkumning O'zbekiston Prezidentiga murojaat qilishi – jinoiy jazo chorasini qandaydir darajada bo'lsada o'zgartirishning so'nggi imkoniyatidir.

Amnistiyadan farqli ravishda afv – individual hujjat, ya'ni muayyan shaxs yoki shaxslar guruhiga taalluqli hujjatdir. Afv hukm qonuniy kuchga kirgan jinoyati uchun sudlangan shaxsni jazodan ozod qilish yoki jazoni yumshatishdir. Afv etish reabilitatsiyadan farq qiladi. Reabilitatsiya (oqlash) ham individual hujjat, lekin u oqlangan shaxs noqonuniy hukm qilinganini bildiradi. Afv esa hukmning to'g'riligini tasdiqlaydi, lekin mahkumning holatini yengillashtiradi (jazo chorasini o'zgartirish, jazoni o'tashdan ozod qilish).

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

14. Konstitutsiyaning 95-moddasi ko'p mamlakatlarda mavjud bo'lgan davlat boshlig'ining parlamentni tarqatib yuborish institutiga bag'ishlangan.

Parlamentni tarqatib yuborish — uning vakolatlari tugaguncha, yangi saylovlar belgilanguncha parlament faoliyatining to'xtatilishidir.

Parlamentni tarqatib yuborish hokimiyatlarning bo'linishi prinsipini amalga oshiradigan muvozanatlar va ziddiyatlar tizimining muhim elementidir.

Prezident Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatini faqat Konstitutsiyada aniq belgilangan hollardagina tarqatishi mumkin.

Birinchidan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining tarkibida uning faoliyatini tahdidga soladigan, hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda;

Ikkinchidan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati bir necha marta Konstitutsiyaga zid qarorlar qabul qilganda;

Uchinchidan, tarqatib yuborishga Konstitutsiyaviy sudning roziligi bo'lganda.

Demokratik tuzumdagi parlamentni tarqatib yuborish instituti uchun ikki tomonlama bir xil yuridik aloqa xosdir: parlament tarkibi faoliyatining to'xtatilishi va yangi saylovlarning belgilanishi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 95-moddasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati tarqatilgan taqdirda, uch oy mobaynida, unga yangi saylovlar o'tkazilishi ko'rsatilgan.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 95-moddasining 3-qismida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining tarqatib yuborilishini cheklovchi qoida belgilab qo'yilgan. Masalan, butun O'zbekiston hududida favqulodda holat joriy qilingan bo'lsa, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining tarqatilishi mumkin emas. Bunday, alohida favqulodda vaziyatda davlat amaldagi parlamentsiz qolishi mumkin emas.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisi palatalarini tarqatib yuborish huquqi mutlaq emas, chunki bu Konstitutsiyada qat'iy belgilangan vaziyatlar bilan chegaralangan.

5-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar

Konstitutsiyaning 94-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan mamlakatning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'z vazifalari va Konstitutsiyaviy vakolatlarini amalga oshirish maqsadida ko'pqirrali huquq ijodkorligi faoliyatini yuritadi.

Iordaniyada davlat boshlig'i qonun kuchiga ega bo'lgan dekretlar ham chiqaradi.

Prezident butun O'zbekiston hududida bevosita amal qiladigan, majburiy kuchga ega bo'lgan uch xil normativ-huquqiy hujjat:

- 1) farmonlar;
- 2) qarorlar;
- 3) farmoyishlar chiqaradi.

Farmon – aniq bo'lmagan jismoniy va yuridik shaxslarga taalluqli bo'lib, uzoq muddatga amal qiladi. Farmon – normativ-huquqiy hujjat. U huquqni qo'llash xususiyatiga ham ega bo'lishi mumkin va demakki, normativ mazmunga ega bo'lmasligi ham mumkin. Normativ mazmundagi farmonlar nashr etiladi, masalan, u yoki bu shaxsni biror lavozimga tayinlash to'g'risida.

Farmoyish – individual tashkiliy xususiyatdagi hujjatdir.

Prezident chiqaradigan hujjatlar uning o'zi tomonidan mustaqil chiqariladi. Prezident chiqaradigan farmonlar, qarorlar, farmoyishlar Konstitutsiya va qonunlarga zid bo'lmasligi shart. Chunki ular Konstitutsiya va qonunlar asosida, ularni bajarish maqsadida chiqariladi. Prezident chiqargan normativ hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risidagi masala, zaruriyat tug'ilganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi tomonidan hal qilinadi (Konstitutsiyaning 109-moddasi). Ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Konstitutsiyaviy sud butun hujjat yoki uning ayrim qoidalari Konstitutsiyaviy yoxud g'ayrikonstitutsiyaviy ekanligi haqida qaror qabul qilishi mumkin. Shu tariqa Prezident hujjatlarining Konstitutsiyaviy bo'lishi kafolati ta'minlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari qonun osti hujjatlari deb atalmaydi. Lekin ular Konstitutsiya va mamlakat qonunlariga zid bo'lmasligi shart (16-modda). Lekin «Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan» deyilgan Konstitutsiyaviy bayon qilish, shuningdek, faqat qonun tomonidan tartibga solinadigan masalalar ro'yxatining Konstitutsiyada mavjud emasligi – Prezidentning huquq ijodkorligi faoliyatini keng talqin qilishga imkon beradi. Biror masalani qonun bilan

tartibga solish mavjud bo'lmagan hollarda, Prezident oldindan ushbu masala yuzasidan normativ farmon chiqarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ-huquqiy hujjatlari «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xabarnomasi» va shuningdek, Respublika gazetalarda rasman e'lon qilinadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik lavozimi qachon joriy qilindi?
2. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik lavozimining joriy etilishi O'zbekiston taraqqiyot rivojlanishida qanday ahamiyatga ega bo'ldi?
3. «O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik saylovi to'g'risida»gi qonun qachon qabul qilingan?
4. «O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik saylovi to'g'risida»gi qonun bo'yicha kimlar Prezidentlikka nomzod ko'rsatish mumkin?
5. O'zbekiston Respublikasida Prezident qachondan boshlab lavozimga kirishgan hisoblanadi?
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy vakolatlarini sanab bering.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qanday normativ hujjatlar qabul qiladi?
8. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik saylovi qaysi qonun bilan tartibga solinadi?
9. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlikka nomzodning saylov jarayonida qanday kafolati ko'rsatib o'tilgan?
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijro hokimiyatini shakllantirishdagi tartibini ayting.

X BOB

VAZIRLAR MAHKAMASI — O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUKUMATI

1-§. Davlat hokimiyati oliy organlari tizimida Vazirlar Mahkamasining o'rni va roli

Hukumat bu — davlat boshqaruvida markaziy organ hisoblanib, Konstitutsiya va qonunlar asosida mamlakatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. Hukumat shu bilan birga, jamoat tartibi va xavfsizlikning ta'minlanishini nazorat qiladi, shuningdek, davlat boshqaruvining boshqa idoralariga umumiy rahbarlik qiladi.

Turli mamlakatlarda hukumat turli nomlar bilan atalishi mumkin. Masalan, Ministrlar Kengashi (Hindiston), Kabinet (Yaponiya), Ministrlar Kabineti, Davlat Kengashi (Shvetsiya, Norvegiya, Finlandiya), Federal kengash (Shveytsariya), Federal Hukumat (Germaniya), Hukumat (Chexiya, Kolumbiya) va hokazo. O'zbekiston Respublikasida hukumat «Vazirlar Mahkamasi» deb nomlangan bo'lib, «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunga binoan, u O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi, ijro etuvchi hokimiyat organidir⁹⁹.

Shuni qayd etish kerakki, har qanday demokratik davlatda parlament va davlat boshlig'i tomonidan qabul qilinadigan huquqiy hujjatlarning hayotdagi ijrosi bevosita hukumat faoliyatiga bog'liq.

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga rahbarlik qiladi, ularning hamjihatlik bilan ishlashini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiyallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi

⁹⁹ «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonuni (yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1993, № 5, 6-3-8-modda.

barcha millat va elatlarning manfaatini hisobga olish prinsip-lariga tayangan holda, o'z faoliyatini bevosita amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi qonun bilan belgilab qo'yilgan o'z tarkibiga ega. Unga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi tarkibiga Bosh vazir, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari, davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari kiradi.

Davlat hokimiyati organlarining ishini zamon talablariga muvofiq ravishda tubdan yaxshilamay turib islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyat turmushining barcha sohalarini erkinlashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan kuchli va adolatli hokimiyat, demokratik fuqarolik jamiyati, kelajagi buyuk davlatni barpo etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Referendum qarorlarini hayotga tatbiq etish uchun, eng avvalo, umumxalq ovoz berishi natijalarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarida aks ettirish lozim bo'ldi. Referendum yakunlari fuqarolik jamiyati institutlari to'g'risidagi, davlat hokimiyatini tashkil etish tizimini, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va uning palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va sud hokimiyatining Konstitutsiyaviy maqomini tartibga soluvchi yangi qonunlarni ishlab chiqish va amaldagi qonunlarini takomillashtirishni taqozo etdi¹⁰⁰.

Yuqoridagilarga asoslangan holda 2003-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuni qabul qilindi.

2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendum natijalariga ko'ra hamda uning asosida 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan¹⁰¹. Mazkur o'zgartish va qo'shimchalarga binoan Konstitutsiyaning 89-moddasidagi

¹⁰⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 4-aprel 2002-yildagi 351-II sonli qarori bilan tasdiqlangan «2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumining yakunlari bo'yicha amalga oshiriladigan qonunchilik ishlarining asosiy yo'nalishlari».

¹⁰¹ «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonuni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2003-yil 21-may.

«O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi» degan so'zlardan iborat ikkinchi xatboshisi olib tashlandi.

Konstitutsiyaning 98-moddasi hamda yangi tahrirdagi qonunning 15-moddasiga ko'ra, Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi.

2-§. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shakllanish tartibi va tarkibi

Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi. Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish Senat va Qonunchilik palatasining birgalikdagi vakolatlariga kiritilgan bo'lib, qoida tariqasida, ushbu masala avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi. Bosh vazirni o'z lavozimidan ozod qilish masalasini esa Prezidentning shaxsan o'zi hal qiladi. Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi hamda vazifasidan ozod qilinadi, ya'ni Vazirlar Mahkamasi a'zolarining nomzodi Bosh vazir tomonidan ko'satiladi¹⁰².

Vazirlar Mahkamasining doimiy organlari sifatida Bosh vazir va uning o'rinbosarlaridan iborat tarkibdagi Vazirlar Mahkamasining Rayosati faoliyat ko'rsatadi. Vazirlar Mahkamasi Raisining qaroriga binoan Vazirlar Mahkamasi Rayosatining tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Hukumatining boshqa a'zolari ham kiritilishi mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi yuqori organlarining qarorlarini hayotga tatbiq etishga ko'maklashish, Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlarning qanday bajarilayotganligini nazorat qilish hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish

¹⁰² Qarang. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibini tasdiqlash to'g'risida» // «Xalq so'zi» gazetasi, 2005-yil 5-fevral.

maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan uning doimiy komissiyalari tuzilishi mumkin. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunning 19-moddasiga binoan Vazirlar Mahkamasi o'zining doimiy komissiyalarining vazifalari, funksiyalari hamda faoliyat tartibini belgilaydi.

Bundan tashqari davlat va xo'jalik boshqaruvining alohida masalalari bo'yicha takliflar tayyorlash, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining alohida topshiriqlarini bajarish uchun Vazirlar Mahkamasining vaqtinchalik komissiyalari va ishchi organlari tuzilishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining doimiy, vaqtinchalik komissiyalarining hamda ishchi organlarining hujjatlari majlis bayonlari bilan rasmiylashtiriladi hamda tegishli ijrochilarga yetkaziladi. Ko'rsatib o'tilgan komissiyalar va ishchi organlarning majlis bayonlari ularga boshchilik qilayotgan rahbarlar tomonidan imzolandi.

Doimiy komissiyalar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan materiallarni tayyorlash hamda komissiyalar qarorlarining bajarilishini nazorat qilish Bosh vazir o'rinbosarlarining kotibiyatlari, departamentlar va bo'limlar oldiga qo'yiladi. Zarurat bo'lganda bu materiallarni tayyorlashga vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, boshqa manfaatdor tashkilotlarning mutaxassisleri jalb qilinadi.

Doimiy va vaqtinchalik komissiyalarning majlislari Vazirlar Mahkamasining Rayosati tomonidan tasdiqlanadigan yilning har choragidagi rejalari asosida o'tkaziladi. Doimiy va vaqtinchalik komissiyalarning rejadan tashqiri majlislari Vazirlar Mahkamasi Rayosatining roziligi bilan o'tkaziladi¹⁰³.

Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etish maqsadida maxsus apparat (devon) tashkil etiladi. Qonunning 21-moddasiga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining Apparati Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislarini, tegishli qarorlar loyihalarini, tashkiliy, axborot va boshqa materiallarni tayyorlash, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining bajarilishini muntazam ravishda tekshirib borilishini tashkil etadi. Vazirlar Mahkamasining Apparati va uning bo'linmalari to'g'risidagi Nizom Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Jumladan,

¹⁰³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1-iyun 2002-yil «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ish tartibiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 193-soni qarori tahriridagi band

Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 20-maydagi 248-sonli «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Apparati tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorida Vazirlar Mahkamasi Apparatining ortiqcha bo'g'inlarini qisqartirish, boshqarishning tarmoq tizimidan funksional tizimga o'tishni ta'minlash va shu asosda hokimiyatning ijro etuvchi organlari faoliyati samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan.

Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi tuzilmasi 2004-yil 12-sentyabdagi 475-sonli Qaroriga muvofiq tuzilgan¹⁰⁴.

Vazirlar Mahkamasi qonun asosida o'z faoliyatini qaytadan tashkil qila boshlagandan keyin esa Apparatning (devon) asosiy tarkibiy bo'linmalari rahbarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazir tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Vazirlar Mahkamasining devoni o'z ish faoliyatini mavjud Konstitutsiyaviy asoslar, qonunlar, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining Reglamenti¹⁰⁵ asosida olib boradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 22-dekabrda «Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi farmonda 16 ta turli sohadagi xo'jalik boshqaruv organlari takomillashtirildi.

3-§. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining asosiy funksiyalari

O'zbekiston Respublikasi Hukumati – Vazirlar Mahkamasining vakolatlari va faoliyatining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq belgilab qo'yilgan. Jumladan, «Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, qonunlar, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlashi»¹⁰⁶ belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi Qonunga

¹⁰⁴ Qarang : «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2004-yil, 48-49-son, 494-modda

¹⁰⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 14-fevraldagi 62-son qaroriga ilova // O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, 2005-yil, fevral

¹⁰⁶ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: «O'zbekiston», 2003.

asosan Hukumat, ya'ni Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Iqtisodiyot sohasidagi faoliyat;
- Ma'muriy-siyosiy sohadagi faoliyat;
- Ijtimoiy-madaniy sohadagi faoliyat.

Nazariy jihatdan olganda, Hukumat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini yanada aniqroq ko'rsatib o'tish mumkin. Masalan, rus olimi M.V.Baglayning fikricha, Hukumat faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Siyosiy sohadagi faoliyat;
- Ma'muriy-boshqaruv sohasidagi faoliyat;
- Qonunchilik sohasidagi faoliyat;
- Tashqi siyosat sohasidagi faoliyat;
- Iqtisodiyot sohasidagi faoliyat;
- Ijtimoiy sohadagi faoliyat va hokazolar¹⁰⁷.

Vazirlar Mahkamasining vakolatlari, avvalambor, o'zining faoliyati yo'nalishlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni namoyon qilgan ekan, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatidan farqli ravishda, ijro faoliyatini amalga oshiradi. Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qarorlar, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishini ta'minlaydi, shuningdek, ijroiya hokimiyati tarkibiga kiruvchi davlat organlari ustidan boshqaruvni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasining vakolatlari aynan shulardan kelib chiqqan holda belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ma'muriy-siyosiy sohada juda keng vakolatlarga ega. Jumladan, Vazirlar Mahkamasi:

- Respublika boshqaruv tuzilmasini takomillashtiradi;
- O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari, davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqadi;
- Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi;
- Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat hamda xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

¹⁰⁷ Баглай М.В. Конституционное право зарубежных стран. — Москва: «Норма», 2001, 278-287-стр.

— Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat budjetida bo'lgan davlat boshqaruvi boshqa organlarining markaziy apparati xodimlarining soni va ularga sarflanadigan mablag'lar miqdorini belgilaydi;

— Vazirliklar, davlat qo'mitalari raislarining o'rinbosarlari, bosh boshqarmalar hamda davlat boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari, ularning o'rinbosarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi;

— Xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlari va vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hay'atlari a'zolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tashkil etiladigan xo'jalik boshqaruvi organlari a'zolarini tasdiqlaydi;

— O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va mudofaa qudratini oshirish, davlat chegaralarini qo'riqlashni ta'minlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi;

— Davlat boshqaruv organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o'tkazish hamda Respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtiradi, katta avariya-lar va falokatlarining, shuningdek, tabiiy ofatlarning oqibat-larini tugatish chora-tadbirlarini ko'radi;

— O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta'minlaydi, hukumatlararo shartnoma va bitimlar tuzadi hamda ularni bajarish chora-tadbirlarini ko'radi.

Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy sohadagi asosiy vakolat-lari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

— Iqtisodiy jarayonlarni boshqaradi: mulkchilikning barcha shakllarini uyg'unlashtirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni monopoliyalashtirishdan chiqarish, bozor iqtisodiyotining huquqiy mexanizmini ro'yobga chiqarish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart- sharoitlar yaratish;

— Xo'jalik yuritishning yangi shakllari – konsernlar, konsorsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va boshqa ana shunday tashkilotlarni barpo etishga va mustah-kamlashga ko'maklashadi, xalq xo'jaligi va aholi talablarini qondirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ular faoliyatini yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi;

— O'zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi, yagona narx siyosatini o'tkazish, mehnatga haq to'lash miqdorining belgilangan kafolatlarini va ijtimoiy ta'minot darajasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

— Respublika budjeti, shuningdek, O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy, ijtimoiy rivojlantirish istiqbollari va eng muhim dasturlarini ishlab chiqishni hamda ularning ijrosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijtimoiy-madaniy sohada ham keng vakolatlarga ega. Xalq ta'limiga rahbarlik, ilmiy, madaniyat-ma'rifat masalalari, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, mehnatni tashkil etish va kadrlar tayyorlashni tashkil etish bo'yicha vakolatlar yig'indisi Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy-madaniy sohadagi vakolatlari sirasiga kiradi.

Bu borada Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida:

— Fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

— Fuqarolarni ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qiladi, ularning mehnat qilish huquqini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi, ijtimoiy ta'minot tizimini takomillashtiradi;

— Sog'liqni saqlash, Xalq ta'limini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Yangi tahrirdagi qonunning 6-moddasiga binoan esa ushbu ikkala vakolat quyidagicha belgilangan:

— Vazirlarning o'rinbosarlari, davlat qo'mitalari raislarining o'rinbosarlari hamda davlat boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari va ularning o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

— O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tashkil etiladigan xo'jalik boshqaruvi organlarining rahbarlarini hamda ularning boshqaruvlarining a'zolarini, shuningdek, vazirliklar, davlat qo'mitalari idoralar hay'atlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda tasdiqlaydi.

Vazirlar Mahkamasi majlislarida davlat boshqaruvi, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishning eng muhim masalalari hal etiladi.

Vazirlar Mahkamasi majlislarida quyidagilar ko'rib chiqiladi:

— O'zbekiston Respublikasi budgetini tayyorlash va ijro etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hukumati ixtiyoridagi budgetdan tashqari davlat jamg'armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish masalalari;

— Boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish masalalari, O'zbekiston Respublikasi va uning ayrim mintaqalarini iqtisodiy, ijtimoiy madaniy rivojlantirish dasturlari loyihalari;

— Davlatning qimmatbaho qog'ozlarini chiqarish hajmi hamda O'zbekiston Respublikasi davlat ichki va tashqi qarzi ko'lamlari to'g'risidagi takliflar;

— Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish dasturlarining loyihalari va xususiylashtirishdan olingan mablag'lardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi takliflar;

— Belgilab qo'yilgan davlat narxlari qo'llaniladigan mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar ro'yxati;

— Qonunchilik tashabbusi tartibida Oliy Majlisga kiritiladigan O'zbekiston Respublikasi qonunlari loyihalari;

— Davlatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolash to'g'risida takliflar.

Vazirlar Mahkamasining ayrim vakolatlari boshqa qonunlarda ham o'z aksini topishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 1997-yilda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi qonunlarini tayyorlash to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasi Vazirlar Mahkamasining qonun loyihalarini tayyorlash borasidagi faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, unda Vazirlar Mahkamasining qonunchilik tashabbusiga doir vakolatlar belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining majlislari yilning har choragida kamida bir marta o'tkaziladi. Vazirlar Mahkamasining majlislarini Bosh vazir o'tkazadi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasining majlislarini tayyorlash va o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ish tartibi to'g'risida»gi qarori bilan belgilanadi.

† Bosh vazirning vakolatlari quyidagilardan iborat:

— O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazirning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

— Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi;

— Vazirlar Mahkamasining qarorlarini imzolaydi;

— O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi hamda hukumatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolaydi;

— Davlat va xo'jalik boshqaruvining Vazirlar Mahkamasi majlisida ko'rib chiqish talab etilmaydigan masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Bosh vazir o'z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi. Bosh vazir Vazirlar Mahkamasining ishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga muntazam ravishda axborot berib boradi. Bosh vazir yo'qligida uning vazifasini Bosh vazir o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

Bosh vazirning o'rinbosarlari vazifalar taqsimotiga muvofiq o'zlari rahbarlik qiladigan tarmoqlardagi ishlarning ahvoli uchun javob beradilar, ular tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni, ularning ishini nazorat qilishni amalga oshiradilar va ularga topshiriq beradilar, Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan takliflarni hamda qaror va farmoyishlar loyihalarini dastlabki tarzda ko'rib chiqadilar.

Vazirlar Mahkamasining a'zolari:

— O'zlariga topshirilgan faoliyat sohalari uchun javob beradilar;

— Vazirlar Mahkamasi majlislarida masalalarni ko'rib chiqishda ishtirok etadilar;

— Vazirlar Mahkamasining vakolatiga kiruvchi masalalarini ko'rib chiqish haqida takliflar kiritishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarini ishlab chiqishda tashabbus ko'rsatishlari mumkin;

— Korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda boshqa pul to'lanadigan lavozimni egallash, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega emaslar.

Vazirlar Mahkamasi majlislarida muhokama etish uchun masalalar vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari, idoralar, korporatsiyalar, kompaniyalar, konsernlar, uyushmalarning rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, ular bo'lmagan hollarda ularning birinchi o'rinbosarlari tomonidan kiritiladi.

Vazirlar Mahkamasining doimiy organi sifatidagi Rayosat majlislari muntazam, har oyda kamida bir marta o'tkaziladi.

Majlislarni Vazirlar Mahkamasining raisi yoki uning topshirig'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri olib boradi.

Zaruriyat tug'ilganda shoshilinch masalalarni ko'rib chiqish uchun Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosatining rejadani tashqari majlislari o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan har haftada Bosh vazir o'rinbosarlari, Axborot – tahlil boshqarmasi boshlig'i va Apparat rahbari ishtirokida yig'ilishlar o'tkaziladi. Ularda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini tashkil etish va hukumat apparatining joriy faoliyati masalalari ko'rib chiqiladi.

Vazirlar Mahkamasi Rayosatini ko'rib chiqishi uchun Vazirlar Mahkamasining vakolatiga kiruvchi har qanday masalalar kiritiladi (qonunga muvofiq faqat Vazirlar Mahkamasi majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalar bundan mustasnodir).

Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislarida ko'rib chiqish uchun masalalarni tayyorlash Bosh vazir o'rinbosarlarining kotibiyatlari, Axborot – tahlil boshqarmasi, departamentlar, boshqa bo'linmalar Bosh vazir o'rinbosarlarining hamda Apparat rahbari boshchiligida tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, korporatsiyalar, kompaniyalar, konsernlar, uyushmalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ish tartibi to'g'risida»gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasiga masalalar kiritish huquqiga ega bo'lgan davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Zarur hollarda masalalarni tayyorlashni Vazirlar Mahkamasi yoki uning Rayosati tomonidan tuziladigan komissiyalar amalga oshiradilar.

Vazirlar Mahkamasi yoki uning Rayosati majlisiga kiritiladigan masalalar bo'yicha materiallar Bosh vazirning tegishli o'rinbosari – kompleks rahbari, Axborot – tahlil boshqarmasi boshlig'i, Apparat rahbari tomonidan ko'rib chiqiladi, ular tayyorlangan masalalarning sifati uchun javob beradilar.

Vazirlar Mahkamasi yoki uning Rayosati majlisiga taklif etiladigan mansabdor shaxslar ro'yxati Vazirlar Mahkamasining Raisi yoki uning topshirig'iga binoan Bosh vazir yoki Apparat rahbari bilan kelishiladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, korxona va

korporatsiyalar, kompaniyalar, konsernlar, uyushmalar, davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlari rahbarlarini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisini, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarini hamda majlisga taklif etiladigan boshqa shaxslarni xabardor qilish, shuningdek, ularning majlisga kelgan-kelmaganliklarini nazorat qilish tegishliligi bo'yicha Bosh vazir o'rinbosarlarining kotibiyatlari, departamentlar va bo'limlar tomonidan amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining majlislariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Bosh prokuror, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Raisi, Oliy xo'jalik sudi Raisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni nazorat inspeksiyasi rahbari, «O'zdavteleradio» kompaniyasi, Markaziy Bank, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki boshqaruvlarining Raislari, O'zbekiston Axborot Agentligining bosh direktori, iqtisodiyot vazirining o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Vazirlar Mahkamasi huzuridagi doimiy vakili, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi raisi doimiy ravishda, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, ularning o'rinbosarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari esa zaruriyatga ko'ra taklif etiladilar.

Boshqa mansabdor shaxslar majlisga faqat ularga daxldor masalalar bo'yicha taklif etiladilar¹⁰⁸.

4-§. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqariladigan normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunlar, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlash maqsadida amaldagi qonunlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasining normativ yoki juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlari Vazirlar Mahkamasining

¹⁰⁸ «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ish tartibiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 28-fevral 2003-yildagi 112-sonli qarori tahriridagi band

qarorlari shaklida chiqariladi. Shoshilinch yoki boshqa joriy masalalar bo'yicha hujjatlar Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari yoki majlis qarorlari shaklida chiqariladi¹⁰⁹.

Vazirlar Mahkamasining doimiy organlari sifatida uning Rayosati ham qarorlar, farmoyishlar va bayon qarorlari shaklida normativ – huquqiy hujjatlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari uning majlislarida kollegial tartibda qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasiga kiritiladigan har bir masala bo'yicha, odatda, davlat tilida aniq bayon qilingan, asoslangan qaror yoki farmoyish loyihasi, shuningdek, hujjatning mohiyati bayon etilgan qisqacha xat taqdim etiladi. Amalga oshirilishi qo'shimcha moddiy va boshqa xarajatlarni talab qiladigan qarorlar va farmoyishlar loyihalarini taqdim etishda moliyaviy-iqtisodiy asoslashlar ilova qilinadi.

Qarorlar, farmoyishlarning loyihalari amaldagi qonun hujjatlariga mos bo'lishi, ularda ko'rib chiqilayotgan masala puxta tahlil qilingan va xolis baholangan, ijrochilar oldiga aniq ifodalangan maqsad va vazifalar qo'yilgan bo'lishi, ularda amalga oshirsa bo'ladigan muddatlar belgilanishi kerak.

Qaror yoki farmoyishlarning tayyorlangan loyihasi bilan ayni bir vaqtda hukumat qarorlariga o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish yoki ularni kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risidagi takliflar ham ko'rib chiqiladi. Vazirlar Mahkamasi majlislariga kiritilayotgan qarorlar va farmoyishlarning loyihalarida, zaruriyat bo'lganda, ilgari qabul qilingan qarorlarga o'zgartirishlar kiritish yoki ularni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risidagi takliflar nazarda tutiladi.

Vazirlar Mahkamasi majlislarida ko'rib chiqilishi uchun normativ- huquqiy hujjatlar loyihasi (qaror)ni ishlab chiqarayotgan organ, qoida tariqasida, loyihani tayyorlash yuzasidan komissiya tuzadi.

Normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organ sifatida Vazirlar Mahkamasining o'zi ham hujjatning loyihasini tayyorlashni davlat organlari, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlarga, ayrim fuqarolarga belgilangan tartibda topshirishi yoki shartnoma asosida buyurtma berishi mumkin. Shuningdek, «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi qonunda belgilanishicha, normativ-huquqiy hujjatni qabul

¹⁰⁹ «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ish tartibi to'g'risida»gi qarori, 6-bo'lim, 1-xatboshi.

qiluvchi organ bir necha davlat organlari, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlarga, ayrim fuqarolarga muqobil loyihalar tayyorlashni topshirishga yoki ular bilan shartnomalar tuzishga, eng yaxshi loyiha uchun tanlovlar e'lon qilishga haqli.

Lekin iqtisodiyotning alohida tarmoqlari, davlat boshqaruvining boshqa sohalariga doir normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini tayyorlashga tegishli tarmoqlar yoki boshqaruv sohasining va rivojlanish uchun mas'ul bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari yoki idoralari jalb etilishi shart.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ – huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash ishini muvofiqlashtirib turish, qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining majlislarida ko'rib chiqish uchun loyihani ishlab chiquvchi organ:

— Loyiha mavzusiga doir qonun hujjatlarining qo'llanilish tajribasini o'rganadi va hisobga oladi, huquqni tartibga solishga bo'lgan jamoatchilik ehtiyojini, qonun hujjatlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi sabablar va sharoitlarni aniqlaydi;

— Davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari, shuningdek, fuqarolarning takliflarini, ommaviy axborot vositalarining materiallarini, ilmiy muassasalar, olimlar va mutaxassislarining tavsiyalarini, jamoatchilik fikrini aniqlashning boshqa vositalari ma'lumotlarini umumlashtiradi va ulardan foydalanadi;

— Boshqa davlatlardagi qonunchilik yo'li bilan tartibga solish tajribasini o'rganadi va hisobga oladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari qonun loyihalaridan farqli ravishda umumxalq muhokamasiga qo'yilishi mumkin emas, ular faqatgina jamoatchilik yoki mutaxassislar muhokamasiga qo'yilishi mumkin.

O'zbekistonni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini hamda Respublika budjetini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan qarorlar, farmoyishlarning loyihalari yoki takliflar tegishli ravishda Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi bilan kelishib olinishi zarur.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, korporatsiyalar, kompaniyalar, konsernlar, uyushmalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar

hokimlarining rahbarlari Vazirlar Mahkamasiga kiritilayotgan qarorlar va farmoyishlar loyihalarining asoslanganligi va sifati, keltirilgan ma'lumotlar va boshqa materiallarning to'g'riligi, shuningdek, ularning manfaatdor tashkilotlar bilan tegishli ravishda kelishib olinganligi uchun shaxsan javob beradilar.

Tayyorlangan qarorlar, farmoyishlarning loyihalari imzolash uchun Bosh vazir o'rinbosarlari, kotibiyatlari, mudirlari tomonidan Bosh vazirning tegishli o'rinbosari – kompleks rahbariga, Bosh vazir o'rinbosarlarining manfaatdor kotibiyatlariga, departamentlarga, Axborot – tahlil boshqarmasiga va yuridik bo'limga imzolash uchun taqdim etiladi.

Qaror va farmoyishlarning imzolangan loyihalari Vazirlar Mahkamasi Apparati rahbariga topshiriladi.

Vazirlar Mahkamasiga kelib tushgan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi shart. Huquqiy ekspertiza davomida normativ-huquqiy hujjatlarning loyihasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlariga, shuningdek, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligi tekshiriladi.

Huquqiy ekspertiza hujjat loyihasini tayyorlagan organning yoki ushbu hujjatni qabul qiladigan organ (Vazirlar Mahkamasi)ning yuridik xizmati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Ko'pchilik holatlarda, hujjat loyihasi bir qancha organlar a'zolaridan, mutaxassislardan iborat tarkibdagi maxsus komissiyalar tomonidan ishlab chiqiladi. Bunday tartibda ishlangan loyihalar esa Vazirlar Mahkamasining yuridik xizmati yoki O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi.

Kiritilgan loyihaning sifatiga baho berish uchun normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organning, ya'ni Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan hujjatning loyihasi boshqa xil, masalan, iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy-tehnikaviy, ekologik ekspertizalardan ham o'tkazilishi mumkin. Ekspertlar sifatida tegishli loyihani tayyorlashda ilgari bevosita ishtirok etmagan tashkilotlar va shaxslar jalb etiladi. Ekspertiza o'tkazish uchun boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlardan olimlar va mutaxassislar taklif etilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatning mazmuniga nisbatan bir qancha talablar qo'yiladi. Hujjatning matni lo'nda, oddiy va ravon tilda bayon etilgan bo'lishi shart. Hujjatda foydalaniладigan tushunchalar va atamalar ularning amaldagi qonun

hujjatlarida qabul qilingan mazmuniga muvofiq, turlicha sharhlash imkoniyatini istisno etadigan tarzda bir xilda qo'llaniladi. Hujjat (qaror yoki farmoyish)da uni amalga oshirishning huquqiy vositalari, shu jumladan, moliyalashtirish manbalari, rag'batlantirish, mukofotlash va nazorat qilish chora-tadbirlari ko'rilishi mumkin.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolarning majburiyatlarini belgilovchi qaror, farmoyishlarda ushbu majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik choralari (agar bunday choralar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lmasa yoki maxsus hujjatda belgilanishi kerak bo'lmasa) nazarda tutiladi.

Qaror yoki farmoyishda qonun hujjatlariga kiritilayotgan yuridik, texnik va boshqa maxsus atamalarning ta'riflari berilishi mumkin. Zarur hollarda qaror yoki farmoyishda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjat (Konstitutsiya, qonunlar, Oliy Majlisning qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ hujjatlari)ning ayrim qoidalari mazkur hujjatlarga ilova qilingan holda aynan takrorlanadi.

Ammo normativ hujjatlarda, qoida tariqasida, xuddi shunday yuridik kuchga ega bo'lgan amaldagi normativ-huquqiy hujjatning normativ ko'rsatmalari qayta aynan takrorlanmaydi.

Vazirlar Mahkamasi yoki uning Rayosati majlisiga kiritiladigan barcha materiallar Bosh vazirning tegishli o'rinbosari – kompleks rahbari, Axborot – tahlil boshqarmasi boshlig'i, apparat rahbari tomonidan ko'rib chiqiladi va ular tayyorlangan masalalarning sifati uchun javob beradilar.

Qaror loyihasi Bosh vazirning tegishli o'rinbosari – kompleks rahbari, yuridik bo'lim (yuridik xizmat), Bosh vazir o'rinbosarlarining manfaatdor kotibiyatlari, departamentlar va bo'limlar, tegishli vazirliklar, idoralar tomonidan imzolangan hamda Vazirlar Mahkamasining Axborot – tahlil boshqarmasida ma'qullangan bo'lishi kerak.

Loyihalar bilan bir vaqtda quyidagilar taqdim etiladi: muhokama qilish tartibi, majlisga taklif etiladigan mansabdor shaxslar ro'yxati, qaror loyihasining manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan kelishilganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma.

Qoida tariqasida, Vazirlar Mahkamasining majlislariga kim raislik qilsa, o'sha mansabdor shaxs majlis bayonini imzolaydi.

«O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunga binoan Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari faqatgina Bosh vazir tomonidan imzolanadi (qonunning 20-moddasi, 4-xatboshisi).

Qonunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga imzo qo'yish vakolati berilmagan. Lekin Vazirlar Mahkamasining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raislik qilishga haqli. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qilganda majlis bayonlari faqatgina Prezident tomonidan imzolanadi.

Vazirlar Mahkamasi ham, uning Rayosati ham kollegial organ bo'lganliklari sababli majlislarda qarorlar Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Majlis tamom bo'lgandan keyin qabul qilingan qarorning aniq ifodalangan matni Bosh vazir o'rinbosari kotibiyati mudiri, departament boshlig'i, bo'lim mudiri tomonidan imzolangan holda majlis bayoniga kiritish uchun Umumiy bo'limga beriladi.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari ular imzolangan sana bo'yicha rasmiylashtiriladi hamda Bosh vazir o'rinbosarlarining tegishli kotibiyatlari, departamentlar, bo'limlar tomonidan tuziladigan tarqatish ro'yxati bo'yicha darhol ijrochilarga tarqatiladi.

Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari normativ-huquqiy hujjat sifatida quyidagi rekvizitlarga ega bo'ladi:

- Hujjatning turi va nomi;
- Hujjat qabul qilingan joy, sana va hujjat raqami;
- Tegishli normativ-huquqiy hujjatni imzo qo'yib tasdiqlashga rasman vakolatli bo'lgan shaxslarning familiyasi, lavozimi va imzolari.

Vazirlar Mahkamasining qarorlarida va farmoyishlarida ularni kuchga kiritish muddatlari ko'rsatiladi. Boshqa hollarda imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Vazirlar Mahkamasining normativ qarorlari O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plamida e'lon qilinadi. Bundan tashqari «Xalq so'zi» va «Narodnoye slovo» gazetalari ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari e'lon qilinadigan rasmiy manbalar hisoblanadi.

Respublikani yangi qarorlar bilan keng va tezkorlik bilan tanishtirish zarur bo'lganda farmoyishlar Vazirlar Mahkamasi

Raisining yoki Bosh vazirning topshirig'iga binoan matbuot, televideniye va radio orqali e'lon qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy hujjatlarini norasmiy nashrlarda e'lon qilishga, shuningdek, ularni qonun hujjatlarining elektron ma'lumot tizimlari orqali tarqatishga bu hujjatlar rasmiy manbalarda e'lon qilinganidan so'ng, barcha rekvizitlari, e'lon qilingan rasmiy manbalari va kuchga kirish sanasini ko'rsatish sharti bilan ruxsat etiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Vazirlar Mahkamasi faoliyatining huquqiy asoslari deganda nimani tushunasiz?
2. Vazirlar Mahkamasi tarkibi qanday shakllantiriladi?
3. Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sohadagi vakolatlarini ko'rsatib o'ting.
4. Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy prinsiplarini ko'rsating.
5. Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bilan qanday munosabatlarga kirishadi?
6. Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan munosabatlari nimalardan iborat?
7. Vazirlar Mahkamasi majlislarini chaqirish tartibi qanday?
8. Vazirlar Mahkamasining doimiy komissiyalarining ish faoliyatini ko'rsating.

XI BOB

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ASOSLARI

1-§. Davlat hokimiyati mahalliy organlarining o'rni va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini o'zi belgilab olar ekan, mahalliy davlat hokimiyati tizimi masalalasi huquqiy tomondan mustahkamlandi. 1991-yil 31-avgustda qabul

qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunning 5-moddasida ushbu masalaga aniqlik kiritilib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi davlat idoralarining tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida qurilishi belgilab berildi.

Mustaqillikning ilk davridayoq, O'zbekiston Respublikasi-ni Oliy Kengashi 1992-yil 4-yanvarda «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Birinchi marta mahalliy davlat va ijroiya hokimiyati organi boshlig'i sifatida hokim lavozimi mamlakat miqyosida joriy etildi. Mahalliy davlat hokimiyati tizimidagi ijro organi faoliyatida yakkaboshchilik asosidagi rahbarlikning tuzilishiga asosiy sabab shunda ediki, yangi davrdagi chuqur islohotlarni mas'uliyatli ijro hokimiyatisiz amalga oshirib bo'lmaz edi. Davlatning bosh islohotchilik roli tabiiy zarurat bo'lib, eski totalitar tuzumdan yangi jamiyatga o'tish uchun faqat kuchli ijro hokimiyati kerak edi.

1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining qabul qilinishi mahalliy davlat hokimiyati organlarining rivojlanishdagi muhim davrni boshlab berdi.

Konstitutsiyamizning XXI bobi (99-105-moddalar) «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari» deb nomlandi va shu bilan mahalliy davlat hokimiyati organlarining Konstitutsiyaviy maqomi belgilandi. Xuddi mana shu Konstitutsiyaviy normalar orqali ilk bor mahalliy vakillik organlari va o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimi alohida qilib ajratildi.

Ilk bor Konstitutsiyada mahalliy hokimiyat organlarining bo'linish prinsipi amalga oshirildi, ya'ni xalq deputatlari Kengashlari vakillik organi sifatida, hokimlar ijro etuvchi hokimiyat organlari sifatida faoliyat yuritadigan bo'ldi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar, tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda ham ijro hokimiyati rahbari sifatida hokimlar faoliyat yuritishi belgilandi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Konstitutsiyaga muvofiq, davlat hokimiyati organlarining avvalgi totalitar tuzumdan mutlaqo farq qiladigan, hokimiyatlarning, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari-ni bo'linishi prinsipiga asoslangan tizimi yaratildi. Ularning har biri faoliyatida avtoritarizm va totalitarizmning xurujlarini

istisno etadigan chinakam demokratik me'yorlar va yo'l-yo'riqlar qaror toptirildi. Tashkil etilgan ijro etuvchi hokimiyat organlari tubdan farq qiladi. Ular rejalash-taqsimlash vazifalaridan xoli bo'lib, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish va tartibga solish rolini bajarmoqda. Ko'plab vazirliklar o'rniga bozor sharoitlariga mos bo'lgan xo'jalik birlashmalari, uyushmalari, konsernlar, korporatsiyalar, xolding kompaniyalari tashkil etildi. Davlat hokimiyati organlarining yangi tizimi vujudga keltirildi. Ularning ijro etuvchi hokimiyat bilan vakillik hokimiyati rahbarining vazifalari birlashtirilgan»¹¹⁰.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalliy hokimiyat organlarining huquqiy asoslari rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini chuqur o'rganish, milliy meros va an'analarni e'tiborga olgan holda, o'z mentalitetimizdan kelib chiqib yaratildi. Umuman, dunyodagi demokratik rivojlangan davlatlarning uzoq tarixiy tajribasi va Konstitutsiyaviy an'analari Respublikamiz Konstitutsiyasi va mahalliy hokimiyatga doir qonunlarida o'z aksini topib, mahalliy ijroiya hokimiyat organlarining, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, mahalliy boshqaruv va boshqa barcha masalalarni aholining manfaatlarini e'tiborga olgan holda qonunlar, shuningdek, tegishli moddiy va moliyaviy resurslar asosida bevosita yoki bilvosita hal qilish maqsadlaridan kelib chiqib tashkil etilishi belgilandi.

1993-yil 2-sentabrga kelib esa Konstitutsiyada belgilangan normalardan kelib chiqqan holda mahalliy davlat hokimiyati organlari huquqiy maqomini yanada aniqlashtirish va ular faoliyatining mexanizmini shakllantirish maqsadida «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida» qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda mahalliy davlat hokimiyatining vakillik va ijroiya organlarining huquq va vazifalari va ular munosabatlarining huquqiy asoslari aniq mustahkamlandi.

Xuddi shu kuni o'zini-o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini belgilab beruvchi «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida» qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda ilk bor o'zini-o'zi boshqarish organlarining maqomi belgilab berildi.

¹¹⁰ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: «O'zbekiston», 1997, 155-156-b.

2-§. Xalq deputatlari Kengashlari – joylardagi vakillik organi sifatida

Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarini ikki bo'g'inli tizimini mustahkamladi va ushbu holat «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunda ifodasini topdi.

Konstitutsiyaning 99-moddasiga ko'ra, viloyatlar, tumanlar va shaharlar (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari)da hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Mazkur moddada mustaqil O'zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tizimi belgilangan. Bu avvallari davlat hokimiyatining vakillik organlari, Respublikaning ma'muriy-hududiy bo'linishining hamma bo'g'inida tuziladi, degan qoidaga barham berdi. Bu normaga binoan mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari viloyatlarda, tumanlarda va shaharlarda tashkil qilinadi. Tumanlarga bo'ysunadigan va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda davlat hokimiyati vakillik organlari tashkil qilinmaydi. Jumladan, Toshkent shahri tarkibidagi tumanlarda ham vakillik organlari tuzilmaydi. Shuningdek, shaharcha, qishloq va ovullarda ham davlat hokimiyati vakillik organlari tuzilmaydi.

Mahalliy vakillik organlariga ham ijroiya hokimiyat boshlig'i rahbarlik qiladi, ularning rahbarligi, asosan, vakillik organlarining ishini tashkil qilish, yo'naltirishdan iboratdir. Hokimlarning joylarda vakillik va ijro hokimiyatiga rahbarlik qiladi, deb belgilanishi, mahalliy miqyosda hokimiyatning bo'linish prinsipiga amal qilinmagandek tuyuladi. Aslida hokimlar vakillik organlaridan ustun turmaydi, ularning vakillik organlarini hokimlarga bo'ysunishi ma'nosida emas, vakillik organlari ishini tashkil qilish doirasida bo'ladi¹¹¹.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari hisoblanuvchi xalq deputatlari Kengashlari vakillik xarakteriga ega, ya'ni xalq tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. «Xalq ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to'liq imkoniyatga ega bo'lishi lozim»¹¹².

¹¹¹ Husanov O. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat. — T.: «Sharq», 1996, 32-b.

¹¹² Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li. — T.: «O'zbekiston», 1992, 16-bet.

Xalq deputatlari Kengashlarining saylov orqali tashkil etilishi, ularning vakillik xarakterini yaqqol ko'rsatadi. Ya'ni saylov natijasida fuqarolar bu organlarga o'zlarining vakillarini saylaydi. Kengashlarga saylangan deputatlar saylovchilardan vakolat olib, ularning nomidan o'z faoliyatini yuritadi. Ular, boshqacha qilib aytganda, davlat hokimiyati organlaridagi xalqning muxtor vakilidir.

Xalq deputatlarining saylovi 1994-yil 5-mayda qabul qilingan «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov hududiy bir mandaatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyalilik asosida besh yil muddatga o'tkaziladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar.

Deputatlar saylovini o'tkazish uchun:

— Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga deputatlar saylashda oltmishtadan ko'p bo'lmagan;

— Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylashda o'ttiztadan ko'p bo'lmagan hududiy saylov okrugi tuziladi. Har bir saylov okrugidan tegishli xalq deputatlari Kengashiga bitta deputat saylanadi.

— Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov okruglari soni aholining, saylovchilarning soni, hudud va boshqa mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda ushbu Qonunda belgilangan normalar doirasida tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilanadi.

Saylov okruglari tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyalari tomonidan, qoida tariqasida, saylovchilar soni teng holda tuziladi. Saylov okruglarining chegaralari viloyatlar, tumanlar va shaharlarning ma'muriy-hududiy tuzilishini inobatga olgan holda belgilanadi.

Qonunning 9-moddasiga binoan saylovni tashkil etish va o'tkazish uchun:

Xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o'tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi;

— Xalq deputatlari tuman Kengashiga saylov o'tkazuvchi tuman saylov komissiyasi;

— Xalq deputatlari shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi shahar saylov komissiyasi;

- Okrug saylov komissiyalari;
- Uchastka saylov komissiyalari tuziladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov yuzasidan saylov kompaniyasi boshlanganligi deputatlarning vakolat muddati tugashidan kamida uch oy oldin O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi. Qonunning 20-moddasiga ko'ra, Xalq deputatlari viloyat Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar, bevosita fuqarolar egadirlar.

Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, shuningdek, bevosita fuqarolar egadirlar.

23-moddaga binoan:

- Sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar;

- Saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan shaxslar;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmatining, Ichki ishlar vazirligining, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari;

- Diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar.

Saylovoldi tashviqot deputatlikka nomzodlar tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Saylovchilarning ro'yxatlarini tuzish, fuqarolarni ro'yxat bilan tanishtirish, ovoz berishni tashkil etish va saylov natijalarini aniqlash tegishli saylov komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Xalq deputatlari Kengashlariga saylanadigan deputatlarning tarkibini kuzatsak, ular orasida aholining hamma qatlamlariga tegishli kishilar borligini ko'ramiz, deputatlar orasida turli kasb, millat, yosh, partiya, turli jins vakillarining mavjudligi, bu organing haqiqatan vakillik organi ekanligidan dalolat beradi.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunning 1-moddasiga ko'ra, xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari

Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi.

Mahalliy hokimiyat organlari o'zlarining butun faoliyatini davlat hamda fuqarolarning manfaatini ko'zlab olib boradilar, natijada davlat manfaati bilan fuqarolarning manfaati o'rtasida mushtaraklik vujudga keladi. O'zbekiston Respublikasida davlat faoliyatining muhim prinsiplaridan biri qonuniyligidir. Bu prinsip mahalliy vakillik faoliyatiga ham taalluqlidir, shuning uchun ularni o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal qilishini Konstitutsiyada belgilanishi tabiiydir.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi qarorlarini qabul qiladi va basharti ana shu hujjatlarda o'zga tartib belgilanmagan bo'lsa, imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Kengashi o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan hujjatlar viloyat, tuman, shahar hududida joylashgan barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Qonunning 7-moddasida mahalliy vakillik organlari va ijroiya organlari faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllari berilgan bo'lib, unga ko'ra ushbu mulklarni ma'muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (kommunal mulk) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk tashkil etadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi mutlaq O'zbekiston Respublikasi mulkida bo'lgan davlat mulki obyektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni samarali joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiradilar.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, viloyat, tuman, shahar hokimi o'zlari idora qilayotgan hududdagi mulkchilikning turli shakliga asoslangan korxonalar uchun O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilmagan, tadbirkorlik va xo'jalik faoliyatini erkin yuritishga to'sqinlik qiladigan cheklovlarni joriy etishga haqli emaslar.

Qonunning 8-moddasiga ko'ra, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi davlat mulkini chegaralash natijasida

o'ziga berilgan yoki qonunlarga muvofiq o'zi sotib olgan obyektlarga nisbatan mulkdor vakolatlarini to'liq amalga oshiradi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining mol-mulki, budjet mablag'lari, budjetdan tashqari fondlarning va aniq maqsadga qaratilgan fondlarning mablag'lari viloyat, tuman, shahar mulkidir. Viloyat, tuman, shahar ahamiyatiga ega bo'lgan muhandislik infrastrukturalari obyektlari va boshqa obyektlar, korxonalar va birlashmalar, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, fan va madaniyat muassasalari, viloyat, tuman, shahar mablag'i hisobidan tashkil etilgan yoki sotib olingan, shuningdek, ulushbay asoslarda tashkil etilgan yoki sotib olingan yoxud xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga boshqa manbalardan bepul berilgan qimmatli qog'ozlar va moliya aktivlari viloyat, tuman, shahar mulki bo'lishi mumkin.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunning III bobi mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining moliyaviy asosiga bag'ishlangan. 13-moddaga ko'ra, viloyat, tuman, shahar budjeti daromadlariga:

— O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq olinadigan soliqlar va yig'imlar;

— Viloyat, tuman va shaharga qarashli mol-mulknini ijaraga berish yoki sotishdan keladigan tushumlar;

— Qonunlarda nazarda tutilgan hollarda viloyat, tuman, shahar mulki hisoblangan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tekshirish vaqtida aniqlangan yashirib qolingani yoki kamaytirib ko'rsatilgan daromadlarining muayyan qismi;

— O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq boshqa tushumlar kiritiladi.

Bundan tashqari, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi:

— Fuqarolar, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ixtiyoriy badallari va xayriyalaridan;

— O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq undiriladigan ayrim turdagi jarimalardan;

— Budjetdan tashqari o'zga mablag'lardan tarkib topadigan budjetdan tashqari fondlar hosil qilishi mumkin. Budjetdan tashqari fondlarning mablag'lari bankdagi maxsus hisob raqamlarda turadi, ularni olib qo'yish mumkin emas, ular tegishli xalq deputatlari Kengashi va hokimning qaroriga binoan sarflanadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy ish shakli sessiyadir. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining sessiyalari tegishli hokim, hokim yo'qligida esa uning o'rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab, biroq yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. Deputatlar uchun sessiyalar davlat ishida qatnashish maktabidir. Bu bilan har bir deputat Kengash sessiyasida masalalarni hal qilishda faol ishtirok etish, mavjud kamchiliklarni ochib tashlash, Kengash, hokimlik va ularga bo'ysungan organlar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan takliflar kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sessiyalar, xalq deputatlarining tegishli Kengash deputatlari kamida uchdan ikki qismining tashabbusiga binoan ham chaqirilishi mumkin. Kengash sessiyasini chaqirish to'g'risidagi qarordan deputatlar sessiya ochilishidan kamida yetti kun oldin xabardor qilinadi.

Yangi saylangan xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining birinchi sessiyasi hokim tomonidan saylovdan keyin kechi bilan uch haftalik muddat ichida chaqiriladi va u kekxa deputatlardan biri tomonidan ochiladi. Xalq deputatlari Kengashi sessiyalarida hokim, u yo'qligida esa Kengashning qaroriga yoki hokimning topshirig'iga binoan mazkur Kengashning deputatlaridan biri raislik qiladi. Xalq deputatlari Kengashining har bir sessiyasini o'tkazish davrida deputatlar orasidan sessiya kotibi yoki kotibiyati saylanadi.

Xalq deputatlari Kengashining sessiyasi, bosharti unda jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi sessiyasida muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali, deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qilinadi.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunning 18-moddasida belgilanganidek, xalq deputatlari Kengashi sessiyalarini chaqirish va o'tkazish, sessiya muhokamasiga masalalar kiritish va ularni qarab chiqish, xalq deputatlari Kengashi organlarini tashkil etish va saylash, ularning faoliyatiga doir hisobotlarni tinglash, deputatlar so'rovlarini, qaror loyihalarini qarab chiqish, ovoz berish, qarorlarni e'lon qilish, sessiyaga taklif etiladigan shaxslar sonini aniqlash tartibi, shuningdek, deputatlarning mas'uliyati va sessiya ishini tashkil etishga doir boshqa masalalar xalq deputatlari Kengashining ish tartibiga muvofiq belgilanadi.

Xalq deputatlari Kengashi huzurida sessiya muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda qarab chiqish va tayyorlash, xalq deputatlari Kengashi qarorlarini va O'zbekis-

ton Respublikasining qonun hujjatlarini ro'yobga chiqarish uchun ko'maklashish, vakolatlari doirasida nazorat o'rnatish maqsadida xalq deputatlari Kengashi o'z vakolati muddatiga doimiy va muvaqqat komissiyalar tuzadi. Komissiyalar faoliyatining o'ziga xosligi, eng avvalo, shundan iboratki, ular orqali deputatlar sessiyalar oraliq'dagi davrda kengash faoliyatiga bevosita va doimiy jalb qilinadi. Doimiy komissiyalar – mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining strukturaviy organlari bo'lib, ko'pchilik deputatlarni, ya'ni ko'p sonli faollarni birlashtiruvchi, jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi organdir.

3-§. Hokim – mahalliy ijroiya va vakillik hokimiyatining rahbari sifatida

Hokim institutining joriy etilishi o'zbek milliy davlatchiligi an'analari va tarixiy tajribalarning qaytadan tiklanishining tarixiy tajriba va an'analarga asoslanadi. Iskandar davrida mahalliy aholi vakillaridan Artaboz – Baqtriyada, Oksiart va Xoriyon – So'g'diyona viloyatlarida hokimlik qilganlar. Xususan, Amir Temur va temuriylar davlatchiligida davlat boshqaruvi oliy darajadagi amaldorlardan tashkil topgan markaziy boshqaruv va viloyat hokimlari qo'lida mahalliy boshqaruv asosiy o'rin tutib, ular mamlakatning amaldagi haqiqiy egalari edilar. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida yakkaboshchilikni kuchaytirish maqsadida hokim lavozimi ta'sis etildi va 1991-yil dekabr oyida Toshkent shahri aholisi tomonidan ilk bor shahar hokimi saylandi. Oliy Kengash tomonidan 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi qonun hokim institutining asosiy vazifalarini belgilarib bergan bo'lsa, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi 1993-yil 2-sentabr qonuni hokim instituti faoliyatining tashkil etilishini qonuniylashtirdi.

Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. «Kuchli ijroiya hokimiyati bo'lmasa, hatto eng demokratik yo'l bilan qabul qilingan qarorlar ham bajarilmasligi mumkin»,¹¹³ — deydi O'zbekiston Prezidenti.

¹¹³ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. —T.: 1992, 16-bet.

Hokimlik lavozimi ijro hokimiyatini kuchaytirish maqsadida vujudga keltirilgan. Hokim nafaqat joylarda ijro hokimiyatini boshqaradi, balki vakillik organlarini ham boshqaradi.

Hokimlar vakillik organlaridan farq qilib, tayinlash yo'li bilan ta'sis etiladi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanib, lavozimidan ozod qilinadi, tayinlash va ozod qilish viloyat va Toshkent shahar Kengashlari sessiyasida tasdiqlanadi. Bu viloyat va Toshkent shahar hokimlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu joylardagi vakili ekanligini ko'rsatadi. Natijada markaziy va mahalliy ijro organi o'rtasida mustahkam aloqa vujudga keladi. Viloyat Toshkent shahar hokimlari hokimlik tizmining yuqori bo'g'inini tashkil etadi.

Hokimlik tizimining keyingi bo'g'ini tuman va shahar hokimlaridir. Ular ham ikki guruhga bo'linadi. Birinchisi, viloyat tarkibidagi tumanlar va viloyatga bo'ysunuvchi shaharlarning hokimlari. Bu hokimlar viloyat hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli hudud xalq deputatlari Kengashida tasdiqlanadi.

Shahardagi tumanlarning hokimlari, shahar hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. Shahar tarkibidagi tumanlarda vakillik hokimiyati organlari bo'lmaganligi uchun, hokimlarni lavozimga tayinlash yoki lavozimidan ozod qilish shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanga bo'ysunuvchi shaharlarning hokimlari, tuman hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi yoki lavozimidan ozod qilinadi. Tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda ham vakillik organi bo'lmaganligi uchun hokimni lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish masalasi tuman xalq deputatlari Kengashlarida tasdiqlanadi.

Hokimlarni lavozimga tayinlashda bir tomondan Prezident va yuqori hokimlar, ikkinchi tomondan tegishli vakillik organlarining ishtirok etishi, hokimlarning yuqori va mahalliy vakillik organlari oldida, xalq vakillari oldida mas'uliyatni kuchaytiradi.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunning 21-moddasiga ko'ra, viloyat, tuman, shahar ijroiya hokimiyatiga hokim boshchilik qiladi. Hokim O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorda birinchi o'rinbosar va o'rinbosarlarga ega bo'ladi. Viloyat va Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosari hamda o'rinbosarlari hokim tomonidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, bu xususda

qabul qilingan qaror tegishli xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi. Tuman, shahar hokimining o'rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, bu xususta qabul qilingan qaror tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi.

Shahardagi tuman, tumanga bo'ysunuvchi shahar hokimining o'rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Hokimning o'rinbosarlari hokim tomonidan belgilangan vazifalar taqsimotiga muvofiq ish bajaradilar. Hokim yo'qligida yoki u zimmasidagi vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan taqdirda uning vakolatlarini birinchi o'rinbosar yoki hokimning topshirig'iga binoan uning o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

Viloyat, tuman va shahar hokimliklari faoliyatida hokim ijroiya mahkamasining ishini tashkil etish katta ahamiyatga ega. Chunki, hokim o'z vakolatlarini ijro mahkamasi orqali amalga oshiradi.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunning 22-moddasiga ko'ra, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari (hokimliklar) boshqarmalar, bo'limlar va boshqa bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning strukturasi, ularni tashkil etish tartibi va faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi.

Viloyatlar va Toshkent shahar ijroiya hokimiyati organlarining strukturasi va shtatlari hokim tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda tegishli xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan budget doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi.

Tuman, shahar ijroiya hokimiyati organlarining strukturasi va shtatlari hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda tegishli xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan budget doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi. Viloyat, tuman, shahar hokimliklari apparatining strukturasi va shtatlari viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan budget doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimligi apparatining namunaviy strukturasi va shtatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, tuman va shahar hokimligi apparatining namunaviy strukturasi va shtatlari esa yuqori

turuvchi hokim tomonidan belgilab qo'yiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida tuman va shahar hokimligi apparatining namunaviy strukturasi va shtatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan belgilab qo'yiladi.

Mazkur qoidaga asosan, Vazirlar Mahkamasi hokimliklar ijroiya mahkamasining tashkil etish va faoliyat yuritish nizomlarini tasdiqlab, bu apparatlar ishini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 17-iyundagi «Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari apparati tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida»gi 301-sonli Qarorini qabul qildi. Shuningdek, bu boradagi faoliyatni yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2004-yil 5-yanvarda «Davlat boshqaruvi hududiy organlari tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida» qaror qabul qildi.

Bundan tashqari hokimliklar huzurida tuziladigan komissiyalar faoliyatini takomillashtirish va muvofiqlashtirish, Kengashlar ishini tashkil etish katta ahamiyatga ega. Mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan komissiyalar tuzishning ijobiy tomonlari mavjud bo'lib, uning tarkibi ma'lum sohaga tegishli idoralar rahbarlaridan tuziladi. Ushbu komissiya va muvofiqlashtiruvchi Kengashlar ma'lum sohada mavjud masalalarni amalga oshirishda sohaga tegishli idoralarning boshqaruv faoliyatini muvofiqlashtiradi, amalga oshirilishi kerak bo'lgan tadbirlar rejasini ishlab chiqadi.

Mahalliy ijroiya hokimiyatlar Kotibiyati sessiyalar, majlislar, hokim maslahat Kengashi yig'ilishlariga tayyorgarlikni va unda qabul qilinadigan qarorlarning ekspertizasini, mahkama ishining istiqbol va joriy rejalarini ishlab chiqishda, xalq deputatlari Kengashining doimiy komissiyalariga uslubiy yordam ko'rsatadi. Shuningdek, qabul qilingan qarorlar va boshqa hujjatlarning ijrosini tezkorlik bilan nazorat qilinishini tashkil etadi. Kotibiyat hokim mahkamasi faoliyatining ijtimoiy, moddiy, texnik va axborot vositalari bilan ta'minlanishini amalga oshiradi.

Tegishli hudud hokimliklari huzurida xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilish tarmoqlarini tezkorlik bilan boshqarishni ta'minlash uchun tegishli bosh boshqarmalarni birlashtiruvchi tarmoq majmualari tuziladi¹¹⁴.

¹¹⁴ To'laganov A. Davlat hokimiyatining vakillik va o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish. Darslik. —T.: 2002, 141-b

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim muammolarini muhokama qilish uchun hokim huzurida Maslahat Kengashi tuziladi, uning tarkibiga hokimning birinchi o'rinbosarlari kotibiyat boshlig'i kiradi.

Mahalliy ijroiya hokimiyat faoliyatini tashkil etishda hokimiyat apparatiga kiruvchi bo'limlarning o'zni alohida ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagilar: umumiy bo'lim yuridik bo'lim, tashkiliy kadrlar bo'limi, ishlar boshqarmasi. Umumiy bo'lim, hokim ijroiya apparatida ish yurgizishni aniq olib borishni ta'minlasa, tashkiliy-kadrlar bo'limi xalq deputatlari Kengashlari va hokimiyat faoliyatini tashkiliy, uslubiy ta'minlash va hokim apparatiga kadrlar tanlab olish vazifasini amalga oshirish uchun tuziladi. Ishlar boshqarmasining asosiy vazifasi esa, xalq deputatlari Kengashi va hokim ijroiya apparati faoliyatiga moliyaviy, texnikaviy va transport xizmat ko'rsatish ishlarini tashkil etadi.

Hokimliklar ijroiya mahkamasi xodimlari va xizmatchilari o'zlarining bevosita rahbarlari — hokim va hokim o'rinbosarlari oldida mas'uldirlar.

Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari struktura bo'linmalarining rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish tartibi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida» qonunining 23-moddasida belgilangan bo'lib, qonunlarda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilishning o'zga tartibi belgilanmagan bo'lsa, ijroiya hokimiyati struktura bo'linmalarining rahbarlari davlat boshqaruvining yuqori organlari bilan kelishilgan holda tegishli hokimning taqdimiga binoan, xalq deputatlari Kengashi tomonidan sessiyalar oralig'idagi davrda esa, hokim tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar, bu xususda qabul qilingan qaror xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi.

Basharti, qonunlarda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilishning o'zga tartibi belgilanmagan bo'lsa, shahardagi tuman yoki tumanga bo'ysunadigan shahar ijroiya hokimiyati struktura bo'linmalarining rahbarlari davlat boshqaruvining yuqori organlari bilan kelishilgan holda tegishli hokim tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar. Hokim ijro mahkamasi o'z ish faoliyatini mavjud Konstitutsiyaviy normalar, qonunlar, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va ijro mahkamasining Reglamenti asosida amalga oshiradi.

Mahalliy ijroiya organining rahbari sifatida hokimning vakolatlari qonunning 25-moddasida aniq sanab o'tilgan. Viloyat, tuman va shahar hokimi:

— Qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining ijrosini tashkil etadi;

— Jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va salomatligini muhofaza etish bilan bog'liq chora-tadbirlar ko'radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda tegishli ishlarni tashkil etadi;

— Viloyat, tuman va shaharni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, viloyat, tuman, shahar budjetining asosiy ko'rsatkichlarini va ularning ijrosiga doir hisobotlarni xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga taqdim etadi;

— O'z o'rinbosarlari va ijroiya hokimiyati struktura bo'linmalarining rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish to'g'risidagi qarorlarni xalq deputatlari Kengashi tasdig'iga taqdim etadi;

— Hokimlik devoni bo'linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

— Quyi turuvchi hokimlarning qarorlarini, basharti, ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlarga, shuningdek, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashi va hokimning qarorlariga zid bo'lsa, bekor qiladi va xalq deputatlari Kengashiga quyi turuvchi xalq deputatlari Kengashlarining hujjatlarini bekor qilish to'g'risida taqdimnoma kiritadi;

— Rahbarlari tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan ijroiya hokimiyati struktura bo'linmalarining ishini nazorat qiladi;

— Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan, chiqargan hujjatlarni bajarmaganliklari uchun mansabdor shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida qonunda belgilangan tartibda taqdimnoma kiritadi;

— Davlat mukofotlari bilan taqdirlashga doir iltimosnomalarni qarab chiqadi va takliflar kiritadi;

— Respublika va xorijda viloyat, tuman hamda shaharning rasmiy vakili sifatida ish ko'radi;

— Aholini qabul qilishni tashkil etadi, fuqarolarning shikoyatlari, arizalari va takliflarini qarab chiqadi.

Hokim rejalashtirish, budjet, moliya, hisob-kitob, viloyat, tuman, shahar mulkini boshqarish, mulkchilikning turli shakliga mansub korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan hamjihatlik qilish, qishloq xo'jaligi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish, transport, yo'l xo'jaligi va aloqa, aholiga kommunal, savdo va ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qonuniylik, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlarida o'z vakolatiga berilgan boshqa masalalarni ham hal etadi.

4-§. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining huquqiy holati

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari shaharcha, qishloq va ovullardagi hamda ularning tarkibidagi mahallalarda va shahar tarkibida mahallardagi fuqarolarning yig'inidir. Bu yig'inlar kundalik faoliyat yuritish uchun 2,5 yil muddatga rais (oqsoqol) va uning maslahatchilarini saylab qo'yadi. Ushbu jarayon 29-aprel 2004-yilda qabul qilingan «Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solinadi. Fuqarolar yig'ini rais (oqsoqol)i va uning maslahatchilari saylovi demokratizm, oshkoralik va teng saylov huquqi asosida o'tkaziladi. Fuqarolar yig'ini rais (oqsoqol)i va uning maslahatchilarini saylash huquqiga o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolar egadirlar.

Fuqarolar yig'ini rais (oqsoqol)i va uning maslahatchilarini saylashda tegishli hududda doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, jinsi, irqiy hamda milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy hamda ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqiga egadirlar.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilarini saylashda fuqarolar yig'inining har bir ishtirokchisi bir ovozga ega.

Qonunning 9-moddasiga binoan fuqarolar yig'inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishda fuqarolar yig'inlariga amaliy yordam ko'rsatish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar hamda shaharlar hududida fuqarolar yig'inlari oqsoqollari va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishga ko'maklashuvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar komissiyalari tuziladi.

Fuqarolar yig'ini (vakillar yig'ilishi) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chaqiriladi va o'tkaziladi.

Fuqarolar vakillarining yig'ilishiga hovlilar, uylar, ko'chalar, mahallalar, mavzalar va dahalardan ularda yashovchilarning umumiy yig'ilishi qarori bilan saylanadigan namoyandalardan vakil qilinadilar. Vakillik normasini fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish ishlari bo'yicha tegishli tuman yoki shahar muvofiqlashtirish kengashi belgilaydi.

Fuqarolar yig'ini raisi vazifasiga nomzodlar ko'rsatish tartibi qonunning 14-moddasida berilgan bo'lib, unga ko'ra fuqarolar yig'ini raisi vazifasiga nomzodlar ko'rsatish tegishli hududda yashovchi aholining fikrini hisobga olgan holda ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi. Fuqarolar yig'ini raisi vazifasiga ko'rsatilgan nomzodlarga doir hujjatlar tuman yoki shahar hokimi bilan kelishish uchun tegishli tuman yoki shahar komissiyasiga saylovdan kamida o'n kun oldin topshiriladi. Ushbu lavozimga nomzodlar, qoida tariqasida, oliy ma'lumotli bo'lishi va saylov kuni tegishli hududda doimiy yashab turgan bo'lishi, shuningdek, tashkilotchilik qobiliyatiga, hayotiy tajribaga va aholi o'rtasida obro'-e'tiborga ega bo'lishi kerak.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilarini saylash ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Fuqarolar yig'inida hozir bo'lgan fuqarolarning yarmidan ko'pining ovozi olgan nomzod fuqarolar yig'ini raisi yoki uning maslahatchisi vazifasiga saylangan hisoblanadi.

O'zini-o'zi boshqarish organlari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishga fuqarolarni jalb etishga ko'maklashadi, davlat hokimiyati organlariga, qonunlarni yuqori davlat organlarining hujjatlarini, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning qarorlarini bajarishda yordamlashish maqsadida fuqarolarni birlashtiradi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi. Konstitutsiyada fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish, ularning vazifasi, vakolatlari qonun bilan belgilanishi ko'rsatilgan. Konstitutsiyaning shu normasini hayotga tatbiq qilish maqsadida 1999-yil 14-aprelda «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun¹¹⁵ qabul qilingan. Bu qonunda fuqarolarning o'zini-o'zi

¹¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994, 9-son, 322-modda.

boshqarish organlarining vazifasi, vakolatlari, fuqarolar yig'ilishi va raisning vakolatlari, ularning davlat hokimiyati organlari bilan munosabati asoslari belgilab qo'yilgan.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi — fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shunindek, milliy va ma'naviy qadriyatlar hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Fuqarolar shaharchalar, qishloqlar, ovullar va mahallalarda o'zini-o'zi boshqarishga doir o'z Konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarining saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig'inlari orqali amalga oshiradilar.

Fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, bevosita hamda o'zlarining saylab qo'yiladigan vakillari orqali o'zini-o'zi boshqarishni amalga oshirishda teng huquqlarga egadir.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishga doir huquqlarini cheklash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- Demokratizm;
- Oshkoralik ;
- Ijtimoiy adolat;
- Insonparvarlik;
- Mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik;
- Jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshiriladi. Shaharchalar, qishloqlar, ovullarni tuzish, tugatish, shunindek, ularning chegaralarini o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish fuqarolar o'zini-o'zi boshqarishining tegishli organlari fikrini hisobga olgan holda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Ma'nallarni tuzish, qo'shib yuborish, bo'lish va tugatish, shuningdek, uning chegaralarini belgilash va o'zgartirish fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining tashabbusiga ko'ra mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun

zarur shart-sharoit yaratadilar. ularning ishlariga aralashishga yo'l qo'maydilar, fuqarolarga o'zini-o'zi boshqarishga doir huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashadilar. Quyidagilar fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlaridir:

— Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolarining, shuningdek, shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolarining yig'ini (vakillar yig'ilishi, bundan buyon matnda fuqarolar yig'ini deb yuritiladi).

— Fuqarolar yig'inining kengashi Fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar fuqarolar yig'inining taftish komissiyasi tuman markazidan olisda joylashgan va borish qiyin bo'lgan shaharchalar, qishloqlar va ovullarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda tuziladigan ma'muriy komissiya (bundan buyon matnda ma'muriy komissiya deb yuritiladi).

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, belgilangan namunadagi muhrga ega bo'ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro'yxatga olinishi kerak. Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi namunaviy nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqarolar yig'ini organlari va ularning mansabdor shaxslarni saylash fuqarolarning qonunda belgilangan saylov huquqlari kafolatlarini ta'minlagan holda, umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin yoki ochiq ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Fuqarolar yig'ini — fuqarolar o'zini-o'zi boshqarishining yuqori organi bo'lib, aholi manfaatlarini ifodalash va uning nomidan tegishli hududda amal qiluvchi qarorlar qabul qilish huquqiga egadir. Fuqarolar yig'inida o'n sakkiz yoshga to'lgan hamda shaharcha, qishloq, ovul va mahalliy hududda doimiy yashayotgan shaxslar qatnashadilar.

Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini hamda shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini tegishli ravishda shaharcha, qishloq ovul fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining hamda shahardagi mahalla fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining vakolatlariga qonun hujjatlari bilan berilgan istalgan masalani o'zi ko'rib chiqish uchun olish va hal etish huquqiga ega.

«Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunning 10-moddasiga ko'ra, shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shaharchadagi mahalla fuqarolar yig'ini:

— Fuqarolar yig'ini va uning maslahatchilari, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning raislari va a'zolarini saylaydi, yilning har choragida ularning hisobotlarini eshitadi;

— Fuqarolar yig'inining taftish komissiyasini hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ma'muriy komissiyani saylaydi, ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

— Belgilangan tartibda raisning maslahatchilari va fuqarolar yig'ini kengashi devonining miqdor tarkibini belgilaydi, raisning taqdimnomasiga ko'ra fuqarolar yig'inining mas'ul kotibini tayinlaydi;

— Kengash, taftish komissiyasi va ma'muriy komissiya faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, yilning har choragida ularning hisobotlarini eshitadi;

— Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organining faoliyat dasturi va xarajatlar smetasini, hududni kompleks rivojlantirishni ta'minlash, aholi punktlarini obodonlashtirish va ularning sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar rejalari tasdiqlaydi;

— Qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining, shuningdek, o'z qarorlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

— O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi uchastka saylov komissiyalarining a'zoligiga nomzodlarni, tegishli okrug saylov komissiyalarini tavsiya etadi;

— Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi deputatligiga nomzod ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qiladi;

— O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga xalq deputatlari, viloyat Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish uchun fuqarolarning nomzodlari, bo'yicha hokimiyatning tegishli vakillik organlariga takliflar kiritadi;

— To'ylar va boshqa marosimlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar beradi;

— Yilning har choragida tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlarining fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitadi. Fuqarolar yig'inlarining hisobotlar to'g'risidagi bayonnomalari tegishli viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yuboriladi, ular bu bayonnomalarning hisobini yuritadilar, fuqarolarning murojaatlari bajarilishini nazorat qiladilar;

— Atrof-muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi;

— Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'z mablag'larini shakllantiradi, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining mulkiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi;

— Obodonlashtirish ishlarini o'tkazish, umumiy foydalanishdagi joylarni ta'mirlash, shuningdek, kam ta'minlangan oilalarning uylari va kvartiralarini ta'mirlashda yordam ko'rsatish uchun aholidan ixtiyoriylik asosida mablag' yig'ish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

— Obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va sanitariya-tozalash ishlari o'tkazish uchun tegishli hududda joylashgan korxonalar va tashkilotlarning mablag'laridan shartnoma asosida foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

— O'z hududidagi ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini ixtiyoriylik asosida birlashtirish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi;

— Pul mablag'lari sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

— Atrof-muhitni muhofaza qilishga ko'maklashadi;

— Guzarlar barpo etishga doir masalalarni ko'rib chiqadi;

— Ma'muriy-hududiy birliklar va mahallalarning chegaralarini o'zgartirish, mahallalar, ko'chalar, maydonlar va boshqa obyektlarning nomini o'zgartirish to'g'risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;

— Yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiquvchi tuman komissiyasiga o'z vakilini yuboradi;

— Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini ushbu modda nazarda tutilgan vakolatlardan tashqari, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish va bolali muhtoj oilalarga nafaqalar tayinlash masalalarini hal etadi, oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ajratiladigan mablag'lardan o'z o'rnida va samarali foydalanilishni ta'minlaydi.

Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolar yig'inlariga ko'maklashadi, markazlashtirilgan tarzda ajratiladigan mablag'lardan qanday foydalanilayotganligi to'g'risidagi hisobotlarini eshitadi.

Fuqarolar yig'inining qarorlarini bajarish va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolar yig'inlari oraliq davridagi joriy faoliyatini amalga oshirish uchun fuqarolar yig'inining raisi, uning maslahatchilari, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning raislari va yig'inning mas'ul kotibidan iborat tarkibda fuqarolar yig'inining kengashi tuziladi. Fuqarolar yig'inining kengashi:

— Fuqarolar yig'inini chaqiradi;

— Fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar ishini muvofiqlashtiradi, xayriya tashkilotlari va boshqa hamkorlikdagi tadbirlarni o'tkazadi;

— Fuqarolar yig'ini raisining taqdimnomasiga ko'ra, fuqarolar yig'ini kengashining devonini shakllantiradi;

— Ommaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, sport tadbirlari va boshqa tadbirlarni o'tkazishda mahalliy davlat hokimiyati organlariga ko'maklashadi;

— Xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy hayotdagi, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi, yosh avlodni tarbiyalash ishidagi mavqeini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'radi;

— Ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining oldini olish, fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligi huquqlariga rioya etilishini ta'minlash, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'radi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalarni ko'rib chiqadi;

— Tarbiyaga oid masalalar yuzasidan ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi;

— Ikki yoshga to'lmagan bolalari bor, ishlamaydigan onalarga nafaqalarni shu maqsadda ajratilgan davlat budjeti mablag'laridan ko'rsatilgan tartibda tayinlaydi va to'laydi;

— Boshqalarning parvarishi va yordamiga muhtoj keksa fuqarolarga shafelik (patronajlik) yordami shu maqsadda ajratilgan davlat budjeti mablag'lari hisobidan ko'rsatilishiga ko'maklashadi;

— Mazkur hududda yashovchi fuqarolarni ish bilan ta'minlashga, shu jumladan, kasanachilikni tashkil etishga ko'maklashadi;

— Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kichik korxonalar, sartaroshxonalar, poyabzal ta'mirlash va tikish ustaxonalari, xalq hunarmandchiligi sexlari va aholiga maishiy xizmat

ko'rsatuvchi boshqa korxonalarni tashkil etish va tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi, bu qaror keyinchalik fuqarolar yig'inida tasdiqlanadi;

— Aholining uylari, hovlilaridagi binolar, hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, sport maydonchalarini jihozlash, yo'llar, ko'priklar, ko'chalar, yo'laklar, kommunal tarmoqlarni qurish, ta'mirlash va yaroqli saqlash, tarix va madaniyat yodgorliklarini, qabristonlarni ta'mirlash ishlarida ixtiyoriylik asosida qatnashishlarini tashkil etadi, tuman, shahar hokimligi ajratadigan moddiy va boshqa mablag'larni, ana shu maqsadlarga ishlatadi, jamoatchilik yordami (hasharlar)ni uyushtiradi, ko'riklar va tanlovlar o'tkazadi;

— Yoqilg'i, elektr va issiqlik energiyasi hamda suvdan tejamli foydalanish va ularning behuda sarflanishini kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazadi;

— Dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga ko'maklashadi;

— Tegishli hududdagi yerlarning foydalanilishi va muhofaza etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

— Savdo va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining ishi, savdo va fuqarolarga xizmat ko'rsatish madaniyati qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat amalga oshirilishiga ko'maklashadi;

— Tegishli hududda jamoat tartibini ta'minlashda, shu jumladan, fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga olishni tashkil etishda, o'smirlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ishida, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashadi;

— Aholi punktlari, suv ta'minoti manbalari, turarjoylar, maktablar va boshqa ta'lim muassasalarining sanitariya va ekologik holati ustidan nazorat amalga oshirilishiga ko'maklashadi;

— Yong'inga qarshi xavfsizlik talablariga, jonivorlarni saqlashga oid veterinariya qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirilishiga ko'maklashadi;

— Imoratlar qurish va uylar atrofidagi hududlarni orasta saqlash qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

— Uy-joy fondidan foydalanish va uning asralishini ta'minlashda fuqarolarga ko'maklashadi;

— Aholidan soliqlar va majburiy to'lovlar o'z vaqtida tushishiga ko'maklashadi;

— Fuqarolar uy-joydan foydalanish xarajatlarini va kommunal xizmatlar haqini bank muassasasi orqali hisob-kitob qilib, to'liq va o'z vaqtida to'lashlarini kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari bilan birgalikda uyushtiradi va nazorat qiladi.

— Fuqarolarni tabiiy ofatlarga qarshi kurashga va ularning oqibatlarini tugatishga jalb etadi;

— Aholini fuqarolik himoyasiga doir tadbirlarni o'tkazishga jalb etadi, harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarni mudofaa ishlari bo'limlariga chaqirilayotganliklaridan xabardor etish tashkil qilishga ko'maklashadi, shuningdek, shaharchalar, qishloqlar va ovullarda ularning shaxsiy-birlamchi hisobini yuritadi;

— Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy mehnatga tiklash va jinoyatchilikning oldini olishga doir tadbirlarni ijtimoiy moslashuv markazlari bilan birgalikda amalga oshiradi;

— Ilgari sudlangan hamda huquqbuzarliklar sodir etishga moyil boshqa shaxslarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish uchun faxriylar, xotin-qizlar, madaniyat va din vakillaridan komissiyalar tuzadi;

— Fuqarolar yig'inining kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida Respublika oqsoqollar Kengashi, shuningdek, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish ishlari bo'yicha viloyat, tuman, shahar muvofiqlashtirish kengashlari tuzilishi mumkin.

Fuqarolar yig'ini fuqarolar yig'inining raisi yig'in kengashi tomonidan zaruratga qarab, lekin yilning har choragida kamida bir marta chaqiriladi. Fuqarolar yig'ini xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi, tuman, shahar hokimi yoki o'n sakkiz yoshga to'lgan va mazkur hududda doimiy yashovchi fuqarolarning kamida uchdan bir qismi tashabbusi bilan chaqirilishi mumkin. Fuqarolarning yig'ini fuqarolar yig'inida qatnashish huquqiga ega bo'lgan barcha aholining yarmidan ko'prog'i hozir bo'lgan taqdirda vakolatlidir.

Fuqarolar yig'inini olib borish uchun rayosat saylanadi. Yig'inni fuqarolar yig'inining raisi yoki raisning maslahatchilaridan biri olib boradi. Barcha masalalar bo'yicha qarorlar ochiq yoki yopiq ovoz berish orqali oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Har bir yig'inda yig'in o'tkazilgan sana, hozir bo'lgan fuqarolar soni, kun tartibi va qabul qilingan qarorlar ko'rsatilgan holda bayonnoma yurtiladi. Fuqarolar yig'inining bayonnomasi va qarorini fuqarolar yig'inining raisi va mas'ul kotibi imzolaydilar. Rais yo'qligida, fuqarolar yig'inining bayonnomasini raisning maslahatchilaridan biri va mas'ul kotib imzolaydi. Fuqarolar yig'inini chaqirishning iloji bo'lmagan taqdirda, fuqarolar vakillarining yig'ilishi o'tkaziladi, mavzalar, dahalardan fuqarolarning namoyondalari vakil qilinishlari mumkin. Vakillik normalari tegishli xalq deputatlari Kengashi yoki tuman, shahar hokimi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar vakillarining yig'ilishi unda vakillarning kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda vakolatlidir va bunday yig'ilish ushbu Qonunda fuqarolar yig'inlarini o'tkazish tartibiga nisbatan qo'yiladigan talablarga muvofiq o'tkaziladi. Fuqarolar yig'ini kengashining majlisi fuqarolar yig'inining raisi tomonidan, zurutatga qarab, lekin oyda bir marta o'tkaziladi.

Fuqarolar yig'ini kengashining majlisi, agar uning ishida kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Qarorni fuqarolar yig'ini kengashining hozir bo'lgan a'zolaridan yarמידan ko'prog'i yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan hisoblanadi. Fuqarolar yig'ini kengashining qarori ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini tashkil etishni uning kengashi hamda fuqarolar yig'inining raisi amalga oshiradi. Raisning maslahatchilari o'rtasida vazifalarni taqsimlash fuqarolar yig'ini raisining taqdimnomasi bo'yicha yig'in tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolar yig'ini kengashi o'z devoniga ega bo'lishi mumkin, uning xodimlari soni yig'in tomonidan belgilanadi. Yig'inning mas'ul kotibi va kengash devoni xodimlari yig'inni, kengash majlisini o'tkazishga doir materiallarni tayyorlaydilar, yig'in, kengash va raisning qarorlari ijrochilarga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlaydilar, ish yuritilishni amalga oshiradilar.

Fuqarolar yig'inining raisi, mas'ul kotibi va kengash devoni xodimlari fuqarolar yig'inining mablag'lari hisobiga, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy budjet mablag'lari hisobiga ham ta'minlanishi mumkin.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan ko'rilgan, olingan yoki qonunda belgilangan tartibda ularga berilgan jamoat, ijtimoiy-maishiy va boshqa maqsaddagi, shu-

ningdek, transport vositalari, xo'jalik anjomlari va boshqa mulk ularning mulki hisoblanadi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'z mulki bo'lgan obyektlarni vaqtinchalik yoki doimiy foydalanish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga berishga, ijaraga topshirishga, belgilangan tartibda o'z tasarrufidan chiqarishga, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq ushbu mol-mulk bilan bog'liq boshqa bitimlar tuzishga haqlidir.

Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi o'z mablag'laridan, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan belgilangan tartibda ajratiladigan budget mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayr-ehsonlaridan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa mablag'lardan tashkil topadi.

Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining moliyaviy mablag'lari bank muassasasidagi mustaqil hisob varaqada saqlanadi hamda belgilangan tartibda ular tomonidan mustaqil foydalaniladi va bu mablag'larning olib qo'yilishi mumkin emas. Fuqarolar yig'inining kengashi moliyaviy mablag'lardan foydalanilganligi to'g'risida yilning har choragida fuqarolar yig'ini olidida hisob beradi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'z faoliyatining hisobini yuritadi hamda qonun hujjatlarida organlarga hisobot taqdim etadi.

Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining murojaatlari davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari tomonidan o'z vakolatlari doirasida qonunda belgilangan muddatda ko'rib chiqilishi shart.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini qayta tashkil etish va ularning faoliyatini tugatish ma'muriy-hududiy birliklar, shuningdek, mahalla qo'shilganda, bo'linganda, tugatilganda fuqarolar yig'inining qaroriga binoan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyati bilan bog'liq nizolar sud tomonidan hal etiladi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari o'zini-o'zi boshqarishni amalga oshirishga doir fuqarolarning huquqlarini buzgan davlat organlari va boshqa organlarning, shuningdek, mansabdor shaxslarning harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat qilishga haqlidir.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining qarorlari, shuningdek, ular mansabdor shaxslarining harakatlari

(harakatsizligi) ustidan qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishi mumkin.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari O'zbekiston Respublikasida joylardagi xalq hokimiyatchiligi namoyon bo'lishi shakllaridan biri bo'lib, bu organlar orqali aholining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy sohalaridagi ehtiyojlari amalga oshiriladi. Mazkur organlarning tashkil etilishi va faoliyatiga tegishli masalalarni o'rganish juda muhimdir. Chunki, O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligini amalga oshirish yo'llari ikkita asosiy shaklda amalga oshiriladigan bo'lsa, bu bevosita va vakillik demokratik asosda bo'ladi. Bunda demokratiyaning ikkala shakli ham namoyon bo'lishi bevosita mahalliy vakillik organlari bilan bog'liqdir. Bu organning saylash jarayoni bevosita demokratik, ularning faoliyati esa vakillik demokratiyadir.

O'zbekistonda mahalliy vakillik hokimiyat organlari tizimi xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyat organlari tizimini ko'rsating.
2. Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining tashkil etilishi qanday?
3. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining Konstitutsiyaviy vazifalariga nimalar kiradi?
4. Mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyat organlari munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi qanday amalga oshiriladi?
5. Mahalliy ijroiya organlarining huquqiy maqomi deganda nimani tushunasiz?
6. Mahalliy ijroiya organlarining strukturasinni ko'rsating.
7. Xalq deputatlari Kengashlar sessiyalarini chaqirish tartibin ko'rsating.
8. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslari deganda nimani tushunasiz?
9. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini tuzish tartibi qanday?
10. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarida fuqarolar yig'ini Kengashi faoliyati qanday?

XII BOB

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD HOKIMIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

1-§. O'zbekiston Respublikasida sud tizimining Konstitutsiyaviy asoslari

Huquqiy demokratik davlat erkin fuqarolik jamiyatida sud hokimiyatining mavqei yuksak sanaladi, binobarin, adolatni ta'minlovchi mahkama sifatida aynan sud e'tirof etiladi.

Sud hokimiyati — bu sudlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi prinsipiga so'zsiz rioya qilish asosida jinoiy, fuqarolik, xo'jalik ishlarini va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish bo'yicha vakolatli organdir.

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida mustaqil shohobchalaridan biri bo'lib, jamiyat hayotida odil sudlovni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Odil sudlov o'z mohiyatiga ko'ra, davlat faoliyati hisoblanadi, bunda vakolatli sud muassasasi huquq normalari talablarini buzish oqibatida kelib chiquvchi nizoli holatlarni muhokama etib, hal etadi.

Mamlakatimizda sud hokimiyatining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi, tuzilishi va faoliyat yuritishning qonuniy asosi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi (yangi tahrirdagi 2000-yil 14-dekabr) qonuni bilan belgilanadi.

Konstitutsiyada ta'kidlanishicha, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar, siyosiy partiyalardan boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati tizimi quyidagi sudlardan tashkil topgan:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
3. O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi;
4. Qoraqalpog'iston Respublikasining Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari;
5. Harbiy sudlar;

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudlari.

O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin.

Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Qonun sudlarni tashkil etish, ularni saylash va tayinlash tartibini belgilaydi

Fransiyada Konstitutsiyaviy nazoratni boshqa davlatlardagi kabi sud organlari emas, balki maxsus Kengash tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Sudlar to'g'risida»gi qonuniga muvofiq sodiqlik, mustaqillik, kollegiyallik, oshkoralik va sudyalar huquqlarining tengligi sud tizimi faoliyatining asosiy prinsiplaridir.

Sud ishlari ichida eng asosiy vazifa odil sudlovni amalga oshirish hisoblanadi. Shuningdek, sud hokimiyatining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi vakolatlari ham mavjud:

- 1) Konstitutsiyaviy nazorat;
- 2) Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatlari hamda ular tomonidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligini tekshirish;
- 3) Sud hukmi va qarorlarning ijrosini ta'minlash;
- 4) Sudlarga tegishli ma'muriy huquqbuzarlik holatlarini ko'rib, tekshirib chiqish;
- 5) Sud amaliyotidan kelib chiqib, amaldagi qonunchilik masalalari bo'yicha tushuntirish vakolati;
- 6) Sudyalar tarkibining shakllanishida ishtirok etish va uning organlariga yordam berish vakolati.

Sudning faoliyati qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir. Sud hokimiyati faoliyatining Konstitutsiyaviy qoidalari O'zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida», «Sudlar to'g'risida», «Harbiy sudlarning faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Nizom», Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Fuqarolik-protsessual kodeksi, Xo'jalik-protsessual, Ma'muriy javobgarlik kodeksi, Mehnat kodeksi, Jinoyat ijroiya kodeksi va boshqalarga tayanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 108-109-moddalarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining huquqiy holati mustahkamlangan. Unga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonun

chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi.

Konstitutsiyaviy sud siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan – Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o'rinbosarlari va sudyalardan, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi vakilidan iborat tarkibida saylanadi.

Konstitutsiyaviy sudning raisi va a'zolari deputat bo'la olmaydilar. Konstitutsiyaviy sudning raisi va a'zolari, siyosiy partiyalari, harakatlarning a'zosi bo'lishlari va boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari daxlsizlik huquqidan foydalanadilar. Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqildirlar va faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'ysunadilar (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 108-moddasi).

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi:

1) Qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan boshqa hujjatlar O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmonlar, hukumat qarorlari, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalar va boshqa majburiyatlarning O'zbekiston Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

3) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Ular qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas. Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyatini ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi esa «Sudlar to'g'risida»gi qonun asosida faoliyat olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud

Buyuk Britaniyada qonunchilik hokimiyatini amalga oshiruvchi parlamentning yuqori palatasi, ya'ni Lordlar palatasi ayni vaqtda odil sudlovni amalga oshiruvchi oliy sud organi hamdir.

kimiyatining oliy organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlari, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib boradi va ularning ishlarini umumlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida va nazorat tartibida ko'radi. U o'zining birinchi instansiya sifatida ko'rgan ishlarni apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish) huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xohishiga ko'ra apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rishi mumkin. Apellyatsiya tartibida ko'rilgan ish kassatsiya tartibida ko'rilmaligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi — sud raisi, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, sudlov hay'atlari raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalariidan iborat bo'lib, quyidagi tarkibda ish olib boradi:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati;
- Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;
- Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;
- Harbiy hay'at.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi eng yuqori sudlov instansiyasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudlarining sudyalariidan iborat tarkibda ish olib boradi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi va sudyalardan iborat bo'ladi. Jinoyat ishlari bo'yicha shahar (shahar) sudi rais, sudyalar va xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tartibida ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar ham faoliyat olib boradi.

Harbiy sudlar tizimi «Sudlar to'g'risida»gi qonunda belgilangan va qonunning 39-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudlari tizimi O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, Harbiy sudi Harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, Oliy va hududiy harbiy sudlardan iborat.

Harbiy sudlar tizimida asosiy bo'g'in okrug va hududiy harbiy sudlar hisoblanadi, ular faqat birgina funksiyada, Harbiy instansiya bo'yicha o'z vakolat doirasida ishlarni ko'rib chiqish huquqiga egadir. Viloyat sudi maqomiga tenglashchilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi harbiy sudlar tizimida o'rta bo'g'in hisoblanadi.

Harbiy sud tizimida eng yuqori sud instansiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi bo'lib, uning tarkibiga harbiy hay'at kiradi.

Harbiy sudlar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Milliy xavfsizlik xizmatining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarining va qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning, shuningdek, o'quv yig'inlarida bo'lgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar va harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni; harbiy qismlar, qo'shilmalar va birlashmalar, harbiy boshqaruv organlarining qo'mondonligiga nisbatan harbiy xizmatchilarning da'volari bo'yicha fuqarolik ishlarini va harbiy boshqaruv organlari hamda harbiy mansabdor shaxslarning, harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyatlarni; alohida holatlarga ko'ra umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyat ko'rsatmayotgan joylarda hamma fuqarolik va jinoyat ishlarini; davlat sirlariga taalluqli ishlarni ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgach, iqtisodiyot va xo'jalik sohasida yuzaga keladigan muammolarni hal etish uchun xo'jalik sudlari joriy etildi. Xo'jalik sudlari «Sudlar to'g'risida»gi qonun asosida faoliyat olib boradi.

Italiyada hatto suvdan umumiy foydalanish ishlari bo'yicha maxsus viloyat tribunali (sudi) ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi xo'jalik sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarining faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining tushuntirishlari xo'jalik sudlari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi, quyi xo'jalik sudlari faoliyatini tekshiradi, xo'jalik sudlarining ishini tashkil etish ijobiy tajribasini o'rganadi, umumlashtiradi va ommalashtiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rais, uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, sudlov hay'atlarining raislari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalalaridan iborat bo'lib, quyidagi tarkibda ish olib boradi:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Rayosati;
- Fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati;
- Ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati¹¹⁶.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi raisidan iborat tarkibda ish olib boradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, uning o'z sudlov tizimi shakllandi, huquqiy asoslar yaratildi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, mazkur tizim odil sudlov manfaatlariga to'la javob beradi, fuqarolar huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishonchli kafolat hisoblanadi.

2-§. Sud hokimiyatini tashkil etishning Konstitutsiyaviy-huquqiy tamoyillari

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida: «Sud tizimini isloh qilish, avvalo, hukm chiqaruvchi sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlashga qaratilishi kerak. Faqat shunday qilganda, hozir sudni jazolovchi organ deb biladigan odam sudga o'z huquqlari va erkinliklarini, manfaatlarini himoya qilish lozim bo'lgan organ sifatida murojaat qiladigan bo'ladi. Ana shundagina sud hokimiyatning haqiqiy mustaqil tarmog'iga aylanadi», deb ta'kidlashi bejiz emas.

Sud hokimiyati boshqa hokimiyat tarmoqlaridan xoli ravishda faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga amal qilishi, bir qator prinsiplariga rioya etishi zarur bo'ladi.

Qonuniylik odil sudlovning asosiy tamoyillaridan biridir. «Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar»¹¹⁷.

¹¹⁶ Qarang. «O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 1-2-son, 10-modda.

¹¹⁷ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. — T.: «O'zbekiston», 1999, 29-30-betlar.

«Qonuniylik» deganda barcha davlat va nodavlat organlar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar va ularga muvofiq keladigan boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga og'ishmay amal qilishi va ijro etishi tushuniladi.

Bunday tamoyil odil sudlov uchun davlat faoliyatining ushbu turi, yuqorida uni ta'riflashda qayd qilinganidek, qonun talablariga rioya etgan holda va unda belgilangan fuqarolik va jinoyat ishlarini ko'rib chiqish tarkibiga og'ishmay amal qilish bilan chambarchas bog'liqligi sababli alohida ahamiyat kasb etadi. Qonunga rioya qilinmaydigan joyda odil sudlov haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Bu ko'proq zo'ravonlik bo'ladi, bunday «odil sudlov» o'zining ijtimoiy funksiyasini bajarishga qodir emas.

Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida berilgan bo'lib, unga ko'ra, «Sudyalar mustaqildir, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi». Shu bilan birga «Har bir kishi o'zining huquqlari va burchlarini hamda unga qo'yilgan jinoiy aybning asosligini belgilash uchun to'liq teng huquqlik asosida o'z ishining mustaqil va xolis sud tomonidan oshkora tarzda va adolatlilikning hamma talablariga rioya qilgani hamda ko'rib chiqilishi huquqiga egadir. Sudlar mustaqilligi tamoyilining mohiyati sudning tashqaridan aralashuvisiz, qandaydir tazyiqsiz yoki boshqacha ta'sir ko'rsatishsiz, qonun talablariga qat'iy rioya qilgan holda mas'ul qarorlar qabul qilish uchun imkoniyat beradigan sharoitlarni ta'minlashga intilishdan iborat.

Sudning mustaqilligi asosan ikkita asosiy element yig'indisidan tashkil topadi: sud hokimiyati va sudyalarning o'zlarining tashkiliy (institutsional) va funksional mustaqilligidir.

Sud hokimiyati tashkiliy mustaqilligining mohiyati sudlar hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlariga bo'ysunmasligi, xolis, mustaqil bo'lish lozimligi haqidagi g'oyadan iborat. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hokimiyatning vakolatlariga kiradigan qarorlarni qabul qilishi mumkin emas. Bundan tashqari, sudlar faoliyatini moliyalashtirish faqat qonun chiqaruvchi hokimiyat tasdiqlaydigan davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan

markazlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Ularning moddiy texnika ta'minoti va faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan vositalarga doir ishlarning tashkil etilishi «Sudlar to'g'risida»gi qonunning 11-moddasiga muvofiq, maxsus vakolatli organ tomonidan bajariladi.

Sudlarning funksional mustaqilligi sudyalarning ishlarni hal etishda faqat Konstitutsiyaga va qonunga bo'ysinishini nazarda tutadi. Odil sudlovni amalga oshirishning protsessual kodekslarga binoan belgilanadigan qoidalari sudyalarning ishlarini kimlarningdir fikrlari, talablaridan xoli bo'lgan holda ko'rib chiqish va hal etishi, shu jumladan, sudyalar maslahatida o'zining ishiga doir fikr-mulohazalarni bayon qilishni ta'minlashi lozim. Jumladan, sud faqat ushbu ishga daxldor sud tarkibiga kiradigan sudyalar ishtirokida maslahatxonada ish yuzasidan qaror chiqaradi. Boshqa shaxslarning qatnashishiga esa yo'l qo'yilmaydi.

Sudyalar ham maslahat paytida bildirilgan mulohazalarni oshkor qilishlari mumkin emas.

Odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga, yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasidan).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasiga ko'ra «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar».

Qonun oldida tenglik – bu qonunlarda mustahkamlangan qoidalarining hamma fuqarolarga nisbatan bir xildagi qo'llanilishidir. Bunda nafaqat huquqlarning berilishi, balki ularning amalga oshirilishini tartibga soladigan qonunlarga muvofiq javobgarlik qo'llanilishi ham nazarda tutiladi. Huquqlardan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lishi uchun qonun har xil sabablarga ko'ra o'z huquqlari va manfaatlarini himoya qila olmaydigan shaxslarga qo'shimcha kafolatlar belgilaydi (voyaga yetmaganlar, jismoniy nuqsoni yoki ruhiy kasallar va hk.).

Sud oldida tenglik tushunchasi qonun oldida tenglik tushunchasidan jiddiy farq qilmaydi. U sud oldida u yoki bu tarzda turgan barcha fuqarolarga teng protsessual huquqlar berilishini va tegishli majburiyatlar yuklanishini anglatadi.

Sud oldida mulkiy ahvoli, lavozimidan qat'i nazar, hamma rasmiy ravishda tengdir. Jumladan, huquqlarning faqat sud

qarori asosida chetlanishiga yo'l qo'yilishi ham shu bilan izohlanadi.

Hammaning qonun oldida tengligi tamoyili nafaqat O'zbekiston fuqarolariga, shu bilan birga, ajnabiy shaxslarga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ham tegishlidir. Qonun talablariga ko'ra, davlatning bir qator mansabdor shaxslari, sudyalari, deputatlar, prokurorlar uchun ularni javobgarlikka tortishning alohida qoidalari belgilangan.

Fuqarolarning sud himoyasida bo'lish huquqining ta'minlanishi tamoyili O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra «Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi».

Fuqarolarning sud himoyasida bo'lish huquqi «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi xalqaro Paktning 14-moddasida, «Inson huquqlari va siyosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risida»gi Yevropa Konvensiyasining 6-moddasi birinchi qismida mustahkamlagan.

O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustdagi «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi qonunda aniqlashtirilgan. Huquq va erkinliklarni sudga himoya qilish har bir kishiga kafolatlanadi. Ushbu huquq o'z manfaatlarini shaxsan, advokat yoki qonuniy vakili orqali himoya qilish mumkin bo'lgan jismoniy shaxsga tegishlidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida shunday deb ta'kidladi: «Bugun bizning huquqiy doktrinamiz mutlaqo yangicha, demokratik tamoyillarga asoslangan. U, eng avvalo, O'zbekiston Konstitutsiyasi talablariga ko'ra inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlaydi. Inson himoyaning bosh subyekti bo'lib, uning hayoti va sog'lig'iga suiqasd qilish og'ir jinoyat hisoblanadi»¹¹⁸.

Sud himoyasida bo'lish huquqi yuridik yordam olish huquqi bilan chambarchas bog'liqdir, chunki qonunlar, ularni qo'llash amaliyoti, sudlarda ishlarni yuritish tajribasini bilmasdan turib, sud himoyasida bo'lish imkoniyatlarini samarali amalga oshirish

¹¹⁸ Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. — T: «O'zbekiston», 2002, 33-bet.

mumkin emas. Yuridik kasblarni egallagan kishilar bunday xususiyatlarga ega bo'ladi. Shuning uchun ham, ular sudda o'zini himoya qilishga muhtoj kishilarga yordam berishi kerak.

Qonunning buzilishida olib kelgan barcha xatti-harakat, qarorlar yoki vakolatlarning oshirib yuborilishi yoxud kimningdir huquqlarini poymol qilish kabi hollar ustidan sudga shikoyat bilan murojaat qilish mumkin. Bundan tashqari, nafaqat Konstitutsiyaviy, shu bilan birga boshqa barcha huquqlar va erkinliklar ham sud himoyasida bo'ladi. Konstitutsiya kafolatlab qo'ygan va qonun yoki shartnomada belgilangan huquqlarning himoyasi masalasida sudga murojaat qilish mumkin. Buzilgan huquqning xususiyatiga qarab, ularni himoya qilish tegishlicha Konstitutsiyaviy fuqarolik, ma'muriy, jinoyat va xo'jalik sud ishlarini yuritish tartibida amalga oshirilishi mumkin.

Aybsizlik prezumsiyasi tamoyili O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida «Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda oshkora ko'rib chiqib, uning aybi aniqlamaguncha, u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi».

Ushbu tamoyil faqat ishlarni jinoyat sudida ko'rib chiqish asosida amal qiladi, aybsizlik prezumsiyasi inson huquqlari sohasidagi nufuzli xalqaro hujjatlar: inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (11-modda), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (14-modda), Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasi (6-modda 2-qism) qoidalariga muvofiq keladi. Odil sudlovni amalga oshirishning ushbu Konstitutsiyaviy tamoyili ayblanuvchining nafaqat jinoyat protsessidagi, shu bilan birga, u subyekt sifatida qatnashadigan barcha ijtimoiy munosabatlaridagi huquqiy maqomini belgilaydi. Hatto ayblanuvchi hibsda saqlanayotgan bo'lsa, sud hukmi qonuniy kuchga kirgunga qadar uning mehnatga oid, ommaviy va boshqa huquqlari hamda erkinliklari saqlanib qoladi.

Umuman olganda, ushbu Konstitutsiyaviy me'yor bevosita amal qiladigan me'yor bo'lib, sudning qonuni kuchga kirgan ayblov hukmi bo'lmagan taqdirda har qanday shaxs bilan aybdor bilan muomala qilgandek muomalada bo'lishini taqiqlaydi. Biroq ushbu ayblanuvchi (gumon qilinuvchi) jinoyat sodir qilganligi to'g'risida asosli gumon mavjud bo'lganida, bunday shaxsning ayrim huquqlari (masalan, erkin yurish,

yo'zishmalar, pochta va telegraf xabarnomalarini olish va yuborish huquqlari) qonunda nazarda tutilgan tartibda cheklanishi mumkin. Qonuniy kuchga kirgan oqlov hukmi aybsizlik prezumsiyasi tamoyiliga muvofiq aybsiz, deb e'lon qilinishini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasiga ko'ra, barcha sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni ochiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi. «Har bir kishi har qanday jinoiy ayblovni, unga qo'yilayotgan jinoiy ayblovni ko'rib chiqishda yoki qandaydir fuqarolik jarayonida uning huquqlari va majburiyatlarini belgilashda ishning qonun asosida tashkil etilgan vakolatli, mustaqil va xolis sud tomonidan adolatli va oshkora tartibda ko'rib chiqish huquqiga ega» dir.

«Sudlar to'g'risida»gi qonunning 7-moddasi sudlov ishlarini yuritishning oshkoralik tamoyilini nazarda tutadi. Ushbu modda mazmunidan shunday xulosa kelib chiqadiki, «oshkoralik» tamoyili «sudda ishlarni ochiq ko'rish» atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi. Bu tamoyil, FPKning 10-moddasi, XPKning 8-moddasi va JPKning 19-moddasi bilan ham tartibga solinadi.

Uning mohiyati shundan iboratki, u yoki bu sud ishi bo'yicha protsess ishtirokchisi bo'lmagan fuqarolarning ishini ko'rib chiqishda, sud muhokamasi paytida ishtirok etish imkoniyati ta'minlanadi. Bu sud faoliyatining yaxshilanishiga ko'maklashadi, uni vujudga keltiradigan masalalarning hal etilishiga ko'proq mas'uliyat bilan yondashishga majbur qiladi, fuqarolarni qonuniylikni mustahkamlash ruhida tarbiyalashga ta'sir ko'rsatadi, tevarak-atrofdagilar uchun profilaktik ahamiyat kasb etadi va shu tariqa, jamoatchilikning odil sudlov ustidan nazorat yuritishining o'ziga xos shakli hisoblanadi.

Sud ishlarini yuritish tili tamoyili. 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasi 3-qismiga ko'ra, «Har bir kishi unga qo'yilgan har qanday jinoiy ayblovning ko'rib chiqilishida, agar u sud jarayonida qo'llanilayotgan tilni tushunmasa yoki bu tilda so'zlamasa, bepul tarjimon xizmatidan foydalanish huquqiga egadir».

— «O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlarini olib borayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvi shaxslarning tarjimon orqali

ish materiallari bilan to'la tanishishi va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi»¹¹⁹.

Sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon xizmatidan foydalanish imkoniyati kafolatlanadi. Tarjimon esa o'z navbatida, ishning ko'rib chiqilishida o'z vazifalarini aniq va to'liq amalga oshirishga majbur. Bunday majburiyatning bajarilmasligi jinoiy javobgarlikka tortishga ham sabab bo'lishi mumkin. Tarjimonning ayblanuvchi (gumon qilinuvchi, sudlanuvchi)ga ko'rsatiladigan xizmatlari har doim ham bepul bo'ladi.

Huquqiy muhofaza qilish organlarining mansabdor shaxslari protsess ishtirokchilariga ularning huquqlari, va jumladan, tarjimon xizmatlaridan foydalanish, o'zining ona tilida so'zlash, bayon etish huquqi borligini tushuntirishlari shart. Tergov va sud hujjatlari ham bunday shaxslarga ular tushunadigan tilga tarjima qilingan holda topshiriladi. Bundan tashqari sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxsga dastlabki tergovda va ishning sudda ko'rib chiqilishida majburiy tartibda himoyachining ishtirok etishi ta'minlanadi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining himoyalaniş huquqi bilan ta'minlanish tamoyili O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 116-moddasida: «Ayblanuvchi himoyalaniş huquqi bilan ta'minlanadi. Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi qonun bilan belgilanadi».

Har bir kishi unga qo'yilayotgan har qanday jinoiy ayblovni ko'rib chiqishda o'zi tanlagan himoyachi ishtirokida sudlanish va o'zini shaxsan yoki o'zi tanlagan himoyachi orqali himoya qilish, mabodo u himoyachiga ega bo'lmasa, u bunday huquqqa ega ekanligi haqida xabardor qilinishi va odil sudlov manfaatlari talab qilgan hollarda uning uchun himoyachi xizmatlariga pul to'lash imkoniyati bo'lmaganida har qanday holda bepul tartibda tayinlangan himoyachiga ega bo'lish huquqiga egadir.

Bu tamoyil Konstitutsiyaning 116-moddasidan tashqari «Sudlar to'g'risida»gi qonunning 10-moddasi va JPKning 20-

¹¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 115-moddasi, 313-b.

moddasida ham mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu me'yorlar jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarda himoyalaniish huquqi borligini nafaqat e'lon qiladi, balki ayni bir vaqtda, bu huquqning kafolatlanganligini ham alohida ta'kidlaydi. O'zbekiston Respublikasida Sudlar ushbu tamoyillarga asoslangan holda ish yuritib, qonunga itoatkorlik ruhida faoliyat ko'rsatadi.

3-§. O'zbekistonda sudyalarning Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi

Sudyalarning huquqiy holati, ularning huquq va majburiyatlari, saylanish tartibi, tayinlanishi va lavozimini egallashi, ular mustaqilligining kafolatlari, shuningdek, ularning moddiy va ijtimoiy ta'minoti Konstitutsiya va «Sudlar to'g'risida»gi qonun normalarida belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi «Sudlar to'g'risida»gi qonunning 61-moddasiga ko'ra, sudyalar oldiga bir qancha talablar qo'yiladi.

Yigirma besh yoshdan kichik bo'lmagan, oliy yuridik ma'lumot, yuridik ixtisos bo'yicha kamida uch yillik mehnat stajiga ega bo'lgan hamda malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tumanlararo, tuman (shahar) sudi, xo'jalik sudi sudyasi bo'lishi mumkin. Oliy yuridik ma'lumotga

Bilasizmi, Yaponiya'da Oliy sud sudyalari umrbod tayinlanadi (Oliy sud raisi Imperator tomonidan, qolgan a'zolari Hukumat tomonidan). Quyi bo'g'indagi sudyalar esa 10 yil muddatga Hukumat tomonidan tayinlanadi.

hamda yuridik ixtisos bo'yicha kamida besh yillik, shu jumladan, sudya bo'lib kamida ikki yil mehnat qilgan va malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyasi bo'lishi mumkin.

Oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik ixtisos bo'yicha kamida yetti yillik, shu jumladan, sudya bo'lib kamida besh yil mehnat qilgan va malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi sudyasi bo'lishi mumkin. Haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan, ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy unvonga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi harbiy sud sudyasi bo'lishi mumkin.

Yigirma besh yoshdan kichik bo'lmagan fuqarolarning yashash yoki ish joyidagi yig'ilishlarida ochiq ovoz berish yo'li

bilan ikki yarim yil muddatga saylangan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi xalq maslahatchisi bo'lib, sudlarda ishtirok etishlari mumkin.

Haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan, o'n sakkiz yoshga to'lgan, harbiy qismlar harbiy xizmatchilarining yig'ilishlarida ochiq ovoz berish yo'li bilan bir yarim yil muddatga saylangan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi harbiy sud xalq maslahatchisi bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan saylanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan saylanadi yoki tayinlanadi.

Viloyat sudlari, Toshkent shahar sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan, xo'jalik sudlari sudyalari esa O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Harbiy sudlar sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Sudyalar besh yil muddatga tayinlanadi.

Konstitutsiya va qonun sudyalarga asosiy talablardan tashqari, qator qo'shimcha talablar ham o'rnatganligini ta'kidlash lozim:

— Sudyalar hokimiyat vakillik organlarining deputatlari bo'lishi mumkin emas;

— Sudyalar siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'lishi mumkin emas;

— Sudyalar ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin emas.

✓ O'zbekiston Respublikasi «Sudlar to'g'risida»gi qonunning 65-moddasiga ko'ra sudyalar quyidagi huquqlardan foydalalanadilar:

- Mansabdor shaxslar va fuqarolardan odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan o'z farmoyishlarining bajarilishini talab qilish;
- Mansabdor va boshqa shaxslardan odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot olish;
- Uyushmalarga birlashish huquqiga ega;
- Sudyalar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sudyalar fuqarolik, xo'jalik va jinoyat ishlarini, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish chog'ida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlariga so'zsiz rioya qilishlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmati va mol-mulki, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashlari, beg'araz va adolatli bo'lishlari shart.

«Sudlar to'g'risida»gi qonunning 70-moddasiga ko'ra, sudyalar o'z faoliyatlarida daxlsizlik huquqlaridan foydalanadilar.

Sudyaning shaxsi daxlsiz. Sudyaning daxlsizligi uning turarjoyi, xizmat xonasi, foydalanadigan transporti va aloqa vositalari, xat-xabarlari, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga taalluqlidir.

Sudyalarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash maqsadlarida ularga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Oliy xo'jalik sudi raisi, Adliya vaziri tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha o'qotar qurol beriladi. Zarur hollarda tegishli sud raisining qaroriga binoan Ichki ishlar organi sudya va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratadi.

Sudyaga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

Sudya O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi mumkin emas.

Sudya sudyalarning tegishli malaka hay'atining roziligisiz ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Sudyaning turarjoyi yoki xizmat xonasi, foydalanadigan transportiga kirish, ularni ko'zdan kechirish, ularda tintuv o'tkazish yoki ulardan ashyoni olish, telefondagi so'zlashuvlarini eshitish, sudyani shaxsan ko'zdan kechirish va uni shaxsiy tintuv qilish, shuningdek, uning xat-xabarlarini, unga tegishli

ashyolar va hujjatlarni ko'zdan kechirish, olib qo'yishga faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori ruxsati yoki sudning qarori bilan yo'l qo'yiladi.

Tumanlararo, tuman (shahar) sudi, okrug va hududiy harbiy sud sudyasiga nisbatan jinoyat ishi yuqori turuvchi sud sudloviga, boshqa sudlar sudyalariga nisbatan esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudloviga tegishlidir.

Sudda o'z vazifalarini bajarayotgan davrda xalq maslahatchilariga sudyalarning daxlsizligining barcha kafolatlari tatbiq etiladi.

«Sudlar to'g'risida»gi qonunning 71-moddasiga muvofiq, sudyalarning vakolatlari quyidagi hollarda to'xtatilishi mumkin:

- Sudya jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lsa;
- Sudya o'z lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanayotgan bo'lsa;
- Sudya tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga tortilgan yoki sud qarori bilan uning muomala layoqati cheklangan bo'lsa;
- Sudya sud qarori bilan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa;
- Sudyaning vakolatlari bu vakolatlarni to'xtatishga sabab bo'lgan asoslar bekor bo'lgunga qadar to'xtatiladi.

Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga baho berish maqsadida sudyalarning malaka hay'atlari vaqti-vaqti bilan sudyalarning malaka attestatsiyalarini o'tkazib turadi. Sudyalarga har yili o'ttiz olti ish kunidan iborat haq to'lanadigan ta'til beriladi, shu bilan birga sudyalarning hayoti va sog'lig'i davlatning maxsus muhofazasida bo'ladi hamda Respublika budjeti mablag'lari hisobidan davlat tomonidan majburiy tartibda sug'urta qilinadi.

4-§. O'zbekistonda sud-huquq islohotlarining hayotiy zaruriyati

Mamlakatimizda barcha sohalarda o'tkazilayotgan islohotlarning o'ziga xos xususiyati — bu ularning bosqichma-bosqichligida namoyon bo'ladi, chunki har bir bosqichda aniq choralarning amalga oshirilishi ijtimoiy, moddiy va tashkiliy shart-sharoitlarning mavjudligiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sudlarni ixtisoslashtirishni nazarda tutuvchi 2000-yil 14-avgustdagi «O'zbekiston

Respublikasi sud tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni sudlarning mutlaqo yangidan tuzilishiga asos soldi.

Mazkur Farmon suddagi ishlarning adolatli va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash, fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarini qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirdi. Shuning uchun fuqarolarning sudlarga bo'lgan ishonchlari ortib, buzilgan huquqlarini tiklash yuzasidan sudga murojaatlari ko'paymoqda. Sudyalikka nomzodlarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish masalasi ijro hokimiyati aralashuvidan butunlay xoli qilindi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 24-sentabrdagi Farmoni bilan «Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi»ning yangi tahrirdagi Nizomi qabul qilinishi alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Sud-huquq tizimidagi islohotlar fuqarolar turmush tarziga to'liq kirib kelayotganligi kundan-kunga yaqqol sezilib bormoqda. Prezidentimiz tomonidan jazo amaliyotini liberallashtirish masalasi kun tartibiga qo'yilgach, ijtimoiy xavfi uncha katta bo'lmagan jinoyat sodir qilgan shaxslarga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlarini qo'llash, iqtisodiy sohada jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda idtisodiy ta'sir choralaridan foydalanish, bir so'z bilan aytganda, jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda tarbiyalash jinoyatchilikning oldini olishda samaraliroq usul ekanligi qonunlashtirildi. Yurtboshimiz sud-huquq tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishni talab qilish bilan birga sudlanuvchilarga og'ir jazo tayinlanish amaliyotini qattiq qoraladilar. Haqiqatan jazo tayinlashdan maqsad jinoyat sodir etgan shaxsga azob berish emas, balki uni qayta tarbiyalashdir.

Iqtisodiy jinoyatlarni sodir qilgan va jinoyat oqibatida keltirilgan zararni qoplagan ko'plab mahkumlar qamoq joylaridan ozod etildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mazkur qonun amalga kiritilganidan buyon bir yil davomida jinoyat oqibatida yetkazilgan 2514335000 so'mlik moddiy zarar qoplanganligi tufayli 2026 shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bogliq bo'lmagan jazolar tayinlangan.

Demokratik va adolatli fuqarolik jamiyati qurishning asosi aynan sud-huquq sohasidagi ijobiy o'zgarishlarga bogliq ekanligini Yurtboshimiz ko'p bora ta'kidlagan. Xususan, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida

so'zlagan nutqida ham mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida «Sud-huquq sohasini isloh qilish bo'yicha boshlangan ishlarni izchil davom ettirish» zarurligini alohida uqtirib o'tdilar.

Darvoqe, davlatimiz rahbari o'z ma'ruzasida ta'kidlaganidek, «Bu sohadagi eng muqim vazifa sud-huquq idoralarining mustaqilligi va ta'sirchan faoliyatini so'zda emas, amalda ta'minlash bo'lmog'i zarur. Sudlar tom ma'noda mustaqil bo'lgan holdagina qonunlarning qat'iy ijrosi, ularning haqiqiy ustuvorligi so'zsiz ta'minlanadi. Qayerda sud mustaqil bo'lmas ekan, shu yerda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrar».

Ba'zi huquqshunos olimlar fikricha, sud hokimiyati «Qonunga bo'ysundirilgan va sud ishlarini yuritish tartibida qonunni qo'llashga da'vat etilgan organlar tizimini tashkil qiladi»¹²⁰. Sud hokimiyatini ta'riflashga doir boshqacha yondashuv uni sud ishlarini ko'rib chiqish bilan boq'liq faoliyat sifatida tushunishdan iboratdir. Har ikkala konsepsiya tarafdorlari tomonidan taqdim etilgan sud hokimiyati tushunchasida uzviy birlikni tashkil etadigan ikkita asosiy jihat ajratib ko'rsatiladi.

Sud hokimiyatini amalga oshirish tartib-qoidalarining bir necha ko'rinishlari qaror topganki, ularga sud ishlarini yuritishning Konstitutsiyaviy, fuqarolik, xo'jalik, jinoiy va ma'muriy turlari kiradi. Bunday sud ishlarini yuritish maxsus qonun hujjati bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan sudlar ixtisoslashuvining joriy etilishi, ya'ni umumiy yurisdiksiya sudlarining fuqarolik ishlarini ko'rib chiqadigan va jinoyat ishlarini ko'rib chiqadigan sudlarga ajratilishi sud tizimini isloh qilishdagi jiddiy qadam bo'ldi. Bu narsa, albatta, fuqarolar huquq va erkinliklari himoyasi kafolatlanishini yanada kuchaytiradi, sudlarda ishlarning sifatli va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini to'laroq ta'minlaydi. Sudlar ixtisoslashuvi odil sudlovni amalga oshirish uchun qo'shimcha kafolat bo'ladi.

Bir qator rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, AQSH, Angliya, Fransiya, Italiya, Germaniyada ko'plab o'n yilliklar davomida odil sudlovning ixtisoslashgan sudlar tomonidan amalga oshirilishi o'zini oqlab kelmoqda. Shu mamlakatlarning ayrimlarida sudyalar ixtisoslashuvi bundan ham kengroq

¹²⁰ Фойницкий И.Я. Курс уголовного судопроизводства. Т. I. СПб. 6. 1996. С. 158.

bo'lib, masalan, oila, mehnatga oid ishlar, voyaga yetmaganlarning ishlari va shu kabilar bo'yicha tabaqalashtirilgan. O'zbekiston Respublikasi ham sud faoliyatini yanada ixtisoslashtirish yo'lidan ildam bormoqda.

«Sudlar to'g'risida»gi qonundagi asosiy yangiliklardan biri umumiy yurisdiksiya sudlarining ixtisoslashuvi — fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha mustaqil sudlar tashkil etilishini joriy qilishdan iborat bo'ldi. Qonun ilk marta umumiy yurisdiksiya sudlarida protsessual qonunchilikning eng muhim institutlaridan biri — ishlarning apellyatsiya tartibida ko'rib chiqilishining joriy etilishini nazarda tutadi.

Bunday institut xalqaro amaliyotda sinovdan o'tgan va Respublikada xo'jalik sudlari tizimida qo'llanib kelinadi. Ishlarning apellyatsiya tartibida ko'rib chiqilishi yuqori sud instansiyasiga dalillarni bevosita tekshirib chiqish va ishning mohiyati bo'yicha qaror qabul qilish imkonini beradi, bu esa, fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasining kafolatlarini ancha kuchaytiradi, sud ishlarini yuritish samaradorligi va operativligini oshiradi, davlat mablag'larining jiddiy tejalishiga olib keladi.

Jinoyat-protsessual va fuqarolik protsessual qonunlariga o'zgartirishlar kiritilish sudlar ixtisoslashuvi joriy etilishining mantiqiy davomi bo'ldi, bunday o'zgartirishlar tufayli protsess ishtirokchilari huquqlariga rioya qilinishining protsessual kafolatlari kengaydi, sudda himoyalaniş huquqini amalga oshirishga doir qonuniy mexanizm kuchaytirildi, sud protsessida tortishuv tamoyili ta'minlanishi tomon keskin qadam qo'yildi.

Bundan tashqari, sud ishlarini apellyatsiya va kassatsiya tartibida ko'rib chiqish institutlarining joriy etilishi sudda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni o'z vaqtida tuzatish uchun qo'shimcha kafolat hisoblanadi.

«Sudlar to'g'risida»gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi davr talabi edi. Bu qonun sudlar mustaqilligini mustahkamladi, sudyalik lavozimiga tavsiya qilishning yangi tartibini belgiladi. Qonunning ushbu talabi ijrosini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash va tavsiya qilish bo'yicha Oliy malaka komissiyasi to'g'risidagi Nizomning yangi tahriri tasdiqlandi.

Sudyalarning mustaqilligiga erishish, sudlar faoliyatini tashkiliy, moddiy-texnika va mablag' bilan ta'minlash masala-

larini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-sentabrdagi qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida maxsus vakolatli organ-sud qarorlarining ijro etilishi, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash Departamenti, uning joylardagi bo'linmalari tashkil etildi.

Departamentning asosiy vazifasi sud hujjatlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika va mablaq' bilan ta'minlashga doir ishlarni tashkil etishdan tashqari, sudlar binolarini qurish va ta'mirlash uchun ajratilgan kapital mablag'larning samarali o'zlashtirilishi ustidan nazoratni amalga oshirishdan iborat. Sudyalar va sud protsesslari xavfsizligini ta'minlash, sud ijrochilari kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish ham Departament vazifalariga kiradi.

Sud-huquq islohoti yangi bosqichining boshlang'ich nuqtasi, shubhasiz, ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasi bo'ldi. Davlatimiz rahbari I.A.Karimov sessiyada so'zlagan nutqida O'zbekiston mustaqillikka erishganligining g'oyat katta ahamiyatini, mamlakatning o'n yil davomida demokratiya va taraqqiyot yo'lidan mustaqil rivojlanishi sharoitida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilgan.

Tub o'zgartirishlar muhimligini ta'kidlab, sud-huquq tizimini takomillashtirish, jinoyat qonunchiligini insonparvarlik, adolatparvarlik, huquqiy fuqarolik jamiyati tamoyillariga mos ravishda liberallashtirish masalalari xususida alohida to'xtalib o'tdi.

Ushbu sessiyada Respublika parlamenti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunchilik tashabbusi tartibida taqdim qilingan «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasini ko'rib chiqdi.

Oliy Majlis tomonidan sud-huquq islohotlarining ikkinchi bosqichini boshlab bergan qonunning qabul qilinishi natijasida jinoyat qonun hujjatlarining umumiy yo'nalishi butunlay o'zgarib, huquqiy demokratik davlat qoidalariga, fuqarolik jamiyatini shakllantirish shart-sharoitlariga yanada ko'proq darajada muvofiq bo'ldi.

Sud-huquq tizimining demokratik asoslarini yaratishdan, umuman olganda, xususan, sudyalar va huquqni muhofaza

qilish organlari xodimlarining mentalitetini o'zgartirishdan iborat bo'lsa, hozirgi asosiy vazifa erishilgan natijalarni mustahkamlash, ularning samaradorligi va mavjudligini «so'zda emas, qog'ozda emas, balki amaliy hayotda fuqarolarning huquqiy va erkinliklarining zarur kafolatlarini ta'minlovchi demokratik prinsiplarni» ro'yobga chiqarishdan iborat bo'lib qoldi. Bularning hammasini jamlab olganda oldimizda sud-huquq islohotlarini rivojlantirishning yangi istiqbollari ko'ndalang bo'ladi, eng avvalo, ularni nazariy jihatdan chuqur o'rganish, ularga har tomonlama yondashish va izchil ravishda amalda ro'yobga chiqarish taqozo etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2005-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisida «Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» nomli ma'ruzasida davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa sifatida hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishish, sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirish, shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek, boshqa protsessual majburiy choralarni qo'llash uchun sanksiya berish huquqini sudga o'tkazish, jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlash vazifalarini qo'ydi va ularni bugungi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari ekanligini ta'kidladi.

Shuni aytish kerakki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimidagi tub islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu islohotlarning asl mohiyati xalq farovonligini oshirish, jamiyatda ijtimoiy adolat va demokratiya tamoyillarining ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularning sur'ati va natijalari har birimizning bugungi kundagi shijoatimiz va harakatimizga bog'liqdir.

Sud-huquq tizimini isloh qilishning mohiyati va ma'nosi «Adolat qonunni og'ishmay ro'yobga chiqarishdadir» degan qoidadan iborat bo'lmog'i lozim. Ayni mana shu g'oya sud-huquq islohotlari tamoyilining o'zagiga, uning ruhi va mohiyatiga aylanishi, sud-huquq tizimini isloh qilishning butun jarayoniga daxl qilib qolmay, balki jamiyat, davlat qurilishini butunlay isloh qilish jarayonining tarkibiy qismiga ham aylanishi kerak. Shu munosabat bilan modernizatsiyalash

qonunning shak-shubhasiz ustuvorligi qoidasiga qat'iy rioya etgan holda amalga oshirilishi lozim.

Sudyalar va sudlarning ixtisoslashuvini davom ettirish, shak-shubhasiz, sud hokimiyati faoliyatining samaradorligini oshirish borasida tashlangan muhim va amaliy qadam bo'ldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekistonda davlat organlari tizimida sud hokimiyati qanday ahamiyatga ega?
2. Sud hokimiyatining asosiy prinsiplariga nimalar kiradi?
3. Sudlarni saylash va tayinlash tartibini ayting.
4. O'zbekistonda sud tizimini sanab bering.
5. Konstitutsiyaviy sud vazifasiga nimalar kiradi?
6. Oliy sud vazifasi nimalardan iborat?
7. Xo'jalik sudlari vakolatlarini sanab bering.
8. Sudyalarning daxlsizligi deganda nimani tushunasiz?
9. Sudyalar o'z faoliyatini qaysi tamoyillar asosida amalga oshiradi?

XIII BOB

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURASI

1-§. Davlat organlari tizimida prokuraturaning o'rni

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Qonunning ustuvorligi huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat'iy hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiy siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas, qonun oldida hamma barobardir» deb ta'kidlagan edi¹²¹.

¹²¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. — T.: «O'zbekiston», 1998, 126-bet

Prokuratura Konstitutsiyaviy huquqning muhim instituti bo'lib, uning faoliyati qonunning ustunligini har tomonlama qaror toptirishga, huquq tartibotni mustahkamlashga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan, oliy qadriyat darajasida ko'tarilgan inson va fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy, shaxsiy huquqlari hamda erkinliklari, shuningdek, davlat mustaqilligi, ijtimoiy davlat tuzumi, siyosiy va iqtisodiy tizimlar, milliy guruhlar va hududiy tuzilmalarining huquqlarini g'ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgandir.

«Prokuratura» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, «yordamlashaman», «ko'maklashaman» ma'nosini bildiradi¹²².

Prokuratura tushunchasi va mohiyatiga aniqlik kiritishda prokuratura faoliyati xususiyati, prokuratura tizimining davlat mexanizimlarida tutgan o'rni, shuningdek, vazifalaridan kelib chiqish kerak. Procuratura o'z vakolati doirasida davlat funksiyalarini amalga oshirishda, davlat amaliyotining mustaqil tarmog'ini tashkil etuvchi qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi va qonunchilik va huquq tartibotni ta'minlashda ishtirok etadigan huquqni muhofaza etadigan organdir.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarini Konstitutsiyaviy huquqning muhim instituti sifatida ko'rishimiz uning konstitutsion norma bilan alohida mustahkamlanganligidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXIV bobi prokuraturaga ajratilgan bo'lib, bu bob o'z ichiga 118, 119, 120, 121- moddalarni qamrab oladi.

Konstitutsiyaning 118-moddasida «O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi» deyilgan. Bu konstitutsion normaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi, Bosh prokuror rahbarlik qiladigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga egadir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshiradilar. Prokurorlar o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'xtatib turadilar.

¹²² Юридический энциклопедический словарь. — М.: 1984, 302-ст.

Fransiyada prokuratura organlari sud organlari tizimiga kiradi, AQSHda esa prokuratura Adliya vazirligi qoshida tashkil etilgan.

Prokuratura organlarining asosiy vazifalari — O'zbekiston Respublikasi hududida qonun ustunligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va

davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, Konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iboratdir.

Prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Hukumat qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining amaldagi buyruqlari, ko'rsatmalari, nizom, yo'riqnomalari va boshqa qonun va qonunosti hujjatlari bilan belgilangan.

Prezident I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq oltinchi sessiyasidagi ma'ruzasida shuni alohida ta'kidlaganki, jinoyat va jinoyat protsessual kodekslariga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirishlar jinoiy ishlarga taalluqli qonunlarni erkinlashtirish va demokratlashtirish sari tashlangan muhim va mas'uliyatli qadamdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov: «Prokuratura to'g'risida»gi qonun loyihasini talabchanlik va sinchkovlik bilan, prinsipial nuqtai nazardan ko'rib chiqish g'oyat muhim. Prokuratura qonunni, uning talablarini qat'iy himoya qiluvchi idora hisoblanadi. U huquqiy islohotlarni o'tkazishda, huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurish ishida hal qiluvchi o'rin tutadi¹²³, deb ta'kidlagan edilar.

Yangi tahrirdagi prokuratura to'g'risidagi qonunda prokuraturaning butun faoliyati jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga yo'naltirilgan, qonun buzilishlarini tezkor ravishda bartaraf etadigan, qonunchilik va huquq tartibotni mustahkamlash borasidagi jamiyat talablari qondirilishiga javob beradigan prokuratura organlari davlatimiz va jamiyatimizga kerak ekanligi isbotlandi.

Ma'lumki, 2004-yil 11-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta'minlashga oid

¹²³ Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10.
— T: «O'zbekiston», 2002, 45-bet.

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni chiqdi. Bu farmonga ko'ra, qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishga qaratilgan qonunlar va ular asosida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarning og'ishmay ijro etilishini ta'minlash, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda davlat manfaatlarini himoya qilish borasida prokuratura organlari faoliyati kuchaytirildi.

Prokuratura davlat organlari tizimida muhim o'rin tutadi. Konstitutsiyaning 83-moddasiga muvofiq, Respublika Bosh prokurori qonunchilik tashabbusiga ega. Shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida ishtirok etish huquqiga ega.

Prokuratura organlarini moliyalashtirish va moddiy-texnika ta'minoti Respublika budjeti mablag'lari hisobidan markazlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Prokuratura organlari xodimlari «Prokuratura to'g'risida»gi qonunga ko'ra daxlsizlik huquqidan foydalanadilar.

2-§. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarining asosiy yo'nalishlari va prinsiplari

Prokuratura organlari o'z faoliyatini qonunchilikda belgilangan quyidagi asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiradi:

— Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

— Fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

— O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

— Tezkor qidiruv faoliyati, surishtiruv, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

— Jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;

— Sudlarda jinoiy ishlar ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarini hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

— Soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga, shuningdek, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

— Ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

— Qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish¹²⁴.

Prokuratura organlari faoliyati asosiy yo'nalishlarining ba'zilariga qisman to'xtalib o'tamiz.

Jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksiga asosan, jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlarining va milliy xavfsizlik xizmatining tergovchilari olib boradi¹²⁵.

Tergovchi jinoyat ishini qo'zg'atish va tugatishga, ishni qo'zg'atishni rad etish, jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlash va so'roq qilish, Jinoyat protsessual kodeksida nazarda tutilgan tergov harakatlarini olib borish, shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb etish va unga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash to'g'risida qaror chiqarishi, o'z yurituviga qabul qilgan ish bo'yicha surishtiruv organlariga qidiruv va tergov harakatlarini bajarish to'g'risida yozma topshiriqlar berish, surishtiruv organlaridan ayrim tergov harakatlarini yuritishda ko'maklashishni talab qilishga haqlidir.

Sudlarda jinoiy ishlar ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovinu quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarini hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish; prokuratura to'g'risidagi qonunga muvofiq «Sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovinu quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik ishlarini ko'rilishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish» prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

¹²⁴ Qarang. O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi, (Yangi tahrirdagi) qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toplami, 2001-yil, 20-son.

¹²⁵ Jinoyat protsessual kodeksi. —T.: «Adolat», 2001, 18-b.

Sudlarda jinoyat ishlari ko'rilishi prokuratura organlarining prokurorlari tomonidan amalga oshiriladi. Prokurorlar fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilinishini ta'minlash maqsadida qonunda belgilangan tartibda barcha sud bosqichlarida jinoyat ishlari ko'rilishida prokuror ishtirokini va qabul qilingan qarorlarning qonuniyligini o'rganishni tashkil qiladi.

Sud qarorlari ustidan prokuraturaga kelib tushgan ariza, shikoyatlarning ko'rib chiqilishi va hal etilishi, sudlarda jinoyat ishlarining ko'rib chiqilishi va prokuror vakolatini ta'minlash boshqarma va bo'limlar prokurorlari tomonidan ta'minlanadi va ularni tahlil qiladi. Shuningdek, prokuror Oliy sudning kassatsiya bosqichida, Rayosatida va Plenumida ko'riladigan jinoyat ishlarini o'rganib, asoslantirilgan xulosalar tuzadi.

Xo'jalik protsessual kodeksining 43-moddasida ishda prokurorning ishtiroki belgilangan, bunga asosan, prokuror barcha ishlar bo'yicha sud majlislarida ishtirok etishga haqli. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudiga da'vo arizasini O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudiga esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar yoki ularning o'rinbosarlari taqdim etadi.

Da'vo taqdim etgan prokuror kelishuv bitimi tuzishdan tashqari da'vogarning barcha huquqlaridan foydalanadi va majburiyatlarini bajaradi. Prokurorning o'z da'vosidan voz kechishi da'vogarni ishini mazmunan ko'rib chiqishni talab qilish huquqidan mahrum qilmaydi. Prokuror tomonidan huquqni himoya qilish maqsadida taqdim etilgan da'vodan da'vogarning voz kechishi arizani ko'rmasdan qoldirishga olib keladi. Qonunda nazarda tutilgan yoki sud ishida prokuror qatnashishi zarur deb topgan hollarda ishni ko'rishda prokuror ishtirok etishi shart¹²⁶.

Xo'jalik sudlarida prokuror vakolatini ta'minlash bo'limi prokuratura organlarining mustaqil tarkibiy tarmog'i hisoblanadi u xo'jalik sudlarida ishlar ko'rilishida prokuror vakolatini ta'minlashni amalga oshiradi. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, xususiylar tadbirkorlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari sud yo'li bilan samarali himoya

¹²⁶ O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksi. — T.: «Adolat», 1997.

qilinishini ta'minlash maqsadida qonunda belgilangan tartibda xo'jalik sudining barcha bosqichlarida ishlar ko'rilishida prokuror ishtirokini va qabul qilingan qarorlarning qonuniyligini o'rganishni tashkil qiladi. Noqonuniy sud qarorlariga protsesslar keltirish va qonun buzilishlarini bartaraf etish choralarini ko'radi, shuningdek, xo'jalik ishlari bo'yicha sud qarorlarining qonuniyligini o'rganish va noqonuniy qarorlarga protsess keltirish, ularni qonunga muvofiqlashtirish borasida prokuratura organlari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda uni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishida prokuror vakolatini ta'minlash bo'limi, sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishida prokuror vakolatini ta'minlashni amalga oshiradi.

Soliq intizomini mustahkamlashga soliq sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga, shuningdek, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zarar o'rnini qoplashga qaratilgan qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish. Soliqqa oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuratura organlarida alohida bo'lim faoliyat ko'rsatadi. Bu bo'lim Davlat soliq qo'mitasi va Bosh prokuratura huzuridagi soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (SVOJQK) organlarida qonunlar ijrosi, shuningdek, soliq va valutaga oid jinoyatlar bo'yicha tergov oldi tekshiruvi va surishtiruv ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bo'limning asosiy vazifasi davlat soliq qo'mitasi va Bosh prokuratura huzuridagi SVOJQK departamenti organlarida O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni tashkil etishdan iborat.

Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish. Prokuratura organlarida «Sud qarorlarini ijro etishda va qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat» boshqarmasi faoliyat ko'rsatadi. Boshqarmadagi prokurorlarning asosiy vazifasi sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari bo'yicha ijro ishi yuritish jarayonida fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat manfaatlarini himoya qilinishi, mansabdor shaxslar va ijro etuvchi organlar tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda qo'llanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish. Prokuratura organlari, qonunchilikni targ'ib qilish, qonun ijodkorligi faoliyati va jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlarida ishtirok etadi.

Prokuratura to'g'risidagi qonunda prokuratura organlarining birlik va markazlashganlik prinsiplari o'z ifodasini topdi. Bu prinsiplar qonuniy kuchga ega bo'lganliklari prokuraturaning ichki tizimini mustahkamlashga, har bir prokuror mustaqil protsessual shaxs bo'lsada, butun tizim va unga rahbarlik qilayotgan Bosh prokuror nomidan faoliyat ko'rsatayotgani mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu o'z navbatida, prokuratura organlaridan boshqaruv, nazorat hamda boshqa organlar tomonidan fuqarolarning huquqlari buzilishining oldini olish va tegishli vakolatlaridan samarali foydalanib, qat'iyatlik bilan ishlashni talab etadi.

«Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari: **birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralikdir**»¹²⁷.

Prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizimni tashkil etadi hamda quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlar va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunadi. Yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga ko'rsatmalar berishga, uning protsessual qarorini o'zgartirish yoki bekor qilishga haqlidir, shuningdek, u o'z qo'l ostidagi barcha prokurorlarning ishlari to'g'ri tashkil etilishi uchun to'liq javobgardir.

Prokuratura organlarining xodimlari o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda boshqa qonunlarning talablariga rioya etishlari va bajarishlari shart. Qonunlarni bajarmaslik sababidan qat'i nazar, qonuniylikni buzish deb hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka tortiladi. Prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshiradilar.

¹²⁷ O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi (yangi tahrir) qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2001-yil, 20-son.

Prokuratura organlarining faoliyatiga aralashish taqiqlanadi. Prokuraturaning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish maqsadida biron-bir ta'sir ko'rsatish, faoliyatini amalga oshirishga to'sqinlik qilish, uning daxlsizligiga tajovuz qilish, shuningdek, prokuror yoki tergovchining ruxsatisiz tekshirishlar va dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor etish, prokurorning talablarini bajarmaslik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

3-§. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tizimi

Prokuratura tizimi O'zbekiston Respublikasi miqiyosida Bosh prokurorga bo'ysunuvchi prokuratura organlari yig'indisidan iborat bo'lib, bu fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishining nazoratini ta'minlash bilan umumiy funksiyani amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tizimi quyidagicha belgilangan:

1. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi;
3. Viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;
4. Tumanlar va shaharlar prokuraturalari;
5. Viloyat prokuraturasiga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi;
6. Viloyat prokuraturasiga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi;
7. Tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan harbiy okruglar, hududiy okruglar, hududiy-harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar;
8. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti va uning joylardagi bo'linmalari.

O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi qonunning 12-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimdan ozod etiladigan, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tasdig'idan o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori rahbarlik qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, O'zbekiston Respublikasi

Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimiga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori oldida hisobdordir¹²⁸.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va ozod etiladigan tegishli prokurorlar rahbarlik qiladilar. Viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimiga tayinlanadi va ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi harbiy prokurori lavozimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari hisoblanadi.

Tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va ozod etiladigan tegishli prokurorlar rahbarlik qiladilar. Ular O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunadi va ularning oldida hisobdordir.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tashkil etildi. Departamentga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va ozod etiladigan Departament boshlig'i rahbarlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis oldida hisobdordir. Quyidagi hollarda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida hisobot beradi:

— Qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida muntazam ravishda;

— O'ta og'ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to'g'risida zudlik bilan;

— Prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to'g'risida har olti oyda axborot taqdim etadi.

¹²⁸ O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi (yangi tahrir) qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2001-yil, 20-son.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ham o'z faoliyati haqida muntazam ravishda hisobot beradi¹²⁹.

4-§. Prokuror nazorati hujjatlari

O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib boruvchi prokurorlar o'z vakolatlaridan foydalangan holda quyidagi prokurorlik nazorat hujjatlarini qo'llaydilar: protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv kiradi.

Protest — Qonunga zid bo'lgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiradi. Protest kiritilgach, darhol, ya'ni o'n kunlik muddatdan kechiktirmagan holda ko'rib chiqilishi shart.

Protest shu hujjatni qabul qilgan organ (mansabdor shaxs) yoki yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs) tomonidan rad etilganda, protest qonunda belgilangan muddat ichida ko'rib chiqilmagan taqdirda, prokuror ana shu hujjatni g'ayriqonuniy deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli. Sudga ariza protest rad etilganligi to'g'risidagi xabar olingan paytdan boshlab yoki protestni ko'rib chiqish uchun qonunda belgilangan muddat o'tganidan keyin bir oylik muddat ichida berilishi mumkin. Prokuror tomonidan sudga ariza berilishi protest keltirilgan hujjatning amal qilishini ariza sudga ko'rib chiqilgunga qadar to'xtatib qo'yadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atishning qonuniyligi ustidan nazorat olib borayotgan prokuror: surishtiruvchi, surishtiruv organi boshlig'i, tergovchining jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risidagi qarorini bekor qilishga va ish qo'zg'atishni rad qilishga, ish qo'zg'atish to'g'risidagi yoki rad qilish to'g'risidagi sudning ajrimi ustidan yuqori sudga protest berishga haqlidir.

Protest yuridik nuqtai nazardan sifatli, sud qarorining noqonuniyligini isbotlovchi dalillar hamda tegishli moddiy va protsessual qonun normalariga asoslangan xulosalar bilan boyitilgan ishonarli bo'lishi lozim.

Qaror — prokuror sodir etilgan qonun buzilishining xususiyatiga qarab jinoyat ishi, ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida qaror qabul qiladi. Prokuror qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qaror

¹²⁹ Qarang. O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi (yangi tahrir) qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2001-yil, 10-son.

chiqaradi. Ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish haqidagi prokurorning qarori kelib tushgan kundan boshlab o'n besh kun ichida organ yoki mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilishi shart. Uni ko'rib chiqish natijalari haqida uch kun ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi.

Taqdimnoma — prokuror qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnomani qonun buzilishini bartaraf etish vakolatlariga ega bo'lgan organ yoki mansabdor shaxsga kiritadi. Taqdimnoma darhol ko'rib chiqilishi va ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida bir oy ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinishi lozim. Taqdimnoma kollegial organ tomonidan ko'rib chiqiladigan hollarda majlis kuni haqida prokurorga ma'lum qilinadi va u majlisda ishtirok etishga haqlidir.

Ariza — prokuror fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Prokurorning arizasi sud tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi. Prokuror arizasidan davlat boji olinmaydi.

Ogohlantiruv — prokuror fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari, huquq va erkinliklari, jamoat hamda davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar tayyorlanayotganligi xususida ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lganda, huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida, mansabdor shaxs va fuqarolarni qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida yozma ravishda ogohlantiradi hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni tushuntiradi. Ogohlantiruv to'g'risida prokuror yuqori turuvchi organga, ogohlantiruv e'lon qilingan shaxsning ish, o'qish joyi haqida ish beruvchiga yoki yashash joyidagi fuqarolarning o'zini- o'zi boshqarish organiga ma'lum qilishga haqli.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Prokuratura organlarining vazifalariga nimalar kiradi?
2. Prokuratura organlarining asosiy yo'nalishlarini ayting.
3. Prokuratura organlarining asosiy tamoyillariga nimalar kiradi?
4. Prokuratura organlari qanday tizimlardan tashkil topgan?

5. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining tarkibiy tuzilishini ayting.
6. Prokurorlar qanday tartibda tayinlanadi?
7. Prokurorning nazorat hujjatlariga nimalar kiradi?
8. Prokurorning sudda ishtiroki qanday tartibda amalga oshiriladi?

XIV BOB

SAYLOV TIZIMI VA SAYLOV HUQUQI TUSHUNCHASI

1-§. Saylov huquqi — fuqarolarning siyosiy huquqi sifatida

Davlat hokimiyati organlari shakllanishida birlamchi omil hisoblangan saylov usuli orqali hokimiyat tizimini vujudga keltirish va rivojlantirish qonuniyatlari, ularning tadrijiy o'zgarishi va tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Yangicha jamiyatni shakllantirish yangicha tamoyillar amalga oshiriladi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Yaxshi bilamizki, demokratiya, demokratik jamiyatning bosh talabi — bu odamlarning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etish, saylash va saylanish huquqini ta'minlashdan iborat. Eng muhimi, saylovlar xalqimizni parokanda va bir-biriga qarshi qilishga emas, balki elu yurt manfaati yo'lida yanada birlashtirishga xizmat qilishi zarur»¹³⁰.

Har qanday jamiyatda demokratik saylovlar taraqqiyotga yangi kuch beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda yangicha saylovlarning o'tkazilishi o'ziga xos davrga to'g'ri kelmoqda. Ya'ni, bu — mustaqil o'zbek davlatchiligi paydo bo'lgan va rivojlanayotgan, asosiy e'tibor xalq farovonligi, osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan, erkin fuqarolik jamiyati yaratilayotgan davrdir. Shunisi diqqatga sazovorki, bu davr

¹³⁰ Karimov I.A. «Men o'zimni nafaqat o'zbek xalqining, balki Qoraqalpoq xalqining ham farzandi deb bilaman». Qoraqalpog'iston Respublikasi saylovchilar vakillari bilan uchrashuvda so'zlagan nutqidan. 1992-yil 2-dekabr.

O'zbekistonda o'ziga xos sharq va g'arb demokratiyasi tajribalari uyg'unlashgan demokratik jarayon shakllangani bilan ajralib turadi. Bunda sharq demokratiyasidagi insonni ulug'vor bilish, mavjud shart-sharoitdan kelib chiqib harakat qilish, mas'uliyatni his etish va fidoyilik ko'rsatish kabi qadriyatlar, g'arb demokratiyasining oshkoralik, o'z-o'zini tanqid qilish, tadbirkorlik singari jihatlari ko'zga tashlanadi.

Saylov huquqi aspektlari ikkiga ajratiladi: obyektiv saylov huquqi va subyektiv saylov huquqi. Obyektiv saylov huquqi saylov huquqi normalari tizimi ya'ni asosini tashkil qiluvchi prinsiplar tartibi va saylovni tashkil qilishni o'z ichiga qamrab oladi. Subyektiv saylov huquqi davlat tomonidan ma'lum bir shaxsning saylovda qatnashishi kafolatlanishidir.

Saylov huquqi eng muhim siyosiy huquqlardan biri bo'lib, u fuqarolarga nafaqat vakillik organlarini tashkil etish, balki bunday organlarga o'z vakillarini yuborish imkoniyatini ham beradi. Fuqarolar tomonidan saylov huquqlarining to'siqsiz amalga oshirilishi ularning davlat boshqaruvida ishtirokining eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

Erkin saylov huquqining amalga oshirilishi, erkin hamda chinakamiga ifoda etiladigan xalq irodasi hokimiyat va har qanday hukumat qonuniyligining asosi ekanligi va har bir shaxsning o'z davlatini boshqarishda bevosita yoki o'z vakillari orqali qatnashish huquqi ko'pgina xalqaro hujjatlarda¹³¹, jumladan, YEXHTning Kopengagenda qabul qilingan hujjatida ham ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bu huquq fuqarolarning referendumlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida va hokimiyatning vakillik organlari saylovida qatnashishi orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida shunday deyiladi: «Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega».

¹³¹ Qarang: 1948-yilgi Butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasining 21-moddasi, 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 25-moddasi

Demak, fuqarolar o'z siyosiy huquqlarini amalga oshirar ekanlar qonunlarga so'zsiz rioya etishlari, shu asosda o'z huquqlarini joylarda amalga oshirishlari mumkin. Fuqarolarning siyosiy huquqlari davlat tomonidan cheklanishi, faqatgina qonunlar doirasidan chetga chiqish holatlari kuzatilgan vaqtda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, ommaviy harakatlar, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas. Bu tamoyil Konstitutsiyamizning 34-moddasida o'z aksini topgan. Har bir fuqaro xohlagan jamoat birlashmalariga a'zo bo'lishligi va undan xohlagan vaqtda chiqib ketishlari mumkin.

Fransiyada saylov munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga soladigan maxsus Saylov Kodeksi qabul qilingan.

2-§. Saylov huquqining Konstitutsiyaviy asoslari

Demokratik davlatning hokimiyat idoralarini shakllantirishda saylov muhim ahamiyatga ega. «Saylov» o'z mazmuniga ko'ra biron-bir organ (davlat, jamoatchilik, xalqaro va hokazolar)ni ovoz berish yo'li bilan shakllantirish demakdir. Saylov shunday demokratik jarayonki, unda xalq hamda uning vakillari qonunda belgilangan tartibda hokimiyatni boshqarishga kimni qo'yish yoki chetlatish masalasini mustaqil hal etadi. Albatta, nodemokratik davlatlarda ham saylovlar o'tkaziladi, lekin odatda formal xarakterga ega bo'ladi. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 2-moddasiga ko'ra «Davlatning asosiy hokimiyati bu xalqning irodasidir».

Saylov huquqi fuqarolarning o'z siyosiy huquqlarini amalga oshirishda yaqindan yordam beruvchi siyosiy holatdir. Saylov jarayonlarida yuzaga keladigan turli xil munosabatlarni tartibga solishda saylov huquqidan foydalanamiz. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida: «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar» deb ko'rsatib o'tilgan.

Aktiv saylov huquqi, har bir fuqaroning davlatni boshqarishda o'z vakillarini saylash bilan ishtirok etishini ko'zda tutadi. Bu huquqqa qonunda belgilangan ma'lum yoshga yetgan, muomalaga layoqatli mamlakat fuqarolari ega bo'ladilar. O'zbekistonda saylash huquqiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasi 2-bandiga binoan 18 yoshga yetgan barcha O'zbekiston fuqarolari egadirlar.

Yosh chegarasi turli mamlakatlarda turlicha belgilanishi mumkin. Masalan, Malayziya, Marokash, Boliviya fuqarolar 21 yoshga to'lganidan keyingina saylash huquqiga ega bo'lishadi. Rossiyada 2002-yil 20-dekabrda qabul qilingan Qonunga ko'ra saylov kunigacha 18 yoshga to'lgan Rossiya fuqarosi saylash huquqiga ega. Fransiya ham saylov huquqiga ega bo'lish uchun belgilangan yosh 1974-yil 5-iyuldagi qonun bilan 18 yosh qilib belgilangan.

Fuqarolik senzi barcha davlatlarda odatiy shartga aylangan bo'lsa-da, ba'zi hollarda bunday senzning yo'qolib ketishini ham kuzatish mumkin. Masalan, o'ziga xos tuzilma bo'lgan Yevropa Ittifoqining Parlamentiga saylovlar paytida Fransiya bo'lgan Germaniya fuqarosi Fransiyaning Yevropa Ittifoqi Parlamenti vakili uchun ovoz berish huquqiga ega. Bu qoida Yevropa Ittifoqiga asos solgan 1992-yilgi Maastricht Shartnomasida ko'zda tutilgan.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganlar, ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotganlar saylash huquqidan foydalana olmaydilar, ya'ni, ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotganlarning saylash huquqi vaqtincha to'xtatiladi.

Braziliya, Eron va Nikaraguada aktiv saylov huquqi fuqarolarga 16 yoshdan berilgan.

Passiv saylov huquqi, ya'ni saylanish huquqiga ma'lum yoshga yetgan, muomalaga layoqatli fuqarolar ega bo'ladilar. Turli davlatlarda ma'lum davlat organlariga saylanish uchun belgilangan yosh chegarasi turlicha bo'lishi mumkin.

Aktiv saylov, ya'ni saylash huquqidagi yosh senzi ma'lum davlatlarda aholining barcha qatlami uchun bir xil belgilansa, passiv saylov huquqida yosh senzi nomzodning qaysi organga saylanayotganligiga qarab turlicha belgilanishi mumkin. O'zbekistonda fuqarolar Mahalliy Kengash deputatligiga saylanish huquqiga ega bo'lish uchun 21 yoshga, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligi va Senatiga saylanish uchun 25 yoshga, Respublika Prezidentligiga saylanish uchun esa 35 yoshga yetgan bo'lishi kerak.

Masalan, Fransiyada Milliy Majlis deputatligiga, Respublika Prezidentligiga va Yevropa Parlamentiga nomzodi qo'yilgan shaxs 23 yoshga to'lgan bo'lishi, Senatga saylanish uchun esa 35 yoshga to'lgan bo'lishi shart. Undan tashqari barcha nomzodlardan harbiy xizmatni to'liq o'tagan bo'lishi talab qilinadi.

Shvetsariyada ayollarga nisbatan saylov huquqi yaqin o'tmishda 1971-yilda berildi.

Saylanish huquqi ham ba'zi mamlakatlarda ancha yuqori bo'lishi mumkin. Masalan, Italiyada senator bo'lish uchun nomzodning 40 yoshga to'lgan bo'lishi talab qilinadi.

Saylanish huquqiga ega bo'lish uchun yana boshqa shartlar ham qo'yilishi mumkin. Masalan, Yevropa Parlamentiga nomzodi qo'yilgan fransuz fuqarosidan 1500 yevro garov summasi talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasida Prezident bo'lib saylanish uchun nomzod O'zbekistonda kamida oxirgi 10 yil ichida doimiy yashagan bo'lishi va davlat tilini yaxshi bilishi kerak. Oliy Majlisning quyi va yuqori palatalariga deputatlikka saylanish uchun nomzod kamida so'nggi besh yilda O'zbekistonda doimiy yashagan, qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun avval sudlanmagan bo'lishi kerak.

Ko'pchilik mamlakatlarda saylovlar to'g'ri va egri ko'rinishlarga bo'linadi.

To'g'ridan-to'g'ri ovoz berish nomzodlarga ovoz berishning eng ko'p tarqalgan saylov turi hisoblanadi. To'g'ri saylovlarda saylovchi va nomzod o'rtasida hech qanday oraliq instansiya mavjud bo'lmay, saylovchining xohish-irodasi bevosita ifodalanadi. Bu holatda saylov huquqiga ega bo'lgan fuqaro saylanish asosida ega bo'linadigan lavozimga qo'yilgan nomzodga bevosita ovoz beradi. To'g'ri saylovlar jahonning ko'pchilik mamlakatlari parlamentining quyi palatalariga va barcha mamlakatlar prezidentligiga bo'ladigan saylovlarda qo'llaniladi.

To'g'ri saylovlar mamlakatimizda Prezidentlikka, Oliy Majlisning quyi palatasi – Qonunchilik palatasi deputatligiga va xalq deputatlari viloyat, tuman hamda shahar kengashlari deputatligiga bo'ladigan saylovlarda qo'llanilib, bunda fuqarolar va nomzodlar o'rtasida hech qanday oraliq instansiya mavjud emas.

Egri saylovlar, odatda, ko'p, bosqichli bo'lib, bunda saylov huquqiga ega bo'lgan fuqaroning xohish-irodasi maxsus shaxslar – «Saylovchilar» yoki maxsus organlar vositasida ifodalanadi. Egri saylovlarda fuqarolar nomzodga emas, balki maxsus shaxs-

lar yoki organlarga ovoz beradilar, ular esa o'z navbatida muayyan lavozimga qo'yilgan nomzodni saylaydilar. Bu saylov usuli qator mamlakatlar parlamentining yuqori palatasiga bo'lgan saylovlarda ham qo'llaniladi (Fransiya, Hindiston, Malayziya va boshqalar). Egri saylovlar AQSH va Argentina prezidentligiga bo'ladigan saylovlarda qo'llanilib, prezidentlik saylovida bu usulni qo'llanilishining xarakterli jihati shundaki, saylovchi va nomzod o'rtasidagi oraliq instansiya – maxsus shaxslarning shaxsiy sifatlari emas, balki partiyaviy mansubligi juda katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlisning yuqori palatasi – Senat a'zoligiga nomzodlar o'z lavozimlariga egri saylovlar orqali erishadilar, ya'ni Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — olti kishidan saylanadi. Senatga saylov Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.

Saylovlarni o'tkazish jarayonida xorijiy hamda milliy kuzatuvchilarning hozir bo'lishi saylov o'tkaziladigan davlat uchun saylov jarayonining obro'sini oshiradi. Bunday kuzatuvchilar saylov jarayoniga aralashmagan holda ma'lum davlatda fuqarolar saylov huquqlarining amalga oshirishlari uchun qay darajada sharoit yaratilganligiga va shuning natijasi o'laroq mamlakatdagi demokratik jarayonning qanday kechayotganligiga baho beradilar.

Yurtimizda bu boradagi islohotlarning qay darajada borayotganligini 2002-yil 27-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi referendumida ishtirok etib, referendum jarayonini bevosita kuzatgan xalqaro kuzatuvchilar «Referendum kelgusida O'zbekistonning xalqaro aloqalarini kuchaytirishda hamda qonunchilikni mustahkamlashda muhim omil bo'ladi» degan mulohazalaridan ham bilib olish mumkin.

Erkin saylov huquqining amalga oshirilishi fuqarolarning ijtimoiy faolligi oshib borishiga xizmat qiladi. Bunday jamiyatda fuqarolar davlat tomonidan turli sohalarda amalga oshirilayotgan siyosatga befarq bo'lmaydilar. Turli qatlamdagi aholi manfaatlarini hisobga olmasdan yuritiladigan davlat siyosati esa, salbiy oqibatga olib kelishi mumkin. Buning natijasida fuqarolarning faolligi sustlashib, saylovlarda ularning qatnashishi kamayib ketishi mumkin.

Jahon Konstitutsiyaviy huquqida **absentizm** deb ataladigan ibora mavjud bo'lib, ushbu holat saylovlarda ovoz berishda va referendumda ixtiyoriy qatnashmaslikni bildiradi. Bunda saylovchilar o'z ixtiyorlari bilan saylovlarda qatnashmaydilar, chunki kim deputat bo'lishi, kim davlat boshlig'i bo'lishi, qo'yilgan masalaning qanday hal qilinishi ularni qiziqtirmaydi. Bu esa davlat barqarorligiga xavf soladigan darajadagi oqibat-larga olib kelishi mumkin. Buni 2002-yilda o'tkazilgan Fransiya-dagi Prezidentlik saylovi misolida ham ko'rish mumkin.

O'zbekistonda saylovchilarning ovoz berishdan ixtiyoriy voz kechish hollari juda kam uchraydi. So'nggi parlament va Prezident saylovlarida va 2002-yil 27- yanvarda o'tkazilgan referendumda 90 foizdan ortiq saylovchi ovoz berishda ishtirok etganligi O'zbekistonda saylovchilarning siyosiy faolligi yuqori ekanligidan darak beradi.

3-§. Saylov huquqi tamoyillari

Saylov huquqi tamoyillari – bu saylov qonunchiligining shakllanish jarayoni, rivojlanishi va harakatlanishining bosh g'oyasi, yetakchi mezonidir.

Respublikamizda saylov huquqining asosiy tamoyillari bevosita Konstitutsiyada belgilangan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri va yashirin ovoz berishdir. Mazkur tamoyillar qonunchiligimizda o'z aksini topgan bo'lib, ularning amalga oshirilishining huquqiy mexanizmlari mamlakatimizda fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita va o'z vakillari orqali ishtirok etish imkoniyatini yaratishga qaratilgan.

Umumiy saylov huquqi tamoyilida ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqi va millati, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabatidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bevosita 18 yoshga to'lganda saylash huquqiga egadirlar. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas. Chunki bunday shaxslar o'z xatti-harakatlari to'g'risida o'zlariga hisob bera olmaydilar va saylovlarda qatnashish huquqidan ongli ravishda foydalana olmaydilar. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston hududida yashovchi ajnabiy fuqarolar saylovlarda qatnashish va vakillik organlariga saylanish huquqiga ega emaslar.

Teng saylov huquqi tamoyilida har bir saylovchi bir ovozga ega bo'lishi tushuniladi. Saylovda hamma teng asoslarda

qatnashadi. Har bir saylovchi ovoz berish uchun faqat bitta ro'yxatga kiritiladi. Saylovda har bir mandat uchun saylovchilar soni teng asosda bo'linadi. Chunki, har bir okrugdan bitta deputat saylanadi. Saylovda barcha saylovchilarning teng asosda qatnashuvi saylov okruglarining ularda yashovchi fuqarolar soniga teng qilib tashkil etilishi bilan ham ta'minlanadi. Siyosiy partiya va tashabbuskor guruhlariga saylov oldi tashviqot yuritishi teng asosda tashkil etiladi.

To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi tamoyili bevosita saylovchilar tomonidan saylanadigan nomzodga ovoz berish tushuniladi, bunda saylovchi va nomzod o'rtasida hech qanday vositachilikka yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolar o'z erki irodasini bevosita o'zlari ifodalashlari qonunchiligimiz bilan kafolatlanadi. Saylovchilar o'z nomzodlariga saylov vaqtida bevosita yoki qarshi ovoz berishlari mumkin. To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqining ijobiy taraflaridan biri, saylov tartibida davlat hokimiyatining hamma saylanadigan organlari bevosita xalq tomonidan tashkil etilgan vakillik organlari hisoblanadi.

Yashirin ovoz berish tamoyili. Saylovchining o'z xohishirodasini bildirish ustidan nazorat qilishga yo'l qo'yilmaydi. Saylov bulleteni ovoz beruvchi tomonidan yashirin ovoz berish xonasida to'ldiriladi. Saylov bulletinini to'ldirish vaqtida ovoz beruvchidan boshqa barcha shaxslarning hozir bo'lishi taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senat a'zolari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so'ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar.

Har qanday mamlakatda mavjud saylov tizimi bir-biriga zid bo'lmagan tamoyillar va aniq talablar asosida qurilishi lozim. Saylov tizimi tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Saylov tizimining Konstitutsiyaga muvofiqligi;
- Davlat hokimiyatining qonuniyligi;
- Saylov tizimi talablari va vazifalarining huquqiy ta'minlanganligi;
- Demokratizm;
- Saylov tizimining barqarorligi;
- Saylov tizimining xalqchilligi;
- Saylov tizimining uyushganligi;
- Saylov tizimining tejamli bo'lishi;

— Ovoz berishning va saylanishning ziddiyatsiz, uning natijalarini olish uchun huquqiy kafolat yaratilganligi.

4-§. Saylov tizimi

Saylov tizimi — bu saylov o'tkazishga taalluqli barcha huquqiy hujjatlar, saylov tizimi tamoyillari, fuqarolarning saylov huquqlarini o'z ichiga olgan saylov o'tkazish tartiblari hamda ularni o'rnatuvchi huquqiy normalarning yig'indisi tushuniladi.

Saylov tizimi davlatning demokratik yoki demokratik emasligini ko'rsatuvchi asosiy omildir. Professor A.X.Saidov: «Saylov tizimi — bu fuqarolik jamiyatida davlatning vakillik organlarini saylash yo'li bilan yuzaga keluvchi davlat jamoat munosabatlari tizimidir», — deb yozadi¹³².

Saylov tizimi tor ma'noda saylov natijalariga ko'ra nomzodlar o'rtasida mandatlarini taqsimlash uslubi hisoblanadi. Bunda uslublar bir qancha bo'lib, ularning qo'llanilish yakuniga ko'ra, saylovlar natijasi turli davlatlarda turlicha bo'lishi mumkin.

Saylov tizimlari turli-tuman bo'lib, bir davlatda amalda bo'lgan saylov tizimlari ikkinchi davlatda o'zini oqlamasligi mumkin. Bir saylov tizimini amalga kiritishdan oldin mamlakatdagi siyosiy kuchlar va etnik guruhlarining muvozanati yaxshilab o'rganilishi lozim. Hozirgi paytda dunyo mamlakatlari tajribasida saylov tizimlarining uch katta guruhi mavjud. Bu **majoritar, proporsional va aralash** saylov tizimlaridir.

Majoritar saylov tizimi fransuzcha «majorite» (ko'pchilik) degan so'zdan olingan bo'lib, bunda saylovda ovozlarning ko'pchiligini olgan nomzodlar saylangan hisoblanadi.

Bu tizim qoidalariga binoan, tegishli saylov okrugida belgilangan ko'pchilik ovozni olgan nomzod yoki nomzodlar ro'yxatigina saylovda g'olib chiqqan hisoblanadi. Majoritar saylov tizimi ham o'z navbatida mutlaq, malakali va nisbatan ko'pchilik ovozga asoslangan turlarga bo'linadi.

Mutlaq ko'pchilik saylov tizimi talabi shundan iboratki, nomzod saylangan deb hisoblash uchun u saylovchilarning yarmidan ko'pining qo'llab-quvvatlashishiga, ya'ni 50%+1 saylovchilar ovozini olishi lozim. Masalan, saylov okrugida saylanish uchun 3 ta nomzod qo'yilgan deylik (A,B,D). Berilgan 10000 ovoz quyidagicha taqsimlandi: A — 3000, B — 1990, D

¹³² Saidov A.X. Qiyosiy Konstitutsiyashunoslik. — T.: 1993, 52-bet.

— 5010. Bunda 5010 ovoz olgan D mutlaq ko'pchilik ovozini olgan hisoblanib, saylovda g'olib chiqadi.

Ushbu tizim amalda bo'lgan mamlakatlarda, odatda, saylovlar bo'lib, o'tganligini tasdiqlash uchun asos bo'ladigan saylovda saylovchilarning qatnashganligining quyi foizi belgilangan bo'ladi. Agar qonun yoki boshqa normativ hujjatlarda belgilangan miqdordagi ovoz beruvchilar saylovlarda qatnashmasa, saylovlar bo'lib o'tmagan hisoblanadi yoki natijalari yuridik kuchga ega bo'lmaydi.

Mutlaq ko'pchilik saylov tizimining yana bir o'ziga xos kamchilik tomoni shundaki, u doim ham birgina turda natija beravermaydi. Bunda gap ko'rsatilgan nomzodlardan birortasi ham belgilangan miqdordagi ovoz to'play olmaganlaridagi holatlar haqida bormoqda. Bunday vaziyatlar yuzaga kelgan holatlarda ko'pchilik mamlakatlarda saylovlarni bir necha bosqichlarda o'tkazilishiga sabab bo'ladi. Bu esa saylovchilarni saylovlarda faol qatnashishlarini susaytirishiga, oxir-oqibat saylovlarni soxtalashtirish holatlariga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi kamchiliklarga qaramasdan, mutlaq ko'pchilik ovozga asoslangan bu saylov tizimining afzalligi ham mavjud. Bu tizim parlamentdagi ko'pchilik qo'llaydigan barqaror hukumatni tashkil etish imkoniyatini beradi.

Malakali ko'pchilik saylov tizimi amalda bo'lgan mamlakatlarda nomzod yoki nomzodlar muayyan okrugdan malakali ko'pchilik (2/3 qism yoki 65%) ovoz to'plaganlarida saylangan hisoblanadi. Bunday saylov tizimi juda kam uchraydi, chunki mazkur tizim o'z xususiyatiga ko'ra juda kam natija beradi, ya'ni nomzodlar doim ham belgilangan miqdordagi saylovchilarning ovozlari to'play olmaydilar, buning natijasida saylov ko'plab turlar asosida o'tkazilishiga olib keladi. Hozirda Chili Parlamentining quyi palatasiga saylovlarda mazkur tizimdan (2/3 qism) foydalaniladi, shuningdek, bir muddat oldin Italiyada ham bir mandatli saylov okruglaridan saylanuvchi senatorlar saylovchilarning 65 foizini qo'llab-quvvatlashiga erishishi talab qilinar edi.

Tarixdan ma'lumki, dastlabki saylov tizimi sifatida majoritar saylov tizimi vujudga kelgan. Ushbu tizimga ko'ra nomzod belgilangan me'yordan ko'proq ovoz olganda saylangan hisoblanadi. **Nisbiy ko'pchilik saylov tizimi** boshqa saylov tizimlariga nisbatan ancha sodda hisoblanib, bunday tizim amalda bo'lgan mamlakatlarda, saylovda qatnashayotgan nomzod-

lardan qaysi biri raqiblariga nisbatan ko'proq ovoz olsa u saylangan hisoblanadi. Ushbu tizim o'zining xususiyatiga ko'ra faqat bir turda natija berishligi bilan samaralidir. Nisbiy ko'pchilik saylov tizimida faqat bir holatda ikki yoki undan ortiq nomzodning bir xil ovoz olganlaridagina g'olib aniqlanmay qolishi mumkin, lekin bunday holat juda kam uchraydi. Ushbu tizim jahonning 150 mamlakatida qo'llanib, odatda, saylov bo'lib o'tganligi uchun asos sifatidagi saylovchilarning qatnashish me'yori belgilanmaydi: agar saylovda birgina saylovchi qatnashgan bo'lsa ham saylovlar bo'lib o'tgan hisoblanadi.

Proporsional saylov tizimi saylovlarda keng omma vakillari-ning ishtirokini ta'minlash maqsadida kiritilgan saylov tizimi bo'lib, Yevropa, Lotin Amerikasi davlatlarining ko'pchiligida, Afrika davlatlarining uchdan bir qismida uchraydi.

Bu tizimning asosiy maqsadi saylovlarda olingan ovozlarni bilan amalda parlamentda egallangan mandatlar mutanosibligini ta'minlashdir. Ya'ni, masalan, bir partiya saylovda 30% ovoz olgan bo'lsa, parlamentda 30% mandatga ega bo'lishi kerak.

Proporsional saylov tizimlarining ko'pchilik ovoz tamoyiliga asoslangan majoritar saylov tizimlaridan asosiy farqi ham shunda.

Proporsional saylov tizimlarida katta-katta saylov okruglari tuzilib, har bir saylov okrugidan bir nechta deputatlar saylanadi. Saylov okruglari qancha katta bo'lsa, olingan ovozlarni va egallangan mandatlar shunga mutanosib bo'ladi.

Bu tizimda har bir partiya o'z nomzodlari ro'yxatini tuzadi va saylovchilar alohida olingan nomzodga emas, balki ma'lum partiya ro'yxatiga ovoz beradi. Ba'zi hollarda saylovchilarga nomzodlarga nisbatan o'z munosabatlarini bildirishga ham imkoniyat berilishi mumkin.

Saylovlar natijasini aniqlashda har bir deputatlik mandatini olish uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdori belgilanadi. Bu miqdor har bir saylov okrugi uchun alohida qilib belgilanishi yoki butun davlat hududi uchun bir xil bo'lishi ham mumkin. Proporsional tizimning asosiy vazifasi ovozlarni va mandatlar mutanosibligini ta'minlash yo'li bilan ozchilikning ham manfaatlarini ta'minlash hisoblanadi.

Proporsional saylov tizimida partiya ro'yxatlari bo'yicha ovoz berishni ro'yxatlarning xarakteriga qarab qat'iy, qat'iy bo'lmagan va o'zgaruvchan ro'yxatlarga bo'lish mumkin.

Qat'iy ro'yxatlar asosida ovoz berish proporsional saylov tizimini qo'llaydigan davlatlarda eng ko'p tarqalgan bo'lib, bunda saylovchilar muayyan partiya tomonidan taqdim etilgan ro'yxatda ko'rsatilgan nomzodlar o'rnini o'zgartirishga, ya'ni o'zlari afzal ko'rgan nomzodni birinchi o'ringa qo'yishga haqli bo'lmaydilar.

Ba'zida saylov bulletiniga deputatlikka nomzodlar familiyalari kiritilmay, faqatgina partiya rahbarining familiyasi va partiya ramzi kiritilishi mumkin. Bu usulda ovoz berishga Janubiy Afrika Respublikasida 1994-yilda o'tkazilgan saylovlar misol bo'la oladi. Bunday ovoz berishda saylovchilar o'zlari tanlagan partiya ro'yxatiga ovoz berish bilan cheklanadilar. Bu usulda ovoz berish boshqacha tarzda saylanishi qiyin bo'lgan ozchilikning hamda ayollarning saylovda g'olib chiqishiga imkon tug'dirsa-da, deputatlikka loyiq bo'lmagan nomzodlarning saylanib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Partiya ro'yxatlari bo'yicha ovoz berishning ikkinchi turi bu qat'iy bo'lmagan ro'yxat asosida ovoz berishdir. Bunda saylovchilar o'zlari tanlagan partiya ro'yxatini yoqlab ovoz berishdan tashqari bu ro'yxatdagi nomzodlar o'rnini almashtirish imkoniyatiga ham egalar. Saylovchilarga nomzodlarni tanlash imkoniyatining borligi usulning afzalligi bo'lsa-da, bu partiya ichida kelishmovchilikning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Aralash saylov tizimi. Aralash saylov tizimlari majoritar va proporsional saylov tizimlarini birlashtirish tamoyiliga asoslangan saylov tizimidir.

Har bir partiya o'z nomzodlari ro'yxatini tuzadi va bu ro'yxatga kirgan nomzod bir mandatli saylov okrugida o'tkaziladigan saylovda ham qatnashishi mumkin.

Aralash tizimning qo'llanilishi qat'iy proporsional tizimda mavjud bo'lgan mayda partiyalarning ko'payib ketishining oldini oladi. Undan tashqari mavjud kichik partiyalar bir mandatli majoritar tizimli saylovlarda yutqazsalarda, proporsional saylovlar bilan buning o'rnini to'ldirib olishlari mumkin. Lekin Rossiyada mavjud bo'lgan 5%li to'siqning bo'lishi buning amalga oshishiga ancha to'siqinlik qiladi.

Aralash tizimning qo'llanilishi ikki turdagi deputatlarning saylanishiga olib keladi. Birinchisi saylov okrugidagi saylovchilar bilan ancha bog'liq bo'lgan deputat bo'lib o'z saylovchilari oldida o'z mas'uliyatini sezadi. Ikkinchisi partiya ro'yxati vositasida saylangan deputat bo'lib, u ma'lum okrug saylovchi-

lariga uncha tanish bo'lmashligi mumkin, chunki saylovchi ovoz berganda alohida nomzod uchun emas, balki partiya ro'yxati uchun ovoz beradi. Natijada saylangan deputat o'zini muayyan saylov okrugi saylovchilari oldida emas, balki uni ro'yxatga kiritgan partiya rahbarlari oldida hisobdor sezadi.

Saylovning bu shaklida saylov okrugida bir necha mandat bo'lsada, har bir saylovchi faqat bir ovozga ega bo'ladi. Saylovchi partiya ro'yxatiga kiritilgan o'ziga ma'qul bo'lgan nomzodni yoqlab ovoz berishi mumkin. Bunday ovoz berish ko'p mandatli saylov okruglarida mandatlar bo'linishining olingan ovozlarga mutanosibligini ancha ta'minlasada, saylovchi-deputat munosabatlarini susaytiradi. Chunki saylovchining faqatgina bir ovozga ega bo'lishi, partiyalarning saylovchilar e'tiborini qozonishga unchalik harakat qilmasalarga, osongina mandatlariga erishishini ta'minlaydi.

5-§. Saylov jarayoni va saylov organlari

Har bir yuridik jarayon singari saylov jarayoni ham o'zida huquqiy normalar tizimini mujassamlashtirgan faoliyatdir. Davlat hokimiyati, o'zini-o'zi boshqarish organlariga bo'ladigan saylovlarni o'tkazish bilan bog'liq faoliyatni saylov jarayoni deb tushunamiz. Hamda ushbu faoliyat qat'iy belgilangan tartibda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va bu quyidagilardan iboratdir.

1. Saylovlarni belgilash. Saylov jarayonining bu bosqichi muayyan organ yoki mansab uchun saylov kunini belgilashda ifodalanadi. Konstitutsiyalar, qonunlar va hududiy birliklarning statutlari bu masalada muayyan qoidalarni o'zida mujassamlashtiradi. Yuqorida AQSH misolida saylov kuni-ning qonun bilan belgilanganligini ko'rib o'tdik, biroq ko'pchilik holatlarda bunday sana aniq belgilanmaydi va bu jarayon har bir holatda maxsus hujjat bilan shunday sanani belgilashni talab qiladi. Agar sanani belgilash qonun yoki Konstitutsiya bilan aniq o'rnatilmagan bo'lsa, unda qonun ushbu sanani belgilashga vakolatli organi ko'rsatishi lozim.

2002-yil 4-apreldagi O'zbekiston Respublikasining «Referendum yakunlari davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy prinsiplari» to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qonuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasida Prezidenti saylovi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat

hokimiyati vakillik organlariga saylov ularning Konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda — dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov muddatlari bir paytga to'g'ri kelib qolgan taqdirda davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolat muddati bir yilga uzaytiriladi, deb ko'rsatilgan.

Saylov okruglari. Saylov okruglari davlatning va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish vakillik organlariga deputatlarni saylovchi fuqarolarni o'zida birlashtirgan hududiy birliklardir. Ular maxsus ravishda shakllantirilgan bo'lishi mumkin, lekin ko'pchilik holatlarda federatsiya subyektlari, ma'muriy-hududiy birliklar (viloyatlar, provinsiyalar, shaharlar va boshqalar) muayyan saylov okrugi sifatida amal qilishi ham mumkin. Saylov okruglari tuzilmagan taqdirda, butun mamlakat yagona bir saylov okrugi sifatida namoyon bo'ladi.

Saylov okruglari saylov amaliyotida eng ko'p uchraydigan saylov birliklaridir. Hududiy bo'lmagan vakillik organlarini shakllantirishda saylov birliklari sifatida muayyan saylovchilar guruhlar ham amal qilishlari mumkin.

Hududlarni saylov okruglariga bo'lish katta siyosiy ahamiyat kasb etadi, chunki bu holat saylov natijalariga bevosita ta'sir etishi mumkin. Shuning uchun, odatda, saylov okruglarining tashkil qilish qonunlar bilan belgilangan bo'ladi. Qonunlar saylov okruglarining soni va chegaralarini aniq belgilashi lozim, chunki bu holat saylov jarayonlarida saylovchilarning tengligini ta'minlaydi.

Saylov okruglari saylovchilarni teng miqdorini hisobga olgan holda tashkil qilinishi lozim, chunki bu holat tenglik prinsipi talabidir. Bu shuni anglatadiki, mamlakatdagi barcha bir mandatli saylov okruglari teng miqdordagi aholi soni bo'lgani holda tashkil etiladi. Biroq aholi soni miqdorini aniqlash yuzasidan kelishmovchiliklar kelib chiqqanda (aholi orasida saylov huquqiga ega bo'lmagan shaxslar ham mavjud bo'lgan hollarda), teng huquqli saylov jarayonini tashkil qilish maqsadida saylov okruglarini aholi soniga qarab emas, balki saylovchilar soniga qarab tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ayrim xorijiy mamlakatlarda saylovlar yagona saylov okrugida tashkil etiladi. Bunda, masalan, parlament sayloviga nomzodi qo'yilgan shaxslarning hammasi bita okrugdan saylanadi. Bunday davlatga JAR (Janubiy Afrika Respublikasi) misol bo'ladi.

Mamlakatimiz Oliy vakillik organi – Oliy Majlisning quyi palatasi (Qonunchilik Palatasi), Respublika Prezidentligi va viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga saylovlarda saylov okruglari hududiylik asosida tashkil etiladi.

Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazish uchun 120 ta hududiy saylov okrugi tuziladi va ularning har biridan bittadan deputat saylanadi. Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovini o'tkazuvchi saylov okruglari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining taqdimnomasiga binoan Markaziy Saylov Komissiyasi tomonidan tuziladi. Saylov okruglarining chegaralari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri-ning ma'muriy-hududiy tuzilishini inobatga olgan holda belgilanadi¹³³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylov bo'yicha saylov okruglarini Markaziy Saylov komissiyasi viloyatlar, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi chegaralari doirasida tuziladi. Ularning chegaralari, saylovchilarning soni hamda okrug saylov komissiyasi qayerda joylashgani ko'rsatilgan saylov okruglari ro'yxatlarini saylov tayinlangandan keyin kechi bilan 10 kun o'tgach Markaziy saylov komissiyasi tomonidan e'lon qilinadi.

Saylov okruglari, O'zbekiston Respublikasining butun hududida saylovchilar soni teng holda tuziladi va har bir saylov uchun saylov okrugiga to'g'ri keladigan saylovchilar normasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlariga saylov o'tkazish uchun, viloyatlar va Toshkent shahrida 60 tadan, tuman va shahar Kengashlariga saylovlarda esa 30 tadan ko'p bo'lmagan saylov okruglari tuziladi. Har bir saylov okrugidan tegishli xalq deputatlari Kengashlariga bittadan deputat saylanadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazishda saylov okruglari soni aholi, saylovchilarning soni, hudud va boshqa mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda saylov komissiyalari tomonidan saylovchilar soni teng holda tuziladi.

Saylov uchastkalari. Saylov uchastkalari ovoz berishda o'zida muayyan joydagi saylovchilarni birlashtiradigan hududiy bir-

¹³³ Qarang: O'zbekiston Respublikasi «Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonun (yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2003, № 9-20, 132-modda.

liklardir. Bu birliklar faqat texnik ahamiyatga ega, ya'ni saylov uchastkalari saylov jarayonlarini o'tkazishda samarali natijaga erishishni ta'minlovchi institutlardir. Ularni tartibga solish, odatda, qonun bilan emas, balki qonunosti hujjatlari – ko'pincha ichki ishlar vazirligi instruksiyalari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida Respublika Prezidentligi, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlarda saylovchilarga mumkin qadar ko'proq qulayliklar yaratish maqsadida tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlarning chegaralarini inobatga olgan holda saylov uchastkalari tuziladi, ularning chegaralari tegishli saylov okruglari doirasidan chiqib ketmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida, sanatoriylar va dam olish uylarida, kasalxonalar va boshqa statsionar davolash muassasalarida, olis va borish qiyin yerlardagi fuqarolar turgan joylarda alohida saylov uchastkalari tuzilishi mumkin. Ularni qaysi saylov okrugiga birlashtirish to'g'risidagi masala Markaziy saylov komissiyasi tomonidan hal etiladi.

Saylov uchastkalari tuman, shahar hokimliklarining, harbiy qismlar yoki harbiy qo'shilmalar komandirlarining, xorijiy mamlakatlarda Respublika Tashqi Ishlar Vazirligining taqdimnomasiga binoan okrug saylov komissiyasi tomonidan kamida 20 nafar va ko'pi bilan 3 ming nafar saylovchidan iborat tarkibda tashkil etiladi. Ovoz berishni tashkil etish uchun har bir saylov uchastkasiga tegishli hokimlik tomonidan bino ajratiladi.

Saylov organlari. Ushbu organlar (komissiya, prezidium va boshqalar)ga saylov jarayoni ustidan tashkiliy rahbarlik vazifasi yuklatilgan bo'ladi. Saylov organlari turlicha bo'lishi mumkin:

— Hududiy, jumladan, markaziy. Ularning tizimi mamlakatning siyosiy-hududiy tuzilish tizimidan kelib chiqadi;

— Okrug saylov organlari. Bu organ saylov okrug siyosiy-hududiy birlik bilan muvofiq kelmaganda amal qiladi;

— Saylov uchastkalarida amal qiluvchi organlar.

Saylov uchastkalari organlari, odatda, saylovchilarni ro'yxatga oladi yoki ularni ro'yxatga olishdagi xatoliklarni bartaraf qiladi, ovoz berishni tashkillashtiradi va saylov uchastkasi yuzasidan saylov natijasini aniqlaydi. Okrug saylov organlari ilgari surilayotgan nomzodlarni ro'yxatga oladi,

saylovoldi kompaniyasining normal kechishini ta'minlaydi va okrug yuzasidan saylov natijalarini aniqlaydi. Hududiy saylov organlari saylov okruglari mavjud bo'lgan taqdirda saylov natijalarini umumlashtiradi va o'sha hudud ommaviy axborot vositalarida chop etadi, agar saylov okruglari bo'lmasa, saylov okruglari vazifasini bajaradi. Umumxalq saylovlarida tashkil etiladigan okrug saylov organlari uchastka saylov organlari faoliyatini nazorat qiladi, ba'zi hollarda o'zining hududida uchastka saylov organining vazifasini bajaradi (masalan, Avstraliya).

O'zbekiston Respublikasida mazkur organlar saylov komissiyalari deb yuritiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligi va Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylovlarda Markaziy, okrug va uchastka saylov komissiyalari, xalq deputatlari Kengashlariga saylovlarda viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari, shuningdek, okrug hamda uchastka saylov komissiyalari tuzilishi mumkin.

Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovlari, O'zbekiston Respublikasi Referendumini tashkil etish va o'tkazish uchun tuziladi hamda o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi. Markaziy saylov komissiyasi Oliy Majlis tomonidan tashkil etilib, uning a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlar viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining tavsiyasi bo'yicha komissiya tarkibiga kiradi.

Okrug saylov komissiyalari Markaziy saylov komissiyasi tomonidan, xalq deputatlari Kengashlariga saylovlarda tegishli viloyat, tuman va shahar saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida 70 kun qolganda komissiyaning rais, rais o'rinbosari, kotibi va 6-8 nafar boshqa a'zolaridan iborat tarkibda tuziladi. Okrug saylov komissiyasi a'zolariga nomzodlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining majlislarida muhokama qilinadi hamda Markaziy saylov komissiyasiga tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

Uchastka saylov komissiyalari okrug saylov komissiyalari tomonidan, xalq deputatlari Kengashlariga saylovlarda tegishli tuman, shahar saylov komissiyalari tomonidan saylovga kamida 40 kun qolganda 5-19 nafar a'zodan, shu jumladan, rais, rais o'rinbosari va kotibdan iborat tarkibda tuziladi (komissiya tarkibining soni zarur hollarda

ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin). Agar komissiya 7 nafargacha a'zodan iborat tarkibda tuzilsa, rais va kotib saylanadi¹³⁴.

Uchastka saylov komissiyasi a'zoligiga nomzodlar xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlarining majlislarida muhokama qilinadi va tegishli okrug saylov komissiyasiga tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida uchastka saylov komissiyasi raisining vazifalarini idora rahbari amalga oshiradi.

Saylov komissiyalarining a'zolari bir komissiyaga a'zolik davrlarida boshqa saylov komissiyasining yoki siyosiy partiyaning a'zosi bo'lishlari mumkin emas.

Saylovchilarni ro'yxatga olish. Saylovchilarni ro'yxatga olish tadbiri fuqarolarning o'z saylov huquqini amalga oshirishini ta'minlovchi shart-sharoit sifatida namoyon bo'ladi. Saylovchilarni ro'yxatga olish xarakter jihatidan ommaviy (majburiy) yoki shaxsiy (ixtiyoriy)dir.

O'zbekiston Respublikasida saylov kuniga qadar yoki saylov kuni 18 yoshga to'ladigan, ro'yxat tuzilayotgan vaqtda mazkur saylov uchastkasi hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilib kelayotgan fuqarolarning familiyalari saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi. Har bir saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi mumkin. Saylovchilar ro'yxati har bir saylov uchastkasi bo'yicha uchastka saylov komissiyasi tomonidan tuziladi, mazkur ishlarda qatnashishga jamoatchilik vakillarini ham jalb etish mumkin.

Saylovchilarning ro'yxatlari saylovga 15 kun qolganda, O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida, sanatoriy va dam olish uylarida, kasalxonalar va boshqa statsionar davolash muassasalarida, olin va borish qiyin bo'lgan yerlarda tuzilgan saylov uchastkalarida esa saylovga 7 kun qolganida hamma tanishib chiqishi uchun e'lon qilinadi. Agar ro'yxatda xato yoki noaniqlik bo'lsa, fuqaro saylov komissiyasiga bu haqda arz qilishi mumkin va komissiya

Braziliyada Markaziy saylov komissiyasi o'rniga saylov tribunali faoliyat olib boradi. Bu organing o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, saylov jarayonida vujudga kelgan nizolarni mustaqil o'zi ko'rib hal qilaveradi.

¹³⁴ Qarang: O'zbekiston Respublikasi «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2003, № 9-20, 133-modda.

mazkur ariza yuzasidan noaniqlik yoki xatoni bartaraf qilish haqida qaror qabul qilishi lozim.

Nomzodlarni ko'rsatish. Saylov jarayonining mazkur bosqichi siyosiy amaliyotda juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shu bosqichda prezidentlik, deputatlik, senatorlik, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga maslahatchi va boshqa lavozimlarga saylanishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasi aniqlanadi.

Mamlakatimizda Oliy Majlis (Qonunchilik palatasi) deputatligiga, yuqori palata Senatorligiga, Respublika Prezidentligiga va xalq deputatlari Kengashlari deputatligiga nomzodlarning ko'rsatilishida yuqorida ko'satilgan usullarning barchasi qo'llaniladi.

Siyosiy partiya saylov kompaniyasi boshlaganligi e'lon qilingan kundan kamida olti oy oldin O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan, saylovda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlovchi ellik ming saylovchining imzosini to'plagan taqdirdagina deputatlikka nomzodlar ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga nomzodlar ko'rsatish siyosiy partiyalar tomonidan saylovga oltmish besh kun qolganida boshlanadi va qirq besh kun qolganida tugaydi. Deputatlikka nomzod tanlash tartibi siyosiy partiyalarning o'zlari hal qilgani holda, har bir okrugdan bitta deputat, ya'ni 120 deputat ko'rsatishga vakolatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatish uchun saylash huquqiga ega bo'lgan har bir fuqaro yoki fuqarolar guruhi tegishli saylov okrugining kamida uch yuz nafar saylovchisidan iborat saylovchilar tashabbuskor guruhini tuzishi mumkin. Deputatlikka nomzod ko'rsatgan saylovchilar tashabbuskor guruhi okrug saylovchilari umumiy sonining kamida sakkiz foizi miqdorida nomzodni qo'llab-quvvatlovchi imzoni to'plashi (imzolayotgan fuqarolar miqdori har bir mahalla, qishloq yoki ovul bo'yicha mutanosib ravishda taqsimlangan bo'lishi) kerak.

O'zbekiston Respublikasi Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining deputatligiga nomzodlar ko'rsatish, siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan saylovga oltmish besh kun qolganida boshlanadi va qirq besh kun qolganida tugallanadi. Tashkil qilingan saylov

qo'mitasi tomonidan yig'iladi va nomzod oldida muntazam ravishda hisob beradi. Yuridik shaxslarning siyosiy arboblari va partiyalarni moliyalashtirishi maxsus qo'mitalar orqali oshkor amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlanib, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadigan tartibda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquq va sharoitlar yaratib berilib, deputatlikka nomzod besh nafarga qadar ishonchli vakilga ega bo'lishi, nomzod ro'yxatga olinganidan keyin o'z ishonchli vakillarini o'zi belgilashi, deputatlikka nomzod qilib ro'yxatga olingan shaxs saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishi, saylovoldi yig'ilishlarida so'zga chiqish huquqiga egadirlar. Televideniye ko'rsatuvlari va radioeshittirishlarida qatnashish vaqtida, o'rtacha oylik ish haqi saylov o'tkazish uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan saqlangan holda, ishlab chiqarish yoki xizmat vazifalarini bajarishdan ozod bo'lish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod 15 nafar ishonchli vakillarga ega bo'lishga haqlidir. Ishonchli vakillar nomzodga saylov kompaniyasini o'tkazishda yordam beradi, uni O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylash uchun targ'ibot olib borib, davlat va jamoat tashkilotlari, saylov komissiyalari bilan bo'ladigan munosabatlarda nomzodning manfaatini himoya qiladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan e'tiboran boshlanadi. Deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga, mustaqil tashabbuskor guruhlariga tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan belgilanadigan tartibda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquq beriladi va saylovchilarning yig'ilishlari uchastka saylov komissiyasi tomonidan barcha nomzodlar uchun mutlaq teng sharoitlarga rioya etilgan holda tashkil qilinadi.

Xalq deputatlari, viloyat, tuman, shahar Kengashi deputatligiga nomzod uch nafargacha ishonchli vakilga ega bo'lishi mumkin. Ular nomzod deputat etib saylanishi uchun tashviqot yuritadi, mahalliy davlat organlari va jamoat birlashmalarining organlari, saylovchilar bilan o'zaro munosabatlarda, saylov komissiyalarida nomzodning manfaatlarini himoya qiladi. Shu

bilan birga, saylov kompaniyalarida, xalqning siyosiy irodasini shakllantirish va ifoda etishda partiyalarning roli doim ham bir xilda baholanavermaydi. Ko'ppartiyalilik prinsipi partiya ro'yxat (fraksiya)lari bo'yicha saylangan deputatlardan siyosiy uyushmalar tashkil etishda o'z aksini topadi. Mazkur uyushmalar aholi turli tabaqalarining parlamentdagi siyosiy vakilligini ta'minlabgina qolmasdan, balki butun parlament ishining tashkil etilishini yaxshilashga ham ko'maklashadi. Bunda, tabiiyki, jamiyatning bir nechta kichik siyosiy partiya va guruhlarga parchalanishi va parlamentda ularning ancha to'liq vakilligi parlament ishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi: qarama-qarshiliklar natijasida (agar parlamentda barqaror ko'pchilik bo'lmasa) parlamentning vakolatlari jumlasiga kiritilgan muayyan masalani hal qilishning iloji bo'lmasligi mumkinligini ham e'tiborga olish lozim.

2004-yil 26-dekabr va 2005-yil 9-yanvarda takroriy ovoz berish natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining barcha 120 deputati saylandi va ro'yxatga olindi. Saylovda 489 deputatlikka nomzod, shu jumladan, siyosiy partiyalardan 435 va saylovchilarning tashabbuskor guruhlardan mustaqil nomzodlar 56 kishi ishtirok etdi. 2004-yil 26-dekabrda asosiy saylovda 12197159 ta (85,1%) saylovchi, joriy yil 9 yanvarida esa 5400000 dan ortiq kishi yoki takroriy ovoz berishda ishtirok etish huquqiga ega saylovchilarning qariyb 80 % i qatnashdi.

Saylovlar natijasida O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi saylovchilarning eng ko'p ovozini oldi, bu partiyadan deputatlarning 34,3% i saylandi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan deputatlarning 23,3% i saylandi. Shuningdek, «Fidokorlar» partiyasining 11 ta a'zosi, «Adolat» partiyasining 10 ta a'zosi saylandi. Tashabbuskor guruhlardan ko'rsatilgan 56 nomzoddan 14 ta kishi deputatlikka saylandi, Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar orasidan ular 11,6 foizni tashkil etdi.

Ta'kidlash joizki, ikki palatali parlament tizimida faqat Qonunchilik palatasigina siyosiylashgan xususiyatga ega bo'lgani bois, deputatlar birlashmalari-fraksiya va deputatlar guruhleri aynan mazkur palatada tuziladi.

«Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi qonunning 23-moddasiga ko'ra, Qonunchilik palatasi deputatlari siyosiy, professional va boshqa asosda fraksiyalar va deputatlar guruhleri shaklida deputatlar birlashmalarini tuzishi mumkin.

Demak, mamlakatimiz parlamenti faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlariga muvofiq, deputatlar birlashmalarining ikki shakli — fraksiyalar va deputatlar guruhlar mavjud.

Fraksiya siyosiy partiyadan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir. Deputatlar guruhlarini Qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan, siyosiy partiyadan ko'rsatilmagan deputatlar tuzishi mumkin.

Ovoz berish. Ovoz berish saylov jarayonining eng muhim bosqichi bo'lib, aynan shu bosqichda xalqning xohish-irodasi amalga oshadi. Odatda, ovoz berish tadbiri saylov qonunchiligida batafsil bayon etiladi.

Ovoz berishga saylovchilar ro'yxatida turuvchi fuqarolar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bilan (qator mamlakatlarda saylov kartochkasi yoki ovoz berish huquqini beruvchi guvohnomalar) yo'l qo'yiladi. Bir qator mamlakatlarda an'anaviy saylov bulletinlari orqali ovoz berish bilan birga maxsus mashinalar vositasida ham ovoz berish amaliyoti mavjud. Maxsus mashinalar orqali ovoz berish saylovchilarning xohish-irodasini qanday kechayotganligini kuzatish bilan birga saylov natijalarini tezlik bilan aniqlash imkonini beradi, bu esa saylov qonunchiligining buzilishi oldini oladi. Lekin mashinalar ham odamlarga bo'ysunadi, shuning uchun mutlaq qonuniy ovoz berish jarayonini kafolatlamaydi.

Saylov kunida o'zi ro'yxatdan o'tgan doimiy yashash joyida bo'lmagan saylovchilarning ovoz berishda qatnashishi masalasi jahonning turli mamlakatlari qonunchiligida turlicha hal qilingan. Ba'zi davlatlarda (masalan, Rossiya, Avstriya) shaxs saylov kunida o'zi yashash joyida bo'lmasligi mumkinligini tasdiqlovchi hujjat (masalan, xorijiy davlatga bilet)ni taqdim qilsa, saylovga qadar ovoz berishi mumkin bo'ladi. Xorijiy davlatlarda doimiy yashovchi fuqarolar ham saylovdan oldin o'z davlati elchixonasida ovoz berishi mumkin. Ko'pchilik davlatlarda pochta orqali ovoz berish amaliyoti ham mavjud. Masalan, Germaniyada pochta orqali ovoz berishda saylovchi o'z vaqtida saylov okrugi rahbari (ya'ni okrug saylov organining raisi)ga pochta orqali ovoz berish huquqini beruvchi guvohnomasi va alohida muhrlangan konvertda saylov bulletinini to'ldirilgan holatda jo'natishi lozim. Agar pochta saylov kunida soat 18.00 ga qadar yetib kelsa, ovoz berilgan hisoblanadi. Saylovchi saylov bulletinini

o'z qo'li bilan to'ldirganligi haqida qasamyod imzolashi lozim.

Saylov kunida o'z doimiy yashash joyida bo'lmaydigan saylovchilarning ovoz berishining yana bir usuli – ishonchli vakil orqali ovoz berishdir. Fransiya Saylov kodeksi ishonchnoma orqali ovoz berishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasini batafsil belgilagan, unga ko'ra, xorijda xizmat safarida bo'lgan, saylovda bevosita qatnashishga sog'lig'i yo'l qo'ymaydigan fuqarolar ishonchnoma orqali ovoz berishlari mumkin. Umumiy saylovlardagi ovoz berish, odatda, bir kunda o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasida ovoz berish jarayoni saylov kuni ovoz berish binosi uchastka saylov komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lganda ochiladi hamda saylov kuni soat 6:00 dan 20:00 gacha o'tkaziladi. Ovoz berish vaqti va joyi to'g'risida uchastka saylov komissiyasi saylovchilarni kechi bilan saylovga o'n kun qolganida xabardor qiladi¹³⁵.

Saylov komissiyasining raisi komissiya a'zolari hozirligida saylov qutisini muhrlaydi, saylov bulletinlari va saylovchilarning ro'yxatlarini komissiya a'zolari o'rtasida taqsimlaydi hamda saylov boshlanganligini e'lon qiladi. Saylovchi ovoz berish binosiga kelgach, uchastka saylov komissiyasining a'zosiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatadi hamda saylovchilar ro'yxatiga imzo qo'yadi. Shundan keyin unga saylov bulleteni beriladi. Saylov bulleteni ovoz beruvchi tomonidan yashirin ovoz berish kabinasida to'ldiriladi. Saylovda saylovchi o'zi qarshi ovoz berayotgan deputatlikka nomzodlarning saylov bulletinidagi familiyasini o'chiradi va to'ldirilgan saylov bulletinini saylov qutisiga tashlaydi. Harbiy qismlar, sanatoriylar, dam olish uylari, kasalxonalar va boshqa statsionar davolash muassasalarida, shuningdek, olis va borish qiyin bo'lgan yerlardagi fuqarolar turgan joylarda tuzilgan saylov uchastkalarida ovoz beradi. Basharti ro'yxatga kiritilgan barcha saylovchilar ovoz berib bo'lgan bo'lsa, uchastka saylov komissiyasi istalgan vaqtda ovoz berish tugaganligini e'lon qilishi mumkin.

Saylov natijalarini aniqlash. Berilgan ovozlarni hisoblash saylov uchastkalarida saylov tugashi bilan darhol

¹³⁵ Qarang: O'zbekiston Respublikasi «Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi (yangi tahrir) qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2003, № 9-10. 132-modda.

boshlanadi. Dastlab har bir saylov okrugida berilgan barcha ovozlar hisoblanadi, so'ngra bulletinlar orasidan haqiqiy emas, deb topilganlari chiqarib tashlanadi. Odatda, qonunchilik bilan qanday saylov bulletinlari haqiqiy emas, deb topilishi mumkinligi belgilangan bo'ladi. Shubhali holatlar uchastka saylov organining maxsus bayonnomasi orqali hal qilinadi.

1. Saylov uchastkasida hisoblab chiqilgan ovozlar yuqori turuvchi saylov organiga yuboriladi. Saylov natijalari saylov okrugini miqiyosida, tegishli holatlarda hududiy va markaziy organlar miqiyosida e'lon qilinadi. Turli mamlakatlarda bir xil ovoz berish jarayoni bo'lib, unda teng miqdorda saylovchilar qatnashgan bo'lsa ham saylov natijalari qo'llaniladigan saylov tizimiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Takroriy, navbatdan tashqari va alohida bir okruglarda saylov o'tkazilganda saylov jarayonining birmuncha soddalashtirilgan tartibi qo'llanilishi mumkin. Respublikamizda saylov natijalari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasiga deputatlar saylovining natijalarini aniqlash uchastka saylov komissiyalari tomonidan taqdim etilgan bayonnomalar asosida aniqlanadi. Okrug saylov komissiyasi; okrug bo'yicha saylovchilar umumiy soni; saylov bulletinlari va varaqalari olgan saylovchilarning soni; ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning soni; har bir deputatlikka nomzodni yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlar soni; haqiqiy emas, deb topilgan saylov bulletinlari varaqlari soni aniqlanadi va Markaziy saylov komissiyasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi. O'z navbatida Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalaridan olingan bayonnomalar asosida hisoblash jarayonini amalga oshirgandan so'ng, ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan ko'pining ovozini olgan deputatlikka nomzod deputat etib saylangan hisoblanadi. Agar saylovda saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan saylovchilarning o'ttiz uch foizidan kami ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan hisoblanadi. Xuddi mana shunday saylov natijalarini aniqlash qoidasi O'zbekiston Respublikasi prezidentligiga saylov o'tkazishda hamda Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga o'tkaziladigan saylovlarda ham amalga oshiriladi.

Takroriy ovoz berish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatligiga saylash uchun ikki

nafardan ortiq nomzod qo'yilgan bo'lsa va nomzodlardan hech biri talab qilingan miqdordagi ovozni olmagan bo'lsa, saylovchilarning ovozini eng ko'p olgan ikki nomzod ishtirokida takroriy ovoz berish o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlarda Markaziy saylov komissiyasi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatligiga saylovlarda okrug komissiyasi viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi mazkur qaror haqida okrug saylovchilarini xabardor qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga takroriy saylovlar asosiy saylov o'tkazilgan kundan boshlab bir oy ichida, lekin kamida o'n besh kun keyin o'tkaziladi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatligiga takroriy saylovlar asosiy saylov kunidan keyin ikki hafta ichida o'tkaziladi.

Takroriy ovoz berish chog'ida ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning ovozini boshqa nomzodga nisbatan ko'p olgan Respublika Prezidentligiga, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatligiga nomzod, takroriy ovoz berishda ro'yxatga kiritilgan saylovchilarning yarmidan ko'pi qatnashgan va bu nomzodni yoqlab berilgan ovozlar unga qarshi berilgan ovozlardan ortiq bo'lgan taqdirdagina saylangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati a'zoliciga takroriy ovoz berish, agar ovoz berish chog'ida belgilangan miqdorda Senat a'zolari saylanmagan bo'lsa, saylanmay qolgan miqdordagi Senat a'zolicigi uchun ovozlarning zarur miqdorini to'plamagan nomzodlar bo'yicha davlat hokimiyati vakillik organlari (Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari) qo'shma majlislarining o'zida o'tkaziladi.

Takroriy saylovlar. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan O'zbekiston Respublikasi prezidentligiga takroriy saylovlar saylov o'tkazilmagan yoki haqiqiy emas, deb topilsa, agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylash uchun ikkitadan ko'p nomzod qo'yilmagan bo'lsa va ulardan hech biri saylovchilarning ovozini zarur miqdorda olmagan bo'lsa, Markaziy saylov komissiyasi takroriy saylov tayinlaydi. Bunda komissiya saylovni yangi tarkibdagi okrug va uchastka saylov komissiyalari o'tkazishi zarurligi to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Ovoz berish asosiy saylov o'tkazilgan saylov uchastkalarida va saylovchilarning avval tuzilgan ro'yxatlari bo'yicha o'tkaziladi.

Komissiyalar tuzish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar ko'rsatish va ularni ro'yxatga olish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini takror o'tkazish bilan bog'liq boshqa chora-tadbirlar «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Takroriy saylov asosiy saylov o'tkazilganidan keyin qirq kun ichida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolarining takroriy saylovi quyidagi hollarda o'tkaziladi:

A) Agar saylov haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa;

B) Agar takroriy ovoz berish natijasida belgilangan miqdorda Senat a'zolari saylanmagan bo'lsa.

Ikkinchi holatda nazarda tutilgan vaziyatlarda takroriy saylov saylanmay qolgan miqdordagi Senat a'zoligi uchun o'tkaziladi. Senat a'zolarining takroriy saylovi Senatga o'tkazilgan asosiy saylovdan keyin ko'pi bilan o'n besh kunlik muddat ichida o'tkaziladi.

Saylanmay qolgan miqdordagi Senat a'zoligiga nomzodlar ko'rsatish va takroriy saylov o'tkazish qonunchilik bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga takroriy saylovlar quyidagi hollarda o'tkaziladi:

A) Basharti, saylov okrugi bo'yicha saylov o'tmagan yoxud saylov haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa;

B) Agar takroriy ovoz berish saylangan deputatni aniqlash imkonini bermagan bo'lsa;

D) Agar saylov okrugi bo'yicha deputatlikka ko'pi bilan ikki nomzod ovozga qo'yilgan bo'lsa va ulardan birortasi ham saylanmagan bo'lsa¹³⁶.

Takroriy saylov Markaziy, viloyat, tuman va shahar saylov komissiyasining topshirig'iga binoan okrug saylov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Bunda tegishli saylov komissiyasi takroriy saylov yangi tarkibdagi okrug va uchastka saylov komissiyalari tomonidan o'tkazilishi to'g'risidagi qaror qabul qilinishi mumkin. Ovoz berish asosiy saylov o'tkazish uchun tuzilgan avvalgi saylov uchastkalarida va saylovchilar ro'yxatlari bo'yicha o'tkaziladi.

¹³⁶ Qarang: O'zbekiston Respublikasi «Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi (yangi tahrir) qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2003, № 9-10, 132-modda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatligiga takroriy saylov kechi bilan bir oylik muddat ichida o'tkaziladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Saylov huquqi tushunchasi deganda nimani tushunasiz?
2. Saylov tizimining asosiy mazmunini bilasizmi?
3. Saylov tizimining qanday turlari bor?
4. Aktiv va passiv saylov huquqi deganda nimani tushunasiz?
5. Majoritar saylov tizimining o'ziga xos xususiyatini ayting.
6. Proporsional saylov tizimi deganda nimani tushunasiz?
7. Markaziy saylov komissiyasining vazifasi qanday?
8. Saylov okrugini tuzish tartibi qanday amalga oshiriladi?
9. Saylov uchastkasini tashkil etish tartibi qanday?
10. Aralash saylov tizimi qanday amalga oshiriladi?
11. Takroriy ovoz berish deganda nimani tushunasiz?
12. Takroriy saylov o'tkazish deganda nimani tushunasiz?
13. Deputatlikka nomzod ko'rsatish tartibini ayting.
14. Nomzodlarni aniqlash tartibi qanday amalga oshiriladi?

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY KENGASHINING O'N BIRINCHI SESSIYASIDA 1992-YIL 8-DEKABRDA QABUL QILINGAN

2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijalariga ko'ra hamda uning asosida qabul qilingan 2003-yil 24-apreldagi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan.

MUQADDIMA

O'zbekiston xalqi inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda, o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, Respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida, o'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi.

BIRINCHI BO'LIM

ASOSIY PRINSIPLAR

I BOB. DAVLAT SUVERENITETI

1-modda. O'zbekiston — suveren demokratik Respublika. Davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

2-modda. Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

3-modda. O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir.

4-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

5-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari — bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.

6-modda. O'zbekiston Respublikasining poytaxti — Toshkent shahri.

II BOB. XALQ HOKIMIYATCHILIGI

7-modda. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat

bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

8-modda. O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

9-modda. Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

10-modda. O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.

11-modda. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi.

12-modda. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas.

13-modda. O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

14-modda. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

III BOB. KONSTITUTSIYA VA QONUNNING USTUNLIGI

15-modda. O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

16-modda. Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

IV BOB. TASHQI SIYOSAT

17-modda. O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.

IKKINCHI BO'LIM

INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI

V BOB. UMUMIY QOIDALAR

18-modda. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

19-modda. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bogliqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

20-modda. Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlarini, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

VI BOB. FUQAROLIK

21-modda. O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'i nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi.

22-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi.

23-modda. O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar.

VII BOB. SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR

24-modda. Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

25-modda. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

26-modda. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoiya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

27-modda. Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turarjoyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turarjoyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

28-modda. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir.

29-modda. Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va

uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

30-modda. O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

31-modda. Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

VIII BOB. SIYOSIY HUQUQLAR

32-modda. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

33-modda. Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yigilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

34-modda. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

35-modda. Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart.

IX BOB. IQTISODIY VA IJTIMOIIY HUQUQLAR

36-modda. Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

37-modda. Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalalanish huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

38-modda. Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi.

39-modda. Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas.

40-modda. Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

41-modda. Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari Davlat nazoratidadir.

42-modda. Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.

X BOB. INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI

43-modda. Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

44-modda. Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

45-modda. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

46-modda. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

XI BOB. FUQAROLARNING BURCHLARI

47-modda. Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar.

48-modda. Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar.

49-modda. Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar.
Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.

50-modda. Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

51-modda. Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar.

52-modda. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.

UCHINCHI BO'LIM

JAMIYAT VA SHAXS

XII BOB. JAMIYATNING IQTISODIY NEGIZLARI

53-modda. Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

54-modda. Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

55-modda. Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy xaziralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

XIII BOB. JAMOAT BIRLASHMALARI

56-modda. O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi.

57-modda. Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, Respublikaning suvereniteti,

yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarining hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

58-modda. Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

59-modda. Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir.

60-modda. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar.

61-modda. Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi.

62-modda. Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi.

XIV BOB. OILA

63-modda. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

64-modda. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi.

65-modda. Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

66-modda. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

XV BOB. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

67-modda. Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.

Senzuraga yo'l qo'yilmaydi.

TO'RTINCHI BO'LIM

MA'MURIY-HUDUDIIY VA DAVLAT TUZILISHI

XVI BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY-HUDUDIIY TUZILISHI

68-modda. O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat.

69-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek, viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi.

XVII BOB. QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

70-modda. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi.

71-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z Konstitutsiyasiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo'lishi mumkin emas.

72-modda. O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ham majburiydir.

73-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari uning rozilgisiz o'zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi.

74-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumini asosida ajralib chiqish huquqiga ega.

75-modda. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi nizolar murosaga keltiruvchi vositalar yordamida hal etiladi.

BESHINCHI BO'LIM

DAVLAT HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI

XVIII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI

76-modda. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati — besh yil.

77-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolari (senatorlar)dan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — olti kishidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas.

78-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

2) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

3) O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

4) O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

5) O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;

6) O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;

7) Boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;

8) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;

9) Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;

10) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish;

11) Tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish;

12) Davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish;

13) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

14) O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

15) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash;

16) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash;

17) O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;

18) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash;

19) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

20) Xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;

21) Ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatida ko'rib chiqiladi.

79-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlariga:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

3) O'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

4) Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

80-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlariga:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisini va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;

3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudini saylash;

5) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish;

6) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

7) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

8) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;

9) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi-ning raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish;

10) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish;

11) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;

13) O'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

14) Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

81-modda. Vakolat muddati tugagach, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati

tegishincha yangi chaqiriq Qonunchilik palatasi va Senati ish boshlaguniga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari tegishincha Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o'tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati majlislari zaruratga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida, shuningdek, ularning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, Respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik Sudi raislari, Bosh prokurori, Markaziy banki boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o'tkazadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin.

82-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

83-modda. Qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

84-modda. Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma'qullagan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'n kun ichida yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o'ttiz kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qaytariladi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko'rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana ma'qullasa, qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan

qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganda qonun odatdagi tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak.

Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir.

85-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'z tarkibidan Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarlarini saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining vakolati muddatiga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri yashirin ovoz berish orqali Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Qonunchilik palatasi qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri:

1) Qonunchilik palatasining majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

2) Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

3) Qonunchilik palatasi qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

4) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

5) Parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq, Qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

6) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va o'zga tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Qonunchilik palatasi nomidan ish ko'radi;

7) Qonunchilik palatasi qarorlarini imzolaydi;

8) Ushbu Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri farmoyishlar chiqaradi.

86-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati o'z tarkibidan Senat Raisi va uning o'rinbosarlarini saylaydi. Senat Raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi o'rinbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasining vakili bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Senat vakolati muddatiga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Senat qarorlariga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi:

1) Senat majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;

2) Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

3) Senat qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

4) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Senat qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

5) Parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq Senat guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

6) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Senat nomidan ish ko'radi;

7) Senat qarorlarini imzolaydi;

8) Ushbu Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi farmoyishlar chiqaradi.

87-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o'z vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan qo'mitalarni saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o'z vakolatlari muddatiga senatorlar orasidan qo'mitalarni saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati, zarurat bo'lgan taqdirda, muayyan vazifalarni bajarish uchun deputatlar, senatorlar orasidan komissiyalar tuzadi.

88-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlariga va Senati a'zolariga ularning deputatlik yoki senatorlik faoliyati bilan bog'liq xarajatlari belgilangan tartibda qoplanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senatda doimiy asosda ishlovchi Senat a'zolari o'z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadilar. Ular tegishincha Qonunchilik palatasi yoki Senatning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazo choralariga tortilishi mumkin emas.

XIX BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING PREZIDENTI

89-modda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir.

90-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi.

91-modda. Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organi-ning deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.

92-modda. Prezident O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig'ilishida quyidagi qasamyodni qabul qilgan paytdan boshlab o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi:

«O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman».

93-modda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti:

1) Fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

2) O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi

masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;

3) Mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

4) Muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, Respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

5) O'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

6) O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

7) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalar yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi;

8) Ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; Respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi;

9) Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

10) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi va lavozimidan ozod qiladi;

11) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi va lavozimidan ozod qiladi;

12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

13) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo'jalik sudi raisi va sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) Viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo'jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi;

15) Viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik bu masalalarni tegishli xalq deputatlari Kengashlarining tasdig'iga kiritadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

16) Respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi;

17) O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi; qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

18) O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig'iga kiritadi;

19) Favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

20) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

21) O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i bilan mukofotlaydi, O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

22) O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

23) Amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi;

24) O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi. Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

25) Ushbu Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Prezident o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

94-modda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan Respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

95-modda. Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoxud ular bir necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek, Qonunchilik palatasi bilan Senat o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi, hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.

96-modda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti betobligi sababli o'z vazifasini bajara olmasligi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qo'shma qaroriga ko'ra tuzilgan davlat tibbiy komissiyasi xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda o'n kun muddat ichida palatalarning qo'shma favqulodda yig'ilishida deputatlar, senatorlar orasidan uch oygacha bo'lgan muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini

vaqtincha bajaruvchi saylanadi. Bu holda uch oy muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumxalq saylovi o'tkazilishi shart.

97-modda. Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi.

XX BOB. VAZIRLAR MAHKAMASI

98-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi Hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon-

lari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ushbu Konstitutsiyaning 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga, Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

XXI BOB. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ASOSLARI

99-modda. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

100-modda. Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

- Qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- Hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- Mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- Mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish;
- Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etishni ta'minlash;
- Normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

101-modda. Mahalliy hokimiyat organlari O'zbekiston Respublikasining qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, Respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar.

Yuqori organlarning o'zlariga berilgan vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari quyi organlar ijro etishi uchun majburiydir.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolat muddati — 5-yil.

102-modda. Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Viloyat hokimlari va Toshkent shahri hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo'ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

103-modda. Viloyat, tuman va shahar hokimlari o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asoslarida amalga oshiradilar va o'zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardirlar.

Hokimlarning va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining faoliyatini tashkil qilish, ularning vakolat doirasini va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini saylash tartibi qonun bilan belgilanadi.

104-modda. Hokim o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi.

105-modda. Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga rais (oqsoqol)ni va uning maslahatchilarini saylaydi.

O'zini-o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

XXII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SUD HOKIMIYATI

106-modda. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

107-modda. O'zbekiston Respublikasida sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo'jalik sudlaridan iborat.

Sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

108-modda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi.

Konstitutsiyaviy sud siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan — Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o'rinbosari va sudyalardan, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilidan iborat tarkibda saylanadi.

Konstitutsiyaviy sudning raisi va a'zolari deputat bo'la olmaydilar.

Konstitutsiyaviy sudning raisi va a'zolari siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'lishlari va boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari daxlsizlik huquqidan foydalanadilar.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqildirlar va faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'ysunadilar.

109-modda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi:

1) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, Hukumatning va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

3) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Ular qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

110-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi.

U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va O'zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyatlar, shaharlar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

111-modda. Mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtasidagi, shuningdek, tadbirkorlar o'rtasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish

jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini hal etish Oliy xo'jalik sudi va xo'jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

112-modda. Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi.

Sudyalar senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.

Sudyalar siyosiy partiyalarning a'zosi bo'lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek, ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Sudya vakolat muddati tugagunga qadar sudyalik vazifasidan qonunda ko'rsatilgan asoslar bo'lgandagina ozod etilishi mumkin.

113-modda. Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi.

114-modda. Sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

115-modda. O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

116-modda. Ayblanuvchi himoyalaniish huquqi bilan ta'minlanadi.

Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam

berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi qonun bilan belgilanadi.

XXIII BOB. SAYLOV TIZIMI

117-modda. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning Konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda — dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so'ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq davlat hokimiyati vakillik organining deputati bo'lishi mumkin emas.

Saylov o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

XXIV BOB. PROKURATURA

118-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniqligi va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekis-

ton Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

119-modda. Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori boshchilik qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Prokurori O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining oliy vakillik organi tomonidan tayinlanadi.

Viloyatlarning prokurorlari, tuman va shahar prokurorlari O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Prokurorining, viloyat, tuman va shahar prokurorlarining vakolat muddati — besh yil.

120-modda. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshiradilar.

Prokurorlar o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'xtatib turadilar.

Prokuratura organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

121-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo'linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi.

Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko'rsatishlari mumkin.

XXV BOB. MOLIIYA VA KREDIT

122-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z moliya va pul-kredit tizimiga ega.

O'zbekistonning davlat budjeti Respublika budjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan iborat.

123-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli.

124-modda. O'zbekiston Respublikasining bank tizimini Respublika Markaziy banki boshqaradi.

XXVI BOB. MUDOFAA VA XAVFSIZLIK

125-modda. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi.

Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.

126-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlariga ega.

OLTINCHI BO'LIM.

KONSTITUTSIYAGA O'ZGARTIRISH KIRITISH TARTIBI

127-modda. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun yoki O'zbekiston Respublikasining referendumini bilan kiritiladi.

128-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy mobaynida Konstitutsiyaga o'zgartirishlar hamda tuzatishlar kiritish to'g'risida keng va har taraflama muhokamani hisobga olgan holda qonun qabul qilishi mumkin. Agar Oliy Majlis Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o'tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMOYISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI O'RGANISHNI TASHKIL ETISH TO'G'RIDA 4-YANVAR 2001-YIL

Hayotimizning asosiy Qonuni bo'lmish O'zbekiston Konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'nomazmuni va mohiyatini o'rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalash hamda yuksaltirish, shuningdek, Konstitutsiyani bilish, uning mazmun-mohiyatini targ'ib va tashviq qilish maqsadida:

1. O'zbekiston Konstitutsiyasi bo'yicha bolalar va o'quvchilarda mustahkam bilimlarni shakllantirish hamda Konstitutsiya mohiyatini keng omma ongiga singdirishga qaratilgan Konstitutsiyani o'rganish dasturini yaratish, uning asosida maxsus o'quv kurslarini ishlab chiqish va tegishli metodikalarni tayyorlash bo'yicha komissiya tasdiqlansin.

Komissiyaga ta'lim turlari bo'yicha mutaxassislardan iborat ekspert guruhlarini tashkil etishga ruxsat berilsin.

2. Komissiya Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Davlat matbuot qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi bilan birgalikda:

— Bir oy muddatda ta'limning barcha turlarida Konstitutsiyani o'rganish uchun zarur bo'lgan dasturlar, kurslar, metodik ko'rsatmalar va boshqa didaktik vositalarga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqsinlar;

— 2001-yil 1-aprelga qadar «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» maxsus o'quv kurslarini barcha ta'lim turlari uchun ishlab chiqsinlar va tasdiqlasinlar;

— Barcha ta'lim turlari uchun bolalar va o'quvchilarni, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, huquqiy ong va madaniyatini shakllantirishga qaratilgan Konstitutsiyani o'rganish bo'yicha darsliklar va maxsus adabiyotlarni 2001-yil 1-avgustga qadar yaratsinlar, chop etsinlar va joylarga yetkazishni tashkil etsinlar.

3. Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, ta'lim muassasalariga ega bo'lgan boshqa vazirlik va idoralar:

— 2001-yil 1-avgustga qadar «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» kurslari bo'yicha maktabgacha ta'lim turidagi tarbiyachi va metodistlar, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim va oliy ta'lim turlarida dars beruvchi professor-o'qituvchilarni tayyorlasinlar;

— 2001-2002 o'quv yilidan boshlab maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» kurslarini o'qitishga kirishsinlar;

— Kurs mazmunining sifatli o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida uning yakuni bo'yicha o'quvchi va talabalar orasida kollokvium va sinovlar o'tkazsinlar.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Respublika Ma'naviyat-ma'rifat kengashi, Respublika «Mahalla» jamg'armasi, tegishli jamoat tashkilotlari Konstitutsiyani o'rganish dasturi asosida o'quv-uslubiy, ilmiy-ommabop va boshqa vositalar yordamida, mutaxassislarni keng jalb qilgan holda fuqarolar o'rtasida Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati, uning o'rni va ahamiyati bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borsinlar, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish uchun zarur chora-tadbirlar belgilasinlar va amalga oshirilishini ta'minlasinlar.

5. O'zteleradiokompaniyasi, Milliy axborot agentligi, «Tasviriy oyina» uyushmasi ommaviy axborot vositalarida mazkur masala bo'yicha doimiy ruknlar turkumi, teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar hamda tasviriy vositalar tashkil etsinlar.

6. Mazkur Farmoyishning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari H.Karomatov zimmasiga yuklansin.

I.KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

KONSTITUTSIYANI O'RGANISH BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. «Konstitutsiya» so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

- a) Konstitutsiya lotincha «constitution» so'zidan olingan bo'lib, «o'rnataman» degan ma'noni bildiradi;
- b) Konstitutsiya grekcha «constitution» so'zidan olingan bo'lib, «ta'sis etaman» degan ma'noni bildiradi;
- d) Konstitutsiya grekcha «constitution» so'zidan olingan bo'lib, «belgilayman» degan ma'noni bildiradi;
- e) B,D javoblar to'g'ri;
- f) Konstitutsiya lotincha «constitution» so'zidan olingan bo'lib, «taqiqlash» degan ma'noni bildiradi.

2. Respublika Oliy Majlisi qonunchilik palatasi majlisida bojxona, valuta va kredit masalalarini qonuniy tartibga solish muhokama qilindi. Qonun loyihalarini ko'rib chiqishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo'mita va komissiyalar vakillari, deputatlar so'zga chiqdi. Keyinchalik Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida qabul qilingan Prezident farmonlari tasdiqlandi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisi tanaffuslarida deputatlar fikr almashishdi va jurnalistlarga intervu berdilar. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlislaridagi qaysi munosabatlar Konstitutsiyaviy huquqning predmetini tashkil qilmaydi?

- a) Oliy Majlis qonunchilik palatasi va komissiyalari vakillari o'rtasidagi munosabatlar;
- b) Oliy Majlis qonunchilik palatasi va deputatlar o'rtasidagi munosabatlar;
- d) Deputatlar bilan jurnalistlar o'rtasidagi munosabatlar;
- e) Prezident farmonlarining tasdiqlanishi;
- f) Bojxona, kredit, valuta masalalarini qonuniy tartibga solish.

3. Kim yoki qaysi organ referendum o'tkazish tashabbusi huquqiga ega?

- a) Respublika Vazirlar Mahkamasi;
- b) Respublika fuqarosi;
- d) Respublika Oliy Majlisi Senati;
- e) Markaziy saylov komissiyasi raisi;
- f) A,B,D.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov qachon o'tkaziladi?

- a) 1 oy mobaynida;
- b) 2 oy mobaynida;
- d) 3 oy mobaynida;
- e) 6 oy mobaynida;
- f) 5 oy mobaynida.

5. O'zbekiston Respublikasida Prezident saylovi hamda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov muddatlari bir paytga to'g'ri kelib qolgan taqdirda qanday yo'l tutiladi?

- a) Davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolat muddati bir yilga uzaytiriladi;
- b) Prezident vakolat muddati bir yilga uzaytiriladi;
- d) Markaziy saylov kompaniyasi bu masalani hal qiladi;
- e) Konstitutsiyaviy sud bu masalani hal qiladi;
- f) To'g'ri javob yo'q.

6. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining kamida necha nafar a'zosi fraksiya yoki deputatlar guruhini tuzishi mumkin?

- a) 1 ta;
- b) 10 ta;
- d) 9 ta;
- e) 5 ta;
- f) 15 ta.

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qonun qachon qabul qilingan?

- a) 2002-yil 4-aprel;
- b) 2002-yil 12-dekabr;
- d) 2003-yil 29-avgust;
- e) 2003-yil 30-avgust;
- f) 2002-yil 10-dekabr.

8. O'zbekiston Respublikasida qaysi saylov komissiyasi vakil-organining vakolat muddatiga saylanadi?

- a) Uchastka saylov komissiyasi;
- b) Okrug saylov komissiyasi;
- d) Markaziy saylov komissiyasi;
- e) Doimiy komissiya;
- f) Mandat komissiyasi.

9. O'zbekiston Respublikasi fuqorasi K. Afg'oniston fuqarosiga turmushga chiqib uning vataniga doimiy yashash uchun ketdi. Ammo farzand ko'rish chog'ida u O'zbekistonga keldi. Tug'ilgan farzand qaysi davlat fuqarosi bo'ladi?

- a) O'zbekiston fuqarosi;
- b) Afg'oniston fuqarosi;
- d) Fuqarolikka ega bo'lmagan shaxs;
- e) Otasi yoki onasining roziligi bilan belgilanadi;
- f) Faqat onasining roziligi bilan belgilanadi.

10. O'zbekistonda ta'lim olayotgan chet ellik talaba O'zbekiston fuqarosini farzandlikka oldi. O'qish muddati tugagach u o'z vataniga qaytib ketdi. Bolaning fuqaroligi qanday belgilanadi?

- a) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi saqlanadi;
- b) Bola qilib olgan ota-onasining fuqaroligiga o'tadi;
- d) Fuqarolikka ega bo'lmagan shaxs maqomini oladi;
- e) Balog'at yoshiga yetgandan so'ng uning roziligi so'raladi;
- f) Bolaning qarindoshlari roziligi bilan belgilanadi.

11. Chet el fuqarolari va fuqarolikka ega bo'lmagan shaxslar qanday huquq va erkinliklardan foydalanmaydi?

- a) Shaxsiy huquqlar va erkinliklar;
- b) Siyosiy huquqlar va erkinliklar;
- d) Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar;
- e) Burch va majburiyatlardan;
- f) Shaxsiy va siyosiy huquqlardan.

12. O'zbek millatiga mansub bo'lgan chet el fuqarosi O'zbekiston elchixonasiga uni O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilishni iltimos qilib ariza bilan murojaat qildi. Bu masalani kim hal qiladi?

- a) O'zbekiston Respublikasi elchixonasi;
- b) O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri;
- d) Respublika Prezidenti;
- e) O'zbekiston IIV;
- f) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.

13. O'zbekiston Respublikasida qanday jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi?

- a) Faxriylar va yoshlar tashkilotlari;
- b) Ijodiy uyushmalar;
- d) Diniy jamiyatlar va uyushmalar;
- e) Siyosiy partiyalar;
- f) Diniy partiyalar.

14. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va mulkchilik haqidagi qonunda qanday mulk shakllari ilk bora mustahkamlangan?

- a) Davlat;
- b) Aralash;
- d) Xususiy;
- e) Shaxsiy;
- f) Jamoa.

15. Toshkent viloyatida joylashgan tumanga bo'ysunuvchi B. shahri viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar qatoriga o'tkazildi. O'zbekistonning qaysi davlat organi bu masalani hal qiladi?

- a) Viloyat hokimi;
- b) Respublika Prezidenti;
- d) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi;
- e) Oliy Majlis Senati;
- f) Oliy Majlis palatalari.

16. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasiga muvofiq suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qanday hujjatlar asosida tartibga solinadi?

- a) Deklaratsiyalar bilan;
- b) Shartnomalar bilan;
- d) Qarorlar bilan;
- e) Qonunlar bilan;
- f) Bayonotlar bilan.

17. Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi qay tartibda hal qilinadi?

- a) Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchilik organi qarori asosida;
- b) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengesi qarori bilan;
- d) O'zbekiston Respublikasi xalqining roziligi bilan;
- e) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori asosida;
- f) Qoraqalpog'iston xalqining umumiy referendumini asosida.

18. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi nizolar qanday hal qilinadi?

- a) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan;
- b) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan;

- d) Murosaga keltiruvchi vositalar yordamida;
- e) Juqorg'i Kengesi va Oliy Majlis tomonidan;
- f) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan.

19. O'zbekiston fuqarosi necha yoshdan Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga deputat bo'lib saylanishi mumkin?

- a) 18 yoshdan;
- b) 21 yoshdan;
- d) 25 yoshdan;
- e) 23 yoshdan;
- f) 20 yoshdan.

20. Fuqaro M. saylovchilar ro'yxatida o'z familiyasining noto'g'ri yozilganligini bilib qoldi. Saylovchi qaysi organga murojaat qilishi kerak?

- a) Hokimlikka;
- b) Sudga;
- d) Uchastka saylov komissiyasiga;
- e) Okrug saylov komissiyasiga;
- f) Markaziy saylov komissiyasiga.

21. «Konstitutsiyaviy huquq» va «Davlat huquqi» atamalaridagi o'zaro aloqadorlik nimada?

- a) «Konstitutsiyaviy huquq» «Davlat huquqi»ga nisbatan keng tushuncha;
- b) «Davlat huquqi» va «Konstitutsiyaviy huquq»ga nisbatan keng tushuncha;
- d) Ular bir-biridan butunlay boshqa-boshqa tushunchalar;
- e) Shaklan har xil, lekin mazmuni bir xil. Sinonimlar;
- f) Sinonimlar. Ammo, ularning farqi hajmida.

22. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga birinchi marta qachon o'zgartirish kiritilgan?

- a) 1993-yil 28-dekabr;
- b) 1991-yil 23-fevral;
- d) 1992-yil 5-avgust;
- e) 1992-yil 10-dekabr;
- f) 1999-yil 30-avgust.

23. Konstitutsiyaga tuzatish va o'zgartirish kirituvchi huquqiy normalar qanday nomlanadi?

- a) Oddiy qonun;

- b) Ordinar qonunlar;
- d) Organik qonunlar;
- e) Konstitutsiyaviy qonunlar;
- f) Asosiy qonunlar.

24. Sud pretsedenti o'zida nimani aks ettiradi?

- a) Ko'rib chiqilishida majburiy deb qabul qilingan keyingi analogik, aniq ishlar bo'yicha sud qarori;
- b) Ko'rib chiqilishida majburiy deb tan olingan yoki keyingi analogik shlarni ko'rib chiqishda foydalanish mumkin bo'lgan, aniq bir ish bo'yicha sud qarori;
- d) Sudning ba'zi ishlar bo'yicha qarori;
- e) Parlament pretsedenti;
- f) To'g'ri javob yo'q.

25. O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risidagi farmon qachon qabul qilindi?

- a) 2005-yil 1-avgust;
- b) 2004-yil 3-noyabr;
- d) 2003-yil 29-avgust;
- e) 2005-yil 10-avgust;
- f) 2005-yil 3-sentabr.

26. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati nechta senatordan iborat?

- a) 120 ta;
- b) 100 ta;
- d) 220 ta;
- e) 84 ta;
- f) To'g'ri javob yo'q.

27. XVIII asr oxirlarida Konstitutsiya yaratishdan asosiy maqsad nima edi?

- a) Davlat tuzilishini aniqlab beradigan asosiy qonun zarur edi;
- b) Davlatning asosiy siyosatini aniqlab beradigan asosiy qonun zarur edi;
- d) Tashqi dushmanlardan himoyalash uchun;
- e) Insonlarning ozodligi va xavfsizligini ta'minlaydigan, davlat hokimiyati o'zboshimchaligidan ularni himoya qila oladigan asosiy qonun zarur edi;
- f) Butun davlat ozodligi va xavfsizligini ta'minlaydigan asosiy qonun zarur edi.

28. Respublikamiz Konstitutsiyasiga birinchi o'zgartirish qachon kiritildi?

- a) 1993-yil 28-dekabr;
- b) 1994-yil 5-may;
- d) 2003-yil 24-aprel;
- e) 2002-yil 27-yanvar;
- f) To'g'ri javob yo'q.

29. Kodifikatsiya qilinmagan Konstitutsiyalar misoliga qaysi davlatlar Konstitutsiyalari kiradi?

- a) AQSH, Fransiya;
- b) Italiya, Ispaniya;
- d) Isroil, Angliya;
- e) Shvetsiya, Finlandiya;
- f) Isroil, Shvetsiya.

30. Angliya Konstitutsiyasining yozilmagan qismi qaysilar?

- a) Sud qarorlari, doktrinalar;
- b) Sud qarorlari va huquqiy urf-odatlar;
- d) Sud qarorlari, doktrina va statuslar;
- e) Sud qarorlari, doktrina va huquqiy odatlar;
- f) Doktrinalar, statutlar, huquqiy odatlar.

31. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida qanday hujjatlar qabul qilinadi?

- a) Buyruq, qaror, qonun, Konstitutsiyaviy Qonun, Konstitutsiya;
- b) Qonun, bayonnoma, farmon, nizom va Konstitutsiya;
- d) Bayonnomalar, qarorlar, buyruqlar, deklaratsiyalar, qonunlar;
- e) Qaror, deklaratsiya, qonun, Konstitutsiya, nizom, Konstitutsiyaviy qonunlar;
- f) Deklaratsiya, shartnoma, bitimlar, farmon va farmoyishlar.

32. Qaysi davlatning Konstitutsiyasini oddiy qonun qabul qilish yo'li bilan o'zgartirsa bo'ladi?

- a) AQSH;
- b) Fransiya;
- d) Rossiya;
- e) Germaniya;
- f) To'g'ri javob yo'q.

33. Qaysi davlatda Konstitutsiyaviy nazorat instituti mavjud emas?

- a) Germaniyada;
- b) Fransiya;

- d) AQSHda;
- e) Buyuk Britaniyada;
- f) Italiyada.

34. Mehnat qanday munosabatlar guruhiga kiradi?

- a) Ijtimoiy;
- b) Iqtisodiy;
- d) Siyosiy;
- e) Ma'naviy-madaniy;
- f) Huquqiy.

35. Hokimlarning vakolat muddati qancha?

- a) 2 yil;
- b) 3 yil;
- d) 4 yil;
- e) 5 yil;
- f) muddat belgilanmaydi.

36. Mahalliy Kengashlar birinchi sessiyasini kim ochadi?

- a) Hokim;
- b) Saylov komissiyasi raisi;
- d) Eng yoshi ulug' deputat;
- e) Hokim o'rinbosari;
- f) To'g'ri javob yo'q.

37. Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar ifodalanishining asosiy usullari qaysi?

- a) Ijobiy va cheklovchi;
- b) To'liq va to'liq bo'lmagan;
- d) Moddiy va tadbiriy;
- e) Ijobiy tomon va salbiy tomon;
- f) Yaxshi va yomon.

38. Konstitutsioanalizmning 1789-yildagi «Inson va fuqaro huquqlari Fransiya (fransuz) deklaratsiyasi»da aks ettirilgan ikkita asosi qaysilar?

- a) Hokimiyat taqsimlanishi xalq suvereniteti;
- b) Davlat suvereniteti va xalq suvereniteti;
- d) Hokimiyatning bo'linishi va qonun ustuvorligi;
- e) Hokimiyatning bo'linishi va huquqlardan foydalanishni ta'minlash;
- f) Huquqlardan foydalanishni ta'minlash, davlat suvereniteti.

39. Fuqarolikka tiklash naturalizatsiyadan nimasi bilan farqlanadi?

a) Farqi yo'q;

b) Qayta tiklash muammosining ancha qisqartirilgan tartibda hal qilinishi;

d) Qayta tiklash manfaatdor shaxs tomonidan bo'lgan sa'y-harakat bilan amalga oshiriladi;

e) Naturalizatsiya qonunda belgilangan holatlarda amalga oshiriladi;

f) Barcha javoblar to'g'ri.

40. O'z fuqarosini yoki chet el fuqarosini boshqa bir davlatga tutib berish qanday ataladi?

a) Ekpatriatsiya;

b) Yex tune;

d) Yex nune;

e) Ekstraditsiya;

f) Barcha javoblar to'g'ri.

41. Fuqarolarning huquq va burchlarini ta'minlashda iqtisodiy va moddiy kafolat qanday ifodalanadi?

a) Mehnatga adolatli ish haqi miqdorini davlat tomonidan belgilab qo'yilganligi;

b) Kam ta'minlangan oilalarning davlat tomonidan moddiy muhofaza etilishi;

d) Mulklarning teng huquqligining davlat tomonidan muhofaza etilishi;

e) Urush va mehnat nogironlariga davlat tomonidan imtiyozlar berib nafaqalar belgilanadi;

f) a, b, d, e javoblar to'g'ri.

42. Senat faoliyatining tashkiliy shakli qanday nomlanadi?

a) Majlis;

b) Sessiya;

d) Yig'in;

e) Qurultoy;

f) Syezd.

43. Senat, uning organlari va mansabdor shaxslari faoliyatining tartibi qaysi hujjatda belgilanadi?

a) Qonunlarda ;

b) Konstitutsiyada;

- d) Senat Reglamentida;
- e) Yo'riqnomalarda;
- f) d, e javoblar to'g'ri.

44. O'zbekiston fuqaroligini yo'qotgan shaxs Respublika fuqaroligiga tiklanishi mumkinmi?

- a) Ha;
- b) Yo'q;
- d) Agar u boshqa davlatning fuqaroligini olmagan bo'lsa;
- e) 5 yil Respublikada yashagan bo'lsa;
- f) Respublikada qo'shma korxona ochgan bo'lsa.

45. Mahalla oqsoqollarining vakolat muddati qancha?

- a) 2 yil 6 oy;
- b) 3 yil;
- d) 5 yil;
- e) 1 yil;
- f) to'g'ri javob yo'q.

46. O'zbekiston Respublikasida Bosh vazir kim hisoblanadi?

- a) Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qiladi;
- b) Ijro hokimiyati boshlig'i;
- d) Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi;
- e) Prezidentning vakili;
- f) A va D javoblar to'g'ri.

47. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qanday vakolatlarga ega?

- a) Davlat boshlig'i;
- b) Ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i;
- d) Vazirlar Mahkamasi majlislariga raislik qiladi;
- e) O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining Bosh qo'mondoni;
- f) Barcha javoblar to'g'ri.

48. Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?

- a) Kengashib ishlash;
- b) Demokratizm va ijtimoiy adolat;
- d) Qonuniylik;
- e) Demokratik sentralizm;
- f) a, b, d javoblar to'g'ri.

49. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlanmagan tashqi siyosatning asosiy prinsiplarini ko'rsating.

- a) Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid solmaslik;
- b) Chegaralar daxlsizligi;
- d) Nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish;
- e) Hamkorlik ;
- f) Barcha javoblar to'g'ri.

50. O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari qaysi hujjatlarda belgilangan burchlarni ado etadilar?

- a) Konstitutsiya va qonunlarda;
- b) Xalqaro shartnomalar bilan belgilangan;
- d) Chet el qonunlari bo'yicha;
- e) a, b javoblar to'g'ri;
- f) a, d javoblar to'g'ri.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: «O'zbekiston», 2003.
2. Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir. — T.: «O'zbekiston», 2005, 96-b.
3. Karimov I. A. Yangicha hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2005- yil 18-fevral.
4. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. — T.: «O'zbekiston», 1996, 364-b.
5. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. — T.: «O'zbekiston», 1996, 380-b.
6. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. — T.: «O'zbekiston», 1996, 338-b.
7. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. — T.: «O'zbekiston», 1996, 349-b.
8. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5. — T.: «O'zbekiston», 1997, 384-b.
9. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. — T.: «O'zbekiston», 1998, 429-b.
10. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. — T.: «O'zbekiston», 1999, 4-b.
11. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. — T.: «O'zbekiston», 2000, 528-b.
12. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. — T.: «O'zbekiston», 2001, 432-b.
13. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. — T.: «O'zbekiston», 2002, 432-b.
14. Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11 — T.: «O'zbekiston», 2003, 320-b.
15. Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. — T.: «O'zbekiston», 2004, 400-b.
16. Karimov I. A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. — T.: «O'zbekiston», NMIU, 2005, 64-b.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi Farmoni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2-avgust 2005-yil.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi Farmoni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 9-avgust 2005-yil.
19. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. — T.: «Adolat», 1999.
20. 1966-yil 19-dekabrda «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt». — T.: 1996.
21. «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 2-aprel 2002-yil 350-II-son Konstitutsiyaviy qonuni.
22. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 12-dekabr 2002- yil 432-II-son Konstitutsiyaviy qonuni.
23. «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi 29-avgust 2003-yil 520-II-son qonuni.
24. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 29-avgust 2003-yil 522-II-son qonuni.
25. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 29-avgust 2003-yil 523-II-son qonuni.
26. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida» (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 2003-yil 29-avgust 990-XII-son qonuni.
27. «Jamoat fondlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 29-avgust 2003-yil 527-II-son qonuni.
28. «Bank siri to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 30-avgust 2003- yil 530-II-son qonuni.
29. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi 29-avgust 2003- yil 524-II-son qonuni.
30. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi 29-avgust 2003- yil 518-II-son qonuni.
31. «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 25-aprel 2003-yil 478-II-son qonuni.

32. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 24-aprel 2003- yil qonuni.
33. «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi 13-dekabr 2002- yil 444-II-sonli qonuni.
34. «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi 13-dekabr 2002- yil 446-II-son qonuni.
35. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 12-dekabr 2002- yil 434-II-son qonuni.
36. «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 12-dekabr 2002-yil 439-II-sonli qonuni.
37. «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 12-dekabr 2002-yil 436-II-sonli qonuni.
38. «O'zbekiston Respublikasi Referendumi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi 2001- yil 30- avgust 265-II-son qonuni.
39. «Prokuratura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi 2001- yil 29- avgust 257-II-son qonuni.
40. «Mudofaa to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi 11-may 2001-yil 211-II-son qonuni.
41. «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 15-dekabr 2000-yil 167-II-son qonuni.
42. «Budjet tizimi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 14-dekabr 2000-yil 158-II-son qonuni.
43. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 25-may 2000-yil 69-II-son qonuni.
44. «O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 20-avgust 1999-yil 820-I-son qonuni.
45. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va

- qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi 1-may 1998- yil 618-I-son qonuni.
46. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 30-aprel 1998- yil 613-I-son qonuni.
 47. «O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 30-aprel 1998-yil 607-I-son qonuni.
 48. «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 26-dekabr 1997- yil 541-I-son qonuni.
 49. «O'zbekiston Respublikasi qonunlarini tayyorlash to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 30-avgust 1997-yil 481-I-son qonuni.
 50. «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 24-aprel 1997- yil 400-I-son qonuni.
 51. «Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 24-aprel 1997-yil qonuni.
 52. «Advokatura to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 27-dekabr 1996-yil 349-I-son qonuni.
 53. «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 26-dekabr 1996-yil 336-I-son qonuni.
 54. «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 30-avgust 1996 yil 276-I-son qonuni.
 55. «O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi» O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 20-avgust 1996-yil 261-I-son qonuni bilan tasdiqlangan.
 56. «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 25-aprel 1996-yil qonuni.
 57. «Davlat mukofotlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 22-dekabr 1995-yil 176-I-son qonuni.
 58. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 21-dekabr 1995-yil 154-I-son qonuni.
 59. «Davlat tili haqida» (yangi tahrirda) O'zbekiston Respublikasi 21-dekabr 1995-yil 167-I-son qonuni.
 60. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 30-avgust 1995-yil 103-I-sonli qonuni.

61. «Bankrotlik to'g'risida» (yangi tahrirda) O'zbekiston Respublikasi 24-aprel 2003-yil 474-II-son qonuni.
62. «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 5-may 1994-yil 1050-XII-son qonuni.
63. «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 5-may 1994-yil 1050-XII-son qonuni.
64. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 2-sentabr 1993-yil 913-XII-son qonuni.
65. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida» (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 6-may 1993-yil 818-XII-son qonuni.
66. «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 10-dekabr 1992-yil 768-XII-son qonuni.
67. «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 9-dekabr 1992-yil 754-XII-son qonuni.
68. «Prokuratura to'g'risida (yangi tahrir) O'zbekiston Respublikasi 2001-yil 29-avgust 746-XII-son qonuni.
69. «O'zbekiston Respublikasi Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 3-iyul 1992-yil 664-XII-son qonuni.
70. «Mudofaa to'g'risida» (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 3-iyul 1992-yil 641-XII-son qonuni.
71. «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 3-iyul 1992-yil 644-XII-son qonuni.
72. «O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 2-iyul 1992-yil 616-XII-son qonuni.
73. «O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 18-noyabr 1991- yil 407-XII-son qonuni.
74. «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 18-noyabr 1991- yil 414-XII-son qonuni.
75. «O'zbekiston Respublikasi Referendumi to'g'risida» (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 2001-yil 30-avgust 417-XII-qonuni.
76. «O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 31-avgust 1991- yil 336-XII-son qonuni.

77. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 1998- yil 1- may qonuni.
78. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida» (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 2000-yil 285-XII-son qonuni.
79. Адилкариев Х. Т. Законотворческий процесс в Республике Узбекистан: вопросы теории и практики. — Т.: 1995.
80. Азизходжаев А. А. Проблемы правоохранительной деятельности местных Советов. — Т.: «Узбекистан», 1990.
81. Баглай М. В. Конституционное право Российской Федерации. Учебник для юридических вузов и факультетов. — М.: Издательская группа НОРМА ИНФРА. М., 1998, 752- стр.
82. Qayumov R. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. — Т.: IIV Akademiyasi, 1997, 400-b.
83. Tojixonov U., Saidov A.X. Jahon Konstitutsiyalari. 1-jild. — Т.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001.
84. Исламов З. М. Общество, государство, право. — Т.: «Адолат», 1997.
85. Комментарии к Конституции Республики Узбекистан. — Т.: «Адолат», Академия МВД Республики Узбекистан, 1997, 384-стр.
86. Конституционное право России: схемы, комментарии. Учебное пособие. — М.: Юриспруденция, 1999, 64- стр.
87. Конституция Республики Каракалпакстан. Принята 9 апреля 1993 года на двенадцатой сессии Верховного Совета Республики Каракалпакстан двенадцатого созыва. — Нукус: «Каракалпакстан», 1993, 112-стр.
88. Azizxo'jaev A., Husanov O., Azizov X. Konstitutsiyaviy huquq. Izohli lug'at. — Т.: «Akademiya», 2001, 160-b.
89. Права человека: Единство общечеловеческого и национального: Сб. Международных договоров и Законов Республики Узбекистан. Т. 1. — Т.: «Шарқ», 1995, 480-стр.
90. Права человека: Единство общечеловеческого и национального: Сб. Международных договоров и Законов Республики Узбекистан. Т.2. — Т.: «Шарқ», 1995, 400- стр.
91. Республика Узбекистан: Энциклопедический справочник. — Т.: Гос.науч.изд-во «Узбекистон миллий энциклопедияси», 2001, 448- стр.

92. Саидов А. Х. Избирательное право в Республике Узбекистан: вопросы реформы, законодательство и зарубежный опыт. Т.: «Узбекистан», 1993.
93. Стрекозов В. Г., Казанчев Ю. Д. Конституционное право России. Учебник. — М.: «Новый юрист», 1997, 288- стр.
94. Tulyaganov A. T. Davlat hokimiyatini vakillik va o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini tashkil etish. — T.: «Universitet», 1996, 175-b.
95. Узбекистан и международные договора по правам человека. — Т.: «Адолат», 1998.
96. Уразаев Ш. З. Власть и закон. — Т.: «Фан», 1991.
97. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursi. Magistraturaning noyuridik ixtisosliklari uchun o'quv qo'llanma. — T.: «O'zbekiston», 2001, 239-b.
98. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Bakalavriatning noyuridik yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma. — T.: «O'zbekiston», 2001, 463-b.
99. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi faniga sxemali o'quv-metodik qo'llanma. — T.: «Sharq», 2001, 128-b.
100. Хусанов О. Т. Конституция Республики Узбекистан и основы государственной власти на местах: правовые, организационные вопросы и проблемы. — Т.: 1995.
101. Husanov O. T. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat. — T.: «Sharq», 1996.
102. Husanov O. T. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida» va «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi qonunlariga sharhlar. — T.: «Adolat», 1997, 80- b.
103. Husanov O. T. O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati vakillik va ijroiya hokimiyati organlari. — T.: «Universitet», 1994.
104. Husanov O.T. O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat Hokimiyati to'g'risidagi qonuni. — T.: «Adolat», 1995, 92-b.
105. Якубова Д.Ш. Организационно правовые вопросы деятельности местных Советов народных депутатов по реализации государственной молодежной политики. — М.: 1991.

106. Azizxo'jaev A. A. Demokratiya — xalq hokimiyati demakdir. — T.: «Sharq», 1996, 226-b.
107. Законодательная техника. — Л.: Изд. Ленинградского университета, 1965, 143-стр.
108. Odilqoriev X. T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. — T.: «O'zbekiston», 1995, 208-b.
109. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. — T.: «O'zbekiston», 1995, 304-b.
110. Xalilov E. Saylov to'g'risidagi O'zbekiston qonunlarining qaror topishi va rivojlanishi. Oliy Majlis shakllanishining huquqiy asoslari. — T.: «O'zbekiston», 1999, 96-b.
111. Husanov O. T. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari. — T.: «Sharq», 1996, 766-b.
112. Халилов Э. Х. Основные приоритеты Парламента Узбекистана на пороге и в начале XXI века. // Хукук-Право-Таш. 2000, №2, 3-8-стр.
113. Xalilov E. X. O'zbekistonda Parlamentarizm maktabining ilk saboqlari. // Qonun himoyasida, 2000, № 8, 3-8-6.
114. Ismoilov N., Hotamov U., Rahmonov A., Ro'zmetov X. «O'zbekiston Respublikasi Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishning asosiy prinsiplari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonuniga sharhlar. — T.: TDYUI, 2002.
115. Husanov O. T. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari. — T.: «Sharq», 1996, 766-b.
116. Политические партии и движения в Узбекистане — T.: 1999, 24-стр.
117. <http://2004.press-service.uz/rus/konstitutsiya/konstitutsiya.htm>
118. <http://2004.press-service.uz/rus/prensa/p12032001.htm>
119. <http://2004.press-service.uz/rus/rechi/rechi.htm>
120. <http://2004.press-service.uz/rus/russian.html>
121. <http://4uth.gov.ua/usa/russian/government/ch1.htm>
122. www.search.uz/uzbekistan/constitution/constitutionlaw_one.php
123. <http://search.j5.ru/tov/osnovi-konstitutsionnogo-prava-rf-uchebnoe-posobie>

Soʻz boshi	3
------------------	---

BIRINCHI BOʻLIM

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI—
DAVLATNING ASOSIY QONUNI

I BOB	Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini oʻrganish kursining maqsadi va vazifalari	
1-§.	Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini oʻrganish kursining tushunchasi va predmeti	5
2-§.	Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini oʻrganish kursining metodologik asoslari	7
3-§.	Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini oʻrganish kursining manbalari	7
4-§.	Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini oʻrganish kursining vazifasi	9
II BOB	Konstitutsiya tushunchasi va mohiyati	
1-§.	Konstitutsiya tushunchasi, mohiyati va belgilari	10
2-§.	Konstitutsiya — davlatning asosiy qonuni sifatida	14
3-§.	Konstitutsiyalarning funksiyalari	15
4-§.	Konstitutsiya shakllari	16
5-§.	Konstitutsiyani qabul qilishning asosiy xususiyatlari	19
6-§.	Konstitutsiya turlari	21
7-§.	Konstitutsiyani oʻzgartirish tartibi	24
III BOB	Mustaqil Oʻzbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilishga taʼsir etgan omillar	
1-§.	Mustaqil Oʻzbekiston Konstitutsiyasini qabul qilishning tarixiy zarurati	27
2-§.	Mustaqil Oʻzbekiston Konstitutsiyasining asosiy gʻoyalari va uning demokratik xususiyatlari	30
3-§.	Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi	34
4-§.	Islom Karimov — Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratuvchisi va tashabbuskori	35

IKKINCHI BO'LIM

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY TUZUMINING ASOSIY TAMOIYILLARI

IV BOB	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy tamoyillari	
1-§.	Suverenitet tushunchasi va uning turlari	40
2-§.	O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining huquqiy asoslari	42
3-§.	O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari: bayroq, madhiya va gerb	47
4-§.	Xalq hokimiyatchiligi — davlat hokimiyatini amalga oshirishning asosiy tamoyili sifatida	52
5-§.	Xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishning asosiy shakllari: bevosita va vakillik demokratiyasi	64
6-§.	O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi. Konstitutsiya normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi	66
7-§.	O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektii	72
8-§.	O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari	79

UCHINCHI BO'LIM

INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA BURCHLARI

V BOB	Inson va fuqaro huquq va erkinliklari hamda burchlarining Konstitutsiyaviy asoslari	
1-§.	Inson huquqlarining xalqaro-huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari tushunchasi va ularning turkumlanishi	90
2-§.	Fuqarolik tushunchasi. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik	93
3-§.	Shaxsiy huquq va erkinliklarning Konstitutsiyaviy asoslari	97
4-§.	Fuqarolarning siyosiy huquqlari va demokratik erkinliklari	108

5-§.	Iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarning Konstitutsiyaviy asoslari	113
6-§.	Fuqarolarning huquq va erkinliklarining kafolatlari. Fuqarolarning burchlari	119

TO'RTINCHI BO'LIM JAMIYAT VA SHAXS

V BOB	O'zbekistonda jamiyat va shaxs munosabatlarining Konstitutsiyaviy asoslari	
1-§.	Jamiyatning iqtisodiy asoslari	129
2-§.	Mulk va uning shakllari	132
3-§.	Jamoat birlashmalari tushunchasi va tizimi	136
4-§.	Jamiyatda oilaning o'rni va uning huquqiy himoyalanganligi	141
5-§.	Siyosiy institutlar tizimida ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati	145
6-§.	Diniy tashkilotlar va birlashmalarning huquqiy maqomi	153

BESHINCHI BO'LIM O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY-HUDUDIIY VA DAVLAT TUZILISHI

VII BOB	Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi tushunchasi, shakllari va tamoyillari	
1-§.	Davlat tuzilishi tushunchasi va shakllari	157
2-§.	Ma'muriy-hududiy tuzilish prinsiplari	164
3-§.	O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini hal etish tartibi	166
4-§.	O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holati ..	172

OLTINCHI BO'LIM O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT HOKIMIYATI TASHKIL ETILISHINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

VIII BOB	Oliy majlis — O'zbekiston Respublikasining Oliy vakillik organi va qonun chiqaruvchi hokimiyat	
-----------------	---	--

1-§.	Oliy Majlisning davlat organlari tizimidagi oʻrni va ijtimoiy vazifasi	178
2-§.	Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatini shakllantirish tartibi	181
3-§.	Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining vakolatlari	184
4-§.	Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati faoliyatining tashkiliy huquqiy masalalari	191
5-§.	Qonun chiqarish jarayoni bosqichlari	202

IX BOB Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy maqomi

1-§.	Oʻzbekiston Respublikasida Prezidentlik institutining taʼsis etilishi	208
2-§.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy-huquqiy holati	210
3-§.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlar oʻtkazish tartibi va asosiy tamoyillari	213
4-§.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari ..	221
5-§.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar	232

X BOB Vazirlar Mahkamasi — Oʻzbekiston Respublikasining hukumati

1-§.	Davlat hokimiyati oliy organlari tizimida Vazirlar Mahkamasining oʻrni va roli	235
2-§.	Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shakllanish tartibi va tarkibi	237
3-§.	Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining asosiy funksiyalari	239
4-§.	Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqariladigan normativ-huquqiy hujjatlar	246

XI BOB Mahalliy davlat hokimiyati asoslari

1-§.	Davlat hokimiyati mahalliy organlarining oʻrni va ahamiyati	252
2-§.	Xalq deputatlari Kengashlari – joylardagi vakillik organi sifatida	255

3-§.	Hokim – mahalliy ijroiya va vakillik hokimiyatining rahbari sifatida	261
4-§.	Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining huquqiy holati	267

XII BOB O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining Konstitutsiyaviy asoslari

1-§.	O'zbekiston Respublikasida sud tizimining Konstitutsiyaviy asoslari	279
2-§.	Sud hokimiyatini tashkil etishning Konstitutsiyaviy-huquqiy tamoyillari	284
3-§.	O'zbekistonda sudyalarning Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi	291
4-§.	O'zbekistonda sud-huquq islohotlarining hayotiy zaruriyati	294

XIII BOB O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi

1-§.	Davlat organlari tizimida prokuraturaning o'rni	300
2-§.	O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarining asosiy yo'nalishlari va prinsiplari	303
3-§.	O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tizimi	308
4-§.	Prokuror nazorati hujjatlari	310

XIV BOB Saylov tizimi va saylov huquqi tushunchasi

1-§.	Saylov huquqi — fuqarolarning siyosiy huquqi sifatida	312
2-§.	Saylov huquqining Konstitutsiyaviy asoslari	314
3-§.	Saylov huquqi tamoyillari	318
4-§.	Saylov tizimi	320
5-§.	Saylov jarayoni va saylov organlari	324

ILOVALAR

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi	339
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi	374
Konstitutsiyani o'rganish bo'yicha test savollari	376
Foydalanilgan adabiyotlar	387